Inson hayoti va faoliyati davomida zarur bo‘lgan bilimlar sarhadi tobora kengayib borayotgan hozirgi sharoitda muayyan faktlar yig‘indisini o‘zlashtirish bilan chegaralanib qolishi uni ma’naviy qashshoqlikka olib keladi. Shuning uchun bolalarga o‘z bilimlarini mustaqil ravishda to‘ldirib va boyitib borishni, o‘zining diqqat-e'tiborini axborotlarning eng muhimlariga qaratishni o‘rgatish talab etiladi. Bu vazifa bolalarning badiiy bezash ishlarini ta’lim–tarbiya jarayoni bilan uzviy bog‘liq holda kengaytirish va rivojlantirishni taqazo etadi.

Milliy obidalardagi naqsh san’ati turlari ijodiy mehnat bilan chambarchas bog‘liq va shuning uchun bolalarda ishga ijodiy munosabatni tarkib toptiradi, ularni ma’naviy jihatdan boyitadi. Milliy obidalardagi naqsh san’ati bugungi hayotimizning turli sohalarini, har xil voqealarni to‘la qamrab olishi lozim. U davlatning tashqi va ichki siyosatini, xalqning mehnatdagi yutuqlarini, mamlakat tarixi, ilmiy, badiiy hayotidagi yangiliklarni, tabiat va boshqalarni ifodalashi kerak. Bola kunning ancha qismini maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘tkazadi. Bog‘chadagi butun muhit uni go‘zallik qonunlari asosida yashashga, hayotdagi rang-barang holatlarni ko‘ra bilishga o‘rgatishi lozim.

Bola o‘zi ta’lim olayotgan maktabgacha ta’lim muassasa binosiga, uning yonidagi hududga va sport maydonchalariga qarab, ulardagi go‘zallikni his etishi, umuman o‘quv dargohining qiyofasi unda o‘zi bilim oladigan muhit haqida ijobiy tasavvur hosil qilishi lozim. Bunda puxta o‘ylab, chiroyli qilib bezatilgan va alohida e'tibor bilan tutiladigan tabiat burchagi, did bilan ishlov berilgan yo‘lka va gulzorlar, hovli,

kiraverishdagi me’morial taxta, mehnat, kiyinish madaniyati va odob–axloq kategoriyalari kabi mavzulardagi stendlar, binoning joylashishi tasvirlangan sxema va hokazolar katta yordam beradi. Mana shularning hammasida Milliy obidalardagi naqsh uslubi ko‘zga yaqqol tashlanib turishi shart.

Milliy obidalardagi naqsh san’atining binoni bezatishdagi asosiy yo‘nalishlari o‘quv xonalarini, sport va majlislar zallarini, koridorlarni bezash, ko‘rgazmalar tashkil etish, o‘quv muassasasi teatri uchun dekoratsiya ishlash, dekorativ–amaliy san’at buyumlari yasash, plakatlar chizish, turli axborot vositalarini tayyorlash va hokazolardan iboratdir. Milliy obidalardagi naqsh san’at keng miqyosda rivojlanayotgan xalq amaliy ijodi turlaridan biridir. Unda kishining haqiqiy san’atga estetik munosabati yaqqol namoyon bo‘ladi.

Naqsh san’atining o‘ziga xos estetik jiqatlarini tushunish uchun uning mavzui, mazmuni, asardagi tiplar, badiiy taxnika vositalari diapazonining odatdan tashqari katta miqyosini nazarda tutib qarash kerak. Bu badiiy naqsh o‘ymakorligi - monumental, dastgoqli, predmetli-miqyos va turli xalqlarning milliy kiyimlari, so‘zanalar, taqinchoqlar va istirohat bog‘lari san’ati, devorlardagi monumental dekorativ rasmlar, vitrina, devoriy gazeta, tabriknomalarning bezaklari hamda mebel buyumlaridagi o‘ymakorlik va hokazolardir. Shakllari bir-biriga o‘xshamagan bu asarlarni o‘zaro biriktirib turgan jiqat ularning asosiy vazifasi - insonni qurshab turgan muhitni estetik bezashdan iboratligidadir.

Shuni ta’kidlash kerakki, naqsh san’at turlari rang–barang bo‘lsa ham, ularning ko‘pchiligi amaliy–foydali ob'ektlarga: liboslar, mebel, o‘yinchoqlar, vitrinalar, binolar va hokazolarga badiiy ishlov berish jihati bilan o‘zaro bog‘lanadi. Mana shu ma’noda naqsh–amaliy san’at deyiladi. Biroq naqsh san’atiga, yuqorida aytganimizdek, amaliy jiqatdan bevosita foydasi sezilmaydigan asarlar ham qo‘shiladi. Masalan, zargarlik buyumlari, turli taqinchoqlar, o‘ymakorlik buyumlari va boshqalar. Bularning hammasi rassomlik yoki haykaltaroshlikdan farqli o‘laroq kundalik konkret muhitda, o‘zlarining xususiyatlariga ko‘ra konkret holatda foydalanilsagina estetik ma’no kasb etadi.

Inson yashayotgan va harakat qilayotgan muhitning nafosat boyligi ana shu muhitga olib kirilgan zeb-ziynat buyumlarining soni bilangina belgilanmaydi. Muhimi shundaki, bu zeb-ziynat elementlari mazkur muhitning hayotiy sharoitiga moslashib, uning ijtimoiy mazmuniga, odamlarning amaliy va ma’naviy ehtiyojlari vujudga keltirgan talablarga nechog‘liq javob berishiga qarab baholanadi. Nafosat elementlari muhitni shunchaki bezabgina qolmasdan, balki uning badiiy obrazli mazmunini kuchaytirib, oshirib, rivojlantirib ham ko‘rsatadi. Naqsh san’at mana shu vazifasini san’atning boshqa turlari - me'morlik, rassomlik, haykaltaroshlik bilan birgalikda bajarsa, uning qimmati yanada ortadi.

Naqsh san’ati asarlari vositalarida ma’lum davr doirasida sharoitning badiiy obrazli mazmunini dinamik tarzda o‘zgartira olish mumkinligi ularning o‘ziga xos xususiyatidir. Naqsh san’atning shu xususiyatiga binolar, ko‘chalarning bayramona bezatilishi misol bo‘ladi. Bu naqshlar o‘sha joylarning odatdagi qiyofasini ma’lum vaqtgacha o‘zgartirib turadi. Naqsh san’atining barcha turlariga oid asarlar, shu jumladan, ularga yaqin turuvchi grafik san’at asarlari ham ma’lum darajada mana shunday rolni bajarishi mumkin. Masalan, bayramona tabriklar yoki tasvir tushirilgan

vimpellar. Naqsh san’at asarlarida inson, jamiyat va davrning xarakterli hissiyotlari to‘g‘risida mavjud g‘oyaviy hamda axloqiy tasavvurlarni ifodalash san’atning rostgo‘yligi yoki ta’sirchanligining asosiy shartidir. Mana shu tamoyilga amal qilinmasa, badiiy maqsad hamda shaklni hal qilishda yasamachilik, asarda emotsional qiyofa bo‘lmasligi, formalizm vujudga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyev, “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatllash chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5242-son, 2017-yil 17-noyabr. 2-10 betlar

2. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi, T- 2022 y.

3. Panteleev G.N. Bolalar uchun dekorativ san’at. - M.: Ta’lim, 2022.

4. Sakulina N., Komarova T. Bolalar bog‘chasida tasviriy faoliyat. - M.: Ta’lim, - 2022.

BO‘LAJAK SHIFOKORLARNING DEONTOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH HUSUSIYATLARI

Kabulov Azamat Ibadullayevich-Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ellikqal’a tumani Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi direktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak shifokorlarning deontologik kompetentligini rivojlantirish hususiyatlari va uning avzallik jihatlari haqida so’z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: deontologik kompetentlik, tibbiy etika, bo‘lajak shifokorlar, kasbiy madaniyat, bioetika tamoyillari, shifokor-bemor munosabatlari, kommunikativ kompetensiya, tibbiyot ta’limi.

Mamlakatimiz tibbiyot tizimida shifokor faoliyati nafaqat kasbiy bilim va amaliy ko‘nikmalar bilan, balki yuksak axloqiy madaniyat, insonparvarlik va mas’uliyat bilan ham belgilanadi. Shifokor kasbi inson hayoti va salomatligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan eng mas’uliyatli kasblardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 10-noyabr kuni Toshkent davlat tibbiyot universitetiga tashrifi chog‘ida *“*Eng muhimi, har bir tibbiyot xodimining malakasini oshirish, zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan ta’minlashga e’tibor qaratishimiz lozim” [1] ekanligini aytib o‘tgan edi. Shu sababli tibbiyot ta’limi tizimida bo‘lajak shifokorlarning nafaqat ilmiy bilimlarini, balki ularning axloqiy qarashlari, kasbiy madaniyati va bemor bilan muloqot qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayon ayniqsa shifokorlarning deontologik kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liqdir.

Tibbiyot sohasida deontologiya shifokorning bemor, uning qarindoshlari, hamkasblari hamda jamiyat oldidagi kasbiy burchlarini, axloqiy majburiyatlarini va mas’uliyatini o‘rganadi. Deontologik kompetentlik esa shifokorning kasbiy faoliyatida axloqiy me’yorlarga amal qilishi, bemor bilan samarali muloqot o‘rnatishi, kasbiy

etikani hurmat qilishi va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan holda faoliyat yuritish qobiliyatini ifodalaydi. Shifokorning deontologik kompetentligi uning kasbiy madaniyati, shaxsiy fazilatlari va kommunikativ ko‘nikmalarining uyg‘unligidan iborat bo‘lib, tibbiy xizmat sifatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda deontologiya tushunchasi ko‘plab olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan. Jumladan, N.N.Petrov tibbiy deontologiyani shifokorning bemor bilan munosabatlarida namoyon bo‘ladigan axloqiy qoidalar tizimi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, “shifokor faoliyatining asosiy maqsadi bemorni davolash bilan bir qatorda uning ruhiy holatini qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir” [2]. Shifokor bemorga nisbatan mehr-shafqatli, ehtiyotkor va mas’uliyatli munosabatda bo‘lishi zarur. Bu esa shifokorning kasbiy faoliyatida axloqiy madaniyatning muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Shuningdek, I.V.Davydovsky tibbiy deontologiyani shifokorning kasbiy madaniyati va mas’uliyatini ifodalovchi muhim omil sifatida baholaydi. U “shifokorning bemor bilan muloqoti davolash jarayonining muhim tarkibiy qismi ekanligi” [3] ni ta’kidlaydi. Davydovskiy fikriga ko‘ra, shifokor bemor bilan muloqot jarayonida ehtiyotkorlik, sabr-toqat va hurmat kabi fazilatlarni namoyon etishi kerak. Bemorning ruhiy holatini tushunish va unga psixologik yordam ko‘rsatish shifokorning kasbiy burchi hisoblanadi.

Zamonaviy bioetika sohasida deontologik kompetentlik tushunchasi yanada kengroq talqin qilinadi. Bu borada Tom L. Beauchamp va James F. Childress tomonidan ishlab chiqilgan bioetikaning to‘rtta asosiy tamoyili alohida ahamiyatga ega. Ular “avtonomiya, foyda keltirish, zarar yetkazmaslik va adolat tamoyillari” [4] dan iborat. Ushbu tamoyillar zamonaviy tibbiyot etikasi asosini tashkil etadi va shifokorning kasbiy faoliyatida muhim yo‘riqnoma bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, bemorning huquqlarini hurmat qilish va uning qarorlarini inobatga olish zamonaviy tibbiyot amaliyotining muhim talablaridan biri hisoblanadi.

Bo‘lajak shifokorlarning deontologik kompetentligini rivojlantirish jarayonida insonparvarlik tamoyili ham muhim o‘rin tutadi. Bu masala Edmund D. Pellegrino va David C. Thomasma tomonidan ham chuqur o‘rganilgan. Ularning fikricha, “tibbiyot faoliyatining asosiy maqsadi bemorga yordam berish va uning manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir. Shifokor bemorning jismoniy sog‘lig‘i bilan bir qatorda uning ruhiy holatiga ham e’tibor qaratishi lozim. Bemor bilan insoniy munosabat o‘rnatish davolash jarayonining samaradorligini oshiradi” [5].

Tibbiyot ta’limi jarayonida bo‘lajak shifokorlarning deontologik kompetent-ligini shakllantirish pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu jarayon talabalarning kasbiy bilimlari, kommunikativ ko‘nikmalari va axloqiy qarashlarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Talabalarda deontologik kompetent-likni shakllantirish uchun nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy mashg‘ulotlar, klinik vaziyatlarni tahlil qilish va muammoli vaziyatlarni muhokama qilish kabi metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi.

Zamonaviy tibbiyot ta’limida kommunikativ kompetentlik ham muhim ahamiyatga ega. Shifokor bemor bilan samarali muloqot o‘rnatishi, uning shikoyatlarini diqqat bilan tinglashi va unga tushunarli tarzda maslahat berishi kerak. Bu masala Ronald M. Epstein tomonidan ham keng o‘rganilgan. Uning tadqiqotlariga ko‘ra,

“shifokorning empatiya qobiliyati va bemor bilan muloqot qilish madaniyati davolash jarayonining samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shifokor bemorning ruhiy holatini tushunib, unga dalda bera olishi zarur” [6].

Bo‘lajak shifokorlarning deontologik kompetentligini rivojlantirishda klinik amaliyot muhim rol o‘ynaydi. Klinik muassasalarda o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlar davomida talabalar tajribali shifokorlar faoliyatini kuzatish, bemorlar bilan muloqot qilish va tibbiy jarayonlarda ishtirok etish orqali kasbiy madaniyatni o‘rganadilar. Bu jarayonda ular shifokor kasbining axloqiy jihatlarini chuqurroq anglay boshlaydilar. Tajribali shifokorlarning faoliyati talabalarga namuna bo‘lib xizmat qiladi va ularning kasbiy shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, bo‘lajak shifokorlarning deontologik kompetentligini rivojlantirishda davlat siyosati ham muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasida tibbiyot xodimlarining kasbiy etikasi va deontologiyasi masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar tibbiyot xodimlarining kasbiy faoliyatida etik me’yorlarga amal qilish zarurligini belgilaydi. Ushbu hujjatlarda “shifokorning bemor bilan munosabatlari, tibbiy sirni saqlash, kasbiy mas’uliyat va muomala madaniyati” [7] kabi masalalar yoritilgan.

Bo‘lajak shifokorlarning deontologik kompetentligini rivojlantirish jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, simulyatsion treninglar, virtual klinik vaziyatlar va interaktiv ta’lim metodlari talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bunday usullar talabalarga murakkab vaziyatlarni xavfsiz muhitda mashq qilish imkonini beradi. Natijada ular real klinik sharoitda to‘g‘ri qaror qabul qilishga tayyor bo‘ladilar.

Deontologik kompetentlikni shakllantirish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ham e’tibor qaratish zarur. O‘zbek xalqining mehr-oqibat, insonparvarlik, kattalarga hurmat va bemorlarga g‘amxo‘rlik kabi qadriyatlari tibbiyot kasbining axloqiy tamoyillari bilan uyg‘unlashadi. Shu sababli tibbiyot ta’limida milliy madaniyat va ma’naviy merosga asoslangan tarbiya tizimini rivojlantirish bo‘lajak shifokorlarning kasbiy va axloqiy kamolotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak shifokorlarning deontologik kompetentligini rivojlantirish zamonaviy tibbiyot ta’limining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shifokor kasbi inson hayoti bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, bu kasb egalaridan yuqori darajadagi axloqiy madaniyat, mas’uliyat va insonparvarlik talab etiladi. Tibbiyot ta’limi jarayonida nazariy bilimlar bilan bir qatorda talabalarning kommunikativ ko‘nikmalarini, axloqiy qarashlarini va kasbiy madaniyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur. Deontologik kompetentlikka ega bo‘lgan shifokorlar bemorlar bilan samarali muloqot o‘rnatish, ularning ruhiy holatini tushunish va davolash jarayonida insonparvarlik tamoyillariga amal qilish orqali tibbiy xizmat sifatini oshirishga katta hissa qo‘shadilar. Bo‘lajak shifokorlarning deontologik kompetentligini rivojlantirish mexanizimlarini takomillashtirish esa kelajakda yuqori malakali, axloqiy jihatdan yetuk va jamiyat oldidagi mas’uliyatini chuqur his qiladigan shifokorlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Н.Н.Петров “Вопроси хирургической деонтологии”. – Ленинград: Типография им. Володарского, 1956. – 163 бет.
2. И.В.Давидовский “Проблема врачебной этики и деонтологии”. – Москва: Медицина, 1980. –200–220 бет.
3. Tom L. Beauchamp, James F. Childress “Principles of Biomedical Ethics”. – New York: Oxford University Press, 2013. – 480 page
4. Edmund D. Pellegrino, David C. Thomasma “For the Patient’s Good: The Restoration of Beneficence in Health Care”. – New York: Oxford University Press, 1988. – 288 bet.
5. Ronald M. Epstein Mindful Practice in Action / Mindful Practice. – New York: Springer, 2017. – taxminan 280–300 bet.
6. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. Tibbiyot xodimlarining kasbiy etikasi va deontologiyasi bo‘yicha metodik tavsiyalar. – Toshkent, 2020.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MUSIQAVIY FAOLIYATINI OSHIRISHDA INNIVATSION YONDOSHUVDA PEDAGOGIK ASOSLARI

Ibragimova L.A-NMPI dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqaviy faoliyatini oshirishda innivatsion yondoshuvda pedagogik asoslari

Tayanch tushunchalar: Maktabgacha yoshdagi bolalar, badiiy psixologiya, estetik ta’sir, estetik tarbiya, psixologik rivojlanish muhiti, bolalar folklori va tarbiya.

Bog`cha yoshidagi bolalarning ma`naviy, madaniyatli qilib tarbiyalashda musiqa tarbiyasi muhim usullardan biri bo`lib hisoblanadi. Ta`lim berish maktablarida o`tkaziladigan musiqa darslarining asosiy maqsadi go`zallik qonuniyatlari asosida etuk shaxsni shakllantirish vazifalarini amlaga oshirish uchun xizmat qilishdan iborat bo`lishi kerak. Dastur maktabgacha davlat standartida ko`rsatilgan talablar asosida tuziladi. Bolalarning estetik hislarini tarbiyalash, milliy ruh, milliy musiqani o`zida shakllantirish, musiqadan muxim bilim va Amaliy odatlarni shakllantirish dasturining asosi hisoblanadi.

Dasturda belgili pedagogik vazifalar saqlangan holda, milliy qadriyatlar, dasturlar, xalq ijodiyoti, musiqa merosini bolalarning idrok qilish qobiliyati darajasida bosqichma-bosqich o`tish nazarda tutiladi. Ertalabki badantarbiya, hər xil shakldagi darslar, mehnat, sayr, estetika soatlari, o`yin-kulgu, bayramlarga xos asarlar aniq rejalashtirilib, o`z o`rnida qo`llanish, «Milliy tafakkur» muammosining echimiga erishishda muhim usul bo`ladi.

Dasturda ko`rsatilgan asarlar, musiqa repertuarlari Ona Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, tabiatni himoya qilish, do`stlik, mehr-shafqat kabi xossalar musiqali obraz orqali idroq qilishga qaratilgan. Dastur mazmuni bolalarning yoshiga mos bo`lgan (bilim va odatlar darajasi, musiqaga munosabati, qiziqishi, qobiliyati, salomatligi, quvnoqligi, bog`chadagi muhit va b.) sharoitlarni musiqiy faoliyat turlarini hisobga olgan sharoitda 5 qismga bo`linadi.

Ma`lum bo`lganiday, musiqiy faoliyat, musiqa tinglash, qo`shiq aytish, musiqiy ritmik harakatlar, bolalar asboblarini chertishni o`rganish kabi turlarga bo`linadi. Har bir faoliyat bolaning musiqiy hissini rivojlantirishga yordam berib, belgili odatni shakllantiradi.

Musiqa olimlari bolalarni musiqiy tarbiyalshada musiqa tinglash faoliyatiga alohida e`tibor bermoqda. Sababi har bir insonning musiqa madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida musiqa tinglash ko`nikma va odat muhim o`rinlarning birini egallaydi. Pedagogika fanida qo`shiq aytish faoliyatining tarbiyaviy ahamiyati alohida. Milliy ruhni o`zida ifodalagan xalq qo`shiqlari, kuylari, bolalarning dunyoni badiiy his qilib va idrok qilishi, zavqlanishiga yordam beradi. Musiqa obrazlariga muvofiq har xil harakat va o`yinlarni (tantsa) o`yinda har xil obrazlarni ta`sirchan ijro etish muhim ahamiyatga ega. Sababi harakat musiqiy qobiliyatni shakllantirish va jismoniy rivojlanishda juda muhim harakatda asarning badiiy mazmuni, quvnoqligi tasvirlanadi.

Bolalar asboblaridan chiqqan rang-barang kuylar bolalarni sozlarning tovushi bilan tanishtiradi. Ularda zavqlanish, quvonch kabi yoqimli ma`naviy sharoitni yuzaga keltiradi. Dasturning mazmunida asboblar bilan tanishtirishdan boshqa bilimlar yoshga mos bo`lgan urib qoqilib chalinadigan sozlar va musiqiy o`yinchoqlar yordamida oddiy ijodiy usullarni bajara oligga o`rgatish vazifalari qo`yiladi. Bog`cha yoshida bolalarning musiqiy ijodining dastlabki asoslari paydo bo`la boshlaydi. Zehnli bolalar oddiy qo`shiq, o`rgangan o`yin, harakat turini mustaqil yaratgan ijodiga moslashtiradi, har xil obrazlarni yangida tahlil qiladi, o`yinda ta`sirli xossalarni o`ylab topadi, ijodning natijasidan zavqlanadi.

Bayram ertaliklari –bolalarni badiiylik tomonidan tarbiyalash shakllaridan biri. Ularning maqsadi bolalarni estetik dunyoga olib kirib, ularda ajoyib erkin ta`sir qoldirish, bayramga bog`liq quvonch yaratish. Ularga o`yin-kulgular, kontsertlar, sayr, estetik soatlar va faolligi zarur. BOlalarning salomatligini saqlash, darslar uchun gigienik talablar javob beradigan darajada `sharoitlar yaratish, ertaliklar va bayram tadbirlarini tashkil qilish va o`tkazishga faol qatnashib bog`cha rahbariyati va tarbiyachilarning pedagogik vazifasi bo`lib hisoblanadi.

Kichik yoshdagi bolalarga musiqiy tarbiya berishdagi tarbiyachining asosiy vazifasi bu –bolalarda musiqa tinlashda paydo bo`ladigan emotsional javob berish, eslatish qobiliyatining rivojlantirish bo`lib hisoblanadi. Musiqa asboblarida pedagog musiqa tinglashga, qo`shiq tinglashga o`rgatadi.

Bolalarda ritmikani rivojlantirishda tarbiyachi ularni musiqa ostida yuritishga oddiy o`yin xarakatlarini bajarishga, qo`l shapatlashga va b. o`rgatadi. Shu bilan birga predmetlar bilan murakkab emas harakatlar ishlashga o`rgatadi. Masalan: bayroqchani yuqori ko`tarish. Shuningdek bu yoshda musiqa tinglashda o`yinchoq ko`rsatishda keng qo`llaniladi. U qo`shiqning mazmuniga qarab taxlab olinadi.

2-kichik guruh

Bu yoshda har xil mazmun va ko`ngil qo`shiqlar va asboblar yordamidagi bajarilgan kuylarga bo`lgan qiziquvchanligini keltirib chikarish va uni esda olib qolish odatlarini tarbiyalash kerak. Bolalar soz va musiqani o`yinchoqlarni farqlay oladigan bo`lishi kerak. Tovush imkoniyati hajmida qo`shiq aytish odatining dastlabki asosini shakllantirish, tabiiy tovushda aytishga o`rgatish, yil oxirida bolalar tanish qo`shiq va

musiqalarni farqlay olishi, qo`g`irchoq chiqarish, surnaychi kabi musiqa o`yinchoqlarini bir-biridan ajrata olishini o`rganish kerak.

O`rta guruh

Bu yoshda bolalarning musiqani bili shva undan ta`sinlanishga tarbiyalaydi. Musiqiy asaraning tushunish va eslab qolishga o`rganadi. Milliy musiqaga muhabbat hissini tarbiyalanadi. Shunday ularning musiqaga qiziquvchanligini orttirish va qobiliyatlarini rivojlantirish. Oddiy bajarish odatini shakllantirish, bolalarni asbob bilan tanishtiradi. Chirildaq, doira. Bu yoshda bolalarning musiqa asarlarining mazmuni va xarakterini ajrata olishga o`rgatadi.

O`tkaziladigan bayramlar : Mustaqillik bayrami, hosil bayrami, Yangi yil bayram, 8-mart, Navro`z.

Katta guruh

Bolalardagi har xil xarakterdagi musiqalarga qiziquvchanlik va ta`sirchanlikni tarbiyalash, musiqani idrok qilishni rivojlantirish, kuy va ko`shiqning kirish qismi yoki umumi tovushdan tanib olishga o`rgatish. Musiqali ta`sirchanlikni boyitish, tovushlarning baland pastligi, ritm, tembr, dinamikasini ajratishga o`rgatish kerek. Bu yoshda quyidagi ijodkorlikni odatlar shakllanadi, tovushni to`g`ri aytish, musiqa ostida ritmik haraktalarni yaxshi, xalq o`yinlarni tayyorliksiz harakat bajarish olish, asboblarning tovush temrbrlariga qarab ajrata olish va ularni usullardan chertishga o`rgatish.

Bu yoshda bayramlarning qatoriga 14-yanvar` Vatan himoyachilar kuni bayram qo`shiladi. Bunda bolalar dovyurak askarlar, chegarachilar xaqida qo`shiqlar aytib, o`yinlar o`ynaydi. Gullar va qushlar bayram may oyida belgilanadi. Bu bayram bolalarda ona tabiatni sevish, ardoqlash va to`garak-atrofni saqlashga tarbiyalashda zaruriy o`rin egallaydi. Gul va qushlar haqida qo`shiqlar, kichik sahnalar yaratiladi.

Maktabgacha tayyorlash guruhi - Qo`shiq aytishda bolalarning xushovoz-ligini o`stirish, ritmni to`g`ri idrok qilish qobiliyati, tiniq, aniq tovush bilan qo`shiq aytish, musiqaningn tovushlarini past-balandligining, bilimini mustahkamlash. Bolalarda musiqaninghar xil xarakteriga mos harakatlarni mustaqil bajarishga o`rgatish kerak.

Bayramlarning qatoriga paxta bayrami, maktabga chiqarib solish bayrami, sport bayramlari qo`shiladi. Kichik yoshdagi bolalarga musiqiy tarbiya berishdagi tarbiyachining asosiy vazifasi-bu bolalarda musiqa tinglashda paydo bo`lgan emotsoinal javob berish, eshitish qobiliyatlarini rivojlantirish, tovushlarning yuqori yoki pastligini ajratish qobiliyatini rivojlantirish bo`lib topiladi. Musika darslarida pedagog bolalarni qo`shiq aytishga o`rgatadi.

Bolalarda ritmikani rivojlantirishda tarbiyachi ularni musiqa ostida yurishga oddiy o`yin (tantsa) harakatlarini bajarishga, qo`l shappatlashga va boshqalar o`rgatish. Shuningdek, bolalarni musiqa ostida predmetlar bilan murakkab emas harakatlar ishlashga o`rgatadi. Masalan : bayroqchani yuqori ko`tarish.

Musiqa tinglashda o`yinchoq ko`rsatishda keng qo`llaniladi. Bu demak qo`shiqning mazmuniga qarab tanlanib olinadi. Kichik bolalarning musiqiy tarbiyasi faqatgina darslarda emas, kundalik hayotida amalga oshiriladi. O`rta guruhlarda musiqiy tarbiya bo`yicha tarbiyachining vazifasi bolalarni musiqaga tortish, unga degan qiziquvchanligini tarbiyalash. Bolalarning musiqaga degan hislarini boyitish, unga

degan javobini shakllantirish kerak. Qo`shiq aytishda bolaning tovushi musiqaga degan qobiliyatini rivojlanadi.

Bolalarning musiqaga degan hislarini boyitib, unga degan javobini shakllantirish kerak. Qo`shiq aytishda bolaning tovushi musiqaga degan qobiliyati rivojlanadi. O`yin va tantsalarda harakatlarning tartibliligi shakllanadi. Musiqa darsida bolalarga yaxshi tovush bilan o`zgalarni aniq aytish orqali qo`shiq aytishga o`rgatiladi. Bu bolalar odatda tez o`zlashtira olmaydi. U dastlab so`zlarni aytishi mumkin. Shuningdek bolalarni musiqa xarakterini sezib, uni o`yinlarida berishga o`rgatish kerak.

Qo`shiqlar, raqslar (tantsalar), bolalarning yosh imkoniyatlariga qarab tanlab olinadi. Qo`shiqlar murakkab emas, takrorlanishi naqoratlari bilan bo`lishi kerak. Qo`shiqlarning xarakteri bog`chada o`tkaziladigan ertaklarning mazmuniga karab tanlanib olinadi. Bolalar ayniqsa tabiat, yomg`ir, quyosh, gullar va h. haqidagi qo`shiqlarni qanaotlandirish bilan tinglaydi.

Pedagog qo`shiq o`rgatishda dastlab uning mazmunini tushuntirib, so`ng uning bajarilish sifatini nazorat qiladi. Kata guruhlarda musiqiy tarbiya berish asosida tarbiyachining vazifasi musikaga degan qiziquvchanlik uyg`otish, quvonib bilishga o`rgatish, tinglash tilagini uyg`otish. Musiqa yordamida ularda Vatanga, xalqiga muhabbatini uyg`otish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T.: O'qituvchi, 1993.

2.Xasanboeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta`lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo,2006.

3.Nafisa Yusupova. Musiqa savodi metodikasi va ritmika. T.: Musiqa, 2010.

Internet saytlari

1. www. tdpu. uz
2. www. Ziyonet. Uz

EKOLOGIYALIQ RAWAJLANDIRIWSHI ORTALIQTA TÁRBIYASHI JUMISLARINIŃ MAZMUNI HÁM TÚRLERI

R.Sh.Aleuova NMPI docenti

Mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkeminde turaqlı rawajlandırıwshı ekologiyalıq ortalıqtı dúziw - bul úzliksiz pedagogikalıq proces bolıp, ol ekologiyalıq ortalıqtı shólkemlestiriw, olardı jetilistiriw hám dúzetiw, barlıq janlı organizmlerdiń jasawı ushın zárúr sharayatlardı kúndelikli qollap-quwatlawdan ibarat boladı. Sonlıqtan, bunday turaqlı háreketler ekologiyalıq tárbiya usılı bolıp tabıladı: ol sistemalı túrde oylaw, ósimlikler hám haywanlar haqqında haqıyqıy ǵamxorlıq etiw kónlikpelerin qáliplestiredi. Mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkeminiń jasıl aymaǵında birgeliktegi miynet iskerligi, ósimliklerdi ósiriw, haywanlar hám olardıń balaların baǵıw hár qıylı formada bolıwı múmkin.

Mektepke shekemgi jastaǵı balalar bul jumısqa úsh usıl menen qatnasa aladı:

- tárbiyashınıń mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemindegi hár túrli isler hám waqıyalar haqqında gúrrińi;

- úlkenlerdiń iskerligin baqlaw;
- ózleriniń ámeliy qatnasıwı.

Al, birgeliktegi iskerliktiń eń keń tarqalǵan forması - tábiyat múyeshindegi jasawshılar ushın zárúr sharayatlardı jaratıw hám saqlaw bolıp tabıladı.

Kishi mektepke shekemgi jasta balalar birge islesiwde ámeliy orınlawshı emes, al kóbirek baqlawshı boladı, soǵan karamastan usı jasta tábiyat penen óz-ara tásir úlgisi sheshiwshi áhmiyetke iye boladı: balalar úlkenlerdiń haywanlar hám ósimlikler menen jaqsı kóriwine, neni hám qalay islew kerekligin tınısh hám anıq túsindiriwine itibar beredi, tárbiyashınıń háreketlerin kóredi hám olarda qızıǵıwshılıq penen qatnasadı. Balalar úlkeygeninen keyin tárbiyashınıń wazıypası hám balalardıń óz betinshe islewi ózgeredi, biraq iskerlik birgelikte bolıp qaladı.

Orta toparda tárbiyashı hám balalar juplasıp jumıs isleydi, biraq basshılıq tárbiyashıda qaladı, bul tómendegishe boladı: "Men isleymen - sizler maǵan járdemlesesiz, sizler meniń járdemshilerimsiz. Birgelikte úy haywanlarımızǵa ǵamxorlıq qılamız!"

Úlken mektepke shekemgi jasta balalardıń ózbetimsheligi artıp baradı, tábiyat múyeshinde náwbetshilik etip baslaydı. Tárbiyashı menen balalardıń rolleri almasadı: balalar barlıq kerekli nárselerdi ózleri isleydi, al tárbiyashı olarǵa járdem berip turadı. Balalar ósimlikler hám haywanlar ushın kerekli sharayatlardı jaratıwda birgelikte islewdi úyrenedi, bul tikkeley emes, al úlkenlerdiń balaǵa járdemi arqalı ámelge asadı. Bul toparda tárbiyashı: "Sizler ózlerińiz isleysiz, al men sizlerge járdemlesemen. Men sizlerdiń járdemshińizben, házir qolıńızdan kelmeytuǵın nárselerdi islewge járdem beremen"dep aytadı. Sonday-aq, tárbiyashı balalardıń barlıq jetiskenliklerin hám óz betinsheligin atap ótedi, isenimliligi hám alǵa baslawların maqtaydı. Eger tábiyat bólmesi bar bolsa, úlken topar balalar menen waqtı-waqtı menen jámáátlik miynet shólkemlestiriledi. Shólkemlestiriwdiń bunday túri balalar dáslepki kónlikpe hám uqıplarǵa iye bolǵannan keyin, sonday-aq miynet ob'ektlerin - kimge hám qalay qaraw kerekligin jaqsı bilgeninen soń engiziliwi múmkin. Bunday jaǵdayda tárbiyashı balalardıń kishi toparın (5-10 adam) aladı hám olar menen birgelikte tábiyat bólmesinde "ulıwma tazalaw" jumısın shólkemlestiredi.

Demek, tárbiyashı balalardı bólistirip, olarǵa dáslep óz tárbiyalanıwshıların kórip shıǵıwdı, ne islew kerekligin anıqlawdı, sonnan keyin ǵana tazalawǵa kirisiwdi usınıs etedi. Ózi aldı menen olarǵa járdem beredi. Úlken topar balalardıń tábiyat bólmesindegi jámáátlik miyneti balalar baqshasınıń jasıl zonasında tártipti támiyinlewde úlkenlerge haqıyqıy járdem bolıp tabıladı.

Solay etip, tárbiyashı hám mektepke shekemgi jastaǵı balalardıń ósimlik hám haywanlar haqqında ǵamxorlıq etiwi, olardıń jasaw keńisliginde jaylasqan barlıq janlı organizmler ushın zárúr sharayatlardı jaratıw hám saqlap turıwı ekologiyalıq tárbiyanıń tiykarǵı usılı bolıp, ekologiyalıq sana-sezimniń baslanıwın, jaqın átiraptaǵı tábiyat penen múnásip qarım-qatnasta bolıwdıń dáslepki ámeliy kónlikpelerin rawajlandırıwdı támiyinleytuǵın usıl bolıp esaplanadı. Eń aldı menen, múnásibet balalar hár bir jaǵday boyınsha tárbiyashıdan alatuǵın anıq túsinikler tiykarında qáliplesedi. Balalar ósimliklerdi suwǵarıw, haywanlardı azıqlandırıw kerekligin úyrenedi, sonday-aq hár bir organizmniń ózine tán, tolıq belgili azıq alatuǵının bilip aladı. Bul túsiniklerde

tárbiyashı anıq, kishi kólemdegi baǵdarlamalıq bilimlerdi beredi, uqsas jaǵdaylarda olardı qayta-qayta tákirarlaydı.

Múnásibetti qáliplestiriw ushın tek sóz benen túsindiriw jeterli emes, sonlıqtan tárbiyashı balalardıń kóz aldında sóz benen aytqan nárseleriniń derlik barlıǵın ózı islep kórsetedi. Háreket penen sóz bir-birin tolıqtıradı - bul eki usıl bir pedagogikalıq aktke birigip, janlı múyeshte jasawshılardıń mısalında adamnıń tábiyat penen óz-ara baylanısınıń úlgisi sıpatında xızmet etedi. Sózler arqalı balalar aldılarında belgili bir sharayatlarǵa mútáj janlı organizmler bar ekenin túsinedi.

Sonday-aq, tárbiyashı hám mektepke shekemgi jastaǵı balalardıń miynet háreketleri sırtqı ortalıqtıń sol waqıtta jetispeytuǵın faktorların tolıqtırıp baradı. Tárbiyashı múyeshte jasawshılardıń jaǵdayı jaqsı ekenin kórsetip, bul olarǵa jasawı ushın barlıq kerekli nárse bar ekenin tastıyıqlaydı. Tárbiyashınıń bul háreketleri nátiyjesinde ekologiyalıq rawajlandırıwshı ortalıqta tiri organizmler ushın sharayat jaratıw boyınsha birgelikli iskerlik usılı anıq hám pedagogikalıq jaǵdayǵa ılayıq usıllar menen tolıqtırıladı. Bul usıllar jıynaǵı balalarda tábiyat haqqında belgili túsinikler sheńberin hám oǵan qatnastı qáliplestirip baradı. Qáliplesken bilim hám qatnastıń bekkemligi pedagogikalıq tásir kólemine, yaǵnıy hár bir balanıń oqıw jılı dawamında tárbiyashı menen birge tábiyat múyeshinde qansha ret miynet etkenine hám haywanlarǵa haqıyqıy ǵamxorlıq kórsetkenine baylanıslı boladı. Balalardı birgeliktegi iskerlikke bir neshe márte qosıw ǵana usı usıldı mektepke shekemgi jastaǵı balalardı ekologiyalıq tárbiyalawda nátiyjeli dep esaplawǵa múmkinshilik beredi.

Demek, ekologiyalıq-rawajlandırıwshı ortalıqtı sapalı shólkemlestiriw hám onda balalar menen tárbiyashınıń birgeliktegi ekologiyalıq-mazmunlı iskerligin ámelge asırıw hár bir balada tábiyat obektleri menen óz-ara baylanısıw talabın qáliplestirip, oǵan degen tanıp-biliw qatnasın payda etiwge járdem beredi hám barlıq janlı tabiyatqa degen qádiriyatlı múnásebetti ornatıwdı támiyinleydi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti. Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabr 802-sonli qarori

2. Djanpeisova G.E., Rasulxo‘jaeva M.A. Tabiat bilam tanishtirish. T.: Innovasiya Ziyo, 2020 y.

3. A.To’xtayev Ekologiya T. O’qituvchi 1998

BALANIŃ JÁMIYETLESIWINDE SHAŃARAQ HÁM MEKTEPKE SHEKEMGI BILIMLENDIRIW SHÓLKEMINIŃ BIRGE ISLESIWINIŃ ÁHMIYETI

K.D.Tleumbetova - Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı Mektepke shekemgi tálim kafedrası docenti, ps.i.k.

Balanıń sociallıq rawajlanıwı zamanagóy bilimlendiriwdiń eń áhmiyetli wazıypalarınan biri bolıp esaplanadı. Mektepke shekemgi jasta shaxs tiykarları jaratıladı, minez-qulıq normaları, qádiriyatlar, átiraptaǵılar menen óz-ara múnásibet

haqqında dáslepki túsinikler qáliplesedi. Bul processtiń nátiyjeliligi kóp tárepleme tarbiyanıń eki tiykarǵı institutı - shańaraq hám mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkeminiń háreketleriniń muwapıqlıǵına baylanıslı. Olardıń birge islesiwi balanıń bárkamal hám tabıslı rawajlanıwınıń eń áhmiyetli shárti bolıp esaplanadı.

Sonıń menen birge, házirgi waqıtta balalardı oqıtıw barǵan sayın quramalı hám kóp basqıshlı processke aylanıp barmaqta. Bul process hám shańaraq, hám jámiyet itibarın talap etedi. Bul jerde shańaraq hám jámiyetlik tárbiyanıń óz ara tásirine, balanıń minez-qulqı hám qádiriyatlarınıń qáliplesiwine tásirine itibar qaratıw kerek.

Shańaraq balanıń jámiyetlesiwiniń birinshi hám tiykarǵı faktorı esaplanadı. Bul jerde ol qarım-qatnas hám emocionallıq baylanıs tiykarların úyrenedi, tiykarǵı kónlikpe hám bilimlerdi iyeleydi. Shańaraqtaǵı ortalıq, ata-ananıń tárbiya usılı, olardıń shańaraqtaǵı úlgili minez-qulıqları balanıń minez-qulqı, dúnyaǵa kózqarasınıń qáliplesiwine úlken tásir kórsetedi. Biraq, balalardıń mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemlerinde bolıw waqtınıń kóbeyiwi menen jámiyet bala turmısında áhmiyetli rol oynay baslaydı. Bul jerde ol hár qıylı sociallıq óz-ara qatnasıqlarǵa iye boladı, hár qıylı jaǵdaylarǵa dus keledi, basqa balalar hám úlkenler menen qarım-qatnasqa kirisedi, onıń bul sociallıq óz-ara qatnası balanıń beyimlesiwi hám jámiyetlesiwine járdem beredi.

Mektepke shekemgi bilimlendiriwde shańaraq hám sociallıq bilimlendiriwdiń óz-ara tásiriniń áhmiyetin úyreniw hám sonıń ushın da túsiniw házirgi waqıtta áhmiyetli bolıp qalmaqta. Sol sebepli mektepke shekemgi bilimlendiriwde shańaraq hám sociallıq tárbiyanıń óz-ara tásiriniń áhmiyetin úyreniw hám túsiniw áhmiyetli bolıp qalmaqta.

Bala shaxsınıń qáliplesiwi hám jámiyetke tabıslı beyimlesiwinde ata-analar, tárbiyashı-pedagoglar hám jámiyetlik mákemelerdiń óz ara birge islesiwi úlken áhmiyetke iye:

1. Birgelikte háreket etiw. Bul faktorlardıń hár biri balanıń rawajlanıwına óz tásiri menen tásir kórsetedi hám olardıń birgeliktegi tásiri rawajlanıwdıń tolıǵıraq hám úylesimli túrin payda etedi. Máselen, shańaraq ruwxıy jaqtan qollap-quwatlaydı, bilimlendiriw mákemeleri bilim alıw imkaniyatın beredi, jámiyet bolsa minez-qulıq qaǵıydaları hám normaların úyretedi.

2. Bilimlendiriw hám tárbiyanıń dawamlılıǵı. Bala óziniń kópshilik waqıtın shańaraq hám mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkeminde ótkeredi. Sonıń ushın tálim-tárbiya usıllarında eki ortalıqtıń da turaqlı bolıwı áhmiyetli. Bul balanıń rawajlanıwı ushın jáne de qolaylı sharayat jaratadı.

3. Jámiyetlesiw. Shańaraqta bala sociallıq óz-ara qatnas tiykarların úyrenedi hám qorshaǵan ortalıq haqqında dáslepki túsiniklerge iye boladı, mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemi hám jámiyetlik turmısta bolsa keńeyedi.

4. Qollap-quwatlaw hám birge islesiw. Ata-analar, tárbiyashılar hám jámiyetlik mákemeler arasındaǵı baylanıslar balaǵa qosımsha járdem hám kerekli resurslardı beredi. Ata-analar pedagoglar menen tálim-tárbiya máselelerin dodalawı, shólkem jámietshiligi balanıń rawajlanıwı ushın qosımsha baǵdarlama hám imkaniyatlar jaratıwı múmkin.

5. Jámiyettiń normaları hám qádiriyatlarına beyimlesiw. Hár qıylı sociallıq institutlar menen óz ara baylanısıw balanıń jámiyetke beyimlesiwinde áhmiyetli buwın

esaplanıwshı sociallıq normalar hám qádiriyatlardı túsiniw hám qabıl etiwge járdem beredi.

Balanıń hár tárepleme rawajlanıwı - balanıń fizikalıq, aqılıy, sociallıq-emocional hám sóylew tiliniń rawajlanıwı menen baylanıslı boladı. Bul faktorlar birgelikte balanıń ósiwi, oqıwı hám qorshaǵan ortalıq penen óz ara tásiri haqqında hár tárepleme túsinik payda etedi:

1. Fizikalıq rawajlanıw: motorikanıń rawajlanıwı, háreket koordinaciyası, iyiliwsheńlik hám balanıń aktivligi. Oǵan oyınlar hám sport shınıǵıwları, fizikalıq shınıǵıwlar, háreketli oyınlar arqalı erisiw múmkin.

2. Kognitiv rawajlanıw: qabıllaw, pikirlew, este saqlaw, dıqqat, mashqalalardı sheshiw sıyaqlı aqılıy proceslerdi óz ishine aladı. Bul oyınlar, jańalıqlar hám hár túrli bilim beriw mashqalaları matematika, oqıw, pán hám texnologiya kónlikpelerin rawajlandırıwdı óz ishine aladı.

3. Sociallıq-emocional rawajlanıw: sociallıq qatnasıq, tilekleslik, sezimlerdi basqarıw, kelispewshiliklerdi sheshiw, basqalar menen salamat qatnasıqlardı ornatıw kónlikpelerin qáliplestiriwdi óz ishine aladı. Buǵan toparlıq oyınlar, rolli oyınlar, doslar hám úlkenler menen pikirlesiw arqalı erisiw múmkin.

4. Sóylewdi rawajlandırıw - sóylew, oqıw hám jazıw kónlikpelerin rawajlandırıw. Bunda kitap oqıw, sóylesiw, sóz oyınları, hár qıylı sóylew túrlerin rawajlandırıw shınıǵıwlar arqalı ámelge asırıladı.

Balalardı hár tárepleme rawajlandırıw olardıń fizikalıq, aqılıy, ruwxıy hám sociallıq talapları arasında teń salmaqlılıqtı támiyinleytuǵın, olardıń barlıq táreplerin rawajlandırıw imkaniyatın beretuǵın ortalıqtı jaratıwdan ibarat. Bul tabıslı ósiw hám turmıstıń hár qıylılıǵı tarawlarǵa beyimlesiw ushın tiykar bolıp esaplanadı.

Balalarda sociallıq kónlikpelerdi qáliplestiriw - balalardıń sociallıq ortalıqta átiraptaǵılar menen tabıslı qarım-qatnas jasawı ushın zárúr bolǵan kónlikpelerdi iyelew procesi bolıp tabıladı. Bul kónlikpelerge sóylesiw, birge islesiw, kelispewshiliklerdi sheshiw, doslıq ornatıw, topardaǵı mashqalalardı sheshiw kónlikpeleri kiredi. Sociallıq kónlikpelerdi qáliplestiriw erte balalıqtan baslanıp, pútkil ómir dawamında, ásirese, mektepke shekemgi hám mektep jasında jedel dawam etedi. Bul jasta balalar birinshi gezekte shańaraq ortalıǵınan tısqarıdaǵılar menen qarım-qatnasta bola baslaydı, sonıń ushın olardıń sociallıq kónlikpelerin qáliplestiriw ushın sharayatlardı támiyinlew zárúr.

Sociallıq kónlikpelerdi qáliplestiriw procesi balalardı sociallıq minez-qulıq qaǵıydaları hám normalarına úyretiw, úlkenler tárepinen zárúrli minez-qulıqtı modellestiriw, oyınlar, birgeliktegi joybarlar hám sociallıq ilajlar arqalı sociallıq kónlikpelerdi ámeliyatqa engiziw imkaniyatın jaratıw, zárúrli minez-qulıqtı qollap-quwatlaw hám xoshametlewden ibarat. Sociallıq kónlikpelerdi qáliplestiriw individual process ekenligin hám hár bir bala óziniń individual ózgesheliklerin esapqa alǵan halda rawajlanıwı múmkinligin umıtpaw kerek. Sociallıq kónlikpelerdi rawajlandırıwǵa bolǵan qatnas individuallıq hám hár bir balanıń mútájliklerine baǵdarlanǵan bolıwı kerek.

Ata-analar, tárbiyashılar hám mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkeminiń birge islesiwi balalardıń rawajlanıwına unamlı tásir etetuǵın kóplegen abzallıqlarǵa iye:

1. Kompleks rawajlanıw: usı úsh táreptiń birge islesiwi balanı jáne de tolıq hám kompleksli rawajlandırıw imkaniyatın beredi.

2. Sociallıq kónlikpelerdi qáliplestiriw: hár qıylı sociallıq ortalıqlar menen baylanısıw balalarda sóylesiw, birge islesiw, miyrim-shápáát hám jámáát bolıp islew sıyaqlı sociallıq kónlikpelerdi qáliplestiriwge járdem beredi. Bala hár qıylı sóylesiw usılların úyrenedi, hár qıylı sociallıq jaǵdaylarǵa beyimlesedi.

3. Jeke mútájliklerdi qollap-quwatlaw: ata-analar hám oqıtıwshılardıń birgeliktegi itibarı hár bir balanıń jeke mútájlikleri hám ózgesheliklerin jaqsıraq túsiniw imkaniyatın beredi. Bul hár bir balaǵa oqıtıw hám tárbiyalaw usılların ózgertiw, oǵan kerekli járdem hám stimul beriw imkaniyatın beredi.

4. Óz-ara qatnasıqlardı bekkemlew: ata-analar, tárbiyashılar hám mektepke shekemgi bilimlendiriw mákemeleriniń óz-ara birge islesiwi bilimlendiriw procesiniń barlıq qatnasıwshıları arasındaǵı qatnasıqlardı bekkemlewge xızmet etedi. Bul balada isenim, óz-ara túsinisiw hám birge islesiw ortalıǵın jaratıp, onıń tabıslı rawajlanıwına xızmet etedi.

5. Hár tárepleme bilimlendiriw hám tárbiya - balalar shańaraq hám mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkeminde jámiyetlik turmıs hám jámiyettiń hár qıylı táreplerin úyreniw imkaniyatına iye boladı. Bul onıń bilimlerin bayıtadı, sın kózqarastan pikirlewdi rawajlandıradı, qorshaǵan ortalıqqa hár tárepleme kózqarasın qáliplestiredi.

Solay etip, ata-analar, tárbiyashılar hám mámleketlik shólkemlerdiń óz-ara birge islesiwi balanıń tabıslı rawajlanıwına, sociallıq ortalıqqa beyimlesiwine xızmet etedi hám shaxstıń qáliplesiwiniń tiykarǵı faktorı bolıp esaplanadı.

Birgeliktegi ilajlardı shólkemlestiriw, ata-analar ushın másláhátler, shańaraq hám mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemi arasında birge islesiwdi jolǵa qoyıw balanıń rawajlanıwın qollap-quwatlaw hám nátiyjeli birge islesiw ushın áhmiyetli. Olardı shólkemlestiriw boyınsha ayırım ámeliy usınıslar keltirip ótsek:

1. Birgeliktegi ilajlar: "Ashıq esikler kúni," bayramlar, sport ilajları, tádbirler, sheberlik sabaqları sıyaqlı hár túrli ilajlardı shólkemlestiriw. Ilajlarǵa imkaniyatı barınsha kóbirek shańaraq aǵzaların tartıw maqsetke muwapıq boladı.

2. Ata-analarǵa másláhát beriw: ata-analar ushın balalardı tárbiyalaw, rawajlandırıw hám oqıtıw máseleleri boyınsha turaqlı másláhátler ótkeriw. Ata-analar menen olardıń jeke máseleleri hám mashqalaları haqqında sáwbetlesip, olardı sheshiw boyinsha kórsetpe hám másláhát beriń.

3. Sheriklik qatnasıqların qáliplestiriw: bilimlendiriw procesiniń barlıq qatnasıwshıları arasında ashıq-aydın hám isenim ortalıǵın qáliplestiriw. Ata-analar hám tárbiyashılar arasında óz ara húrmet hám túsinisiwge tiykarlangan birge islesiwge umtılıń. Ata-analardı bilimlendiriw baǵdarlamaları, ilajlar hám mámleket qararları menen tanıstırıw.

5. Sóylesiw: ata-analar menen ushırasıwlar, elektron pochta, xabarlar hám basqalar sıyaqlı túrli kanallar arqalı turaqlı hám ashıq sóylesiwdi támiyinleń, ata-analar shólkemniń jumısı haqqında óz pikir hám usınısları menen bólise alıwı ushın qayta baylanıs sistemasın jaratıń.

6. Ata-analar ushin bilim beriw resursları: ata-analardı balalardı tárbiyalaw hám oqıtıw ushın oqıw materialları, usınıslar hám resurslar menen támiyinlew. Bilimlendiriw hám tárbiya, rawajlanıw psixologiyası, balalar salamatlıǵı boyınsha qánigelerdiń qatnasıwında ushırasıwlar hám seminarlar shólkemlestiriw. Bul ámeliy tárepler shańaraq penen mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemi arasında nátiyjeli birge islesiwdi jolǵa qoyıwǵa, nátiyjede balanıń tabıslı rawajlanıwı hám bilim alıwına járdem beredi.

Juwmaqlastırıp aytqanımızda, zamanagóy jámiyette balalardıń shaxsın qáliplestiriw hám jámiyet turmısına tabıslı beyimlesiwinde shańaraq hám mektepke shekemgi bilimlendiriw áhmiyetli orın tutadı. Shańaraq hám tárbiyashılardıń birgeliktegi háreketleri balanıń hár tárepleme rawajlanıwına, onıń sociallıq kónlikpeleriniń qáliplesiwine, jeke mútájliklerin qollap-quwatlawǵa xızmet etedi. Shańaraq hám mektepke shekemgi bilimlendiriw mákemesiniń birgeliktegi jumısı, ata-analar menen másláhátlesiw hám birge islesiw ushın sharayat jaratıw úlken áhmiyetke iye.

Sonı atap ótiw kerek, shańaraqlar hám tárbiyashılardıń birgeliktegi háreketleri arqalı ǵana balalar tabıslı bilim alıwı hám zamanagóy jámietke beyimlesiwi múmkin. Ata-analar hám tárbiyashılar balalardıń jeke mútájlikleri hám ózgesheliklerin esapqa alǵan halda olardıń hár tárepleme hám únles rawajlanıwın támiyinlew maqsetinde birgelikte jumıs alıp barıwı kerek.

Demek, mektepke shekemgi jasta balanıń sociallıq rawajlanıwın shańaraq hám mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkeminiń tıǵız birge islesiwisiz ámelge asırıw múmkin emes. Olardıń birge islesiwi shárti menen ǵana jámlesken, sociallıq beyimlesken shaxstıń qáliplesiwi ushın qolaylı ortalıq jaratıw múmkin. Ata-analar hám pedagoglardıń birgeliktegi háreketleri tárbiya procesiniń bir pútinligin támiyinleydi hám zamanagóy jámiette balanıń tabıslı sociallasıwına járdem beredi.

Paydalanǵan ádebiyatlar:

1. Губайдулина, В. Н., & Смирнова, Е. О. Организация семейно-дошкольного партнерства в условиях реализации ФГОС. Вестник Томского государственного педагогического университета, 2016.

2. Коростель, Г. И. Семья и дошкольное образование: проблемы и перспективы взаимодействия. Вопросы образования, Москва. 2008.

MEKTEPKE SHEKEMGI JASTAǴİ BALALARDİ RUWXİY ÁDEP-IKRAMLİLİQ JAQTAN TÁRBIYALAWDA ERTEKLERDIŃ ÁHMIYETI

Naimova Zuxra-Ájiniyaz atındaǵı Nókis memleketlik pedagogikalıq institutı Mektepke shekemgi tálim kafedrası assistent oqıtıwshısı

Tayansh sózler: ruwhıy ádep-ikramlılıq, pedagogika, psixologiya, tárbiya, insan, shaxs, minez-qulıq, identifikatsiya, profilaktika

Mektepke shekemgi jas dáwiri insan ómirindegi eń tiykarǵı basqıshlarınan biri bolıp, bul dáwirde balanıń ruwxıy dún'yası, ádep-ikramlılıq kóz-qarası hám sociallıq

minez-qulqı qáliplesip baslaydı. 2017-jıl 19-dekabrde bolıp ótken «Mektepke shekemgi bilimlendiriw sistemasında ámelge asırılıp atırǵan reformalar hám keleshektegi wazıypalar»ǵa baǵıshlanǵan Ózbekstan Respublikası Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev basshılıǵında bolıp ótken videoselektorda «Mektepke shekemgi bilimlendiriw sisteması aldına qoyılatuǵın mámleketlik talaplar, bilimlendiriw-tárbiya baǵdarlamaları aldınǵı sırt el tájiriybesi tiykarında jetilistiriledi. Bul baǵdarlamalar balalarǵa hár qıylı oyınlar arqalı oqıw hám jazıwdı úyretiwge, olardıń zerikpewi, jalıqpawına, kerisinshe, baqshaǵa quwanıp barıwına xızmet etedi» [1] degen keleshek reformalardı belgilep bergen edi.

Mektepke shekemgi jastaǵı balalardıı ruwhıy ádep-ikramlılıq jaqtan tárbiyalaw máselesi búgingi kúnde pedagogika hám psixologiya pánleriniń tiykarǵı is baǵdarlamalarınınıń biri bolıp esaplanadı. Insan shaxsınıń tiykarǵı qásiyetleri, qádiriyatları hám sociallıq minez-qulıqtıń qáliplesiwi álbette balalıq dáwirinen qáliplesedi. 3-7 jas aralıǵı balanıń tek ǵana fizikalıq hám intellektuallıq jaqtan emes, al ruwhıy ádep-ikramlılıq jaqtan rawajlanıwında da tiykarǵı xızmet atqaratuǵın basqısh bolıp esaplanadı. Bul dáwirde berilgen tárbiya keyingi basqıshlarda bekkemlenedi hám shaxstıń pútkil ómir jolın belgilep beredi. Mektepke shekemgi bilimlendiriw processinde qollanılatuǵın qurallar arasında ertek ayrıqsha orın iyeleydi. Sebebi, ol balaǵa ádep-ikramlılıq túsiniklerin ápiiwayı, obrazlı hám keshirmeler boyınsha tásirsheń formada jetkeriledi.

Ilimiy-izertlewler mektepke shekemgi jas dáwiriniń ózine say psixologiyalıq ózgesheliklerin anıqlap bergen. Máselen J.Piaje teoriyası boyınsha, bul basqısh preoperacional oylaw dáwiri bolıp, bunda bala haqıqıy turmıstaǵı waqıyalardı obrazlar, belgiler hám kórinisler arqalı qabıl etedi [2]. Demek, jasırın ádeplilik kategoriyaların tikkeley túsindirmesten, olardı ertek qaharmanları mısalında kórsetiw unamlı nátiyje beredi. Bala jaqsılıq hám jamanlıqtı, hadallıq hám ótirik sóylewdi, batırlıq hám qorqaqlıqtı anıq obrazlar arqalı ańlap baslaydı. Bul bolsa ádeplilik túsinikleriniń ishki isenimlerine aylınıwına xızmet etedi.

L.Vıgotskiy táliymatında balanıń rawajlanıwı social ortalıq penen úzliksiz baylanıslı ekenligi kórsetip ótiledi. Ertekti tıńlaw, analiz qılıw hám onı sahnalastırıw processinde bala tárbiya hám teńlesleri menen belsene óz-ara sáwbetke kirisedi. Bul process onıń social tájiriybesin bayıtadı, sóylewin rawajlandıradı hám ádeplilik penen pikirlewin bekkemleydi [3]. L.Vıgotskiy tárepinen bildirilgen “jaqın rawajlanıw zonası” túsinigi tiykarında alıp qaraytuǵın bolsaq, ertekti analizlew balanıń erkin pikirlew dárejesin keńeytiredi hám ádep-ikramlılıqtı keń túrde túsiniwge járdem beredi.

Mektepke shekemgi jastaǵı balalardı belsendilik hám juwapkershiliktiń qáliplesiw máselesin E.Erikson ózinińń social psixologiyalıq rawajlanıw teoriyasında tiykarlap bergen. Onıń pikiri boyınsha, bul dáwirde balada belsendilik yamasa juwapkershilik sezimi qáliplesedi. Eger bala unamlı ádep-ikramlılıq úlgileri tiykarında tárbiyalansa hám óz is-háreketleri ushın juwapkershilikti sezetuǵın, belsene hám sociallıq maslasıwshań shaxs bolıp er jetedi [4]. Erteklerde qaharmanlardıń tańaw aldında qalıwı, mashqalalardı jeńiwi hám sońǵı ádalattıń ornatılıwı balaǵa durıs joldı tańlaw zárúr ekenligin kórsetedi.

Erteklerdiń ruwhıy ádep-ikramlılıq tárbiyadaǵı áhmiyeti olardıń psixologiyalıq tásir mexanizmi menen de baylanıslı boladı. Bala ertek qaharmanları menen identifikaciyalanadı, yaǵnıy ózin olardıń ornına qoyadı. Bul processte empatiya, mehir-múriwbet, kewilsheklik sıyaqlı unamlı páziyletler qáliplesedi. Psixolog B.Bettelheim erteklerdiń balalar ruwhiyatına terapiyalıq tásiri bar ekenligin aytıp, olar arqalı balanıń ishki qorqıw hám qáweterleniw sezimlerin jeńetuǵınlıǵın ilimiy tiykarda dálillegen. Erteklerde jawız kúshlerdiń jeńilisken ushırawı hám jaqsılıqtıń jeńiske erisiwi balada ádalatqa bolǵan isenimdi bekkemleydi [5].

Bul boyınsha milliy erteklerimiz ruwhıy qádiriyatlarımızdıń tiykarǵı deregi bolıp esaplanadı. Olarda miynet súygishlik, hadallıq, sabır-qanaat, úlkenlerge húrmet, doslıq hám Watandı súyiw sıyaqlı páziyletler en jaydırıladı. Máselen, “Zumrad hám Qımmat” erteginde miynet hám insandaǵı kemtarlıq qádirlenip, xoshjaqpaslıq, ashkózlik sıyaqlı qásiyetler qaralanadı. “Bay menen qambaǵal” erteginde bolsa ádalat hám insanıylıq ideyalar ilgeri súriledi. Bunday ertekler balalarǵa jaqsılıqtıń álbette bir-kún bolmasa bir kúni xoshametleniwi, jamanlıqtıń bolsa jaza tabıwı haqqındaǵı turmıslıq haqıyqatları ápiwayı hám túsinikli formada jetkeriledi. Jáhán erteklerinde de sonday ulıwma ádep-ikramlılıq principler sáwlelengenligin kóriwimiz múmkin. Máselen, Grimm ertekleri toplamındaǵı shıǵarmalar batırlıq, sabırlılıq hám miynetti qádirleydi.

Shıǵıs oyshıllarınıń dóretiwshiligine itibar qaratatuǵın bolsaq olar da bala tárbiyasına ayrıqsha itibar qaratqanlıǵın kóriwimiz múmkin. Atap aytqanda Abu Nars Farobiy kámil insandı tárbiyalaw jámiyet rawajlanıwınıń negizi ekenligin atap ótken bolsa, Alisher Nawayı shıǵarmalarında qayır-saqawat hám hadallıq ideyaları jetekshi orın iyeleydi. Ertekler usınday tarıyxıy-ruwhıy miyrastı balalardıń sanasına say túrde jetkeriw quralı retinde xızmet etedi.

Ertekler mektepke shekemgi jastaǵı balalardıń sóylew hám kognitiv rawajlanıwına da tikkeley tásir tiygizedi. Olar sóz baylıǵın jetilistiredi, kóz-qarasın hám fantaziyasın keńeytedi, sebep hám áqibet baylanısların túsiniwge járdem beredi. Bala ertektegi waqıyalardı qayta aytıp beriw processinde logikalıq pikirlewdi úyrenedi, waqıyalarǵa baha beredi hám belgili bir ózine tiyisli juwmaqtı shıǵaradı. Bul bolsa sananıń unamlı qáliplesiwine xızmet etedi. Máselen, ótirikti kóp qollanatuǵın qaharmannıń ertek sońında pushayman bolıwı balada rasgóyliktiń áhmiyetin túsiniwin bekkemleydi.

Zamanagóy mektepke shekemgi bilimlendiriw sistemasındaǵı erteklerden paydalanıw metodikalıq jaqtan bayıtılǵan. Mánili oqıw, rolli oyınlar, drammatizaciya, unamlı súwret sızıw hám analizlew usılları arqalı ertek mazmunın tereńirek ózlestiriwge járdem beredi. Ásirese, sahnalastırıw barısında bala obrazǵa kirip, qaharmannıń ishki keshirmelerin sezinedi. Bul bolsa ádep-ikramlılıq túsiniklerin ústirtin emes, al jeke tájiriybege aylanıwın támiyinleydi. Tárbiyashınıń baǵdarlawshı sorawları balanıń erkin pikirlewin rawajlandıradı hám unamlı juwmaqlardı shıǵarıwǵa járdem beredi.

Erteklerdiń profilaktikalıq áhmiyeti de úlken esaplanadı. Olar arqalı unamsız is-háreketlerdiń aqibetleri kórsetiledi. Ashkózlik, xoshjaqpaslıq, ótirikshilik yamasa qıyanet etiw sıyaqlı illetlerdiń jazalanıwı balanı bunday is-háreketlerden tiyiliw kerek ekenligin úyretedi. Yaǵnıy bala ertektegi waqıyalardan óz betinshe juwmaq shıǵaradı

hám bul onıń ishki isenimine aylanadı. Sonlıqtan da ertek ruwhıy ádep-ikramlılıq tárbiyanıń eń názik há§m nátiyjeli qurallarınan biri bolıp esaplanadı.

Juwmaqlap aytqanda, mektepke shekemgi jastaǵı balalardı ruwhıy ádep-ikramlılıq jaqtan tárbiyalawda ertekler áhmiyetli sanaladı. Olar balanıń dún'yaqarasın bayıtadı, aqlıy jaqtan jetilistiredi, sóylewin rawajlandıradı hám eń tiykarǵısı, onıń kewlinde jaqsılıq, ádalat hám mehir-múriwbet sezimlerin qáliplestiredi. Ilimiy teoriyalar hám kóp ásirlik pedagogikalıq tájiriybe ertekler arqalı berilgen ádep-ikramlılıq tárbiyanıń balanıń sanasında tereń hám bekkem ornatılatuǵınlıǵın tastıyıqlaydı. Sonlıqtan da mektepke shekemgi tálim processinde erteklerden maqsetli hám sistemalı paydalanıw, keleshek áwladtıń ruwhıy jaqtan jetilisiwin támiyinlewdiń tiykarǵı faktorı bolıp esaplanadı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Ózbekstan Respublikası Prezidenti Sh.M.Mirziyoev basshılıǵında «Mektepke shekemgi bilimlendiriw sistemasında ámelge asırılıp atırǵan reformalar hám keleshektegi wazıypalar»ǵa baǵıshlanǵan videoselektorda 2017-jıl 19-dekabr.

2. Jean Piaget. *The Moral Judgment of the Child*. New York: Free Press, 1932.

3. Lev Vygotsky. *Mind in Society*. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

4. Erik Erikson. *Childhood and Society*. New York: W.W. Norton, 1950.

5. Bruno Bettelheim. *The Uses of Enchantment*. New York: Knopf, 1976.

OYIN PLATFORMALARI ARQALI MEKTEPKE SHEKEMGI JASTAǴI BALALARDA LOGIKALIQ PIKIRLEW HÁM KREATIVLIKTI RAWAJLANDRIW METODIKASI

I.Abadbekova - NMPI Mektepke shekemgi tálim qánigeligi 1-basqısh magistrantı
Ilimiy basshı M.Allambergenova– p.i.d., professor

Búgingi kúnde bilimlendiriw sistemasın modernizaciyalaw, onıń sapasın hám nátiyjeliligin arttırıw mámleketlik siyasattıń tiykarǵı baǵdarlarınan biri bolıp esaplanadı. Ásirese, mektepke shekemgi bilim beriw basqıshi shaxs kamalınıń tiykarı bolıp, áyne usi dáwirde balalarda tiykarǵı intellektual, logikalıq hám dóretiwshilik qábiletler qáliplesedi. Sol sebepli mektepke shekemgi jastaǵı balalardıń logikalıq pikirlew hám kreativlik potencialın rawajlandırıw mashqalası zamanagóy pedagogikanıń áhmietli máselelerinen biri bolıp esaplanadı. Ózbekstan Respublikasında mektepke shekemgi bilimlendiriw sistemasın rawajlandırıwǵa qaratılǵan bir qatar normativlik-huqıqıy húǵjetler, sonıń ishinde, "Mektepke shekemgi bilimlendiriw hám tárbiya haqqında"ǵı Nızam, "2030-jılǵa shekem mektepke shekemgi bilimlendiriwdi rawajlandırıw koncepciyası" jáne mámleketlik bilimlendiriw standartlarında balalardıń erkin pikirlewi, mashqalalı jaǵdaylarda durıs qarar qabıl etiwi hám dóretiwshilik qatnasın qáliplestiriw áhiymetli wazıypa sıpatında belgilengen. Bul wazıypalardı ámelge asırıwda dástúriy oqıtıw usılları menen bir qatarda innovaciyalıq pedagogikalıq texnologiyalar hám zamanagóy oyın platformalarınan nátiyjeli paydalanıw talap etiledi. Mektepke shekemgi jastaǵı balalar ushın oyın jetekshi iskerlik túri esaplanadı. Oyın

procesinde bala qorshaǵan ortalıqtı ańlaydı, logikalıq baylanıslardı túsinedi, mashqalalardı sheshiwge háreket etedi hám óz kózqarasın erkin bildiredi. Ásirese, sanlı hám didaktikalıq oyın platformaları balalardıń jas hám psixologiyalıq ózgesheliklerine sáykes túrde logikalıq pikirlewdi rawajlandırıwshı tapsırmalardı, kreativ qatnastı talap etetuǵın wazıypalardı sistemalı túrde usınıw imkaniyatın beredi. Sonıń menen birge, oyın platformaları arqalı balalardıń qızıǵıwshılıǵı artadı, bilimlendiriw procesi motivaciyalanadı hám ózlestiriw nátiyjeliligi artadı. Házirgi kúnde mektepke shekemgi bilimlendiriw ámeliyatında oyınlardan keńnen paydalanılıp atırǵan bolsa da, áyne oyın platformaları tiykarında logikalıq pikirlew hám kreativlikti kompleksli rawajlandırıwǵa qaratılǵan metodikalıq sistema jeterli dárejede ilimiy tiykarlanbaǵan. Kópshilik jaǵdaylarda oyınlar fragmentar, maqsetsiz yamasa tek kewil ashar xarakterde qollanılmaqta. Bul bolsa oyın imkaniyatlarınan tolıq hám nátiyjeli paydalanıwǵa tosqınlıq etedi. Sol sebepli oyın platformaların tańlaw, olardı pedagogikalıq processke integraciyalaw, metodikalıq basqıshlar hám bahalaw kriteriyaların islep shıǵıw úlken ilimiy-ámeliy áhmietke iye.

Mektepke shekemgi jastaǵı balalarda logikalıq pikirlew hám kreativlikti rawajlandırıwda oyın platformalarınıń bilimlendiriw imkaniyatların anıqlaw hám olardı qollanıw metodikasın ilimiy tiykarlaw zárúrligi menen belgilenedi.

Oyın platformaları járdeminde mektepke shekemgi jastaǵı balalarda logikalıq pikirlew hám kreativlikti rawajlandırıwǵa qaratılǵan metodikalıq qatnastı islep shıǵıwdan ibarat.

Mektepke shekemgi jastaǵı balalarda logikalıq pikirlew hám kreativlik túsinikleriniń psixologiyalıq-pedagogikalıq mazmunın talqılaw. Mektepke shekemgi bilimlendiriw procesinde oyın platformalarınan paydalanıwdıń teoriyalıq tiykarların hám pedagogikalıq imkaniyatların anıqlaw. Oyın platformaları tiykarında logikalıq pikirlew hám kreativlikti rawajlandırıw metodların islep shıǵıw.

Zamanagóy bilim beriw sistemasında mektepke shekemgi tálim sistemasında eń áhmiyetli basqıshlardan biri bolıp esaplanadı. Bul dáwirde balanıń aqıl-oy rawajlanıwı, dúnya tanıwı hám shıǵarmashılıq qabiletleri qaliplesedi. Sonıń ushın pedagoglar hám ata-analar balalardıń logikalıq pikirlewin hám kreativligin rawajlandırıwǵa ayrıqsha itibar beriwleri kerek. Bul maqsetke jetisiwde oyın platformaları eń nátiyjeli qural bolıp tabıladı.

Oyın platformaları – balalar ushın arnawlı islep shıgılgan oyın ortalıqları bolıp, olar arqalı bala oyın procesinde jańa bilim hám kónlikpelerdi iyeleydi. Bularǵa dástúriy oyınlar stol oyınları, konstruktorlar hám sanlı kompyuter, mobil qosımshalar platformalar kiredi.

Mektepke shekemgi jasta logikalıq pikirlewdi rawajlandırıw úshın tómendegi oyınlar qollanıladı:

- Bilim beriwshi tapsırmalar (artıq zattı tabıw, qatelikti anıqlaw)
- Konstruktor oyınları (qurılıs jasaw, model jıynaw)
- Klassifikaciya oyınları (zattardı toparlaw)

Bul oyınlar balalarda analiz, salıstırıw hám sistemalı oylaw qabiletlerin rawajlandıradı.

Mektepke shekemgi tálim shólkemlerinde tiykarǵı bilim beriw forması bul- oyın bolıp esaplanadı, sebebi balalar oyın arqalı jana bilimlerdi iyeleydi hám sonıda aytıp ótiwmiz kerek oyın platformalarınan paydalanǵanda tómendegi qaǵıydalarǵa ámel etiw kerek.

Birinshiden, oyınlardı durıs tańlaw oyınlar balalardıń jasına mas, tálim maqsetlerine jóneltrilgen hám qáwipsiz oyınlar tańlaw maqsetke muwapıq bolıp esaplanadı.

Ekinshiden, oyın waqtın sheklew balalardıń den sawlıǵı hám rawajlanıwı ushın oyın waqtın mugdarın saqlaw lazım.

Úshinshiden, toparlıq oyınlarga itibar qaratıw balalatrdıń sociyalıq kónlikpelerin rawajlsndrıwushın toparlıq oyınlardı shólkemlestriw paydalı boladı.

Juwmaqlap aytqanda oyın platformaları mektepke shekemgi jastaǵı balalarda logikalıq pikirlew hám kreativlikti rawajlandırıwdıń eń tiykargı quralı bolıp tabıladı. Durıs rejelestrilgen oyınlar arqalı bala tek bilim alıp qalmay, óz betinshe pikirley alatugın, shıǵarmashılıq qabiletke iye jeke shaxs retinde rawajlanadı.

Paydalanǵan ádebiyatlar:

1. Mektepke shekemgi tálim pedagogikası 2012-jıll
2. Ilk qadam mamleketlik oqıw dásturi 2018- jıll 3-iyul

ELEMENTAR MATEMATIKA FAOLIYATI ORQALI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MANTIQIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING AMALIY ASOSLARI

Ubaydullaeva Miyassar. Ajiniyoz nomidagi NDPI 1 kurs magistranti
L.Ibragimova-Maktabgacha ta'lim kafedrasi dotsenti

Kalit so'zlar: elementar matematika, mantiqiy fikrlash, maktabgacha yosh, didaktik o'yinlar, taqqoslash, analiz, muammoli vaziyat, rivojlanish.

Ключевые слова: элементарная математика, логическое мышление, дошкольный возраст, дидактические игры, сравнение, анализ, проблемная ситуация, развитие.

Keywords: elementary mathematics, logical thinking, preschool age, didactic games, comparison, analysis, problem situation, development

Maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, mantiqiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o'qishning muhim sharti sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan, elementar matematika faoliyati bolalarning kognitiv rivojlanishida muhim pedagogik vosita bo'lib xizmat qiladi. Elementar matematika faoliyati - bu bolalarda son, miqdor, shakl, fazoviy munosabatlar va vaqt haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirishga qaratilgan tizimli pedagogik jarayondir. Ushbu faoliyat orqali bolalarda analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish kabi mantiqiy operatsiyalar rivojlanadi.

Elementar matematika faoliyati maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu faoliyat davomida bolalar son, shakl, miqdor, fazoviy joylashuv kabi tushunchalar bilan tanishib boradilar. Biroq bu jarayon faqat bilim berish bilan cheklanmaydi. Eng muhimi shundaki, bola ushbu tushunchalarni o‘zlashtirish jarayonida fikrlashni o‘rganadi. Masalan, bola ikkita predmetni solishtirar ekan, u qaysi biri katta yoki kichikligini aniqlash uchun ularni tahlil qiladi, farqlarini topadi va xulosa chiqaradi. Bu esa mantiqiy fikrlashning eng sodda, ammo muhim ko‘rinishidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlashi ko‘rgazmali-amaliy xarakterga ega bo‘ladi. Ya’ni ular ko‘proq real predmetlar bilan ishlash orqali bilimni o‘zlashtiradilar. Shu sababli elementar matematika mashg‘ulotlari faqat og‘zaki tushuntirish bilan emas, balki amaliy faoliyat orqali tashkil etilishi zarur. Masalan, bolaga “uzun” va “qisqa” tushunchasini tushuntirishdan ko‘ra, ikki xil uzunlikdagi predmetlarni berib, ularni solishtirish samaraliroq natija beradi. Bola o‘z qo‘li bilan solishtirganda, bu tushuncha uning ongida mustahkamroq shakllanadi.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda didaktik o‘yinlar ham muhim ahamiyatga ega. O‘yin jarayonida bola erkin harakat qiladi, xato qilishdan qo‘rqmaydi va faol fikrlaydi. Masalan, “Ortiqchasini top” o‘yini davomida bola berilgan predmetlar orasidan ortiqchasini aniqlashga harakat qiladi. Bu jarayonda u predmetlarni solishtiradi, umumiy va farqli jihatlarni ajratadi va yakunda xulosa chiqaradi. Shu tariqa oddiy o‘yin orqali murakkab fikrlash jarayoni amalga oshadi.

Bundan tashqari, muammoli vaziyatlar yaratish metodi ham mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Agar bola qurayotgan minora yiqilib tushsa, unga darhol yordam berish o‘rniga “Nega yiqildi?” degan savol berish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv bola tomonidan sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlashga, xatoni tushunishga va yangi yechim topishga yordam beradi. Natijada bola mustaqil fikrlashga o‘rganadi. Shuningdek, predmetlarni guruhlash va klassifikatsiya qilish faoliyatlari ham muhim o‘rin tutadi. Masalan, bolaga turli rangdagi va shakldagi predmetlar berilib, ularni ma’lum belgilariga ko‘ra ajratish so‘raladi. Bu jarayon bolaning mantiqiy tartiblash, tizimlashtirish va umumlashtirish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ayniqsa, bu kabi mashg‘ulotlar bolalarda analitik fikrlashni shakllantirishda samarali hisoblanadi. Umuman olganda, elementar matematika faoliyati orqali bolalar faqat matematik bilimlarni emas, balki hayotiy muammolarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan fikrlash ko‘nikmalarini ham egallaydilar. Bu esa ularning kelajakdagi ta’lim faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Nega aynan matematika mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi? Matematika bolani o‘ylashga majbur qiladi. U shunchaki eslab qolmaydi - balki: solishtiradi, tanlaydi va xulosa qiladi. Masalan, agar bolaga 2 ta va 3 ta kubik berib: “Qaysi ko‘p?” desangiz bola sanaydi, o‘ylaydi va javob beradi. Bu oddiy ko‘rinishi mumkun, lekin bu - analiz va taqqoslash jarayoni.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ko‘rgan narsasi orqali o‘rganadi, qo‘li bilan ishlasa yaxshiroq tushunadi va o‘yin orqali tezroq qabul qiladi. Masalan, “uzun-qisqa”ni tushuntirishda qo‘liga 2 ta tayoq berib solishtirish samaraliroq hisoblanadi.

Shuning uchun matematika faqat tushuntirilmaydi - ko‘rsatiladi va bajariladi.

Amaliy mashg‘ulotlar orqali rivojlantirish ham eng samarali usul hisoblanadi, sababi bunda bola o‘zi ishlaydi. Masalan, kubiklardan uy qurish, rangiga qarab ajratish, shakllarni joylashtirish va b.. Bola bu jarayonda o‘ylaydi, xato qiladi va uni to‘g‘rilashga harakat qiladi. Va aynan shu jarayon mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.

Bolalar didaktik o‘yinlar orqali ham juda yaxshi o‘rganadi. Masalan, “Ortiqchasini top” o‘yini (3 ta olma, 1 ta koptok - qaysi ortiqcha?). Bola solishtiradi, farqni topadi va javob beradi. Bu bilan bolani analiz qiladi va xulosa chiqaradi deb aytishimizga bo‘ladi.

Muammoli vaziyatlar yaratish- bu eng kuchli metodlardan biri hisoblanadi. Masalan, bola minora qurdi va u yiqildi. Siz darhol yordam bermaysiz. Balki unga “Nega yiqildi deb o‘ylaysan?” deb savol berasiz. Shunda bola sababni izlaydi, xulosa qiladi va qayta urinadi. Bu esa haqiqiy mantiqiy fikrlash bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, elementar matematika faoliyati bolalarga faqat sonlarni emas, balki to‘g‘ri fikrlashni o‘rgatadi. Ayniqsa, o‘yin, amaliy ish va savollar orqali tashkil etilgan mashg‘ulotlar bolalarda mantiqiy fikrlashni samarali rivojlantiradi. Eng muhimi - bolaga tayyor javob berish emas, balki uni o‘ylashga o‘rgatishdir. Shunda bola mustaqil fikrlaydigan shaxs bo‘lib shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. - Toshkent, 2022.

2. Sh.Sodikova**.** Maktabgacha pedagogika**.** - Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.

3. Djanpeisova G.E., Juraeva N. Matematika- aql va zakovat kaliti. Uslubiy qo’llanma T.: “Innovatsiya-Ziyo”, 2020 y.

4. Grosheva I.V. va boshqalar. O’yin orqali ta’lim olish. Uslubiy qo’llanma. T.: O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi O’zbekiston BMT Xalqaro bolalar fondi (YUNISEF), 2020 y.

MEKTEPKE SHEKEMGI BILIMLENDIRIW SHÓLKEMI DIREKTORINIŃ TÁLIM-TÁRBIYA SIPATIN ASIRIWDA BASQARIW ISKERLIGINDE INNOVACIYALARDI ENGIZIW SHÁRTLERI

N.Orazbaeva - NMPI Mektepke shekemgi tálim qánigeligi 1-basqısh magistrantı

K.Tleumbetova – Mektepke shekemgi tálim kafedrası docenti

Mámleketimizde mektepke shekemgi bilimlendiriw sistemasın túp-tiykarınan jetilistiriw, onı zaman talapları tiykarında rawajlandırıw mámleketlik siyasattıń tiykarǵı baǵdarlarınan biri bolıp esaplanadı. Atap aytqanda, Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2019-jıl 8-maydaǵı PQ-4312-sanlı qararı hám Ózbekstan Respublikasınıń "Mektepke shekemgi bilimlendiriw hám tárbiya haqqında"ǵı Nızamı mektepke shekemgi bilimlendiriw sistemasında sapanı arttırıw, innovaciyalıq kózqaraslardı engiziw hám basqarıw nátiyjeliligin támiyinlewdiń huqıqıy tiykarın belgilep berdi. Zamanagóy mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemi direktorı tek ǵana hákimshilik basshı emes, al innovaciyalıq basqarıwshı sıpatında da jumıs alıp barıwı talap etiledi. Ilimiy izertlewlerge qaraǵanda, bilimlendiriwdiń sapasın arttırıwda basshınıń

strategiyalıq pikirlewi, innovaciyalarǵa ashıqlıǵı hám jámáátti birlestiriw qábileti sheshiwshi áhmiyetke iye.

Innovaciya túsinigi bilim beriw procesine jana ideya, texnologiya hám usıllardı engiziwdi ańlatadı. Mektepke shekemgi bilimlendiriwde bul, bárinen burın, balalardıń rawajlanıw ózgesheliklerine sáykes, interaktiv hám kompetenciyalıq qatnasıqlarǵa tiykarlanǵan bilimlendiriwdi shólkemlestiriw menen baylanıslı.

Mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemi direktorınıń basqarıw iskerligine innovaciyalardı engiziwinde tómendegi shártler talap etiledi:

Birinshiden, normativlik-huqıqıy tiykarlarǵa súyeniw. Bilimlendiriw procesin shólkemlestiriwde mámleketlik bilimlendiriw standartları hám aldınǵı sırt el tájiriybelerin esapqa alıw áhmiyetli. Atap aytqanda, Mektep hám mektepke shekemgi bilimlendiriw ministrligi tárepinen islep shıǵılǵan mámleketlik talaplar hám baǵdarlamalar tiykarında jumıs alıp barıw bilimlendiriwdiń sapasın támiyinleydi.

Ekinshiden, sanlı hám málimleme texnologiyaların engiziw. Zamanagóy basqarıwda elektron húJjet aylanısı, monitoring sistemaları, onlayn bilimlendiriw platformaları áhmietli orın ieleydi. Bul bolsa basqarıw qararların tez hám nátiyjeli qabıl etiw imkaniyatın beredi.

Úshinshiden, pedagog kadrlardıń potencialın arttırıw. Ilimiy izertlewler sonı kórsetedi, bilimlendiriwdiń sapası, bárinen burın, tárbiyashılardıń kásiplik sheberligine baylanıslı. Sol sebepli direktor tárepinen turaqlı túrde qánigelik arttırıw kursları, seminar hám treningler shólkemlestiriliwi zárúr.

Tórtinshiden, innovaciyalıq ortalıq jaratıw. Jámáátte dóretiwshilik, intakerlik hám erkin pikir almasıwdı qollap-quwatlaw innovaciyalardıń nátiyjeli engiziliwine xızmet etedi. Bunday ortalıqta hár bir pedagog óz ideyaların ámeliyatqa engiziw imkaniyatına iye boladı.

Besinshiden, ata-analar menen birge islesiwdi kúsheytiw. Mektepke shekemgi bilimlendiriw procesinde shańaraq hám bilimlendiriw shólkemi arasındaǵı úzliksiz baylanıs balanıń hár tárepleme rawajlanıwında áhmiyetli faktor esaplanadı. Sonday-aq, innovaciyalıq basqarıwda pedagogika hám basqarıw teoriyası jetiskenliklerinen nátiyjeli paydalanıw, strategiyalıq rejelestiriw, nátiyjelerdi bahalaw hám tallaw sistemasın engiziw úlken áhmiyetke iye.

Mektepke shekemgi bilimlendiriw sisteması jámiyet rawajlanıwında áhmiyetli orın tutadı. Ásirese, jas áwladtıń hár tárepleme bárkamal bolıp kamalǵa keliwinde mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemleri hám olarǵa basshılıq etetuǵın direktordıń iskerligi úlken áhmiyetke iye. Ózbekstan Respublikası Mektepke shekemgi hám mektep ministrliginiń 2024-jıll 16 - oktyabrdegi 334-sanlı buyrıǵında qabıl etilgen mine usı tarawdı tártipke salıwǵa qaratılǵan áhmiyetli húJjetlerden biri bolıp esaplanadı. Usı qararǵa muwapıq, mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkeminiń direktorı tálim-tárbiya procesin nátiyjeli shólkemlestiriw ushın juwapker esaplanadı. Sonıń menen birge, pedagogikalıq keńes penen birgelikte shólkemdi rawajlandırıw strategiyası, maqset hám wazıypaları, tálim-tárbiya procesin hám bilimlendiriwdiń sapasın jaqsılawdıń tiykarǵı baǵdarların belgilew; shólkemniń perspektivalı hám jıllıq jumıs rejesin, oqıw-tema rejelerin, jıllıq kalendar oqıw baǵdarlamaların tastıyıqlaw, pedagog hám qánigeleriniń jumıs rejelerin kórip shıǵıw hám tastıyıqlaw, olardıń tolıq hám sapalı

orınlanıwı ústinen qadaǵalaw; shtatlar kestesi hám tarifikaciya dizimleri, miynet dem alısı kestesin tastıyıqlaw; shólkemdi joqarı kompetentli, sheber hám maman qánige kadrlar menen támiyinlew; aymaqtaǵı balalardıń mektepke shekemgi bilimlendiriw menen tolıq qamtıp alınıwın támiyinlew; 6 jasar balalardı mektepke tayarlaw toparları menen tolıq qamtıp alınıwın támiyinlew kerekligi belgilep ótilgen.

Mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemi direktorı mámleketlik bilimlendiriw standartları tiykarında oqıw-tárbiya jumısların jolǵa qoyadı hám balalardıń fizikalıq, aqılıy hám ruwxıy rawajlanıwı ushın zárúr sharayatlardı jaratadı. Bul processte ol pedagog xızmetkerlerdiń jumısın muwapıqlastıradı hám olardıń kásiplik sheberligin arttırıwǵa ayrıqsha itibar beriwi lazım. Sonday-aq, direktor mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkeminde ishki tártip-intizamdı támiyinleydi. Xızmetkerlerdiń miynet iskerligin qadaǵalaydı, olardıń huqıqları menen minnetlemelerine ámel etiliwin baqlap baradı. Bul bolsa shólkemde salamat jumıs ortalıǵın qáliplestiriwge xızmet etedi.Finanslıq hám xojalıq máseleleri de direktor juwapkershiligindegi áhmiyetli wazıypalardan biri. Ol ajıratılǵan qarjılardan aqılǵa say paydalanıwdı shólkemlestiredi, shólkemniń materiallıq-texnikalıq bazasın bekkemlewge háreket etedi. Sonıń menen birge, balalardıń ómirin hám densawlıǵın qorǵaw, sanitariyalıq-gigienalıq talaplarǵa ámel etiliwin támiyinlew de onıń tiykarǵı wazıypalarınan esaplanadı. Direktor ata-analar menen de tıǵız birge islesedi. Olar menen turaqlı ushırasıwlar ótkerip, balalardıń tárbiyası hám rawajlanıwı boyınsha pikir alısadı. Bul bolsa bilimlendiriw procesiniń nátiyjeliligin jáne de arttıradı.

Juwmaqlap aytqanımızda, mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemi direktorı tárepinen basqarıw iskerligine innovaciyalardı engiziw tálim-tárbiya sapasın arttırıwdıń tiykarǵı faktorlarınan biri bolıp esaplanadı. Bul process kompleksli qatnastı, zamanagóy bilim hám kónlikpelerdi, sonday-aq, normativlik-huqıqıy húJjetlerge súyengen halda nátiyjeli basqarıwdı talap etedi.

Paydalanǵan ádebiyatlar:

1. O'z.R. Mektepke shekemgi hám mektep ministrliginiń 2024-jıll 16 - oktyabrdegi 334-sanlı buyrıǵı.

KOGNITIV PEDAGOGIKALİQ METOD HÁM TEXNOLOGIYALARDİŃ UQİPLİLİQTİ RAWAJLANDİRİW ANALITIKASİ

Pazılov Mirbek Arzıevich -Ájiniyaz atındaǵı Nókis memleketlik pedagogikalıq institutı Mektepke shekemgi tálim kafedrası úlken oqıtıwshısı, p.i.f.d (PhD)

Tayanısh sózler: Kognitiv tásiller, uqıplılıq, analitika, Metakognitiv, faktor, intellektual, princip, Artpedagogika, francuz, Art-terapiya, koncepciya, muzıka, nerv, pedagogika, qábilet, dóretiwshilik.

Búgingi kúnde bilimlendiriw sistemasında ámelge asırılıp atırǵan keń kólemli reformalar oqıtıwdıń sapasın arttırıw, oqıwshılardıń intellektual potencialı hám uqıp-qábiletlerin rawajlandırıwǵa baǵdarlanǵanlıǵı menen xarakterlenedi. Ózbekstan

Respublikası Prezidentiniń “Ózbekstan Respublikası Xalıq bilimlendiriw sistemasın 2030-jılǵa shekem rawajlandırıw koncepciyasın tastıyıqlaw haqqında”ǵı 2019-jıl 29-aprelde qabıl etilgen Pármanına muwapıq “Oqıtıw metodikasın jetilistiriw, tálim-tárbiya processine individuallastırıw principlerin basqıshpa-basqısh en jaydırıw” [1] máseleleri belgilep qoyılǵan. Usı kózqarastan, kognitiv tásiller arqalı oqıwshılardıń uqıplılıǵın rawajlandırıw analitikasi tálim procesin ilimiy tiykarda shólkemlestiriw imkaniyatın beredi.

Dun’yada oqıwshılardıń uqıplılıǵın rawajlandırıwda standart oqıtıw sisteması qanaatlandıra almaytuǵınlıǵın, bul boyınsha kóplegen talap hám usınıslardıń bar ekenligin esapqa alıp, uqıplı balalar menen islesiwdiń arnawlı dástúrleri jaratılıp basladı. Sonıń menen bir qatarda oqıw processinde kórkem-ónerge baylanıslı shınıǵıwlardıń insanniń qáliplesiwindegi tásiri, tábiyatı, nızamlılıqları, principleri hám mexanizmlerin úyrenetuǵın ilimiy baǵdar qáliplesti. Atap aytqanda art-pedagogika-ámeliyatqa baǵdarlanǵan hám zamanagóy gumanitar bilimlerge say túsiniklerdi birlestiriw tendenciyasın ózinde tolıq qamtıydı.

Dún’yanıń rawajlanǵan mámleketlerinde kórkemlep oqıtıw potencialınıń tásirsheńligine qaramastan, oqıw procesinde qollanılmay kiyatırǵanlıǵı ilimpazlardıń ilimiy shıǵarmalarında kózge taslanadı. Negizinde bolsa art-pedagogika mektep táliminiń jańa baǵdarı sıpatında oqıtıw processinde payda bolǵan máselelerdi saplastırıwı múmkin hám zamanagóy shárayatlarda onı turaqlı túrde ámelge asırıwda barlıq imkaniyatlardıń jaratılǵanı ahmiyetli esaplanadı.

Artpedagogikanıń sózliktegi mánisine itibar qaratatuǵın bolsaq, francuz tilinde artiste – xudojnik, latınshı – ars (artis) – ónerment, kórkem-óner, sheberlik degen mánilerdi bildirib, hár túrli kórkem hám dóretiwshilik islerde rawajlanıw, ámeliy kónlikpelerdi ózlestiriwinde qanday da bir mashqalalarǵa dus kelgen balalardıń kórkem mádeniyatın qáliplestiriw korrekciyasına baǵdarlanıw processinde pedagogika hám kórkem-óner arasındaǵı óz-ara múnasibetlerdiń teoriyalıq hám ámeliy máselelerin úyrenetuǵın pedagogika tarawı” [2] ekenligin kóriwimiz múmkin. Kórkem-óner hám art-terapiyanıń qosındısınan payda bolǵan art-pedagogika, oqıwshınıń jeke ózgesheligine, ruwxiyatına hám ádep-ikramlılıǵına tárbiyalıq tásir kórsetiw ushın óner túrleri hám dóretiwshilik iskerliktiń kórkemlik jaqtan (art iskerlik) jetilisken formaların qollanıwǵa tiykarlanadı.

Ilimiy izertlewlerdiń ózine say unamlı nátiyjelerine tiykarlanıp, rásmiy túrde XX ásirde ruwxıy keselliklerdi emlew ushın terapiyalıq funkciya retinde Angliyalı M.Richardson hám francuz xudojnigi J.Debuffeler tárepinen súwretlerdegi sanasız processlerdi úyreniw quralı sıpatında art-terapiya qollanılıp baslaǵan. Sonday-aq bul atama Adrian Xill tárepinen rak keselligine shalınǵan nawqaslarǵa súwretlew óneri sabaqların oqıtıw processlerinde paydalanılǵan. Bunnan keyin art-terapiya ataması kórkem-ónerge baylanıslı sabaqlardıń barlıq túrlerinde, atap aytqanda muzıka terapiya, drama terapiya, ayaq oyın háreketleri terapiyası x.t.b. de keń en jaydırılǵan.

Art-terapiya koncepciyası psixologiyalıq mashqalalardı sheshiw ushın nawkaslardıń dóretiwshilik jumıslarınan paydalanıp psixoterapiya hám psixokorrekciya metodlarınıń kompleksine aylanǵan. G.A.Qasen., A.B.Aytbaevalardıń shıǵarmalarında “Muzıka terapiya-bul muzıkalıq hám akustikalıq tásirlerdiń járdeminde insanniń

fizikalıq hám ruwxıy salamatlaǵın psixologiyalıq dúzetiw sisteması" [3] - dep túsindirip, muzıkanıń hár túrli terapiyalıq tásirlerdi payda etetuǵınlıǵın aytıp ótedi. Álbette, muzıkanıń insan turmısında belsene tásirsheńliginde passich, individual hám toparlı muzıka terapiyası tiykarǵı rol' atqaradı. Bul bolsa insan organizminiń názik nerv sistemalarına tásir etiwi menen birge, psixologiyalıq ózgerisler ushın barlıq shárayatlardı jaratadı, sonday-aq, bala ushın zárúr bolǵan sırtqı hám ishki psixologiyalıq ortalıqtı qáliplestiredi.

Dún'yanıń jetekshi kompaniyalarınıń joqarı abıroy hám mol tabısqa erisiw sırı úzliksiz hám innovaciyalıq ideyalardı alǵa súriwinde, jańalıqqa umtılıwshılıǵında hám dóretiwsheńlik qábiletlerinde kórinedi. Dóretiwsheńlik bolsa innovaciyalardıń dvigateli bolıp, belgilengen mashqalalı wazıypalardı orınlaw hám onıń sheshimin anıq hám tez tabıw arqalı nátiyjege erisiw sıyaqlı maqsetler menen belgilenedi. Dóretiwsheńlik metodologiyasınıń axmiyeti boyınsha dún'yaǵa belgili iri Boeing, Samsung, Bosch, Ford, Intel, Philips h.t.b kompaniyalar ózleriniń potenciyal kórsetkishleriniń joqarı ekenligin dálilley alǵan. Bul bolsa dóretiwsheńlik, oylap tabıw sıyaqlı mashqalalardı sheshiw teoriyası (TRIZ)nda jetekshi orın iyeleydi.

"TRIZ – bul insan pikirin mashqalanı tásirsheń sheshimge baǵdarlawǵa imkaniyat beretuǵın sistema. Ol algoritmge (ARIZ) muwapıq isleydi hám ámelge asırıw ańsat bolǵan tayar sheshimdi tabıwǵa járdem beredi" [4]. Bul jerde tiykarǵı qıyınshılıq algoritm qaǵıydalarına ámel etiw hám onıń qalay islewin túsiniwden ibarat. "Algoritm óz-ara baylanıslı bloklardıń izbe-izligi kórsetilgen, olardıń hár biri, bir yamasa bir neshe háreketlerdiń orınlanıwına mas keledi. Algoritmniń grafikalıq kórinisi aǵım sxeması dep ataladı. Aǵım sxeması algoritmniń dúzilisin belgileydi" [5]. Bul arqalı mashqalanı úyreniw hám mashqala sheshiminiń tez hám anıq tabıw imkaniyatınıń sistemaları payda boladı. "ARIZ-óz-ara baylanıs bolǵan logikalıq hám evristikalıq basqıshlardıń izbe-izligi bolıp, bul arqalı mashqala qáliplestiriledi, qarama-qarsılıq anıqlanadı, oǵan qarsı ideya izlenedi. Tabılǵan ideyanı bahalaw hám onı jetilistiriw ámelge asırıladı" [6]. Yaǵnıy dóretiwsheńlik mashqalaların sheshiw algoritmi arqalı alıp barıladı.

Bunı álbette mektepke shekemgi jasındaǵı balalar menen islew ámeliyatlarında, ulıwma bilim beriw mekteplerinde kórkem dóretiwshilik arqalı óz ústinde islew kónlikpelerin qáliplestiriw arqalı tálim-tárbiya processin jetilistiriw basqıshlarında kóriwimiz múmkin. Degen menen muzıkalıq bilimdi jetilistiriw, muzıkalıq túsiniklerdi, muzıkadaǵı waqıyalardı, ondaǵı dún'yanı, sezim hám keshirmelerdi kewilden seziwdi úyretiw, tek ǵana atqarıw óneri arqalı emes, al individual dóretiwshilik arqalı da kórsetiw zárúrligi artıp baratırǵanlıǵın kóriwimiz múmkin.

Juwmaqlap aytqanda, kognitiv tásiller arqalı oqıwshılardıń uqıplılıǵın rawajlandırıw zamanagóy oqıtıw procesiniń áhmiyetli metodologiyalıq baǵdarlarınıń biri bolıp esaplanadı. Bul oqıwshılardıń biliw processlerin tereń analiz etiw, olardıń jeke kognitiv imkaniyatların anıqlaw hám rawajlandırıwǵa baǵdarlanǵan bolıp, oqıtıw nátiyjeliligin arttırıwda úlken áhmiyetke iye. Bunday shólkemlestirilgen oqıtıw procesi oqıwshılardıń óz betinshe pikirlewi, analitikalıq oylawı hám de dóretiwshilik potencialın sistemalı túrde rawajlandırıw imkaniyatın beredi.

Analiz nátiyjeleri bolsa sonı kórsetedi, uqıplılıqtı rawajlandırıw procesinde oqıwshılardıń tek bilim dárejesin emes, al olardıń pikirlew strategiyaları, mashqalalı

jaǵdaylarda oylaw usılları hám metakognitiv kónlikpelerin qáliplestiriw áhmiyetli ekenligin kórsetedi. Sonlıqtan, kognitiv tásiller insandaǵı uqıplılıqtı tuwma pázilet sıpatında emes, al maqsetli pedagogikalıq tásir hám qolaylı oqıw-bilim beriw ortalıǵında rawajlanıwshı dinamikalıq process sıpatında túsindiredi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni. Toshkent 29-aprel 2019-yil.
2. В.И.Загвязинский, А.В.Закирова «Педагогический словарь» Москва Издательский центр «Академия»-2008. /352 стр. /182-стр/
3. Г.А.Қасен, А.Б.Айтбаева «Арт-педагогика и арт-терапия в инкулюзывном образовании» (Учебный пособие «Алматы-Қазақ университети»-2019. 184 стр /24-стр/
4. Л.В.Бутор, Т.А.Сахнович «Теория решения изобретательских задач» уч.мет.пос Минск БНТУ-2023. 70 стр /4-стр/
5. Туаева М.Т. «Алгоритмы основы алгоритмизации» уч.пос Владикавказ-2020. 49-стр /5-стр/
6. А.Барышников «Алгоритм решения изобретательских задач» https://www.inventech.ru

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI ROBOTOTEXNIKA ELEMENTLARI BILAN TANISHTIRISH METODIKASI

Axmedova Gulruh-Maktabgacha ta’lim yo’nalishi 2 kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur tezisda maktabgacha yoshdagi bolalarni robototexnika elementlari bilan tanishtirish metodikasi yoritilgan. Maktabgacha ta’lim bosqichida bolalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish, ularni zamonaviy bilimlar bilan tanishtirishda robototexnika masalasi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, robototexnika**,** qiziqish**,** maktabgacha yosh**,** metod, mashg‘ulot**.**

Аннотация. В данном тезисе освещена методика ознакомления детей дошкольного возраста с элементами робототехники. Проанализирована роль робототехники в развитии интеллектуального потенциала детей на этапе дошкольного образования и в ознакомлении их с современными знаниями.

Ключевые слова: дошкольное образование, робототехника, интерес, дошкольный возраст, метод, занятие.

Abstract. This thesis highlights the methodology for introducing preschool children to robotics elements. The role of robotics in the development of children's intellectual potential at the preschool education stage and in familiarizing them with modern knowledge has been analyzed.

Keywords: preschool education, robotics, interest, preschool age, method, lesson.

Hozirgi globallashuv va texnologiyalar tez rivojlanayotgan davrda ta’lim tizimiga innovatsion yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim bosqichida bolalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish, ularni zamonaviy bilimlar bilan tanishtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, robototexnika elementlarini ta’lim jarayoniga kiritish bolalarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

Robototexnika - bu texnika, dasturlash va muhandislik elementlarini o‘zida mujassam etgan integratsiyalashgan yo‘nalish bo‘lib, bolalarda mantiqiy fikrlash, ijodkorlik va muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatlarini shakllantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni robototexnika elementlari bilan tanishtirish esa ularda texnologik tafakkur asoslarini shakllantirishga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar atrof-muhitni o‘rganishga juda qiziquvchan bo‘ladilar. Ularning bu qiziqishini to‘g‘ri yo‘naltirish orqali bilim olish jarayonini samarali tashkil etish mumkin. Robototexnika elementlari bolalarda qiziqish uyg‘otuvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Robototexnika bilan shug‘ullanish bolalarda mantiqiy fikrlash, diqqat va xotira, muammolarni hal qilish qobiliyati, ijodkorlik va tasavvur, jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bundan tashqari, robototexnika bolalarni kelajak kasblariga tayyorlashda dastlabki bosqich hisoblanadi.

3-7 yosh oralig‘idagi bolalar faoliyatining asosiy turi - bu o‘yin hisoblanadi. Shu sababli, har qanday ta’lim jarayoni o‘yin bilan uyg‘unlashtirilgan holda tashkil etilishi zarur. Robototexnika mashg‘ulotlarini ham o‘yin shaklida olib borish samaradorlikni oshiradi. Bu yoshdagi bolalarga quyidagilar xos ko‘rgazmali fikrlash ustunligi, qisqa muddatli diqqat, qiziqish orqali o‘rganish va faol harakatga ehtiyoj.

Shuning uchun robototexnika elementlari oddiy, rang-barang va tushunarli shaklda taqdim etilishi lozim.

Maktabgacha ta’limda robototexnika murakkab texnik tushunchalar orqali emas, balki sodda elementlar orqali o‘rgatiladi. Bunda quyidagi metodlardan foydalanish tavsiya etiladi:

- O‘yin metodi. Bolalar robototexnikani o‘yin orqali tezroq o‘zlashtiradilar. Masalan, konstruktor yig‘ish, robot o‘yinchoqlar bilan ishlash va rolli o‘yinlar.
- Ko‘rgazmali metod. Rangli detallar, modellar va oddiy mexanizmlar orqali tushuntirish bolalar uchun samarali hisoblanadi.
- Amaliy faoliyat metodi. Bolalar o‘z qo‘llari bilan qurish, sinash va natijani ko‘rish orqali bilimni mustahkamlaydilar.
- Muammoli vaziyat yaratish. Masalan, “Qanday qilib mashinani harakatlantiramiz?” kabi savollar orqali bolalarning fikrlashi rivojlantiriladi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida robototexnika mashg‘ulotlarini tashkil etishda, mashg‘ulotlar quyidagi bosqichlarda tashkil etilishi maqsadga muvofiq:

1. Motivatsiya bosqichi - bolalarda qiziqish uyg‘otish.
2. Tushuntirish bosqichi - oddiy va tushunarli tarzda ko‘rsatish.
3. Amaliy faoliyat - mustaqil yoki guruhda ishlash.
4. Natijani baholash – bajarilgan ishni muhokama qilish.

Mashg‘ulotlar qisqa, qiziqarli va interaktiv bo‘lishi lozim.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida robototexnika bilan shug‘ullanish uchun maxsus muhit yaratish muhim, bolalar uchun konstruktorlar (LEGO va boshqalar), oddiy mexanik o‘yinchoqlar, xavfsiz texnik vositalar va rangli va jalb etuvchi materiallar bo‘lishi lozim. Bunday muhit bolalarda mustaqil faoliyatni rag‘batlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarni robototexnika elementlari bilan tanishtirish zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bu jarayon bolalarning intellektual, ijodiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Robototexnika orqali bolalar mantiqiy fikrlashni o‘rganadilar, muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini egallaydilar va yangi bilimlarga qiziqishlari ortadi. Shuningdek, robototexnika mashg‘ulotlarini o‘yin asosida tashkil etish, bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. To‘g‘ri tashkil etilgan pedagogik jarayon orqali bolalarda texnologik tafakkur shakllanadi va ular kelajak ta’lim bosqichlariga tayyorlanadi.

Umuman olganda, robototexnika elementlarini maktabgacha ta’lim tizimiga joriy etish - zamonaviy, samarali va istiqbolli yo‘nalish bo‘lib, u bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. - Toshkent, 2022.
2. Nazarov X. N. Robotlar va robototexnik tizimlar. - Toshkent, 2020.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI APPLIKATSIYA ISHIGA O’RGATISHGA INNOVATSION YONDASHUVNING IJTIMOIY PEDAGOGIK ASOSLARI

Jumaniyazova Guljaxan – Nukus shaxar 4-sonli MTT tarbiyachisi
Marimboyeva Shahzoda – NDPI 3- kurs talabasi

Bolalarning sog‘lom va bilimli, etuk kadrlar bo‘lib voyaga etishida maktabgacha ta’lim jarayonida oladigan tarbiyasi juda muhim o‘rin tutadi. Avvalo, yil davomida mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalarni bajarish uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlari safarbar etilganini ta’kidlash joiz.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar xalqimiz tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Bu o‘zgarishlarning dastlabki natijalari aholimiz hayoti va kundalik turmushida o‘zining yaqqol ifodasini topmoqda, el-yurtimizning ijtimoiy faolligi, ertangi kunga ishonchi o‘sib bormoqda.

Biz mamlakat hayotiga doir har bir qarorni xalqimiz bilan maslahatlashib, bevosita muloqot asosida qabul qilmoqdamiz. “Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan g‘oya bu borada faoliyatimiz mezoniga aylanmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to’g’risida”gi 2016 yil 29 dekabrdagi PQ-2707-sonli hamda 2017 yil 30 sentiyabrdagi maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-5198-sonli Farmonlari” da

ta’lim tizimining birinchi bosqichi bo’lgan maktabgacha ta’lim tizimini tubdan isloh qilish va ta’lim va ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish, ta’limning yangi, zamonaviy usullarini, jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sohasidagi ishlar ahvoli tanqidiy tahlil qilib berildi.

Mamlakatimizda ta’lim tizimini isloh qilish, unga rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or texnologiyalarini joriy qilish, milliy qadriyatlarimizni singdirgan holda ta’limni tashkil etish, bu jarayonni puxta va samarali amalga oshirish ishlari bugungi kunda davlat siyosagi darajasiga ko‘tarildi.

Kelajakda erishishimiz lozim bo‘lgan buyuk maqsadlarga etishish uchun eng avvalo yuqori malakali, zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlar talab etiladi. Hozirgi davrda mashg‘ulot jarayonini tashkil etish tarbiyachidan faqat chuqur bilimgina emas, balki pedagogik mahoratga ega bo‘lishlari, mashg‘ulotlarning olib borishining turli uslublarini bilish hamda o‘z ustida tinmay izlanishlarini talab qiladi.

Ta’lim-tarbiya jamiyat taraqqiyotini asosidir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni applikatsiya ishiga o’rgatishga innovatsion yondashuvlarda tarbiyachilarni mashg‘ulotlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda xozirgi paytda qator ilmiy-metodik va pedagogik muammolarni, ya’ni tarbiyachilarning pedagogik mahoratlarini oshirish, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini yuqori darajada o‘zlashtirganlik talab etiladi.

Hozirgi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni applikatsiya ishiga o’rgatishga innovatsion yondashuvlarda tarbiyachisining mashg‘ulotlar orqali shakllantirish muammosi ta’limning dastlabki bosqichlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu muammoni xal etishda nafaqat maktabgacha ta’lim tashkilotida tarbiyachilar bolalarni applikatsiya ishiga o’rgatishga innovatsion yondashuvlarda mashg‘ulotlar yordamida bera oladigan mutaxasislar kerak.

Shuning uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi tarbiyachilar bolalarni applikatsiya ishiga o’rgatishga innovatsion yondashuvlarda, ijodiy fikrlashini, turli xolatlarni tez ilg‘ay olishini, atrof muhitni tasavvur eta olishini, intellektual rivojlanishini ta’minlashda muhim omil sanaladi.

Demak, yangi asr informasion texnologiyalar asri bo‘ladi. Kelajakda erishishimiz lozim bo‘lgan buyuk maqsadlarga etishish uchun eng avvalo yuqori malakali, zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlar talab etiladi.

Xozirgi davrda mashg‘ulot jarayonini tashkil etish tarbiyachidan faqat chukur bilimgina emas, pedagogik maxoratga ega bo‘lishlari, mashg‘ulot o‘tishning turli uslublarini bilish hamda o‘z ustida tinmay izlanishlarini talab qiladi.

Ta’lim-tarbiya jamiyat taraqqiyotinish asosidir. Texnologiyalarni o‘qitish sifatini takomillashtirib borish uchun xozirgi paytda qator ilmiy-metodik va pedagogik muammolarni, pedagogik mahoratlarini oshirish, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini yuqori darajada o‘zlashtirganlik talab etiladi.

Maktabgacha ta`lim tashkilotlari bolalariga mashg‘ulotlar orqali applikatsiya ishiga o’rgatishga innovatsion yondashuvlarda tarbiyachining eng muhimi - tarbiyachi bolalarga ishonch bilan qarashi ularning mexnatsevarligi, mustaqilligi, tashabbuskorligini to’g’ri taqdirlashi va mustaqil faoliyat qilishlari uchun imkoniyat yaratishi kerak. Buni bolalar yuqori baholaydilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yil davomida mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirish bo‘yicha “Harakatlar strategiya”sida ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalarni bajarish uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlari safarbar etilganini ta’kidlash joiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017-2021 йилларда таълим тизимини янада такомиллаштириш чора –тадбирлари тўғрисида”ги 2016 йил 29 декабрдаги ПҚ-2707-сонли ҳамда 2017 йил 30 сентиябрдаги мактабгача таълим тизими бошқарувини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5198-сонли Фармонлари.

2. “Илк кадам” давлат укув дастури (такомиллаштирилган), -Т.: 2022 й.

3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil, 488 bet.

4. M.SH. Nurmatova, SH.T.Xasanova. “Rasm, buyum yasash va bolalami tasviriy faoliyatga o’rgatish metodikasi”. Toshkent - Musiqa nashiyoti, 2012 y.

5. R.Mavlonova, M.Satbayeva. O’quv ustahonada amaliy mashg’ulot va boshqa manbalarda keng yoritib berilgan. Toshkent -2010y.

MAKTABGACHA TA’LIMDA O‘YIN FAOLIYATI ORQALI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Sadaddinova Gulrayhon Nuraddin qizi Ajiniyoz nomidagi NDPI
Maktabgacha ta’lim yo’nalishi 3 kurs talabasi,
Ilmiy rahbar **p.f.f.d. G.Turebekova**

Kalit so‘zlar: nutq rivojlanishi, maktabgacha ta’lim, o‘yin faoliyati, kommunikativ ko‘nikmalar, pedagogik yondashuv, til rivoji.

Ключевые слова: развитие речи, дошкольное образование, игровая деятельность, коммуникативные навыки, педагогический подход, развитие языка.

Keywords: speech development, preschool education, game activity, communicative skills, pedagogical approach, language development.

Maktabgacha yosh davri bolaning nutqiy rivojlanishida hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda bola tilni faol o‘zlashtiradi, nutqiy tajriba orttiradi va muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Nutq rivojlanishi bolaning umumiy psixik rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u tafakkur, xotira, tasavvur va emotsional holatga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli maktabgacha ta’lim tizimida nutqni rivojlantirish ustuvor pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy ta’lim tizimida bolalar nutqini rivojlantirishga innovatsion yondashuvlar asosida qarash talab etilmoqda. Bu borada o‘yin faoliyati muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki o‘yin bola uchun eng tabiiy faoliyat turi bo‘lib, u orqali bola atrof-muhitni anglaydi, o‘z fikrini ifoda etadi va nutqiy faolligini rivojlantiradi.

Nutq rivojlanishi maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxs sifatida shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Nutq orqali bola ijtimoiy muhit bilan o‘zaro aloqaga kirishadi,

o‘z fikr va his-tuyg‘ularini ifodalaydi hamda atrofdagi voqelikni anglaydi. Shu sababli nutqni rivojlantirish jarayoni ilmiy asoslangan pedagogik yondashuvlar orqali tashkil etilishi lozim.

O‘yin faoliyati bolalar nutqini rivojlantirishda muhim vosita sifatida qaraladi. O‘yin jarayonida bola faol muloqotga kirishadi, yangi so‘zlarni o‘zlashtiradi va nutqiy tajribasini boyitadi. Bu jarayon tabiiy va erkin shaklda kechishi sababli bolalarning nutqiy faolligi oshadi. O‘yin faoliyati orqali bola nutqni nafaqat o‘rganadi, balki uni amalda qo‘llashni ham o‘zlashtiradi.

Maktabgacha ta’lim tizimida o‘yin faoliyati ta’lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. O‘yin orqali tashkil etilgan ta’lim faoliyati bolalarning nutqiy rivojlanishini jadallashtiradi, ularning lug‘at boyligini kengaytiradi va nutqiy malakalarini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, o‘yin faoliyati bolalarning tasavvurini rivojlantirishga xizmat qiladi, bu esa nutqiy faoliyatning sifatini oshiradi.

Nutqni rivojlantirish jarayonida pedagogning roli alohida ahamiyatga ega. Pedagog bolalarning nutqiy faolligini rag‘batlantiruvchi muhit yaratishi, ularni muloqotga jalb etishi va nutqiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlashi zarur. Pedagogning nutqi aniq, ravon va ifodali bo‘lishi bolalar uchun muhim namuna hisoblanadi. Shu bilan birga, pedagog bolalarning nutqiy xatolarini to‘g‘ri va ehtiyotkorlik bilan tuzatishi lozim.

O‘yin faoliyati orqali nutqni rivojlantirish jarayonida individuallashtirilgan yondashuv muhim ahamiyatga ega. Har bir bola o‘zining nutqiy rivojlanish darajasiga mos ravishda faoliyatda ishtirok etadi. Bu esa nutq rivojlanishining samaradorligini oshiradi va har bir bolaning individual imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishga yordam beradi.

Shuningdek, o‘yin faoliyati bolalarning ijtimoiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘yin jarayonida bolalar o‘zaro muloqot qiladi, fikr almashadi va hamkorlikda faoliyat olib boradi. Bu esa ularning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Nutq orqali bola ijtimoiy munosabatlarni o‘rganadi va jamiyatda o‘z o‘rnini anglay boshlaydi.

Nutqni rivojlantirish jarayonida o‘yin faoliyatining psixologik asoslarini hisobga olish muhimdir. Bola o‘yin jarayonida o‘zini erkin his qiladi, bu esa uning nutqiy faoliyatini faollashtiradi. Emotsional qulay muhitda bola o‘z fikrini erkin ifoda etadi, bu esa nutq rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Biroq amaliyotda o‘yin faoliyatidan nutqni rivojlantirishda to‘liq foydalanilmayotgan holatlar ham uchrab turadi. Ayrim pedagoglar o‘yin faoliyatining didaktik imkoniyatlarini yetarli darajada anglab yetmaydi yoki uni to‘g‘ri tashkil etmaydi. Bu esa nutq rivojlanishining samaradorligini pasaytiradi. Shu sababli pedagoglarning metodik tayyorgarligini oshirish muhim hisoblanadi.

Nutqni rivojlantirish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Innovatsion yondashuvlar bolalarning nutqiy faolligini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga undaydi va ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etishga yordam beradi. Shu bilan birga, ta’lim jarayonini raqamli texnologiyalar bilan boyitish ham nutq rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Maktabgacha ta’lim tizimida nutqni rivojlantirish jarayonini takomillashtirish uchun kompleks yondashuv zarur. Ushbu jarayon faqat ta’lim muassasasi bilan cheklanib qolmasdan, oilada ham davom ettirilishi lozim. Ota-onalar bolalar bilan muloqot qilishga e’tibor qaratishi, ularning nutqiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlashi va rivojlantirishi zarur.

Nutqni rivojlantirish maktabgacha ta’limning keyingi bosqichlariga tayyorgarlikda muhim ahamiyat kasb etadi. Nutqi rivojlangan bola maktab ta’limiga oson moslashadi, bilimlarni tez o‘zlashtiradi va muloqotda faol bo‘ladi. Shu sababli maktabgacha ta’lim tizimida nutqni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilishi zarur.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar nutqni rivojlantirish jarayonida o‘yin faoliyatining samaradorligini tasdiqlaydi. Ushbu yondashuv bolalarning nutqiy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, ushbu yo‘nalishda ilmiy izlanishlarni davom ettirish va yangi metodikalarni ishlab chiqish zarur.

Maktabgacha ta’limda o‘yin faoliyati orqali bolalar nutqini rivojlantirish pedagogik jarayonning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘yin faoliyati bolalarning nutqiy faolligini oshiradi, ularni muloqotga undaydi va kommunikativ kompetensiyasini shakllantiradi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish, o‘yin faoliyatidan maqsadli foydalanish va bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Foydalangan adabiyotlar

1. Выготский Л.С. Психология развития ребёнка. - М.: Педагогика, 1984.

2. Леонтьев А.Н. Деятельность, сознание, личность. - М.: Политиздат, 1975.

3. Лурия А.Р. Проблемы речи и мышления. - М.: Наука, 1979.

4. Babayeva D.R. ‘’Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi” (Darslik)-T.: “Barkamol fayz media” 2018

5. Nizomova Sh.Sh. “Bolalar nutqini o‘stirish nazariyasi va texnologiyalari” (O‘quv qo‘llanma) Buxoro – 2022

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARINING NUTQINI O‘STIRISH JARAYONINI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Uspanova Gulnaza **–** Nukus shaxar 11-sonli MTT tarbiyachisi
To‘liboyeva Shahnoza - NDPI 3- kurs talabasi

Mustaqillik davri pedagogik amaliyotida o‘qituvchi-tarbiyachilar bolalarga tayyor bilimlarni imkon qadar ko‘proq berishning yangi-yangi yo‘llarini topishga intilmoqdalar. Yosh avlodda shakllanayotgan ma’naviy sifatlarning qandayligi, bolaning ko‘ngil istaklari, yoshlar ma’naviyatini shakllantirishning milliy an’analarini hisobga olishga harakat qilinayotir. Lekin hamon bir xil fikrlaydigan, hamma masalada yagona, yaxlit xulosaga keladigan ommani tarbiyalash g‘oyasi ustuvorlik qilib turibdi. Ta’lim tizimida, ayniqsa, maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachilarining asosiy ish quroli bo‘lgan dasturlar, metodik qo‘llanma va tavsiyalar hamda soha metodikasi sodda tuzilgan. Shu bois hali ham bolalar juda ko‘p ma’lumotlarni o‘zlashtirgani holda biror

masalada o‘z fikrini aytish yoki mustaqil qaror qabul qilishdan cho‘chiydigan, har qanday mustaqil fikr talab qilinadigan savolga aytishi kerak bo‘lgan javobni beradigan, tarbiyachisining og‘ziga qarab, uning tashabbusini kutib turadigan siniq kishilar sifatida shakllantirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov kechagi jamiyat haqida: “*Bu tizim vataniga, xalqiga, millatiga fidokor, mustaqil fikrlaydigan, biror bir masalani ongli ravishda mas’uliyat bilan hal qiladigan, izlanuvchi, yangilikka intiluvchi kadrlarni emas, asosan, sayoz saviyali kadrlarni, mute kishilarni minglab etishtirdi. Jamiyatimizni yangilash, islohotlarni hayotga tatbiq etishga… o‘tar ekanmiz, ana shunday ongi qotib qolgan, azmu shijoatdan yiroq, el-yurt manfaati uchun kuyib-yonmaydigan kadrlar muttasil ravishda ishning ‘‘beliga tepib turishi’’ni his qildik*”, - degan edi. Lekin bugun, mustaqillikning birinchi choragi o‘tgan bo‘lsa ham mazkur soha sal kam bir asr davomida shakllantirilgan mohiyatidan uzoqlashib ketolmayapti.

Har qanday mamlakatning taqdirini unda yashaydigan fuqarolar belgilashi ma’lum. Uni yorqin kelajak sari etaklash, tom ma’noda, odamning qo‘lida. Mamlakat fuqarolarining, ayniqsa, o‘sib kelayotgan yosh avlodning ma’naviy kamoloti, dunyoqarashi, saviyasi, shu ma’noda, o‘ta dolzarb masaladir. Ya’ni bunda inson omili, ta’limning insonparvarlashuvi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Bugun jamiyatda o‘quvchi-tarbiyalanuvchining shaxsi, juda sekinlik bilan bo‘lsa-da, etakchi mavqega ko‘tarilmoqda. Maktab va maktabgacha ta’lim muassasalari ta’limi kontseptsiyasi, standarti, dastur, darslik hamda metodik qo‘llanmalar insonparvarlik tamoyiliga yo‘naltirildi. Ular faqat mutaxassis tayyorlashga emas, balki sog‘lom ma’naviyatli insonni shakllantirishga xizmat qila boshladi. Milliy pedagogika ilmi ham ma’naviy barkamol avlod tarbiyalash yo‘llarini tadqiq etmoqda. Yosh avlod aqliy-ma’naviy kamolotini ta’minlashda ularning mustaqil fikrlashi ulkan ahamiyat kasb etishini asoslash dolzarb ilmiy muammoga aylandi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining nutqini o‘stirish jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirishga etakchilik qiladigan ilk tadbir ularning erkinligi, ya’ni ta’lim sohasini, u maktabgacha ta’lim muassasasi bo‘ladimi, umumiy o‘rta yoki oliy maktab bo‘ladimi, barchasini uzviylashtirgan holda demokratlashtirishdir. Maktabgacha ta’li muassasasi tarbiyalanuvchilarida mustaqil fikrning shakllanganligi va uning rivojlanishi ko‘p jihatdan ularning erkinlik darajasiga bog‘liq. Shakllanib kelayotgan shaxsda mustaqil fikrni shakllantirish va uni rivojlantirish uchun bolalar shaxsi va jamoasi erkinligiga erishish zarur.

Mazkur tadqiqot ishida maktabgacha ta’lim muassasalari nutq o‘stirish va badiiy adabiyot bilan tanishtirish mashg‘ulotlari misolida bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishda mazmunan har jihatidan unga yaqin bo‘lgan Q.Husanboeva ta’rifiga tanqidiy yondashgan holda: «Mustaqil fikrlash – inson oldiga qo‘yilgan har qanday masalani aniq maqsad va vazifalarini belgilagan holda o‘z bilimi, hayotiy tajribasi, imkoniyati doirasida turli yo‘l va usullardan foydalangan holda mustaqil ravishda hal qilishga yo‘naltirilgan aqliy va ruhiy faoliyatidir», deya ta’rif berish mumkin.

Psixologlarning ta’kidlashlaricha, fikr mustaqilligi darajasi inson aqliy faoliyatining *tashabbuskorligi*, *pishiqligi* va *tanqidiyligida* o‘z aksini topadi. Bulardan biri tashabbuskorlik insonning o‘z oldiga aniq maqsad va vazifalar qo‘ya bilishi, ularni

amalga oshirish yo‘lidagi muammolar echimini topa olishi, nihoyasiga etkazish uchun zarur bo‘lgan usul hamda vositalarni qo‘llashidagi faoliyatida namoyon bo‘ladi. Uning pishiqligi vazifalarni tez bajarish, bu jarayonda qo‘l keladigan usul va vositalardan oqilona foydalanish va echimni tezkorlik bilan izlab topish, ularni farqlashda ko‘rinadi. Mazkur faoliyatning tanqidiyligi esa mustaqil fikrlovchining voqea-hodisaga munosabati, uning xususiyatlarini ajrata bilishida namoyon bo‘ladi.

Shulardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, inson tafakkuriga xos bo‘lgan tashabbuskorlik, pishiqlik va tanqidiylik sifatlarini aniqlashning o‘zi ham tarbiyachi-o‘qituvchilardan bilimdonlikni, aqliy zo‘riqishni, bugungi til bilan aytiladigan bo‘lsa, kompetentlilikni talab qilishi ham haqiqatdan yiroq emas. Shaxsni shakllantirish uchun, avvalo, tarbiyachi yoki muallimning o‘zi shaxs bo‘lmog‘i shartdir.

Tarbiyachi bilishi lozim bo‘lgan haqiqatlardan yana biri shuki, bolalik bosqichlaridagi fikrlashning mustaqilligi darajasi unga yaratilgan sharoit tufayli kuchayadi yoki susayadi. Ularning ruhiy taraqqiyoti har xil sharoit va bosqichlarda turlicha amalga oshadi. Shuning uchun bolaning rivojlanishidagi yoshi bilan bog‘liq xususiyatlar, tafakkurining mustaqilligi chegarasi va darajasi har bir bolada o‘ziga xos, individual tarzda bo‘lishi ta’lim jarayonining har bosqichida, maktabgacha ta’lim muassasalaridan tortib oliy ta’limgacha har bir mashg‘ulotda qat’iy hisobga olinishi lozim. Bu sog‘lom ma’naviyatli shaxsni shakllantirish shartlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni 23 sentyabr 2020 y. № ZRU-637 // Xalq so‘zi. – 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini

3. 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ–4312-son qarori.

4. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent 1999 yil.

5. Xasanboeva O.U. vaboshq. Maktabgacha ta`lim pedagogikasi. T.: Ilmziyo. 2006.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI UNTELEKTYAL RIVOJLANTIRISHDA EVRISTIK METODLARDAN FOYDALANISH

Choriyeva Zebiniso Odilovna, Buxoro shahar 76- maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori

Annotatsiya: Maktabgacha yoshdagi bolalarda idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutq jarayonlarini faollashtirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, evristik metodlardan foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Maqolada normativ-huquqiy hujjatlar va davlat o‘quv dasturlarida bolani ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida shakllantirish, mustaqil fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirish asosiy vazifa sifatida belgilanganligi ko’rsatib o’tilgan.

Kalit so`zlar: Maktabgacha yosh, nutq jarayoni, normativ-huquqiy hujjat, davlat o‘quv dasturi, muloqot qilish, ijtimoiy vaziyat, SEL dasturi, Emotsional holat, Evristik metodlar.

Аннотация: Особое внимание уделяется использованию современных педагогических подходов и эвристических методов в активации процессов восприятия, внимания, памяти, мышления и речи у детей дошкольного возраста. В статье показано, что главной задачей в нормативно-правовых актах и государственных учебных программах является формирование ребенка как активного субъекта образовательного процесса, развитие самостоятельного мышления и творчества.

Ключевые слова: Дошкольный возраст, речевой процесс, нормативно-правовой акт, государственная учебная программа, коммуникация, социальная ситуация, программа социально-эмоционального обучения, эмоциональное состояние, эвристические методы.

Abstract: Special attention is paid to the use of modern pedagogical productions and heuristic methods in activating the processes of perception, attention, memory, thinking and speech in children in preschool institutions. The article shows that in regulatory legal acts and state educational programs, the child is considered an active subject of the educational process, as a task of maintaining independent thinking and creativity.

Keywords: Preschool age, speech process, regulatory legal act, state educational program, communication, social situation, SEL program, Emotional state, Heuristic methods.

Maktabgacha ta'lim jadal rivojlanayotgan ta'lim sohasi bo‘lib, u butun dunyo va mamlakatimizdagi ta'lim sohasi mutaxassislari va tadqiqotchilarining diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Hozirgi kunda O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimini tubdan isloh qilish ishlari amalga oshirilmoqda.

Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, SEL (Social and Emotional Learning) dasturi AQSh, Finlyandiya, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Kanada, Singapur, Yaponiya, Janubiy Koreya va Yangi Zelandiya kabi mamlakatlar ta’lim tizimiga muvaffaqiyatli integratsiya qilingan. Ushbu mamlakatlar tajribasida SEL bolaning nafaqat ijtimoiy-emotsional rivojini, balki bilish jarayonlari — idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutqning samarali shakllanishini ta’minlovchi muhim pedagogik omil sifatida e’tirof etiladi. SEL (ijtimoiy-emotsional o‘rganish) dasturi bolaning o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish, ijtimoiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan tizimli pedagogik yondashuvdir.

SEL komponentlari (o‘zini boshqarish, sabr-toqat, hissiy nazorat) bolaning diqqatni jamlay olish qobiliyatini kuchaytiradi. Emotsional holati barqaror bo‘lgan bola topshiriqlarga uzoqroq vaqt e’tibor qaratadi, chalg‘ituvchi omillarga kamroq beriladi. Bu esa diqqatning barqarorligi va ixtiyoriyligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ijobiy emotsiyalar bilan bog‘liq o‘rganilgan ma’lumotlar xotirada mustahkamroq saqlanishi ilmiy jihatdan isbotlangan. SEL dasturi asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda o‘yin, muloqot va hamkorlik yetakchi o‘rin tutgani sababli bola o‘rganayotgan bilimlarni emotsional tajriba bilan bog‘laydi. Natijada axborotning eslab qolish va qayta tiklash jarayoni samaraliroq kechadi.

SEL dasturi bolalarda muammoli vaziyatlarni tinch yo‘l bilan hal etish, vaziyatni tahlil qilish, oqibatlarni oldindan ko‘ra bilish kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Bu esa tafakkurning moslashuvchanligi, tahliliy va tanqidiy fikrlash elementlarining shakllanishiga xizmat qiladi. Bola faqat tayyor yechimni qabul qilmay, balki vaziyatni baholash va mustaqil xulosa chiqarishga intiladi.

SEL faoliyatida dialog, fikr almashish, o‘z his-tuyg‘ularini so‘z orqali ifodalash muhim o‘rin egallaydi. Bu holat bolalarning so‘z boyligini kengaytiradi, bog‘langan nutqni rivojlantiradi va muloqot madaniyatini shakllantiradi. Nutq orqali fikrni ifodalash esa bilish jarayonlarining boshqaruvchi mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

Bugungi kunda mamlakatimiz maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning bilish jarayonlarini rivojlantirish masalasi davlat ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Xususan, maktabgacha yoshdagi bolalarda idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutq jarayonlarini faollashtirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, jumladan, evristik metodlardan foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va davlat o‘quv dasturlarida bolani ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida shakllantirish, mustaqil fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirish asosiy vazifa sifatida belgilangan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim va tarbiya jarayoni o‘ziga xos tamoyillarga asoslanadi va ushbu tamoyillar evristik metodlardan foydalanish hamda bolalarning bilish jarayonlarini rivojlantirish uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Avvalo, **bolalikni o‘ziga xos qadriyat sifatida tan olish** tamoyili evristik yondashuvning markaziy g‘oyalaridan biridir. Bolalik — shaxs rivojlanishining eng muhim va sezgir davri bo‘lib, aynan shu davrda bolalar atrof-muhitni faol o‘rganish, yangi bilimlarni tez o‘zlashtirish va moslashuvchan fikrlash qobiliyatiga ega bo‘ladi.

Bolaning huquqi, individualligi va rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olish tamoyili evristik metodlarning shaxsga yo‘naltirilgan xususiyatini belgilaydi. Har bir bola tug‘ma qobiliyat va imkoniyatlar bilan dunyoga keladi hamda ularning bilish jarayonlari rivojlanish sur’ati va uslubi jihatidan farqlanadi. Evristik metodlar bolalarning individual tajribasi, qiziqishi va ehtiyojlarini inobatga olgan holda muammoli vaziyatlar yaratishga imkon beradi.

Har bir bolaning har tomonlama rivojlanishi va farovonligini ta’minlash tamoyili evristik metodlarning kompleks xarakterini namoyon etadi. Maktabgacha ta’limda parvarish, ta’lim va tarbiya yagona, uzviy jarayon sifatida tashkil etiladi. Evristik metodlar orqali bilish jarayonlari — idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutq — o‘zaro bog‘liq holda rivojlanadi.

Bolaning sog‘lig‘ini saqlash, mustahkamlash va xavfsiz muhitni ta’minlash tamoyili evristik faoliyatning psixologik va fiziologik asoslarini belgilaydi. Harakatli o‘yinlar, tajribalar va amaliy mashg‘ulotlar orqali bolalar nafaqat jismoniy rivojlanadi, balki bilish jarayonlari ham faollashadi. Harakat jarayonida bola atrof-olamni o‘rganadi, predmetlar bilan tajriba o‘tkazadi va sabab-oqibat bog‘lanishlarini anglaydi.

O‘yin orqali ta’lim olish va rivojlantirish tamoyili evristik metodlarning eng muhim tayanchidir. O‘yin maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yetakchi faoliyat bo‘lib, u bilish jarayonlarini tabiiy va samarali rivojlantirish imkonini beradi. Evristik

metodlar o‘yin jarayonida qo‘llanilganda, bola muammoni mustaqil hal etadi, taxminlar ilgari suradi va o‘z faoliyati natijasini baholaydi.

MTTning oila, mahalla va maktab bilan hamkorligi tamoyili evristik metodlarning samaradorligini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi. Bolaning bilish jarayonlari faqat MTT doirasida emas, balki oila va ijtimoiy muhit bilan uzviy aloqada rivojlanadi. Ota-onalar va mahalliy hamjamiyat ta’lim jarayoniga jalb etilganda, bolalarning qiziqishlari qo‘llab-quvvatlanadi, evristik izlanishlar hayotiy tajriba bilan boyitiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. (UNESCO, UNICEF, World Bank. MELQO: Measuring Early Learning Quality and Outcomes. – Washington, 2017.)
2. (UNICEF. Early Childhood Development and Learning Outcomes. – New York, 2019.)
3. (UNICEF. Early Childhood Development and Learning Outcomes. – New York, 2019.)
4. “ Ilk qadam ” davlat o‘quv dasturi. Toshkent 2022 y
5. O‘zbekiston Respublikasida Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari. Toshkent.2018 y

ЗНАЧЕНИЕ КОХЛЕАРНОЙ ИМПЛАНТАЦИИ В РЕЧЕВОМ РАЗВИТИИ ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЯМИ СЛУХА

Райхан Абдуллаева - Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза и.о. доцент кафедры «Дошкольное воспитание и дефектологии»

Аннотация. В статье рассматривается значение кохлеарной имплантации в речевом развитии детей с нарушениями слуха. Анализируются особенности формирования слухового восприятия и речи после имплантации, а также роль раннего вмешательства в достижении положительных результатов. Подчеркивается необходимость комплексной реабилитации, включающей логопедическую, психолого-педагогическую поддержку и участие семьи. Отмечается, что кохлеарная имплантация способствует развитию устной речи, коммуникативных навыков и успешной социальной интеграции детей с ограниченными возможностями здоровья.

Ключевые слова: кохлеарная имплантация, нарушение слуха, речевое развитие, слуховая реабилитация, дети с ОВЗ, фонематический слух, коммуникативные навыки, логопедическая помощь, раннее вмешательство, сурдопедагогика.

Актуальность исследования обусловлена тем, что нарушения слуха у детей существенно затрудняют формирование речи, познавательной деятельности и социальной адаптации. Дефицит слуховой информации в раннем возрасте приводит к несформированности фонематического восприятия, ограниченности

словарного запаса и нарушению коммуникативных навыков. В современных условиях кохлеарная имплантация выступает как эффективный метод компенсации тяжёлых нарушений слуха, создающий предпосылки для развития устной речи. Целью данного исследования является определение значения кохлеарной имплантации в речевом развитии детей и выявление факторов, обеспечивающих эффективность реабилитационного процесса.

Кохлеарная имплантация представляет собой высокотехнологичный способ слуховой реабилитации, основанный на прямой стимуляции слухового нерва, что позволяет обходить повреждённые структуры внутреннего уха. В отличие от традиционных слуховых аппаратов, данный метод обеспечивает более полноценное восприятие звуковой информации.

Одним из решающих факторов успешного речевого развития является раннее проведение имплантации. Наиболее благоприятным считается возраст до трёх лет, когда сохраняется высокая нейропластичность головного мозга и формируются базовые механизмы речевой деятельности. После имплантации у ребёнка постепенно развивается слуховое внимание, формируется способность различать звуки и слова, что способствует становлению фонематического слуха.

Дальнейшее развитие речи выражается в расширении словарного запаса, формировании грамматического строя и навыков связного высказывания. Однако эффективность данных процессов напрямую зависит от системной реабилитации. Существенную роль играет логопедическая работа, направленная на развитие слухоречевых навыков. Важным компонентом является участие сурдопедагога и психолога, обеспечивающих комплексное сопровождение ребёнка. Особое значение имеет семья, которая формирует речевую среду и закрепляет приобретённые навыки в повседневной коммуникации.

Так как, кохлеарная имплантация является эффективным средством слуховой реабилитации и важным фактором речевого развития детей с тяжёлыми нарушениями слуха. Она создаёт условия для формирования устной речи, развития коммуникативных навыков и успешной социальной интеграции. Вместе с тем, достижение положительных результатов возможно только при условии раннего вмешательства и комплексного психолого-педагогического сопровождения. Практическая значимость заключается в необходимости интеграции медицинских и образовательных подходов для повышения качества реабилитации и дальнейшего развития ребёнка.

Список литературы:

1. Королёва И.В. Кохлеарная имплантация и дети. — СПб.: КАРО, 2010.
2. Королёва И.В. Учусь слушать и говорить. — СПб.: КАРО, 2018.
3. Пудов В.И., Зонтова О.В. Современные подходы к реабилитации детей после кохлеарной имплантации. — СПб., 2015.
4. Николаева С.В. Логопедическая работа с детьми после кохлеарной имплантации. — М.: Просвещение, 2021.
5. Никитина Е.Ю. Современные технологии реабилитации детей с нарушениями слуха. — СПб.: Речь, 2019.

6. Колокольцев Л.В. Язык и речь. Психологические основы. — М.: Академический проект, 2018.
7. World Health Organization. Deafness and hearing loss. — Geneva: WHO, 2023.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ЛОГОРИТМИКИ В КОРРЕКЦИИ РЕЧИ СЛАБОСЛЫШАЩИХ ДЕТЕЙ

Саламова Феруза Хакимбековна - Нукусский Государственный педагогический институт имени Аджинияза кафедры «Дошкольное воспитание и дефектологии» старший преподователь

Аннотация: Статья посвящена анализу эффективности логоритмики в коррекции речевых нарушений у слабослышащих детей. Рассматриваются особенности сочетания двигательной, речевой и музыкальной активности в процессе формирования слухоречевых навыков. Подчеркивается, что логоритмика способствует развитию ритмико-интонационной стороны речи, слухового внимания, координации движений и коммуникативной активности. Отмечается значимость системного применения логоритмических упражнений в структуре комплексной коррекционной работы. Делается вывод о высокой результативности данного метода при условии регулярности занятий и индивидуального подхода.

Ключевые слова: логоритмика, слабослышащие дети, коррекция речи, слуховое восприятие, ритм, речевое развитие, логопедическая работа, моторика, коммуникативные навыки

Актуальность исследования обусловлена тем, что у слабослышащих детей наблюдаются выраженные трудности в формировании речи, связанные с ограниченным слуховым восприятием, нарушением ритмико-интонационной стороны речи и недостаточным развитием моторной сферы. В связи с этим возрастает необходимость поиска эффективных коррекционных методов, способствующих комплексному развитию речи.

Логоритмика как метод, объединяющий речь, движение и музыку, приобретает особую значимость в системе логопедической помощи детям с нарушениями слуха.

Целью работы является обоснование эффективности логоритмики в коррекции речи слабослышащих детей. Логоритмика представляет собой систему упражнений, направленных на синхронизацию речи с движением и музыкальным ритмом. Она способствует формированию слухового внимания, развитию чувства ритма и координации движений, что является важной основой для становления речи у слабослышащих детей.

Одним из ключевых механизмов воздействия логоритмики является активизация межанализаторных связей (слуховых, двигательных, зрительных), что способствует более эффективному усвоению речевого материала. Ритм

выступает как организующий фактор, упрощающий восприятие и воспроизведение речи.

В процессе логоритмических занятий дети учатся соотносить движения с речевыми структурами, что положительно влияет на темп, ритм и выразительность речи. Также развивается артикуляционная моторика, дыхание и голос.

Практика показывает, что систематическое использование логоритмики способствует улучшению звукопроизношения, расширению словарного запаса и повышению коммуникативной активности. Особенно эффективна логоритмика при включении игровых форм, что повышает мотивацию детей и делает процесс обучения более естественным.

В заключение, логоритмика является эффективным средством коррекции речи у слабослышащих детей, обеспечивающим комплексное воздействие на речевую, двигательную и слуховую сферы. Ее применение способствует развитию ритмико-интонационной стороны речи, улучшению звукопроизношения и формированию коммуникативных навыков.

Список литературы:

1. Волкова Г.А. Логоритмика в системе коррекционной работы с детьми. — М.: Просвещение, 2010.

2. Филичева Т.Б., Чиркина Г.В. Основы логопедии. — М.: Академия, 2013.

3. Лопатина Л.В. Логопедическая работа с детьми с нарушениями слуха. — СПб.: Речь, 2016.

4. Королёва И.В. Развитие слухового восприятия у детей с нарушениями слуха. — СПб.: КАРО, 2018.

5. Жукова Н.С. Логопедия. — М.: Владос, 2012.

6. Никитина Е.Ю. Современные методы коррекции речевых нарушений. — СПб.: Речь, 2019.

“FAN VA TABIAT” RIVOJLANISH MARKAZIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISH AHAMIYATI

R.Aleuova NDPI dotsenti., **S.Rajabova** 2 kurs magistranti

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama kamol toptirish va tarbiyalashning eng samarali usullaridan biri bu tabiat bilan tanishtirishdir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tabiat bilan tanishtirish xilma-xil shakllarda: “Fan va tabiat” rivojlanish markazida, amaliy mashg‘ulotlarda, ekskursiyalarda, kundalik hayotda, kuzatishlarda, suhbatlarda, hamda mehnat faoliyatida amalga oshiriladi.

Tarbiyachi rahbarligida o‘tadigan amaliy mashg‘ulotlar, tajribalar orqali bolalarda O’zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablariga va “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasalari davlat o‘quv dasturida yillik mavzuviy reja mazmuniga muvofiq bilimlar shakllanadi, asosiy bilish jarayonlari va bolalarning qobiliyatlari ma’lum bir tartibda rivojlantiriladi.Rivojlanish markazlarini tashkil etishda bolalarning yosh xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish zarur. Tarbiyachi oy va hafta mavzusiga qarab rivojlanish

markazlarida materiallarni o‘zgaradi. Tarbiyachi amaliy mashg‘ulotlarda ta’limiy o‘yinlar, rasmlarni ko‘rish, badiiy asarlarni o‘qish, hikoya, diafilm va kinofilmlarni ko‘rsatish, tabiatdagi mehnat va turli tajriba o‘tkazishdan foydalanadi. Bolalar egallagan bilim, malaka, ko‘nikmalarini mehnat va o‘yinlarda amalda qo‘llaydilar. Shuningdek, markazda o‘tkazilayotgan tajribalar bolalarda qiziqish uyg‘otadi va yangi ixtirolar qilishga undaydi. Markazda bolalar bilan birgalikda suv, qum, o‘simliklar, predmetlar bilan tajribalar o‘tkaziladi. Bolalar jonli va jonsiz tabiat bilan tanishadilar, jonli va jonsiz tabiatni farqlaydilar. Bola atrofida maxsus rivojlantiruvchi muhit yaratiladi, bola unda u yashaydi va mustaqil o‘rganadi. “Fan va tabiat” markazida bolalarning erkin faoliyati ularni mustaqil izlanishga, tadqiqot jarayoniga qo‘shilishga, pedagogdan tayyor bilimlarni olmaslikka yordam beradi. Bu ularga qiziquvchanlik, tashabbuskorlik, mustaqillik, o‘zlarini ijodiy namoyon etish qobiliyati kabi fazilatlarni rivojlantirishga imkon beradi.

“Fan va tabiat” markazida bolalarning tabiat va dunyo xilma-xilligi haqidagi bilimlarini boyitish uchun sharoit yaratilishi kerak. Ushbu markazda bolalar o‘simliklarni parvarish qilishni o‘rganadilar. Buning uchun ularga sug‘orish idishlari, tuproqni yumshatish uchun tayoqlar, suv purkagich, barglarni artish uchun latta, polizda ishlash uchun kichik vositalar kerak bo‘ladi. Ob-havoning o‘zgarishini kunlik kuzatib borish uchun “Tabiat taqvimi”, tabiat va ekologiya haqidagi barcha zarur tasviriy, plakat materiallari, bolalarda o‘simliklar va hayvonlar dunyosining xilma xilligi, tabiatdagi mavsumiy o‘zgarishlar, tabiiy merosni asrab-avaylash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ijobiy hissa qo‘shadigan to‘plamlar lozim.

Shuningdek, ushbu markazda tadqiqot o‘tkazish uchun joy ajratish mumkin – mini laboratoriya. Bu yerga tadqiqot o‘tkazish uchun materiallar joylashtiriladi: lupa, konteynerlar, o‘lchash stakanlari, padnischalar, tayoqlar, naychalar, sug‘orish idishlari, qum, loy, toshlar, yog‘och bloklar va boshqalar. Burchakda suv, qum, havo, magnit va boshqalar bilan tajriba o‘tkazish kartotekasi bo‘lishi tavsiya etiladi. Bolalar tabiat materiallarini o‘rganish davomida fikrlaydilar, bilim orttirishga mo‘ljallangan o‘yinlar, ixtiro va kichik tajribalarni o‘zlari uchun kashf etadilar, ularda tabiiy tushunchalar shakllanadi. Markazda hayotimiz davomida ishlatiladigan narsalarni qayerdan kelganligi, ularni nimadan olinganligi haqidagi bilimlarni olish orqali ularga bo‘lgan munosabatlari ijobiy tomonga o‘zgaradi.

Masalan nonni dasturxonimizga kelishi, paxtaning chigitini ezish orqali undan yog‘ chiqishini bilish, tarvuzning urug‘ida yog‘ning yo‘qligini, piyozning ildizi bilan stakandagi suvga solib qo‘yilsa uni o‘sishi, urug‘larni tuvaklarga sepish orqali ularni unib chiqishini ko‘rish bolalar uchun juda qiziqarli.

“Fan va tabiat rivojlanish markaziga qo‘yiladigan talablar.

1. Eng avvalo bolaning salomatligini saqlash omillari: toza havo, toza joy, normal harorat va yorug‘lik bilan ta’minlanadigan xonalar.

2. “Fan va tabiat”rivojlanish markazining bolani noxush, kutilmagan hodisalardan saqlaydigan xavfsiz joyda bo‘lishini ta’minlash.

3. Markazlarda jihozlarning yetarli bo‘lishi, kichik tadqiqot va tajribalar uchun ham jihozlar yetarli va xavfsiz bo‘lishi lozim.

4. “Fan va tabiat” rivojlanish markazdagi barcha jihoz va qo‘llanmalar bolaning bo‘yi yetadigan balandlikda bo‘lishi hamda bola ulardan bemalol foydalana oladigan bo‘lishi kerak.

5. Bolalar o‘rtasida hamkorlik va muloqotni rag‘batlantirish (kichik guruhlar, juft bo‘lib va o‘yin o‘ynashlariga sharoit yaratilgan bo‘lishi kerak).

6. Bolalarda tashkilotga tegishlilik, xavfsizlik va erkinlik hissini shakllantirish.

7. Markazlardagi rivojlanish muhiti tarbiyachilarga ham, bolalarga ham qulay bo‘lishi kerak.(bolalar bir-biriga xaqit bermasliklari, tarbiyachiga hamma bolalarni kuzatish imkoniyati mavjud bo‘lishi)

8. Mebel bolaning jismoniy holatiga va erkin harakatlana olishiga to‘siq bo‘lmaydigan qilib joylashtirilgan bo‘lishi, bola o‘ziga tegishli mebelni bemalol harakatlantira olishi lozim.

9. Bolaga erkin tanlash imkoniyatini berish va mustaqil qaror qabul qilishga undash.

10. O‘z tengdoshlari bilan munosabatga kirishishiga yordam berish.

Asosan “Fan va tabiat” rivojlanish markazida haftalik mavzular yuzasidan tabiat bilan tanishtirish, atrofdagi olam bilan tanishtirish bo‘yicha ta’limiy-tarbiyaviy faoliyatlar olib boriladi. Shuningdek, tarbiyachi boshqa markaz faoliyatlarida ham, kun tarkibining boshqa qismlarida ham bolalarning tabiat haqidagi o‘z fikrlarini izchil bayon qilish va xulosalar chiqarish, atrof-olam xaqidagi o‘z kuzatishlarini bayon qilishlarida ham bolalarning tushunchalari, bilimlariga e’tibor beradi va uni rivojlantirishga harakat qiladi. Markazdagi faoliyat qiziqarli bo‘lishi, qo‘yilgan maqsad va vazifalarni hal etishi, ta’limiy materiallar va o‘yin anjomlari guruh bolalarining yoshiga mos, xavfsiz va ularda qiziqish paydo qilishi lozim. Markazdagi vazifa va topshiriqlar bolalarga tushunarli bo‘lishi kerak. “Fan va tabiat” rivojlanish markazi boshqa markazlar qatorida haftaning boshida tayyorlanadi va jihozlanadi. Tarbiyachi markaz ishi davomida bolalar egallayotgan bilim, malaka, ko‘nikmasini kuzatadi, tavsiya etilgan materiallarning bolalar uchun qanchalik qiziqarli, tushunarli va osonligiga e’tibor qaratadi. Agar kerak bo‘lsa, tarbiyachi ta’limiy materiallarni to‘ldiradi yoki o‘zgartiradi.

Markazdagi bolalar faoliyati kuzatuv natijalari asosida tarbiyachi tabiat bilan tanishtirish yuzasidan bola va uning ota-onalari bilan yakka tartibda ishlashni rejalashtiradi. Har hafta oxirida tarbiyachi bolalarning tabiat bilan tanishtirish yuzasidan olib borilgan faoliyatni tahlil qiladi, bolalar nimalarni bilib olganini, nimani bilishni hoxlashlarini o‘rganadi, har bir bolaning qiziqishi va ehtiyojini, kattalar va tengdoshlari bilan o‘zoro muloqatini kuzatadi, xulosalaydi. Shu bilan birga materiallar qay darajada qiziqarli va savodli tayyorlanganligi, qo‘yilgan maqsadga erishildimi yoki yo‘qligi chuqur tahlil etiladi. Shundan so‘ng keyingi haftaga tayyorgarlik ko‘riladi.

Shunday qilib, rivojlanish markazlarida to‘g‘ri tashkil etilgan ish har bir bolaga o‘zi yoqtirgan faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lishga, o‘z kuchi va qobiliyatini sinab ko‘rishga, kattalar va tengdoshlari bilan birgalikda faoliyat yuritishga, turli tajribalar o‘tkazish va tahlil qilishga imkon beradi, aynan shular rivojlantiruvchi ta’lim negizini tashkil etadi.

Adabiyotlar

1. «Ilk qadam» maktabgacha ta’lim tashkilotining o‘quv dasturi. T.: 2022y
2. G.Djanpeisova, M.Rasulxo‘jayeva. Tabiat bilan tanishtirish. T.Innovatsiya Ziyo, 2020y.
3. Sh.Sodiqova, M.Rasulxo‘jayeva. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi. T.: Fan va texnologiya 2013y

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BILISH FAOLLIGINI O‘YIN FAOLIYATI ORQALI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOSLIGI

R.Aleuova, NDPI dotsenti
S.Jumaboyeva, Maktabgacha ta’lim yonalishi 3 kurs talabasi

Maktabgacha yoshda bolalar rivojlanishida o‘yin birinchi o‘rinni egallaydi. O‘yinlar bolalarni mustaqillikka o‘rgatadi va atrofdagi voqelikni anglashga yordam beradi. Bolaning bilish faoliyatini rivojlantirishni rejalashtirishda uning yosh xususiyatlarini hisobga olish muhim. Masalan, uch yoshli bola dunyoni “nimani ko‘rsam, shuni o‘rganaman” tamoyili asosida idrok etadi. U o‘zini qiziqtirgan masalalarni mustaqil o‘rgana olmaydi, buning uchun unga kattalarning yordami: suhbatlar, sayrlar, o‘yinlar, jamoaviy tadbirlar va shu kabilar zarur bo‘ladi.

To‘rt yoshida bola rivojlanishning yuqoriroq bosqichiga o‘tadi. Bu bosh miya po‘stlog‘idagi fiziologik o‘zgarishlar, ruhiy jarayonlarning takomillashuvi va nutqni yuqori darajada egallash bilan bog‘liqdir. To‘rt yoshli bolalarda paydo bo‘ladigan yangi bilish usuli — ma’lumotni so‘z orqali qabul qilish — ularga olam haqidagi turli bilimlarni tushunish va o‘zlashtirish imkonini beradi. Bolalarga taqdim etiladigan ma’lumotlar turlicha bo‘lishi mumkin, biroq bunda quyidagi shartlarni hisobga olish lozim:

- bolalarga beriladigan ma’lumot ularning tajribasi va atrof-muhit haqidagi mavjud tasavvurlariga asoslanishi kerak;
- birinchi navbatda, bizga yaqin hududda yashovchi tabiat vakillari haqida so‘zlab berish lozim.

O‘rta guruh bolalarini imkon qadar ko‘proq ma’rifiy ertak va hikoyalar bilan tanishtirish kerak. O‘rta guruhda “ketma-ketlik” tushunchasi kiritiladi va mustahkamlanadi, maqsadli ekskursiyalar (turli mehnat faoliyati bilan tanishtirish) va qiziqarli insonlar bilan uchrashuvlar o‘tkaziladi. Bolalar nafaqat predmetlar, balki turli qo‘lbola materiallarning (qog‘oz, mato, shisha va hokazo) xususiyatlari va sifatlari bilan ham tanishtiriladi. Bu yoshda bolalarning qiziqishlari saralanib, muayyan yo‘nalish kasb eta boshlaydi. Shu bois, tashkilot xodimlari, ota-onalar va bolalar ishtirokida “Mening kolleksiyam” ko‘rgazmasini tashkil etish mumkin. Guruhda esa bolalarning o‘zlari to‘plagan materiallar: konfet qog‘ozlari, yorliqlar, taqvimlar, tugmalar va shu kabilar bilan ishlashi uchun sharoit yaratiladi.

Besh yoshli bolaning yaqin atrofidagi dunyo uning uchun barqaror va tushunarli bo‘lib, ongida anchagina ma’lumotlar zaxirasi to‘planadi. Bu zaxirani doimiy ravishda boyitib borish zarur:

- harakatlar va shaxsiy amaliy tajriba orqali;
- so‘z vositasida, ya’ni kattalarning hikoyalari orqali;

- ma’rifiy mazmundagi kitoblar va teleko‘rsatuvlar yordamida.

Katta guruhda pedagoglarning asosiy vazifalaridan biri bilish faoliyatini rivojlantirish uchun predmetli-rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishdan iborat.

Besh yoshli bolalarning bilish faolligini rivojlantirish uchun mashg‘ulotlarga quyidagilar kiritiladi:

- bolalar bilan ma’rifiy mavzularda suhbatlar;
- muammoli vaziyatlar, hikoya va topishmoqlarni muhokama qilish;
- rasmlar, diafilmlar, videofilmlar, teleko‘rsatuvlarni tomosha qilish va muhokama etish;
- kattalarning bolalarning bilishga oid savollariga o‘z vaqtida, savodli javob berishi.

Olti yoshga to‘lganda bolalar keng olam haqida ko‘plab ma’lumotlarga ega bo‘ladilar. Kattalar bilish jarayonini axborotni mazmunan tartibga solishga, dunyomizdagi mantiqiy (sabab-oqibat) aloqalarni o‘rnatishga va olamga nisbatan ijobiy munosabatni yanada shakllantirishga yo‘naltirishlari lozim. Bilish faoliyatini rivojlantirishning muhimligi kattalarni turli uslublardan foydalanishga undaydi. Didaktik o‘yinlar ana shunday uslublardan biridir. Ular ijodiy fikrlashni rag‘batlantiradi, nutqni boyitadi, yangi ko‘nikmalarni shakllantiradi va mavjudlarini mustahkamlaydi.

Shuningdek, bilish faolligi faoliyatning sifat tavsifi bo‘lib, u shaxsning bilimlarni muvaffaqiyatli egallashga intilishi bilan belgilanadi va bunda shaxsning intellektual hamda axloqiy-irodaviy xususiyatlari bilan belgilanadi.

Maktabgacha yosh davri bolalarning bilish faolligi gullab-yashnaydigan davr hisoblanadi. Uning bu yosh bosqichidagi ko‘rinishlari quyidagilardir: bolaning atrof-muhitga va o‘ziga bo‘lgan qiziqishi; predmetlar, obyektlar, odamlar, voqealarni faol idrok etish; kuzatuvchanlik, ziyraklik, qiziquvchanlik, ilgari ko‘rgan va eshitganlaridan mohirona foydalanish, mustaqil xulosa chiqarishga urinish, tanish narsada yangi va tanish narsada yangi narsalarni topish, o‘z kashfiyotlaridan quvonish qobiliyati; aqliy kuch talab qiladigan yangi, notanish vazifalarni afzal ko‘rish; o‘z bilish faoliyatini rejalashtirish, uni amaliyotda amalga oshirish; tadqiqotchilik faoliyatiga va yangi materiallar bilan tajriba o‘tkazishga qiziqish.

Maktabgacha yoshdagi bilish faolligi yorqin ifodalangan xarakterga ega: u qiziquvchanlik, yangilikka intilish, yangilikka hissiy-ijobiy munosabat sifatida namoyon bo‘ladi. Faoliyatning to‘liqligi va xilma-xilligi maktabgacha yoshdagi bola bilish faolligining samarali shakllanishiga yordam beradi, faoliyat qanchalik qiziqarli bo‘lsa, bilish faolligi darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi. Bolaning qiziqishlari, ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos keladigan faoliyat uning rivojlanishiga eng katta ta’sir ko‘rsatadi va uning shaxsiy o‘sishiga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish faolligini shakllantirishning asosiy vositalariga quyidagilar kiradi: o‘yin, tasviriy, tadqiqotchilik, predmetli, loyihaviy, kattalar bilan hamkorlikdagi faoliyat va kuzatish. Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish faolligini optimallashtirishga yordam beradigan turli xil vositalar orasida kattalar bilan muloqot, tajriba o‘tkazish va o‘yin eng samarali hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bola uchun o‘yinlar quyidagilarga yordam beradi: bilish faolligini rivojlantirish; yangi bilimlarni olish, ularni umumlashtirish va mustahkamlash; bolalarning o‘yin vazifasini ongli ravishda qabul qilish, o‘yin

harakatlarini qoidalar bo‘yicha bajarish, to‘g‘ri natijaga erishish qobiliyati; o‘yinda kelishilgan holda harakat qilish zarurligini tushunish; o‘yinlarda yangi qoidalarni o‘ylab topishda tashabbus ko‘rsatish, yangi o‘yin harakatlari hisobiga ularning mazmunini xilma-xil qilishga intilish.

Shunday qilib, bolalar o‘yin jarayonida aqliy faoliyatning ijtimoiy ishlab chiqilgan vositalari va usullarini o‘zlashtiradilar; ko‘pgina murakkab hodisalar oddiy hodisalarga ajratiladi va aksincha, ayrimlari umumlashtiriladi; binobarin, analitik va sintetik faoliyat amalga oshiriladi; ba’zi o‘yinlar bolalarning bilimlariga go‘yo hech qanday yangilik kiritmaydi, lekin ular bolalarni mavjud bilimlarni yangi sharoitlarda qo‘llashga o‘rgatishi bilan katta foyda keltiradi.

Adabiyotlar

1. Sh.Sodiqova. Maktabgacha pedagogika. T.: Fan va texnologiya, 2012.
2. F.Qodirova va bosh. Maktabgacha pedagogika.- T.: Tafakkur, 2019.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA BOLALARNING MUSTAQIL QAROR QABUL QILISH VA JAMOADA ISHLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Kenesbaeva Dilfuza – Ajiniyoz nomidagi NDPI maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqil qaror qabul qilish va jamoaviy hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati yoritilgan. Zamonaviy ta’limda bolaning sub’yektivligini oshirish, ularni tayyor qoliplardan voz kechib, ijodiy va ijtimoiy faollikka yo‘naltirish usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, kichik guruhlarda ishlash orqali bolalarning muloqot va muammolarni birgalikda hal qilish qobiliyatlarini shakllantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Mustaqillik, jamoada ishlash, sub’yektivlik, ijtimoiy kompetensiya, muammoli vaziyatlar, hamkorlik, maktabgacha ta’lim tashkiloti, pedagogik texnologiya.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimining asosiy maqsadi bolalarga faqat nazariy bilimlarni o‘rgatish bilan cheklanib qolmay, balki ularni real hayotga tayyorlash, mustaqil fikrlaydigan va faol shaxs sifatida shakllantirishdan iboratdir. Zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatga erishish uchun inson nafaqat bilimli, balki moslashuvchan, tashabbuskor va ijtimoiy jihatdan faol bo‘lishi talab etiladi. Shu boisdan ham ta’lim jarayonida hayotiy ko‘nikmalar, ya’ni “soft skills”ni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, mustaqil qaror qabul qilish, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l tanlay olish, o‘z fikrini erkin ifoda etish, shuningdek, jamoada ishlash, hamkorlik qilish va boshqalar bilan samarali muloqotga kirisha olish kabi ko‘nikmalar bolalikdan boshlab shakllantirilishi zarur. Bu ko‘nikmalar bolaning nafaqat ta’lim jarayonida, balki kundalik hayotda ham muvaffaqiyat qozonishiga xizmat qiladi.

Maktabgacha yosh — shaxsning asosiy sifatlari shakllanadigan eng muhim davr hisoblanadi. Aynan shu bosqichda bolalarda ijtimoiylashuv jarayoni faol kechadi, ular o‘z tengdoshlari bilan munosabat o‘rnatishni, jamoada o‘z o‘rnini topishni va turli vaziyatlarda mustaqil harakat qilishni o‘rganadilar. Shuning uchun tarbiyachilar va pedagoglar zimmasiga bolalarda ushbu hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha samarali metod va texnologiyalarni qo‘llash vazifasi yuklatiladi.

Mustaqillikni rivojlantirish. Bolalarda mustaqillikni shakllantirish uchun tarbiyachi "yo‘riqchi" rolidan "fasilitator" (yordamchi) roliga o‘tishi lozim. Bunda:

Tanlov imkoniyati: Bolalarga kun tartibidagi faoliyat turi, o‘yin markazi yoki kerakli jihozlarni tanlash huquqini berish.

Muammoli vaziyatlar: Mashg‘ulotlar davomida bolaga tayyor yechimni bermasdan, "Buni qanday qilsak bo‘ladi?", "Seningcha, qaysi yo‘l to‘g‘ri?" kabi savollar orqali ularni fikrlashga undash.

Jamoaviy hamkorlik mexanizmlari. Jamoada ishlash ko‘nikmasi o‘z-o‘zidan shakllanmaydi. Buning uchun kichik guruhlarda (3-5 kishi) amalga oshiriladigan loyihalardan foydalanish samarali:

1. Umumiy maqsad: Masalan, "Kelajak shahri" maketini yasashda har bir bola o‘z binosini quradi, lekin ular umumiy kompozitsiyani kelishib olishlari shart.

2. Vazifalarni taqsimlash: Bolalar o‘zaro rollarni (boshliq, quruvchi, dizayner) bo‘lib olishni o‘rganadilar.

3. Muloqot madaniyati: Boshqalarning fikrini tinglash va o‘z nuqtayi nazarini madaniyatli tarzda bayon etish ko‘nikmasi rivojlanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida mustaqillik va jamoaviylikning uyg‘un holda rivojlantirilishi bolaning shaxsiy va ijtimoiy kamolotida muhim o‘rin tutadi. Mustaqillik orqali bola o‘z imkoniyatlarini anglaydi, qaror qabul qilishni va o‘z harakatlari uchun javobgarlikni his etishni o‘rganadi. Jamoaviylik esa uni boshqalar bilan samarali hamkorlik qilishga, o‘zaro hurmat va muloqot madaniyatini egallashga yo‘naltiradi.

Erkin tanlov imkoniyati mavjud bo‘lgan muhit bolada ichki motivatsiyani kuchaytiradi va o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi. Shu bilan birga, jamoaviy faoliyat jarayonida bola ijtimoiy moslashuvchanlikni, ya’ni turli vaziyatlarga moslasha olish, boshqalar fikrini inobatga olish va umumiy maqsad yo‘lida ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Shunday qilib, mustaqillik va jamoaviylikning uyg‘unligi kelajakda faol, mas’uliyatli va ijtimoiy jihatdan yetuk shaxsni tarbiyalash uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari. – Toshkent, 2018.

2. "Ilm yo‘li" variativ dasturi. – Toshkent, 2020.

3. Vygotskiy L.S. "Bola rivojlanishida o‘yin va uning roli" (Psixologik tadqiqotlar to‘plami).

4. Rasulova M.S. "Maktabgacha ta’limda innovatsion texnologiyalar". – O‘quv qo‘llanma, 2021.

5. Sh. Sodiqova. "Maktabgacha pedagogika". – T.: Tafakkur sarchashmalari, 2013.

MEKTEPKE SHEKEMGI BILIMLENDIRIW SHÓLKEMLERINDE BALALARDI KÓRKEM ÁDEBIYAT PENEN TANISTIRIW

Jumaniyazova Zlixa Reymovna - Innovaciyalıq texnologiyalar universiteti Mektepke shekemgi hám baslawısh tálim kafedrası,docenti.

Annotaciya. Mektepke shekemgi bilimlendiriwde kórkem ádebiyat penen tanıstırıw usılları, kórkem ádebiyat balalardı aqılıy, ádep-ikramlılıq hám estetikalıq tárbiyalawdıń qúdiretli, tásirsheń quralı sıpatında xızmet etiwi, ol. bala sóylewin rawajlandırıw hám bayıtıwǵa úlken tásir kórsetiwi haqqında ámeliy usınıslar berilgen.

Аннотация. Содержит практические рекомендации о том, как познакомить художественную литературу в дошкольном образовании, психическое и эффективное оружие художественной литературы, и что значительно влияет на развитие и обогащение речи ребенка.

Annotation. The article contains practical recommendations on how to introduce artistic literature in preschool education, mental and effective weapons of fiction, and which significantly affects the development and enrichment of the child's speech.

Kórkem ádebiyat balalardı aqılıy, ádep-ikramlılıq hám estetikalıq tárbiyalawdıń qúdiretli, tásirsheń quralı sıpatında xızmet etedi, ol bala sóylewin rawajlandırıw hám bayıtıwǵa úlken tásir kórsetedi. Poeziyalıq obrazlarda kórkem ádebiyat, jámiet hám tábiyat turmısı, insan sezimleri hám óz-ara qatnasıqlar álemin ashıp beredi hám túsindiredi. Bul úlgiler óz tásir kúshine qaray túrlishe boladı:

- gúrrińlerde balalar sózlerdiń sózligi hám anıqlıǵın bilip aladı;
- qosıqlarda sózdiń muzıkalılıǵın, ırǵaǵın ańlaydı;
- xalıq ertekleri olar aldında tildiń anıqlıǵı hám ekspressivligin kórsetedi, ana tilindegi sóylewdiń yumor, janlı hám obrazlı salıstırıwlar, ańlatpalarǵa qansha bay ekenligin kórsetedi. Balalar kórkem ertekler qaharmanlarına qayǵırıwdı úyrengennen soń olar jaqınları hám átiraptaǵı adamlardıń keypin ańlay baslaydı. Olarda insanıylıq sezimleri – birewdiń dártine sherik bolıw, jaqsılıq qılıw, ádalacızlıqqa qarsılıq kórsetiw qábileti oyanǵan baslaydı. Bul principiallıq, hadallıq, haqıyqıy puqaralıq sezimleri tárbiyalanatuǵın tiykar bolıp esaplanadı. Sezimler biliwden aldın keledi; kim haqıyqatlıqtı sezbegen bolsa, ol bunı túsinbegen hám tanımaǵan shıǵar.

Gúrrińler dúnyasına sayaxat balalar qıyalın, olardıń qıyal dúnyasın, fantaziyasın rawajlandıradı. Eń jaqsı ádebiy úlgiler tiykarında adamgershilik ruwxında tárbiyalanǵan balalar óz gúrrińlerinde hám erteklerinde jábirleniwshiler hám ázzilerdi qorǵaw, jamanlardı jazalaw arqalı ózleriniń ádillik súyiwshiligin kórsetedi. Hám álbette balalar estetikalıq, ásirese ádep-ikramlılıq kózqarasların úlkenlerdiń oqıp shıǵılǵan ertekler boyınsha násiyhatnama pikirlerinen, tayarlanǵan sorawlarǵa juwap beriwden emes, bálkim áyne kórkem erteklerden alıwları tiyis. Oqıǵan ertek boyınsha hádden tıs kóp násiyatlaw úlken, kóbinese bolsa dúzetip bolmaytuǵın zıyan keltiredi: mayda-shúyde sorawlar menen "shashılıp taslanǵan" ertek balalardıń kóz aldında óziniń barlıǵın kórsetedi tartımlılıǵın joǵaltadı, aqıbetinde oǵan balalardıń da qızıǵıwshılıǵı joǵaladı. Sonlıqtan kórkem teksttiń tárbiyalıq imkaniyatlarına tolıq súeniw zárúr. Eger ertek mazmunı onsha úlken bolmasa, oni eki-úsh mártebe aytıp beriw yaki en jarqın orınların tákirarlaw múmkin. Oni aytıp bolgannan soń balalarga sonday sharayattı jaratıw eń

qızıqlı táreplerin eske túsiriw hám olardı ertektegi sózler menen sáwlelendiriw usınıs etiledi tákirarlawǵa májbúr bolsın.

Pedagog jaǵday járdeminde balalar menen xalıq gúrrińleri hám dástanlarınıń qaharmanlarınıń qosıqların, qaharmanlardıń atların tákirarlaw, obrazlı sózlerdi balalardıń sanasında bekkemlewdi ámelge asırıw arttıradı, hám olar buni ózleriniń sóylewlerinde qollay baslaydı.

Mektepke shekemgi basqıshtaǵı balalarǵa oqıp beriw ushın onsha úlken bolmaǵan gúrriń hám qosıqlar usınıs etiledi, olar kishi tıńlawshılarda unamlı emociyalardı tárbiyalawǵa járdem beredi. Olardıń balanıń jeke tájiriybesine jaqın bolǵan ańsat mazmunı ápiwayı hám ápiwayı túrde berilgen: uyqaslar uqsas, qosıq qatarları qısqa. Balalar olardı tákirarlap atırǵanda, qatarlardıń jańǵırıǵın, qosıqtıń muzıkalılıǵın ańlap aladı, olardı ańsat qabıl etedi. Sońınan bolsa pútkil qosıqtı este saqlap qaladı. Balalardı kishi jasta kóbirek qosıqlar ózine tartadı, sebebi olar anıq uyqasları, sazlılıǵı hám muzıkalılıǵı menen ayrıqsha ajıralıp turadı. Qayta oqıwda balalar qosıq mazmunın ózlestirip aladı, uyqas hám ırǵaqtı sezedi ayırım sózler hám ańlatpalardı este saqlap qaladı hám sol arqalı ózleriniń sóylewlerin bayıtadı. Bul jasta sóylewdiń ses mádeniyatın tárbiyalaw úlken áhmiyetke iye: qosıq oqıwda kishkentaylarǵa hár bir sózdi anıq aytıp, olardı asıqpaydı. Balalarda uyqasıp atırǵan sózlerge pát beriw ádeti bar, sonlıqtan tárbiyashı logikalıq pátlerdi durıs qoyıwı hám balalardıń da qosıqtı durıs aytıwına erisiwi kerek. Balalardıń jas ózgesheliklerin esapqa alǵan halda olardı hár bir jas basqıshında balalar kórkem ádebiyatı menen tanıstırıp barıw máselelerin kórip shıǵamız.

Bala úlkenler menen birgelikte maqallar hám sanaq qosıqlar syujetleri tiykarında qızıǵıwshılıq penen oyınlar shólkemlestiredi, ol seske eliklewge hám folklor baǵdarındaǵı bir qáliptegi tákirarlawlarǵa qulaq túredi hám de olarǵa elikleydi. Bala ádebiy erteklerde bayan etilgen waqiyalardı júdá qatań qabil etedi. Ózine unap qalǵan ertekti bir neshe ret esitiwge de tayar. Onıń qaharmanların illyustraciyalar hám oyınshıqlarda quwanıp tanıp aladı, hár saparı ertektiń baxıtlı juwmaǵın berilip kútken halda syujet háreketleriniń ádettegi izbe-izligin diqqat penen baqlap baradı. Kishkenelerge arnalǵan kórkem ertekler sanı onsha kóp emes. Kishi jastaǵı balalarǵa oqıp beriletuǵın ertekler sheńberin tiykarınan ertekler quraydı. Olar eń jaqsı túrde kishi jastaǵı balalardıń mútájliklerine sáykes keledi, sebebi, ol sóz, nama, muzika hám háreketti ózinde jámlegen. Balalar haywanlar haqqındaǵı xalıq ertekleri menen tanısadı: "Shalgam," "Bógirsak," "Úyshe," "Shıpar tawıq" hám basqa. Balanıń ádebiy ertekti yaki ózi oylap tapqan ertegin atqarıwı (toparda qayta aytıp beriw, jeke tártipte anlatpa oqıw hám úlkenler menen dialogta oqıw) ushin emocional bayıtılgan atqarıw ortalıǵın jaratıw. Biraq, kórkem ertek tek sóz benen aytılıp qoymastan, al onıń ayırım jarqın tárepleri balalar hám balalar ushın da áhmiyetli pedagoglardıń birgeliktegi háreketleri nátiyjesinde saxnalastırılıwı, oǵan muzıkalıq islew beriliwi, háreketler, súwretler, konstruktiv modeller menen kórsetiliwi múmkin.

Tárbiyashı balalarǵa jaqsı belgili bolǵan dástúriy (haywanlar hám sıyqırlar haqqında) xalıq ertekleri hám dástúriy emes (balalar, tábiyat qubılısları, predmetler haqqında) zamanagóy avtorlıq ertekler ruwxında óz erteklerin toqıwları ushın sharayat jaratıp beriwi kerek; balalardı olardıń óz ómirlerinde júz bergen qızıqlı waqıyalar

Syujetli-rolli oyın - mektepke shekemgi jastaǵı balalardıń tiykarǵı oyın túrleri. Syujetli-rolli oyın óziniń ózgesheligine qaray kórsetiwshi iskerlik bolip tabıladı. Átiraptaǵı úlkenler hám teńlesleriniń ómiri hám iskerligi bul oyın mazmunına derek bolıp xızmet etedi. Balalardıń átiraptaǵı ómirden, qatarları, úlkenler iskerliginen algan tásirleri dóretiwshilik oyında qayta islenedi, tolıqtırıladı, sipat tárepinen ózgertiledi. Balalardıń bunday oyınları átiraptaǵı barlıqtı biliwdiń ámeliy forması bolıp tabıladı. Balalar oyının ózine tán tárepi onda súwretlewshi jaǵdaylardıń bar ekenliginde. Súwretlewshi jaǵday balalarga oyın procesinde júkletilgen rol hám oyın syujetinen ibarat hám hár túrli buyımlardan paydalanıwdı da óz ishine aladı. Oyınnıń syujeti - bir-biri menen turmıslıq baylanıslı bolgan bir qatar waqıya-hádiyseler jıyındısı.

Mektepke shekemgi jastaǵı balalar teńlesleri menen, eń dáslep, birgeliktegi oyınlar procesinde baylanısqa kirisedi. Syujetli rolli oyınlar balalar ushin jámiyetlik turmıstıń ózine tán modeli bolip, onda olar ıqtıyarlı túrde birlesedi, óz ara háreket etedi hám de uliwma rejeler hám maqsetlerdi ámelge asiriwga umtıladı[2]. Sonlıqtan birgelikte oynawǵa bolǵan mútájlik balalarda unamlı múnásibetlerdi qáliplestiriw ushın qolaylı faktor esaplanadı, oyın bolsa usı múnásibetlerdi turaqlastırıw hám rawajlandırıwdıń jetekshi pedagogikalıq quralı sıpatında kórinedi.

Syujetli rolli oyınlardı shólkemlestiriw hám basqariwda tárbiyashi balalar arasında bar bolgan hám rolli qatnasıqlar, hám real turmistaǵı qatnasıqlardı esapqa

alıwı kerek. Doslıq qatnasıqlarınıń rawajlanıwına balalardıń ulıwma kognitivlik qızıǵıwshılıqları úlken tásir kórsetedi[3]. Bul qızıǵıwshılıqlar dóretiwshilik hám mazmunlı oyınlardıń rawajlanıwına alıp keledi. Ulıwma kognitivlik qızıǵıwshılıqlardı rawajlandırıw maqsetinde tárbiyashılar shınıǵıwlar, baqlawlar hám birgeliktegi jumıslar arqalı balalardıń bilim sheńberin keńeytiwi zárúr. Bunda sociallıq hádiyselerdi baqlawdı shólkemlestiriw, miynet súyiwshilik, juwapkershilik, ǵamxorlıq hám óz ara járdem sıyaqlı sociallıq áhmiyetke iye táreplerge ayrıqsha itibar qaratıladı (máselen, shıpakerdiń emlewi, shashtárezdiń tazalıqqa xızmet etiwi, qurılısshılardıń bekkem jaylar qurıwı hám basqalar).

Birgeliktegi oyında qatnasıw barısında bala óz háreketlerin hám niyetlerin basqa oyınshılar menen muwapıqlastırıw, oyınnan aldın hám oyın dawamında belgilengen qaǵıydalarǵa boysınıw zárúrligi menen duslasadı[4]. Tárbiyashınıń wazıypası balalardıń kelispewshiliklerdi ádil sheshiwge, unamlı qatnasıqlardı tártipke salıwǵa xızmet etetuǵın minez-qulıq normaları hám qaǵıydaların ózlestiriwine kómeklesiwden ibarat. Rolli oyınlardı shólkemlestiriw menen baylanıslı qaǵıydalardı iyelew aqır-ayaǵında balalar arasında doslıq hám birge islesiwdiń bekkemleniwine alıp keledi.

Balalar menen qaǵıydalar arnawlı yadlanbaydı, al olardı ózlestiriw ushın qolaylı pedagogikalıq sharayatlar jaratıladı: durıs is-háreketlerge itibar qaratıladı, unamlı úlgi kórsetken balalar órnek sıpatında alǵa qoyıladı hám tabıslı jaǵdaylar xoshametlenedi. Topar talqılawları, birgeliktegi shınıǵıwlar, kúndelikli baylanıs, oyınlardı baqlaw hám tárbiyashınıń metodikalıq kórsetpeleri doslıq qatnasıqlardıń mazmunı bayıp barıwına xızmet etedi.

Bul proceste oyınlardıń túrli mazmun hám formalarda sistemalı shólkemlestiriliwi balalar toparında turaqlı ulıwma qızıǵıwshılıqlardıń qáliplesiwine alıp keledi. Bul bolsa balalardıń súyikli oyınların birgelikte oynaw tilegin kúsheytip, óz-ara birge islesiw sezimin rawajlandırıw ushın qolaylı pedagogikalıq ortalıq jaratadı. Minez-qulqı turaqsız bolǵan balalar menen islesiwde tárbiyashı unamlı minez-qulıq shınıǵıwlarınan paydalanıwı, aldınnan belgilengen syujetler hám qaǵıydalar tiykarında oyınlardı shólkemlestiriwi, olarǵa ǵamxorlıq hám juwapkershilik talap etetuǵın rollerdi tapsırıwı lazım. Bul arqalı balalar oyın procesinde sociallıq maqbul minez-qulıq modellerin ózlestiredi hám keyin ala olardı óz betinshe qollanıwǵa úyrenedi.

Rolli oyınlardı oqıtıwdıń tiykarǵı principleri bar bolıp, olar tómendegiler:

Gúrrińge tiykarlangan oyındı shólkemlestiriwdiń birinshi principi - bul balalar oyın kónlikpelerin iyelewi ushın tárbiyashı olar menen birge oynawı kerek. Balalardı oyın álemine "jalǵaw" tabısın tiykarınan belgileytuǵın áhmietli faktor - bul úlkenlerdiń oyın waqtındaǵı is-háreketi. Úlkenler hám balalar arasındaǵı birgeliktegi oyın bala ushın tárbiyashınıń - hár qanday jaǵdayda da boysınıwı kerek bolǵan úlkenlerdiń - basımın emes, al "qızıqlı oynawdı biletuǵın" sheriktiń ústinligin sezgen jaǵdayda ǵana haqıyqıy oyın boladı.

Pedagogika páninde rol oynaw oyının basqarıwdıń eki basqıshi ajıratılgan tayarlıq (sabaqlarda maqsetli jumislar, ekskursiyalar, maqsetli seyiller, kórkem ádebiyat oqıw, sáwbetler, multimedia prezentaciyaların tamasha etiw arqalı balalar tájiriybesin bayıtıw; temanı rawajlandırıwshı ortalıq jaratıw).

Tiykargı (oyında qatnasıw, másláhát beriw, esletiw, túsindiriw, tiykargı yaki ekinshi dárejeli roldi iyelew, qásiyetlerdi tanıstırıw hám basqalar).

Rollı oyınlardıń basqıshları baladı áste-aqırın rol menen tanıstırıwı, olarǵa háreketlerin muwapıqlastırıwǵa járdem beriwi, basqa balalar menen oyınshılıq baylanıstı ańsatlastırıw hám jaǵdaydı sheshiwge alıp keliwi kerek. Óz ara tásir etiw arqalı alınǵan sezim tájiriybe rolli oyınlardıń tiykarǵı maqseti esaplanadı.

Balalardıń óz ara múnásibetleri dawamında olardı baqlap, men hámme balalar birge islese almaytuǵının abayladım. Ayırımlar ókpelemey, jánjel qılmay yamasa sógispey sóylesiw alıp barıw hám óz kózqarasın qorǵawda qıynaladı. Birgeliktegi shınıǵıwlar waqtında táslim bolıw yamasa basqa balanıń qıynalıp atırǵanın kórip, áytewir jaqınlasıp, járdem usınıs etiw zárúr bolǵanda qıyınshılıqlar payda boldı. Bul toparda basqa balalar menen ulıwma til tabısa almaytuǵın jetekshi balalardıń ústinligi menen baylanıslı edi. Tárbiyashılar hám ózimniń baqlawlarıma tiykarlanıp, men sońǵı waqıtları kóplegen balalar barǵan sayın agressiv bolıp, teńleslerініń jetiskenliklerin kelise almaydı, tilekles bola almaydı yamasa bayramlay almaydı degen juwmaqqa keldim. Bul mashqalalar kóbinese balalar toparlarında ushirasadı.

Juwmaqlap aytqanda, mektepke shekemgi jastaǵı balalarda syujetli-rolli oyınlar arqalı óz-ara birge islesiw sezimin qáliplestiriw úlken pedagogikalıq áhmiyetke iye. Oyın iskerligi balalardıń tek ǵana biliw processlerin emes, al olardıń sociallıq-emocional rawajlanıwın da nátiyjeli támiyinleydi. Ásirese, syujetli-rolli oyınlar procesinde balalar óz ara baylanısqa kirisedi, rollerdi bólistiredi, bir-birine járdem beredi hám uliwma maqsetke birgelikte háreket etiwdi úyrenedi.

Bul proceste tárbiyashınıń duris metodikalıq qatnası áhmiyetli orın tutadı. Yaǵnıy, oyınlardı maqsetke baǵdarlanǵan halda shólkemlestiriw, balalardıń jas hám individual ózgesheliklerin esapqa alıw, olardı belsene qatnasıwǵa iytermelew arqalı birge islesiw kónlikpelerin nátiyjeli rawajlandırıw múmkin. Sonday-aq, oyın ortalıǵınıń bay hám qızıqlı shólkemlestiriliwi balalardıń óz-ara qatnasıqların bekkemlewge xızmet etedi. Nátiyjede, syujetli-rolli oyınlar balalarda jámáátte islew, óz ara húrmet, juwapkershilik, kelisimge erisiw sıyaqlı áhmietli sociallıq kompetenciyalardı qáliplestiriwdiń nátiyjeli quralı ekenligi dálillendi. Sonlıqtan, mektepke shekemgi bilimlendiriw procesinde usı oyın túrlerinen keń hám sistemalı paydalanıw usınıs etiledi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” qaror. – Toshkent, 2019.
2. Shamsiyev O‘.B. Bolaning o‘zini-o‘zi anglash muammosi. Metodik qo‘llanma.– T.: Tafakkur, 2012. – 48 b.
3. Qodirova F.R. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Tafakkur, 2019. – 320 b.
4. Усова А.П. Роль игры в воспитании детей [Текст] / Под ред. А.В. Запорожца. – М., 2012. – 96 с.

Nishonova Z.T. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2018. – 240 b.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA SHE’RIY ASARLARNING TA’SIRI

K.Aytmuratova – o‘qituvchi Innovatsion texnologiyalar universiteti

Tayanch so‘zlar: Badiiy asarlar, she’riy janr, ijodiy faoliyat, tasavvur, nutq rivoji, badiiy nutq, so‘z boyligi, kommunikativ kompetensiya, estetik did, emotsional rivojlanish, ma’naviy-axloqiy tarbiya, interfaol metodlar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida badiiy asarlar bilan tanishish mashg'ulotlarida badiiy asarlarni janriy xususiyatlariga ko'ra o'rganish amaliy jihatdan turli asarlar misolida tashkil etiladi. "Ilk qadam" dasturida, asosan, hikoya, she'r, ertak, masal, maqol, doston, rivoyat, topishmoq va tez aytish kabi janrlardagi asarlar maktabgacha ta'lim amaliyotida o'rganish uchun taqdim etilgan[1]. Bulardan tashqari, ilmiy-ommabop matnlar ham o'rganiladi. Turli janrdagi badiiy asarlar qurilishi va uslubi jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning bolalarga ta'siri ham har xil bo'ladi. Masalan, she'riy asarlar matni ertak va hikoya matnidan, ilmiy-ommabop maqola matni masal janriga taalluqli asarlar matridan tubdan farq qiladi. She’riy asarlar bolalarning badiiy nutqini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. She’rlarni tinglash va yodlash jarayonida bolalar so‘z boyligini oshiradi, nutqining ifodaliligi kuchayadi hamda ohangdorlikni his qilish qobiliyati rivojlanadi. Bu esa ularning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, she’riyat bolalarning tasavvur va fantaziyasini kengaytiradi. Obrazli ifodalar orqali bola atrof-muhitni badiiy idrok etishni o‘rganadi. Natijada, ularning ijodiy fikrlash qobiliyati rivojlanib, mustaqil ravishda yangi g‘oyalar yaratish ko‘nikmasi shakllanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishda ijodiy faoliyat alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, ushbu davrda bolalarning tasavvuri, nutqi va estetik didi faol shakllanadi. Shu bois, ta’lim-tarbiya jarayonida she’riy asarlardan foydalanish muhim pedagogik vositalardan biri hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartida ham maktabgacha ta’limning asosiy prinsiplari sifatida bolaning ijodiy qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilgan [2].

She’riy asarlar, shuningdek, bolalarning emotsional rivojiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. She’r mazmunidagi hissiyotlar orqali bola yaxshilik, mehr, tabiatga muhabbat kabi ijobiy fazilatlarni anglaydi. Bu esa ularning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik amaliyotda she’riy asarlardan foydalanishda interfaol metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, she’r asosida rolli o‘yinlar tashkil etish, tasviriy faoliyat bilan integratsiya qilish yoki bolalarga she’r mazmuni asosida hikoya tuzdirish ularning ijodiy faolligini yanada oshiradi.

Ma'lumki, katta guruhda bolalar bugungacha bir qator she'rlar bilan tanishishgan, ko'pchiligini yod olishgan. Shularni ma'lum qilgandan keyin, tarbiyachi: "Adabiyotda hikoyalar, ertaklar va she'rlar bor. She'rlar hikoya va ertaklardan nimasi bilan farq qiladi?" degan ritorik savolni o'rtaga tashlaydi va

unga o'zi javob beradi. Tarbiyachiga talabalikda o'zlashtirgani adabiyotshunoslik kursidan ma'lumki, "She'r ohang jihatidan ma'lum bir tartibga solingan, his-tuyg'u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutqdir. She'riy nutqni ohang jihatidan ma'lum bir tartibga solish vositalari ritm (bir-biriga monand kichik bo'laklarning izchil va bir me'yorda takrorlanib kelishi) va qofiya (misralarning oxirida keladigan ohangdosh so'zlar) hisoblanadi". Tarbiyachi mana shu nazariy ma'lumotni tarbiyalanuvchilarga jo'n, tushunarli yo'sinda ma'lum qiladi. Hamma badiiy asarlar so'zlar ko'magida yaratilishini, she'rda shu so'zlar ma'lum tartibga, qoidaga solinishini va belgilangan ohangda o'qilishini tushuntiradi. Shu tartibda solingan so'zlar yig'indisida ham xuddi ertak va hikoyalarga, rivoyatlarga o'xshab shoirning fikri, hayotda muhim deb bilgan qarashlari aks etishini anglatadi. She'rning mazmunidan u nima haqida ekanini bilish mumkinligini ham aytadi. So'zni shunday tartib-tizimga solib yozadigan odam "Shoir" deyilishini, hikoya, ertak va rivoyatlar bituvchi esa "Yozuvchi" deyilishini ham eslatib o'tadi[3].

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida badiiy asarlarni janriy xususiyatlariga ko'ra o'rganish bolalarning har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Turli janrdagi asarlar, xususan, she'riy asarlar bolalarning nutqini boyitish, so'z boyligini oshirish, fikrni ifodali va ravon bayon etish ko'nikmalarini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. She'riyat orqali bolalarda ohangdorlikni his etish, ritm va qofiyani anglash qobiliyati rivojlanib, bu ularning badiiy nutqini yanada takomillashtiradi. Shu bilan birga, obrazli ifodalar bolalarning tasavvurini kengaytirib, ijodiy fikrlashini faollashtiradi hamda mustaqil g'oya yaratish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bundan tashqari, she'riy asarlar bolalarning emotsional va ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. She'r mazmuni orqali ular yaxshilik, mehr-oqibat, tabiatga muhabbat kabi insoniy fazilatlarni anglab yetadilar. Bu esa ularning shaxs sifatida shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Pedagogik amaliyotda she'riy asarlardan samarali foydalanish uchun interfaol metodlarni qo'llash muhimdir. Rolli o'yinlar, ijodiy topshiriqlar, tasviriy faoliyat bilan integratsiya qilish kabi usullar bolalarning faolligini oshiradi va o'quv jarayonini yanada qiziqarli qiladi. Shunday qilib, maktabgacha ta'lim jarayonida she'riy asarlardan tizimli, izchil va maqsadga muvofiq foydalanish bolalarning nutqiy, intellektual, emotsional hamda ijodiy rivojlanishini ta'minlab, ularning barkamol shaxs bo'lib kamol topishiga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi takomillashtirilgan ikkinchi nashri. Toshkent-2022
2. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 22.12.2020 yil 802-son
3. "Maktabgacha ta'limda badiiy matn bilan ishlash metodikasi" Q.Husanboyeva, M.Hazratqulov, G.Berdaliyeva Toshkent "innovatsion-Ziyo 2020

MAKTABGACHA TA’LIMDA TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Kenjaboyeva Sevara - Ajiniyoz nomidagi NDPI Maktabgacha ta’lim yo’nalishi 3 kurs talabasi,
Ilmiy rahbar p.f.f.d. **G.Turebekova**

Kalit so‘zlar: tarbiya jarayoni, zamonaviy yondashuv, maktabgacha ta’lim, innovatsiya, pedagogik texnologiyalar, rivojlantiruvchi muhit, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim.

Ключевые слова: воспитательный процесс, современный подход, дошкольное образование, инновации, педагогические технологии, развивающая среда, личностно-ориентированное образование.

Keywords: educational process, modern approach, preschool education, innovation, pedagogical technologies, developing environment, student-centered education.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida ulkan islohotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, mamlakatimiz kelajagi va ravnaqida muhim o‘rin tutadigan maktabgacha ta’lim sohasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Zero, bu tizim jamiyatning birlamchi va eng muhim bo‘g‘inidir. Bolalarda maktabgacha bo'lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy va jismoniy xislatlar shakllanadi. Shu bois maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha ham tashkiliy, ham mazmun jihatidan ko'p ishlar qilinmoqda.

Maktabgacha ta’limda tarbiya jarayonini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari **shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, o‘yinli texnologiyalar, STEAM yondashuvi** va **axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT)** joriy etishga asoslanadi. Asosiy e’tibor bolaning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, mustaqilligini qo‘llab-quvvatlash va “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” asosida har tomonlama kamol topishiga qaratiladi. Maktabgacha ta’lim tizimida tarbiya jarayoni bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Ushbu jarayon orqali bolada axloqiy, ijtimoiy, intellektual va emotsional sifatlar rivojlanadi. Shu bois tarbiya jarayonini zamonaviy talablarga mos ravishda tashkil etish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogika fanida tarbiya jarayoniga nisbatan yondashuvlar tubdan o‘zgarib bormoqda. An’anaviy ta’lim modelidan farqli ravishda, bugungi kunda ta’lim jarayoni bolaga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Bu yondashuvda bola faol subyekt sifatida qaraladi va uning qiziqishlari, ehtiyojlari hamda individual xususiyatlari hisobga olinadi.

Tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy metodlar bolalarning faolligini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga undaydi va ta’lim jarayonini yanada qiziqarli qiladi. Interaktiv metodlar, muammoli vaziyatlar va ijodiy topshiriqlar bolalarning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Rivojlantiruvchi muhit yaratish tarbiya jarayonining asosiy shartlaridan biridir. Bunday muhit bolalarning erkin faoliyat olib borishiga, o‘z qiziqishlarini namoyon etishiga va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Rivojlantiruvchi muhitda turli faoliyat markazlari, didaktik materiallar va o‘yin vositalari mavjud bo‘lishi zarur. Tarbiya jarayonida pedagogning roli alohida ahamiyatga ega. Pedagog bolalarni qo‘llab-quvvatlovchi, yo‘naltiruvchi va rag‘batlantiruvchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi. U bolalarning mustaqilligini rivojlantirishi, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlashi va ijobiy xulq-atvor ko‘nikmalarini shakllantirishi lozim.

Shuningdek, tarbiya jarayonida individual yondashuv muhim hisoblanadi. Har bir bolaning rivojlanish darajasi, qiziqishlari va ehtiyojlari turlicha bo‘ladi. Shu sababli pedagog har bir bola bilan individual ishlashi va uning imkoniyatlarini hisobga olgan holda tarbiya jarayonini tashkil etishi zarur.

Maktabgacha ta’limda tarbiya jarayoni ijtimoiylashuv bilan chambarchas bog‘liq. Bola tarbiya jarayonida jamiyatda qabul qilingan me’yor va qadriyatlarni o‘zlashtiradi. Bu esa uning kelajakda jamiyatda faol ishtirok etishiga zamin yaratadi. Tarbiya jarayonida ota-onalar bilan hamkorlik alohida ahamiyatga ega. Ta’lim muassasasi va oila o‘rtasidagi uzviy aloqalar bolalarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Ota-onalar tarbiya jarayonida faol ishtirok etishi va pedagoglar bilan hamkorlik qilishi zarur.

Zamonaviy ta’lim tizimida tarbiya jarayonini tashkil etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Multimedia vositalari, interaktiv dasturlar va raqamli resurslar tarbiya jarayonini boyitadi va bolalarning qiziqishini oshiradi.

Amaliyotda tarbiya jarayonini tashkil etishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, pedagogik yondashuvlarning yetarli darajada zamonaviy emasligi, rivojlantiruvchi muhitning to‘liq shakllanmaganligi va ota-onalar bilan hamkorlikning sustligi ushbu jarayon samaradorligini pasaytiradi.

Shu sababli tarbiya jarayonini takomillashtirish uchun kompleks yondashuv zarur. Zamonaviy metodlardan foydalanish, pedagoglarning malakasini oshirish va rivojlantiruvchi muhitni takomillashtirish orqali ushbu jarayonni samarali tashkil etish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’limda tarbiya jarayonini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish bolalarning barkamol shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqali jamiyat uchun yetuk, mustaqil fikrlaydigan va ijtimoiy faol shaxslarni tarbiyalash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun O‘RQ-595-son

2. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo‘latova, N.M.Kayumova, M.N.A’zamova. Maktabgacha pedagogika.T.: - 2019

3. lex.uz

BOLALARDA EKOLOGIK MADANIYAT VA TABIATNI ASRASH MAS'ULIYATINI SHAKLLANTIRISHDA "TIRIK BURCHAK"NING O'RNI

Atamuratova Napiza Baxtiyar qizi - Ajiniyoz nomidagi NDPI maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishda "tirik burchak"ning pedagogik va psixologik ahamiyati yoritilgan. Maqolada tirik tabiat bilan bevosita muloqot qilishning bolaning shaxs sifatida shakllanishiga ta'siri va tabiatni asrashga bo'lgan mas'uliyatini oshirish usullari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Ekologik madaniyat, tirik burchak, tabiatga mas'uliyat, ekologik tarbiya, kuzatuvchanlik, jonli tabiat, ekologik ong.

Bugungi kunda texnologik taraqqiyot va urbanizatsiya jarayonlari inson hayotini sezilarli darajada yengillashtirayotgan bo'lsa-da, ular bolalarning tabiiy muhit bilan bevosita aloqasining kamayishiga ham sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, shaharlashuv sharoitida o'sayotgan bolalar tabiat hodisalari, o'simlik va hayvonot olami bilan yetarli darajada tanishish imkoniga ega bo'lmayapti. Natijada esa ularning ekologik savodxonligi, atrof-muhitga nisbatan ongli munosabati va mas'uliyat hissi sust shakllanmoqda.

Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tabiat bilan yaqinlashtiruvchi samarali pedagogik vositalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunday vositalardan biri — "tirik burchak"dir. Tirik burchak bolalarga nafaqat o'simlik va hayvonlar haqida nazariy bilim berish, balki ularni parvarish qilish, kuzatish va ular bilan muloqot qilish orqali amaliy tajriba orttirish imkonini yaratadi.

Eng muhimi, tirik burchak orqali bolalarda tabiatga nisbatan mehr-muhabbat, g'amxo'rlik va daxldorlik hissi shakllanadi. Bola o'zi parvarish qilayotgan o'simlikning o'sishini yoki hayvonning holatini kuzatar ekan, tabiat bilan hissiy bog'liqlikni his qiladi. Bu esa kelajakda ekologik madaniyatli, atrof-muhitga befarq bo'lmagan shaxsni tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Tirik burchakning tarbiyaviy ahamiyati:

Tirik burchak maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarning nafaqat bilim, balki shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda muhim didaktik vosita hisoblanadi. U orqali bolalarda quyidagi muhim ko'nikmalar bosqichma-bosqich shakllanadi:

• **Hissiy munosabat.** Bola tirik mavjudotlar — o'simliklar va hayvonlarga nisbatan mehr va g'amxo'rlikni o'rganadi. Gulning so'lib qolishi yoki qushning bezovta bo'lishi orqali u boshqalarning holatini his qilish, ya'ni empatiya tuyg'usini rivojlantiradi. Natijada bolada "zarar yetkazmaslik" tamoyili shakllanadi.

• **Tizimli parvarish.** Tirik burchakdagi o'simlik va hayvonlarni muntazam parvarish qilish bolada tartib-intizom va mas'uliyat hissini kuchaytiradi. Har kuni suv quyish, yem berish, tozalikka rioya qilish kabi oddiy vazifalar orqali bola o'z majburiyatlarini bajarishga o'rganadi. Bu esa keyingi hayotida ham foydali bo'lgan barqaror odatlarni shakllantiradi.

• **Ilmiy yondashuv.** Kuzatish va tajriba orqali bola tabiat qonuniyatlarini anglay boshlaydi. Masalan, urug‘ning unib chiqishi, barglarning o‘sishi yoki baliqlarning harakati kabi jarayonlarni kuzatish bolada sabab-oqibat bog‘liqligini tushunish, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa uning dastlabki ilmiy tafakkurini shakllantiradi.

Shu tariqa, tirik burchak bolalarda hissiy, amaliy va bilish faoliyatini uyg‘un ravishda rivojlantirib, ularni tabiatga ongli va mas’uliyatli munosabatda bo‘lishga tayyorlaydi.

Tirik burchakni samarali tashkil etish uchun ma’lum pedagogik va amaliy tamoyillarga rioya qilish zarur. Bu tamoyillar bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari hamda xavfsizligini inobatga olgan holda tanlanadi:

Tirik burchakdagi o‘simliklar va parvarish jarayonlari yil fasllariga mos ravishda tashkil etilishi lozim. Masalan, bahorda urug‘ ekish va unib chiqishni kuzatish, yozda o‘sish jarayonini, kuzda barglarning o‘zgarishini, qishda esa dam olish holatini o‘rganish mumkin. Bu orqali bolalar tabiatdagi davriy o‘zgarishlarni tushunib boradilar.

Tirik burchakda turli xil o‘simliklar va (imkon qadar) kichik, xavfsiz hayvonlar bo‘lishi maqsadga muvofiq. Masalan, xona gullari, dorivor o‘simliklar, akvariumdagi baliqlar yoki qushlar bolalarda qiziqish uyg‘otadi. Turli geografik hududlarga xos flora va fauna vakillari orqali bolalar tabiatning rang-barangligini anglaydilar va ularning dunyoqarashi kengayadi.

Tarbiyachi bu jarayonda boshqaruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi rolni bajarishi kerak. Asosiy faoliyat — sug‘orish, oziqlantirish, kuzatish va oddiy parvarish ishlari (xavfsizlik qoidalariga amal qilgan holda) bolalar tomonidan bajarilishi muhim. Bu ularda mehnatsevarlik, javobgarlik va mustaqillik ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Tirik burchakdagi barcha o‘simlik va hayvonlar bolalar uchun xavfsiz bo‘lishi kerak. Zaharli o‘simliklardan foydalanmaslik, hayvonlarni to‘g‘ri parvarish qilish, tozalikni saqlash va gigiyena qoidalariga amal qilish muhim ahamiyatga ega.

Tirik burchak faoliyati tasodifiy emas, balki reja asosida olib borilishi lozim. Kuzatishlar, parvarish ishlari va kichik tajribalar muntazam ravishda tashkil etilsa, bolalarda barqaror bilim va ko‘nikmalar shakllanadi.

Shu tamoyillarga amal qilish orqali tirik burchak nafaqat bezak elementi, balki bolalarning ekologik, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi samarali ta’lim vositasiga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, tirik burchak — bu kichik ekotizim modelidir. Bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish jarayoni aynan mana shu kichik modeldan boshlanib, kelajakda ularning butun sayyoramizni asrab-avaylovchi shaxslar bo‘lib yetishishiga mustahkam poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. "Ekologik ta’lim va tarbiya tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori.

2. Shodiyev N.S. "Ekologik tarbiya nazariyasi va amaliyoti". Toshkent, 2018.

3. G‘ulomov P.N. "Tabiatshunoslik o‘qitish metodikasi". Toshkent, 2020.

4. Nikolayeva S.N. "Ekologicheskoye vospitaniye v detskom sadu" (Bog‘chada ekologik tarbiya). Moskva, 2017.

MEKTEPKE SHEKEMGI BILIMLENDIRIW TARAWINDA STEAM TEXNOLOGIYALARIN KEŃ QOLLANÍW ARQALI BILIMLENDIRIW SAPASIN JÁNE DE ARTTIRIW IMKANIYATLARI.

A.K. Ulikpanova-NMPI Mektepke shekemgi tálim kafedrasi oqitiwshisi
M.A. Aytjanova-NMPI Mektepke shekemgi tálim bag'dari 2-kurs talabasi

Tayanish tùsinikler: Bilimlendiriw, texnologiya, STEAM texnologiyaları, bilimlendiriw sapası, pànler toplamı, bilimlendiriw procesi, rawajlanıw bilim,ko‘nlikpe, jańa bag‘dar.

Ключевые слова: Образование, технология, STEAM-технологии, качество образования, предмет, образовательный процесс, развитие, знания, навыки, новое направление.

Key word: Education, technology, STEAM technologies, quality of education, collection of subjects, educational process, development, knowledge, skills, new direction.

Bilimlendiriw tarawına itibar jáne de kúsheytilgen bir waqıtta zamanagóy pedagogikalıq texnologiyalarǵa tiykarǵı áhmiet berilmekte. Búgingi kún bilimlendiriwiniń eń tiykarǵı innovaciyalıq metodi hám perspektivalı texnologiyası bul - STEAM texnologiyası STEAM texnologiyası tálimi quramalı kórinse de onıń óz aldına qarasaq ápiwayı, túsinikli hám anıq ekenligin kóremiz:

S - science - tábiyiy pánler.T-texnologiya - texnologiya.E - injiniring - injenerlik.A - art - kórkem óner.M-math-matematika.

STEAM tarawları ilim, texnologiya, injenerlik, kórkem óner hám matematika tarawları bolıp tabıladı. Kóplegen bilimlendiriw shólkemlerinde bilimlendiriwdiń sapa nátiyjeliligin arttırıw maqsetinde STEAM texnologiyasınan maqsetli paydalanıp kelinbekte. Tálim alıwshılar ushın alǵan bilimlerin ámeliyatta sınap kóriw, tájiriybeler ótkeriw maqsetinde laboratoriya hàm LEGO sho‘lkemleri jaratilib atır. STEAM texnologiyası mektepke shekemgi bilimlendiriw hám mektep jasındaǵı balalardı tárbiyalawda eń qolaylı programma bolıp tabıladı. Onıń tiykarǵı ideyası sonnan ibarat, ámeliyat teoriyalıq bilimler sıyaqlı áhmietli. Yaǵnıy, úyreniw waqtında biz tek ǵana miyimiz benen emes, al qolımız benen de islewimiz kerek. STEAM qatnasınıń tiykarǵı ayırmashılıǵı sonnan ibarat balalar hár qıylı temalardı tabıslı úyreniw ushın da miydi da qolların da isletedi. Programmada balalarǵa belgili bir tártip, belgili birstandartlar belgilenbegen. Tek ǵana bala ózi ǵárezsiz, erkin, tájiriybelerge tiykarlanıp, ózi orınlap kórip nátiyjege erisiw, sezip, oylap, ańlap orınlanıwı kerek bolatuǵın principlerge súyenedi. Usı bilimlendiriw baǵdarlaması L.S.Vıgotskidiń "Durıs shólkemlestirilgen tálim - balanı rawajlanıwǵa jetekleydi" degen sózi ilimiy rawajlanıw principlerine tiykarlanǵan baǵdarlama. STEAM bagdarlamasında mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemlerinde arnawli tájiriybe yaǵnıy laboratoriya xanaların shólkemlestirip, balalardı ıqtıyarsız tálimge tartıp, jumıs dawamında olardıń innovaciyalıq-izertlew hám intellektuallıq qábiletlerdi rawajlandırıw úlken áhmiyetke iye.Mektepke shekemgi bilimlendiriw sistemasında balalar ózleriniń erk-ıqrarın, dóretiwshiligin, beyimlesiwsheńligin rawajlandıradı hám basqalar menen birge islesiwdi úyrenedi.Bul kónlikpeler hám bilimler tiykarǵı bilim beriw wazıypasın quraydı, yagniy bul pútin

bilimlendiriw sisteması nege umtılıp atırǵanın durıs túsinip jetedi mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemlerinde STEAM baǵdarlaması tiykarında shólkemlestiriletuǵın barlıq jumıslarda balanıń aktivligi áhmiyetli esaplanadı. STEAM bagdarlamasında balalar menen tájiriybelerdi shólkemlestiriwde bárqulla balalardıń jas tárepleri esapqa alınıwı hár bir iskerliktegi processler ápiwayıdan quramalıǵa qaray shólkemlestiriliwi lazım. Usı principke ámel etiw islense ǵana, bala ushın qıyınshılıq tuwdırmaydı, ańsat, qolaylı, STEAM programmasında bala hár tárepleme intellektual, rejelestiretuǵın, tańlaw qàbiliyetleri rawajlana baslaydi.Túrli ilajlarda óz bilim hám kónlikpelerine súenip, óz qararların qabıl etiwge, hár qıylı iskerlikte yaǵnıy oyın, sóylesiw, oqıw hám izertlew iskerliginde ǵárezsizlik kórsete baslaydı. STEAM tálimi bolalardiń tómendegi áhmiyetli ózgesheliklerin rawajlandırıwǵa járdem beredi:

- Mashqalalardı keń túsiniw.
- Dóretiwshilik pikirlew
- Injenerlik jantasıw.
- Kritikalıq pikirlew Ilimiy metodlardı túsiniw hám qollanıw.
- Dizayn tiykarların túsiniw.

Paydalanılǵan ádebiyatlar dizimi:

1.Mirziyoyev Sh.M. "Mektepke shekemgi tálim sistemasın túpkilikli jetilistiriw is-ilajları haqqında"ǵı PQ-3289-sanlı Qararı. Tashkent, 2017.

2."Ilm yo‘li" variativ oqıw baǵdarlaması. Ózbekstan Respublikası Mektepke shekemgi tálim ministrligi. Tashkent, 2020.

3.Jumaniyazova M.T. "Mektepke shekemgi tálimde innovaciyalıq texnologiyalar". Oqıw qollanba. Tashkent, 2020.

4.Yakubova D.T. "STEAM tálimi - zamanagóy tálimniń jańa dástúri". Metodikalıq usınıslar. Nókis, 2021.

5.Khalilova G. "STEAM texnologiyaların mektepke shekemgi tálimde qollanıw metodikası". Bilim hám tárbıya jurnalı. Nókis, 2022.

MEKTEPKE SHEKEMGI BILIMLENDIRIWDI SHÓLKEMLESTIRIWDE INNOVACIYALIQ TEXNOLOGIYALARDAN PAYDALANIW ÁHMIYETI

Kóshekbaeva Guldana Berikbaevna - Innovaciyalıq texnologiyalar universiteti 1-kurs student

Annotatsiya: Bul teziste zamanagóy mektepke shekemgi tálim sistemasındaǵı sapa ózgerisleri hám bul tarawda innovaciyalıq texnologiyalardan paydalanıwdıń pedagogikalıq zárúriyatı ilimiy jaqtan talqılanadı. Izertlew dawamında mektepke shekemgi jastaǵı balalardıń kognitivlik belsendiliginiń artısı hám olardıń logikalıq pikirlew qábiletleriniń qáliplesiwi dástúriy hám innovaciyalıq metodlar arqalı salıstırmalı analizlendi. Teziste "Joybarlaw" hám "Problemalı-izertlew" metodlarınıń balanıń jeke shaxs bolıp qáliplesiwindegi áhmiyeti ashıp berilgen bolıp, sonday-aq tárbiyashınıń cifrlı kompetentligin

arttırıw boyınsha bir qatar ámeliy usınıslar keltirilgen. Alınǵan nátiyjeler innovaciyalıq jantasıwlardıń tálim sapasın asırıwdaǵı nátiyjeliligin tastıyqlaydı.

Tayanısh sózler: innovaciyalıq jantasıw, mektepke shekemgi tálim, pedagogikalıq texnologiya, joybarlaw usılı (project-based learning), kognitivlik belsendilik, kreativlik, cifrlı tálim ortalıǵı, tárbiyashı kompetentligi.

Búgingi kúnde mektepke shekemgi tálim sistemasın túpkilikli reformalaw hám onı zamanagóy talaplar tiykarında qayta qurıw mámleketlik siyasatınıń eń áhmiyetli baǵdarlarınıń birine aylandı. Bul basqısh balanıń tek keleshektegi oqıw jetiskenliklerin emes, bálki onıń psixofizikalıq salamatlıǵın, sociallıq adaptaciyasın hám intellektual potencialınıń belgilep beriwshi dáslepki hám eń juwapkershili dawir esaplanadı. Pedagogikada qáliplesken "tayın maǵlıwmatlardı beriw" usılı házirgi zaman balalarınıń tez ózgerip turatuǵın informacion ortalıqtaǵı qızıǵıwshılıqların tolıq qandıra almay otırǵanı sezilmekte. Usı sebepli de, mektepke shekemgi tálim shólkemlerinde (MSHBSH) oqıw-tárbiya procesin shólkemlestiriwde innovaciyalıq jantasıwlardı engiziw tek qana májbúriy emes, bálki obyektiv zárúriyat retinde júzege shıqpaqta.

Mektepke shekemgi tálimdegi innovaciya túsinigi jiyilep aytılsa da, onıń mánis-mazmunın tek ǵana texnikalıq qurallar yamasa kompyuterlestiriw menen sheklep qoyıw úlken qátelik bolar edi. Shın mánisindegi innovaciyalıq jantasıw — bul balanıń ishki imkaniyatların hám kreativlik qábiletin oyatıwǵa baǵdarlanǵan, tárbiyashı hám bala ortasındaǵı subyekt-subyekt múnásebetlerin jańa sapalıq basqıshqa alıp shıǵıwshı pedagogikalıq ortalıqtı jaratıwdır. Bunda balanıń erkin pikirlewi, qıyallanıwı hám átraptaǵı dúnyanı óz betinshe izertlewine imkaniyat beriwshi metodlar, máselen, joybarlaw iskerligi, mánisli oyın texnologiyaları hám evristikalıq sáwbetler tiykarǵı orınǵa shıǵadı. Usı kóz-qarastan, tálim processin innovaciyalıq tiykarda qurıw balanıń mektep tálimine psixologiyalıq jaqtan sapalı tayarlanıwın támiyinlep qana qoymay, onıń ómir boyı dawam etetuǵın óz-ózine hám átrapqa bolǵan belsendi múnásebetin qáliplestiriwde sheshiwshi ról oynaydı.

Izertlewimizdiń metodologiyalıq tiykarın oqıw-tárbiya procesiniń házirgi jaǵdayın tereń analizlew hám onıń sapa kórsetkishlerin qarsılastırıwǵa baǵdarlanǵan kompleksli pedagogikalıq tájiriybe-sınaq jumısları quraydı. Teoretiyalıq túsiniklerdi ámeliyat penen sabaqlastırıw maqsetinde Nukus qalasındaǵı bir qatar mektepke shekemgi tálim shólkemleriniń tayarlıq toparlarında arnawlı baqlaw jumısları alıp barıldı. Bunda tiykarǵı itibar balalardıń dástúriy shınıǵıwlarǵa bolǵan múnásebeti hám jańa metodikalıq usıllar engizilgennen keyingi psixologiyalıq-kognitivlik ózgerislerdi salıstırıwǵa qaratıldı. Pedagogikalıq eksperiment dáslepki (aniqlawshı) basqıshında balalardıń óz betinshe qarar qabıllaw dárejesi hám kreativlik kónlikpeleri arnawlı test-oyınlar arqalı ólshep alındı, bul bolsa keleshektegi nátiyjelerdi obyektiv bahalaw ushın tayanısh kórsetkish bolıp xizmet etti [4, 65 b.].

Tájiriybe procesiniń eń áhmiyetli bólimi retinde tálim procesine "Joybarlaw" (Project-based learning) hám "Problemalı-izertlew" metodların izbe-iz engiziw strategiyası tańlap alındı. Bul metodikalıq jantasıwda tárbiyashı tek ǵana maǵlıwmat beriwshi shaxs emes, bálki balanıń izertlewshilik iskerligin baǵdarlap

turıwshı fasilitator rolinde shıqtı. Mısal ushın, "Átirapımızdağı tábiyaat" temasındağı joybar sheńberinde balalarǵa tek tayın súretlerdi kórsetiw menen sheklenbesten, olardıń aldına kishi-girim ekologiyalıq mashqalalar qoyıldı hám sheshim jolların óz betinshe izlewge imkaniyat berildi. G.N. Qurbanovanıń pikirinshe, dástúriy pedagogikadan innovaciyalıq modelge ótiwde balanıń subyektivlik poziciyasın arttırıw sheshiwshi áhmiyetke iye [7, 32 b.]. Joybarlaw usılı arqalı balalar birgelikte islesiwdi, juwapkershilikti bólistiriwdi hám eń baslısı, logikalıq dizbeklerdi qurıwdı ámeliyatta úyrendi.

Bul jerde álbette, balalardıń kognitivlik belsendiligin stilmullastırıwda multimedia imkaniyatları hám vizual texnologiyalardan kompleksli paydalanıw metodikası qollanıldı. Bunda vizuallastırıw tek bezew quralı emes, bálki abstrakt túsiniklerdi konkretlestiriwshi hám balanıń emotsional intellektin oyatıwshi mexanizm retinde xizmet etti. Interaktiv taxtalar hám arnawlı didaktikalıq animaciyalar járdeminde shınıǵıwlar dinamikalıq mazmun iyeledi, bul bolsa dástúriy metodlar menen salıstırǵanda balalardıń itibarın toptaw waqıtın sezilerli dárejede uzayttı. Kognitiv belsendilikti arttırıwda vizual tayanısh signallarınıń áhmiyeti zamanagóy pedagogikalıq psixologiyada da óz tastıyǵın tapqan bolıp, bul jantasıw balanıń maǵlıwmattı tek qabıllap qoymastın, bálki onı vizual obrazlar arqalı qayta islewine járdem beredi [9, 88 b.]. Alınǵan kórsetkishlerdiń isenimliligin támiyinlew maqsetinde hár bir basqıshta balalardıń qızıǵıwshılıq kartaları hám ózlestiriw monitoringi júrgizip barıldı.

Sınaq-tájiriybe jumıslarınıń juwmaqlawshı basqıshında alınǵan kórsetkishler dástúriy hám innovaciyalıq jantasıwlar arasındağı sapalıq ayırmashılıqtı anıq kórsetip berdi. Atap aytqanda, innovaciyalıq metodlar sistemalı túrde qollanılǵan eksperimental toparlarda balalardıń logikalıq pikirlew dárejesi dástúriy baǵdarlamadağı toparlar menen salıstırǵanda ortasha 25-30% ǵa joqarı ekenligi anıqlandı. Bul kórsetkish tek qana sanlar dizbegi emes, bálki balalarda sebepli-nátiyjeli baylanıslardı qurıw, berilgen tapsırmalardı kreativ jol menen sheshiw hám analizlew qábiletleriniń sezilerli dárejede rawajlanǵanlıǵınıń dálili bolıp tabıladı. Bunday jetiskenliklerge erisiwde R. Yusupov atap ótkenindey, tálim processindegi cifrlı hám interaktiv komponentlerdiń balanıń kognitivlik shegaraların keńeytiwge tásiri sheshiwshi ról oynadı [9, 92 b.].

Sınaq-tájiriybe jumıslarınıń juwmaqlawshı basqıshında alınǵan kórsetkishler dástúriy hám innovaciyalıq jantasıwlar arasındağı sapalıq ayırmashılıqtı anıq kórsetip berdi. Atap aytqanda, innovaciyalıq metodlar sistemalı túrde qollanılǵan eksperimental toparlarda balalardıń logikalıq pikirlew dárejesi dástúriy baǵdarlamadağı toparlar menen salıstırǵanda ortasha 25-30% ǵa joqarı ekenligi anıqlandı. Bul kórsetkish tek qana sanlar dizbegi emes, bálki balalarda sebepli-nátiyjeli baylanıslardı qurıw, berilgen tapsırmalardı kreativ jol menen sheshiw hám analizlew qábiletleriniń sezilerli dárejede rawajlanǵanlıǵınıń dálili bolıp tabıladı. Bunday jetiskenliklerge erisiwde R. Yusupov atap ótkenindey, tálim processindegi cifrlı hám interaktiv komponentlerdiń balanıń kognitivlik shegaraların keńeytiwge tásiri sheshiwshi ról oynadı [9, 92 b.].

Interaktiv oyın texnologiyalarınıń engiziliwi balalardıń informacion yadı hám verbal kommunikaciyasına da óziniń unamlı tásirin kórsetpey qalmaldı. Shınıǵıwlar dawamında multimedia quralları arqalı usınılǵan vizual obrazlar hám situaciyalıq oyınlar maǵlıwmattıń balanıń uzaq múddetli yadında bekkem saqlanıwına imkaniyat jarattı. Baqlawlarımız sonı kórsetetinki, interaktiv ortalıqta bilim alǵan balalardıń sózlik qorı dástúriy toparlardaǵı qarsılaslarına qaraǵanda bayıraqlıǵı hám sóylew mánisiniń kórkemliligi menen ajıralıp turdı. Bul proceste "edutainment" koncepciyasınıń áhmiyeti ayırıqsha bolıp, maǵlıwmattı emotsional qabıllaw balanıń tek intelektin emes, bálki onıń sóylew mánisi hám kommunikativ kónlikpelerin de tábiylestirdi [8, 15 b.].

Sonday-aq, izertlew nátiyjeleri tárbiyashılardıń professional iskerligindegi transformaciyanı da ashıp berdi. Tálim procesine innovaciyalardıń engiziliwi pedagoglardıń zamanagóy texnologiyalar menen islesiw kónlikpelerin turaqlı tilde rawajlandırıwdı talap etti, bul bolsa óz gezeginde oqıw-tárbiya procesiniń sapalı hám qızıqlı mazmun iyelewine alıp keldi. Tárbiyashılar tárepinen zamanagóy didaktikalıq qurallardan erkin paydalana alıw qábileti shınıǵıwlardıń metodikalıq dizbegin jandandırıp, balalardaǵı passivlikti saplastırdı. Bunday metodikalıq jańalanıwlar shólkemdegi ulıwma pedagogikalıq muhittiń belsendiligin arttırıp, tálim hám tárbiya procesiniń birligin jańa basqıshqa shıǵarıwda tiykarǵı katalizator xizmetin ótedi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Mirziyoev Sh.M. Niyatimiz ulug‘, ishimiz xayrli, kelajagimiz yorug‘. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.

2. “Ilk qadam” mektepke shekemgi tálim shólkeminiń mámleketlik oquv baǵdarlaması (tastıyıqlanǵan hám qayta islengen basılımı). – Tashkent: MTTV, 2022. – 96 b.

3. Jumaev M.E. Mektepke shekemgi tálim metodikası. Oqıw qollanba. – Tashkent: “Sano-standart” baspası, 2021. – 256 b.

4. Qurbanova G.N. Zamanagóy pedagogikalıq texnologiyalar hám olardı tálim-tárbiya procesine engiziw usılları. – Nókis: “Bilim”, 2020. – 180 b.

5. Robert S. Innovative Approaches in Preschool Education: Theory and Practice. – Oxford University Press, 2018. – 312 p.

6. Sapaeva K. Mektepke shekemgi bilimlendiriwde innovaciyalıq iskerlik tiykarları hám kreativlik. – Tashkent: “Navruz”, 2023. – 144 b.

7. Qurbanova G.N. Pedagogikalıq maharat hám innovaciya: Metodikalıq qollanba. – Nókis, 2021. – 120 b.

8. “Mektepke shekemgi tálim” ilimiy-metodikalıq jurnalı. – Tashkent, 2023. – № 4. – 45-48-bb.

9. Yusupov R. Cifrlı pedagogika hám tálimde multimedia texnologiyalarınan paydalanıw metodikası. – Tashkent: “Zamon”, 2022. – 210 b.

Ózbekstan Respublikasınıń Nızamı. “Mektepke shekemgi tálim hám tárbiya haqqında”ǵı Nızamı. 2019-jıl 16-dekabr, ÓRQ-595-san.

SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

S.Shermetova – Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Maktabgacha ta’lim mutaxassisligi 1 bosqich magistranti

Annotatsiya: Tezis shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish masalalarini o‘rganadi. Tadqiqot bolalarning individual xususiyatlari va rivojlanish darajalari asosida pedagogik yondashuvlarni samarali qo‘llash yo‘llarini tahlil qiladi. Shuningdek, maktabgacha ta’lim muassasalarida pedagoglarning rolini oshirish, ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish va ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillash-tirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tezis maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’lim sifatini yaxshilash va ularning ijtimoiy hamda emotsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, maktabgacha ta’lim, bolalarni qo‘llab-quvvatlash tizimi, individual yondashuv, pedagogik strategiyalar, ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash, ota-ona hamkorligi.

Jamiyatimizda eng oliy qadriyat insondir. Shaxslarni tarbiyalashga e'tibor qaratish, ularning qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish va shaxsiy fazilatlarini oshirish zamonaviy, rivojlangan jamiyatning eng muhim vazifalaridan biridir. Shaxsning to‘laqonli rivojlanishi jarayoni maktabgacha yoshdan boshlanib, butun ta’lim va tarbiya tizimini qamrab oladi. Insonning xarakteri, qobiliyatlari va qiziqishlari aynan bolalik davrida shakllana boshlaydi.

Bolalar bizni ularning xatti-harakatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari va individual moyilliklari bilan hayratga soladi. Hech bir bola boshqasiga to‘liq o‘xshamaydi, hatto egizaklar ham o‘ziga xos farqlarga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, ta’limning asosiy maqsadlari barcha bolalar uchun bir xil bo‘lishi lozim.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv pedagogikaning eng muhim tamoyillaridan biri hisoblanadi. Bolalarni tarbiyalashda individual yondashuv qo‘llanilishi lozim, u anatomiya, fiziologiya, psixologiya, yosh va boshqa shaxsiy xususiyatlarni inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Shu bois, bolaning tana tuzilishi, fiziologik xususiyatlari va markaziy asab tizimining o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish birinchi darajali ahamiyatga ega.

Bolalarning individual xususiyatlarini aniqlash esa vaqt talab qiladigan va tizimli kuzatish asosida amalga oshirilishi kerak. Buning uchun o‘qituvchi aniq reja tuzishi, vaqti-vaqti bilan bolalar va ularning ota-onalari uchun qisqacha qaydlar yozib borishi zarur. Mashg‘ulotlar jarayonida bolalarning atrof-muhitdagi ob’ektlar va hodisalar haqidagi tushunchalari rivojlanadi, kengayadi va chuqurlashadi. Bolalar yangi bilimlarga ega bo‘lib, asosiy mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradilar, sodda xulosalar chiqarishni o‘rganadilar va fikrlarini mantiqan izchil tarzda ifodalashni mashq qiladilar. Shu bilan birga, ular to‘plangan taassurotlar va kuzatuvlarini og‘zaki ravishda ifoda etish malakasini rivojlantiradilar. Mashg‘ulot davomida bolalarda idrok, ixtiyoriy

e’tibor, xotira va tasavvur rivojlanadi, shuningdek iroda, tashkilotchilik, qat’iyatlilik, mehnatsevarlik va kollektivizm tuyg‘usi mustahkamlanadi.

Masalan, “Nima o‘zgardi?” mashqi orqali bolalar diqqatini, kuzatuvchanligini va xotirasini rivojlantiradi. Stol ustiga turli buyumlar joylashtiriladi va bola ularning joylashuvini yodlaydi. Keyin ko‘zlarini yumib, 20 gacha sanash so‘raladi, shu vaqt ichida ba’zi buyumlar almashtiriladi yoki olib tashlanadi. Boladan o‘zgarishlarni aniqlash so‘raladi. Shu kabi mashqlar bolalarning diqqatini rivojlantirishga xizmat qiladi, masalan, “Taqiqlangan raqam” mashqi: 4 raqamini aytmasdan, 1 dan 41 gacha sanash. Ushbu mashqlar nafaqat aqliy rivojlanishga, balki shaxsiy fazilatlarni shakllantirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mashg‘ulot davomida barcha bolalar ma’lum xulq-atvor qoidalariga rioya qilishi zarur: jim o‘tirish, diqqat bilan tinglash, ahamiyatsiz mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanmaslik, boshqalarni bezovta qilmaslik va ish joylarini tartibli saqlash. Ba’zi bolalar ushbu qoidalarga osongina amal qiladi va intizomni mustahkamlaydi, boshqalari esa faolligi yetishmagan yoki diqqatni jamlay olmaydi, bu ularning temperament va asab tizimining xususiyatlariga bog‘liq bo‘lishi mumkin.[3]

Individual yondashuv bolalarning fikrlash, yodlash, diqqat, tashabbuskorlik va ijodkorlik jarayonlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Jim, uyatchan yoki passiv bolalarda bu yondashuv orqali ilgari sezilmagan fazilatlar yuzaga chiqadi. Ularning faolligini rag‘batlantirish uchun o‘qituvchi avvalo bolalarni o‘ziga jalb qilishi, guruhga moslashishlariga yordam berishi va do‘stona muhit yaratishi lozim.

Uyatchan yoki chekka bolalarni mashg‘ulotlarda faqat so‘ralganda jalb qilish, ularning oldingi bilimlari asosida asta-sekin yangi va qiyin materiallarga o‘tish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘quv jarayonida o‘yinga asoslangan metodlar qo‘llanilishi, uyatchan yoki passiv bolalarda faollik, ixtiyoriy e’tibor va qat’iyatni shakllantirishga yordam beradi.

Ko‘pincha bolalarning darslardagi passivligi o‘qituvchining noto‘g‘ri metodikasi bilan bog‘liq bo‘ladi. Agar faqat faol va qobiliyatli bolarga e’tibor qaratilsa, dars jarayoni qolgan bolalar uchun samarali bo‘lmaydi, shuning uchun individual yondashuv har bir bolaga mos tarzda tashkil etilishi muhimdir.

Sust tushunadigan bolalarga individual yondashuv ayniqsa muhim hisoblanadi. N. A. Dobrolyubov o‘zining 1858 yilda yozgan “Sessiz tushunadigan o‘quvchilar” asarida bunday bolalarga e’tibor qaratgan. U bunday bolalarni tavsiflab, ularni dangasa yoki ahmoq deb hisoblamaslik kerakligini ta’kidlaydi, chunki ular ko‘plab ijobiy xususiyatlarga ega bo‘ladi. Bu bolalar diqqatli, ehtiyotkor va turli kundalik vazifalarni samarali bajarishga qodir. Bunday bolalar itoatkor, xushmuomala va sabrli bo‘ladilar. Garchi ular o‘rganishda sekinlik qilsa ham, o‘zlashtirgan bilimlarini mustahkam xotirada saqlashadi. Sust bolalar bilan ishlashda o‘qituvchi sabrli bo‘lishi, ularni shoshmasligi, javob berishga majburlamasligi, birinchi chaqirmasligi, ishonchni shakllantirish va ularning har bir javobini rag‘batlantirish kerak. N. A. Dobrolyubovning individual yondashuv bo‘yicha g‘oyalari bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, pedagogik amaliyotda to‘liq oqlangan hisoblanadi.

Bunday yondashuvni amaliyotga tatbiq qilish uchun “Korrektor” o‘yini samarali vosita bo‘lishi mumkin. Bolalar bu o‘yinni odatda juda yoqtiradilar, chunki u ularga

muhim shaxs sifatida mas’uliyatni his qilish imkonini beradi. Avvalo, bolaga “korrektor” so‘zining ma’nosi tushuntiriladi. Bola sevimli kitob yoki jurnalidan foydalanadi. Matnni ko‘rib chiqqanida qaysi harflar noto‘g‘ri yozilganini aniqlash va tuzatish vazifasi unga topshiriladi. Agar bola barcha xatolarni to‘g‘ri aniqlasa, uni maqtash muhimdir; hatto kichik mukofot berish (shirinlik yoki sovg‘a) rag‘bat sifatida ishlatilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, tizimli va puxta o‘ylangan individual yondashuv bolalarning rivojlanishiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, maktabgacha ta’limda individual yondashuvni amalga oshirishda har bir detalning ahamiyati katta bo‘lib, e’tiborsiz qolishi mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyot:

1. Dobrolyubov, N. A. Sessiz tushunadigan o‘quvchilar. – Sankt-Peterburg: 1858. – 78 b.

2. Vygotskiy, L. S. Maktabgacha yoshdagi bolalarda rivojlanish va tarbiya. – Moskva: Pedagogika, 1991. – 256 b.

3. Zimnyaya, I. A. Bolalarning shaxsiy xususiyatlari va pedagogik yondashuvlar. – Moskva: Akademiya, 2000. – 312 b.

4. Davlatbek, A. Shaxsga yo‘naltirilgan maktabgacha ta’lim tizimi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 145 b.

5. Elkonin, D. B. Bolalar psixologiyasi va individual rivojlanish. – Moskva: Nauka, 1989. – 224 b.

ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASI MEKTEPKE SHEKEMGI TALIM SISTEMASIN MODERNIZATSIYALAWDIŃ ÚSTIN BAĠDARLARI

Ómirbaeva Biybijamal - Ajiniyaz atındaģı Nókis mámlektlik pedagogikalıq instituti Mektepke shekemgi talim baģdari 2-kurs talabası

Annotasiya: Bul maqala Ózbekstan Respublikasi Mektepke shekemgi tálim sistemasınıń modernizaciya bağdarların sistemalı tárzde izertlew etedi. Zamanagóy pedagogikalıq jantasıwlar, innovciyalıq texnologiyalar, kompetenciyalıq model, cifrlı tálim hám de milliy-mádeniy qádiriyatlar tiykarında analiz etiledi.

Tayanish tusinikler: mektepke shekemgi tálim, modernizaciya, pedagogikalıq innovatsiya, cifrlı tálim, kompetenciyalar

Mektepke shekemgi tálim-bala ómirindegi eń zárúrli pedagogikalıq basqısh bolıp, onıń keyingi tálim, psixologiyalıq jáne social rawajlanıwına tiykar saladı. Búgingi kúnde globallıq tálim maydanında zaman talapları joqarı bolıp, mektepke shekemgi tálim sistemasın modernizaciyalaw tálim arqalı sapalı tayarlıqtı támiyinlewdiń ústin turatuģın bağdarına aynalģan. Modernizaciya procesi pedagogikalıq jantasıwlardı jańalaw, zamanagóy texnologiyalardı engiziw hám professional kadrlardı tayarlawdı talap etedi. Ózbekstan Respublikası "Mektepke shekemgi tálim hám tárbiya tuwrısında”gi nızamına tiykarlanıp mektepke shekemgi tálim mámleketimizde úzliksiz

tálimdiń tiykarǵı basqıshlardan biri esaplanadı. Usı waqıtta mektepke shekemgi tálimdi modernizaciyalawda tómendegilerge; itibar beriw zárúrli áhmiyetke iye :

A) mektepke shekemgi tálim hám tárbiyanıń anıq tiykarların belgilew ;

B) mektepke shekemgi tálimdiń jáhán tájiriybesine tıykarlanıw;

V) mektepke shekemgi tálimdi joqarı maǵlıwmatlı pedagoglar menen tolıq támiyinlew

Búgingi kúnde mektepke shekemgi tálim 5-7 jaslı balalardıń sawatlılıǵın quram taptırıw hám olardı sanaqqa úyretiw wazıypasın orınlap atır. Usınıń sebepinen mektep táliminiń baslanǵısh klass wazıypasın modernizaciyalawǵa mútajlik bar. Usı máselede biziń kózqarasımız tómendegishe mektepke shekemgi tálim balalardıń sawatlılıǵın quram taptırıwı, olardı mektep tálimine tayarlaw hám psixik-fizikalıq shınıqtırıw wazıypasın orınlawı, mektep táliminiń baslanǵısh klass basqıshı oqıwshılardı pánler tiykarları menen dáslepki basqıshta tanıstırıwı, olardı bilim dúnyaǵa alıp kiriwi hám tálimdiń keyingi basqıshına tayarlaw wazıypasın orınlawı maqsetke muwapıq boladı.Innovciyalıq tálim texnologiyası-bul oqıw procesiniń nátiyjeliligin asırıw tálim hám tálim iskerligi ushın eń jaqsı shárt-shárayatlardı jaratıw ushın ámeldegi usıllardi jańa yamasa sapa jaǵınan jaqsılawdı óz ishine alǵan oqıw hám tálim iskerligin shólkemlestiriw metodologiyası.Innovatsiya jańa ilimiy bilimlerdi, qanday da jańa ashılıwlardıń, oylap tabıwlardı alıwǵa qaratılǵan izertlew iskerliginen paydalanıw arqalı rawajlanadı. Mektepke shekemgi jastaǵı balalarǵa tálim beriwde kompetenciyalıq jantasıw ósip baratırǵan bala shaxsın turmısqa tayarlaw, minez-qulıq norma hám qádiriyatlardı ózlestiriw, basqa insanlar menen ushırasıw, ol jaǵdayda " Men" obrazın qurıw menen baylanıslı bolǵan iskerlik usılların qáliplestiriwge tayarlıqtı názerde tutadı. Búgingi kúnde mektepke shekemgi tálim mazmunın jetilistiriwde ayriqsha metodikalıq, pedagogikalıq, psixologiyalıq tayarlıq menen islew dáwir talapsına aylandı. Sebebi mektepke shekemgi tálim mazmunın jetilistiriw keń mánisli túsinik bolıp, onı nátiyjeli ámelge asırıw mektepke shekemgi tálim shólkem imaratınıń jaǵdayı, tárbiyashi-pedagoglar, tárbiyashi járdemshileri, ata-analar hám de balalardıń tálim processtegi qatnasıwı uyanavatsion bolıwı lazımlıǵın talap etedi. "Dáslepki hám mektepke shekemgi jastaǵı balalar rawajlanıwına qoyılatuǵın Mámleket talapları" hám de "Ilk Qadam" Mámleket oqıw programması tiykarında jantasıw processinde pedagogikalıq-psixologiyalıq, metodikalıq, kórkem ádebiyatlar sanı hám sapası, hár bir jas toparına uyqas hám tán ádebiyatlar menen bayıtıp barıw da zárúrli másele. Mektepke shekemgi tálim balanıń tayansh kompetenciyalardı rawajlandırıw ushın tiykar bolıp xızmet etedi.Mámleket oqıw programması kompetenciyalıq jantasıwǵa tiykarlanǵan. Kompetenciya-balanıń bilim, kónlikpe, ilmiy tájriybe hám qádiriyatları jıyındısı.Kompetentli bala óz bilim, kónlikpe hám kónlikpelerin arnawlı bir jaǵdayda jóneltiriwi hám qóllawı, óz maqsetine jetiwi hám rawajlanıwdıń hár bir basqıshında jasına qaray sáykes keletuǵın wazıypalardı sheshiwi múmkin.

Paydalang‘an adebiyatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. – Toshkent.

2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. – Toshkent, 2018.

3. Hasanboyeva O., Yo‘ldosheva M. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.

4. Karimova G. Maktabgacha ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2019.

ESHITISHIDA NUQSONI BO’LGAN BOLALARNI MEHNATGA O’RGATISH

G.Tasbaeva – Ajiniyoz NDPI Maktabgacha tarbiya va defektologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Esbosinova Ayzada. Ajiniyoz NDPI Defektologiya(logopediya) ta’lim yo’nalishi 3-b talabasi

Oilada farzandning dunyoga kelishi ota –ona uchun nafaqat quvonch va shodlik manbai – baxt nashidasi, balki mas’uliyat hissi ham demakdir. Chunki go’dakning dunyoga kelishi muayyan orzular, hayotiy rejalar bunyod bo’ladi. Har ne bo’lganda ham baxt va mas’uliyat hissi ota –onani go’dagi bilan birga qayta tarbiyalaydi, desak yanglishmaymiz. Axir farzand – u qanday bo’lishidan, qay holatda bo’lishidan qat’iy nazar naslimiz davomchisi, o’zligimizning, balki kamchiliklarimizning mevasi….

Maqolamizda eshitishida nuqsoni bo’lgan bolalarni mehnatga o’rgatish xususida so’z yuritmoqchimiz.

Ota-onaning ko’pchiligi farzandini mehnatdan chegaralab, mehnatsevarlik bola balog’at yoshiga yetib, o’z hayot yo’lini tanlaganida shakllanadi, deb fikrlaydilar. Agar yosh bolani mehnatga hayot quvonchlari sifatida munosabatda bo’lish, undan shodlanishga o’rgatilmasa, mehnat bola uchun majburiy zaruriyatga aylanadi. Bolani maktabgacha tarbiya yoshidan boshlab mehnat faoliyatiga ko’niktirish, mehnat qilish usullarini egallashiga ko’maklashish unda inson hayoti va mehnatidagi o’rnini belgilaydigan xarakter qirralarini shakllantirishga qulay shart- sharoit yaratadi.

Eshitishida nuqsoni bo’lgan bolalar tarbiyasi esa ota-onalar zimmasiga yanada ko’proq mas’uliyatni yuklaydi. Bola tarbiyasiga taqdim etiluvchi umumiy talablardan chekinmagan holda mutaxassis taklif etgan maxsus vazifalarni ado eting. Bugungi kunda eshitishida nuqsoni bo’lgan bolalar tarbiyasi yuzasidan ko’plab adabiyotlar, tavsiya va yo’riqnomalar mavjud. Ulardan farzandingizga zarur o’quv va maishiy ko’nikmalarni hosil qilish uchun foydalanishingiz mumkin. Lekin yodingizda bo’lsinki, hech bir shaxs dangasa, ishyoqmas, yolg’onchi, tovlamachi bo’lib dunyoga kelmaydi, ularda bu xususiyatlar tarbiya natijasida shakllanadi. Yana shu narsa aniqki, hamma ham farzandining haqiqiy inson bo’lib voyaga yetishini istaydi. Afsuski, istak o’zi yetarli emas. Bolalarni mehnatsevar, adolatparvar, qat’iyatli qilib tarbiyalash, ularga shu sifatlarni singdirish lozim, buning uchun esa, avvalo, o’zingiz namuna ko’rsata bilishingiz darkor.

Mehnat inson hayoti uchun, uning farovon turmush kechirishi uchun hamisha asos bo’lib kelgan va shunday bo’lib qoladi. Mehnat - farovon va baxtli hayot kechirishining eng asosiy sharti bo’lganligi sababli hamma fuqarolar uchun

majburiydir. Mehnat odamlarning biror maqsad uchun sarflagan vaqti, aqliy va jismoniy kuchi yoki faoliyatidir. Barcha tirik mavjudot nimanidir iste'mol qilish hisobiga yashaydi, umrini davom ettiradi. Yerda yashovchi mayda qurt-qumursqalardan tortib, parrandalargacha, suv ostida yashovchi jonivorlardan tortib ulkan hayvonlar-gacha ovqatsiz yashay olmaydi. Shuningdek, odamlar ham uzluksiz ovqatlanadi, hayot kechiradi. Boshqa tirik mavjudotlardan farqli o'laroq, odamlar kiyinishadi, ijod qilishadi. Mehnat jarayonidagina oziq-ovqat, kiyim –kechak va boshqa zarur narsalar yaratiladi. Mehnat inson hayotini sermazmun qiladi va boyitadi. Odamlar mehnat qilish jarayonida sog'liqlarini mustahkamlaydilar, obro' orttiradilar va o'z kelajaklarini yaratadilar. Ota-bobolarimiz asrlar davomida mehnatni ulug'lab kelishgan, o'zlari ham sidqidildan mehnat qilishgan. Bizga ulardan meros bo'lib qolgan barcha xazina – ilmiy-badiiy kitoblar, turli xildagi san'at asarlari, memorchilik obidalari va boshqa narsalar ana shu mehnatning mahsulidir.Eshitishda nuqsoni bolgan bolalarni ha'm barcha tendoshlari kabi mehnatka orgatish mumkin. Bunda eshitishda nuqsoni bolgan bolalaga, eshitishda nuqsoni bo'lganligi uchun engil vaziyfa berish bilan cheklanishga yo'l qoymaslik kerak. Bolalarda mehnat faoliyatidagi xotasini o'z baqtida bartaraf etishga urgatish kerak boladi. Ishlamaslik bolalarda dangasaliklarga sabab bo'ladi. Mehnat eshitishda nuqsoni bo'lgan bola shaxsini har tomonlama kamol toptirishning asosiy omili hisoblanadi. Shuning uchun kar bolalarni kichik yoshidan boshlab mehnat qilishga o'rgatish zarur.

Demak, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni ham sog'lom tengdoshlari kabi mehnatsevar bo'lib tarbiyalash bilan bir vaqtda, inson qo'li bilan yaratilgan narsalarni qadrlash, ardoqlash va uni uvol qilmaslikka o'rganishlari kerak. Ota-onalar kar farzandlarini kelajagini o'ylab, ularni ilk yoshlaridan mehnatga o'rgatib, chiniqtirib borishlarimaqsadga muvofiq. To'g'ri tarbiyaning eng ta'sirli, eng samarali usuli ham mehnatdir. Ota-onalar eshitishida nuqsoni bo'lgan farzandlarining mehnatiga har doim ham muhtoj bo'lavermaydilar, lekin bolani yoshligidan ishga o'rgatish, mehnatga ko'niktirish zimmalaridagi burch, asosiy vazifadir.

Foydalangan adabiyatlar

1.LogopediY(pod red .A.S .volkovoy)M.:vlados.2003 g
2.Muminova L,Ayupova M.LogopediY.T.:Oqıtıwshı 1993 y

MEKTEPKE SHEKEMGI JASTAǴI BALALARDIŃ INTELLEKTUAL RAWAJLANIWIN ÚYRENIWDIŃ MAZMUNI

Bauetdinova Shaxrezada Ajiniyaz atındaǵı NMPI 1-kurs talabası
Ilimiy basshısı p.i.f.d. **G.Turebekova**

Tayanısh sózler: intellekt, rawajlanıw, qábilet, mektepke shekemgi jastaǵı bala, aqılıy tárbiya, aqılıy rawajlanıw logikalıq pikirlew.

Ключевые слова: интеллект, развитие, способности, дошкольник, умственное воспитание, умственное развитие, логическое мышление.

Keywords: intellect, development, ability, preschool child, mental education, mental development, logical thinking.

Intellekt (latınsha “intellectus” sózinen alınǵan bolıp aqıl, ańǵarıw, túsiniw, túsinik- jańa jaǵdaylardan xabardar bolıw, tájiriybe tiykarında úyreniw hám yadlaw qábileti, abstrakt túsiniklerdi túsiniw hám qóllaw, olardan paydalanıw qábiletinen ibarat psixikanıń sapası bolıp tabıladı. Tusinip jetiw intellektual qábilettiń bekkem strukturası esaplanadı. Intellektti aqılıy processler sisteması, mashqalalardı sheshiwdiń usılı hám strategiyası, seziw aktivligin talap etetuǵın jaǵdayǵa individual jantasıwdıń natiyjeliligi, yaǵnıy, kognitiv usıl arqalı oyda sawlelendiriw múmkin.

Psixolog Raymond Kettelldıń intellekt teoriyasına kóre aqıl shama menen mobil hám kristallanǵan dep klassifikaciyalaw múmkin. Birinshisi, logikalıq pikirlew, aldınǵı tájiriybeden sırtta bolǵan mashqalalardı analiz qılıw hám sheshiw qábiletinen ibarat; ekinshisi tóplanǵan tájiriybe hám úyrenilgen bilim hám kónlikpelerden paydalanıw qábiletin óz ishine aladı.

Mektepke shekemgi jastaǵı balalardı aqılıy tárbiyalaw balalardıń belsendi pikirlew iskerligin rawajlandırıwǵa úlkenlerdiń belgili bir maqset penen tásir etiwi bolıp tabıladı. Ol balalarǵa dógerek-átiraptaǵı álem haqqında bilimler beriwdi, olardı sistemalastırıw, balalarda biliwge qızıǵıwshılıq oyatıw, aqılıy kónlikpe hám tájiriybelerdi qáliplestiriw, biliw qábiletlerin rawajlandırıwdı óz ishine aladı.

Mektepke shekemgi jastaǵı balalarǵa intellektin rawajlandırıwdı durıs shólkemlestiriw ushın olardıń aqılıy rawajlanıw qábiletleri hám imkaniyatların biliw kerek. Mektepke shekemgi bilimlendiriw jasında basqa jas dáwirlerine qaraǵanda aqılıy rawajlanıwdıń joqarı pátte rawajlanıwı gúzetiledi. Ásirese, dáslepki jas toparı balalarınıń aqılıy rawajlanıwına ayrıqsha itibar qaratıw zárúr. Zamanagóy izertlewlerdiń nátiyjeleri sonı kórsetedi, eki jasqa shekemgi balalarda júdá úlken kólemdegi biliw belsendiligi gúzetiledi. Balanıń sanası tez rawajlanıp, ol úsh jasqa kelgende úlken adamlardıń aqıl kúshiniń seksen procentine teńlesedi. Bul jaǵday mektepke shekemgi jastaǵı bala sanasın artıqsha zorıǵıwlardan saqlawdı talap etedi.

Mektepke shekemgi jastaǵı balalardıń aqılıy rawajlanıwında jol qoyılǵan kemshiliklerdi keyin ala saplastırıw qıyın keshedi. Tálim-tárbiya procesinde jol qoyılǵan kemshilikler keleshekte balanıń hár tárepleme rawajlanıwına unamsız tásir kórsetedi. Mısalı: shańaraqta, mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemlerinde balanıń qurılıs materialları, konstruktorlar menen oynawına itibar qaratpaslıq aqıbetinde mektepte geometriya, sızıw sıyaqlı pánlerdi ózlestiriwde qıyınshılıq tuwdırıwshı keńislikte túsiniwdiń rawajlanbaslıǵına alıp keledi.

Mektepke shekemgi jastaǵı balanıń aqılıy rawajlanıwındaǵı tiykarǵı ózine tánlik – obrazlı biliw formaların (túsiniw, obrazlı pikirlew, kóz aldına keltiriw) iyelewde, ayqın kórinedi. Balada rawajlanatuǵın biliw processleri hár qıylı iskerlik túrlerinde kórinedi. Balada túsiniktiń rawajlanıwı arqalı ol iskerliktiń kórinisin kóz aldına keltire aladı, ámelge asırıwı lazım bolǵan jumıstı rejelestiredi, onnan ne talap etip atırǵanlıǵın anıqlay aladı. Bala ózlestirip atırǵan bilimler tek onıń pikirlew sheńberin ósirip ǵana qalmay, al, adamlarǵa, olardıń háreketlerine, tábiyat, kórkem óner sıyaqlılarǵa múnásibetti qarar taptıradı.

Intellektuallıq qábiletler insanǵa túrli wazıypalardı tabıslı sheshiw imkaniyatın beredi. Ch.Darvin teoriyasına kóre, tuwılgannan baslap barlıq saw adamlar shama menen birdey dárejedegi aqlga iye, biraq keleshekte onıń rawajlanıwı shaxstıń aktivlik dárejesine hám onıń háreketine baylanıslı.Mektepke shekemgi jastaǵı balalarda intellektti rawajlandırıw júdá zárúrli bolıp tabıladı. Intellekt túsinigine ilimde úsh jantasıw ámeldegi bolıp, olardıń hár biri bul túsiniktiń ayriqsha tariypin usınıs etedi:

- Intellekt shaxstıń átirap -ortalıqqa iykemlesiw qábiletin támiyinleydi.
- Intellekt shaxstıń bilim, kónlikpe hám ilmiy tájriybelerdi ózlestiriwiniń individual kórsetkishlerin belgileydi.
- Intellekt - abstraksiyalardan paydalanıw qábiletiniń kórsetkishi bolıp tabıladı.

Mektepke shekemgi jastaǵı balanıń aqılıy ziyrekligin hám oylawın oyın hám shınıǵıwlar arqalı rawajlandırıw kerek. Intellektuallıq qábiletler túrli kónlikpelerdiń kombinaciyası bolıp tabıladı. Qáliplesken intellektti rawajlandırıwǵa mútáj emes, degen nadurıs pikir bar. Biraq, insan ereseklik jasında da aqıldı rawajlandırıwda sezilerli tabıslarǵa jetiwi múmkinligi ilimiy tárepten tastıyıqlanǵan. Kóbinese balalar hám óspirimler intellektual qábiletlerin jaqsılawǵa jetkilikli itibar bermeydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umarova N.Sh., Arziqulov D.N. Umumiy psixologiya / O‘quv qo‘llanma-T.: “Fan va texnologiya”, 2018y.-220 b. - ISBN 978-9943-11-964

2. Абрамова Г.С. Возрастная психология: Учебное пособие для вузов. М.: Академический Проект, 2019г.- 623 с.

3. www. ziyonet. uz. Развитие интеллектуальных способностей детей

MAKTABGACHA TA’LIMDA ROBOTOTEXNIKA ASOSLARI

G.Turebekova. Maktabgacha ta’lim kafedrasi docenti v.v.b.
Axmedova Gulruh Rustam qizi. 2-kurs talabasi

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, ijodkorlik, tadqiqotchilik, tasavvur, tashabbus, harakatchanlik, robototexnika, mantiqiy tafakkur.

Ключевые слова: preschool education, creativity, research, imagination, initiative, mobility, robotics, logical thinking.

Keywords: preschool education, psychological relationships, educator, child, emotional development, pedagogical communication.

Biz avtomatlashtirish tezligi ta’sirchan bo‘lgan zamonda yashayapmiz. Bugungi kunda odamlar bajaradigan vazifalarni avtomatlar tezroq va yaxshiroq bajaradi. Ba’zilar ko‘plab faoliyat sohalarida, ayniqsa ishlab chiqarish va sanoatdagi jarayonlarning to‘liq avtomatlashtirilishi ishsizlikning sababi hisoblanadi, deya shikoyat qilishadi. Aslida, bu hamma uchun yangi imkoniyatlar to‘lqini.

Maktabgacha ta’limda robototexnika asoslarini tashkil etilishi bolalarning kreativligini, mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning eng muhim vositasi hisoblanadi. texnik va muhandislik ko‘nikmalarini shakllantirishni ta’minlaydi. Bolalarda yuqori texnologiyali muhandislik va dasturlash bilan bog‘liq mavzularni rivojlantirishga,

robototexnikani mashg‘ulotdan tashqari tadbirlarga integratsiyalashga turtki beradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida robototexnika asoslarining tashkil etilishi dolzarbligi texnik ijodkorlikni rivojlantirishning yangi vazifalari bilan belgilanadi, zamonaviy fan amaliy faoliyatda texnik va axborot bilimlarini uyg‘unlashtira oladigan mutaxassislarga bo‘lgan talabning yuqoriligidan kelib chiqadi. Har bir bolaning qobiliyatini ochib berish, yuqori texnologiyali, raqobatbardosh dunyoda hayotga tayyor shaxsni tarbiyalash - davlat ta’lim standartida zamonaviy ta’limning maqsadlari sifatida belgilangan. Robototexnika nima va u bolalarga nima uchun kerak? Robototexnika insonning turmush tarzini yengillashtiruvchi avtonom qurilma va texnikalarni kashf etishga xizmat qiladigan soha bo‘lib, bugungi kunning eng serdaromad kasbi hisoblanadi. Robotexnika - maxsus konstruktorlardan foydalangan holda robotlar yasashdir. Robotexnika 3 yo‘nalishni o‘z ichiga oladi: dizayn, dasturlash, elektronika. Pedagogning vazifasi bolani mexanika asoslari bilan tanishtirish va uning ko‘nikmalarini rivojlantirishdir. Jarayonga bolalar jalb qilingan, ular o‘zlari robot yaratishga qiziqishadi va natijasini ko‘rishadi. Faoliyat o‘yin-kulgi va ta’limni birlashtiradi. Robototexnika – bu, mashinasozlik, elektrotexnika va informatika fanlarini birlashtiradigan soha. Ushbu dastur doirasida bolalar robotlarni loyihalash, qurish va ulardan foydalanish, shuningdek ularni boshqarish, fikrlar va ma'lumotlarni qayta ishlash uchun kompyuter tizimlarini o‘rganadi. Bolalarda robototexnika qanday rivojlanadi? Robotlar qurish orqali bola mas'uliyatni, intizomni, jamoada ishlashni, tasavvurni va diqqatni rivojlantiradi. Oddiydan murakkabgacha bosqichma-bosqich ishlash sabr-toqat va qat’iyatni o‘rgatadi.

Shuningdek, konstruktor quyidagilarning rivojlanishiga hissa qo‘shadi: ijodiy fikrlash; elektronika olami haqida tanishuv; qo‘llarning motorika qobiliyatlari; nutq va aqliy qobiliyatlar; xotira; atrofidagi dunyo haqidagi g'oyalar; boshqa odamlarning mehnatiga hurmat; o‘zaro aloqa mahorati; mustaqillik. Konstruktiv faoliyat ancha murakkab jarayon, bola nafaqat qo‘llari bilan amaliy harakat qiladi va xuddi shu paytni o‘zida qurilayotgan bino yoki hunarmandchilikni idrok etadi, o‘ylaydi. Loyihalashning asosiy momenti ob'ektlarni tekshirishning analitik va sintetik faoliyati bo‘lib, bu dizayn usullarini aniqlash imkonini beradi. Namunani tahlil qilish va uni qurish usullarini tanlashda tarbiyachiga vizual idrok emas, balki maxsus tashkil etilgan kognitiv faoliyat yordam beradi. Analitik-sintetik faoliyat asosida bola qurilish jarayonini rejalashtiradi, g'oyani yaratadi. Rejani amalga oshirishning muvaffaqiyati asosan maktabgacha yoshdagi bolaning o‘z yo‘nalishini rejalashtirish va nazorat qilish qobiliyati bilan belgilanadi. Analitik va sintetik faoliyatni takomillashtirish maktabgacha yoshdagi bolaning konstruktiv ijodkorligi uchun asos yaratadi.

Maktabgacha ta’limda konstruktiv faoliyat bilan rivojlanuvchi ta’lim tizimini yaratish bolaga ijodkorlikni namoyon etish, hissiy tajribani boyitish, kognitiv va estetik ehtiyojlarni ro‘yobga chiqarish imkonini beradi. Olimlarning ta’kidlashlaricha, bu soha kelajakda ham eng talabgir va serdaromad kasblardan biri. Bu kasbni o‘rganish davomida bolalar intellektini rivojlantirib, konsturktiv fikrlashini oshiradi, shu bilan bir qatorda fizika, matematika va informatika kabi asosiy fanlarni o‘rganishga ham amaliy yordam beradi, dasturlashni va algoritmlarni oson o‘rganib olish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Волосовец Т.В., Маркова В.А., Аверин С.А. STEM-образование детей дошкольного и младшего школьного возраста. М.: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2019. - 112 с.
2. Владимир Конюх Леонидович. Основы робототехники. - М.: Феникс, 2008-г. 281-с. https://www.labirint.ru/books/158518/
3. H.E.Majidova. Robototexnika asosida o‘quvchilar ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish. Jizzax. Tom-7 №-7 (2021).

OYÍNLAR ARQALÍ BALALARǴA ÚNEMLEW HÁM EKONOMIKALÍQ TÚSINIKLERDI ÚYRETIW

S.M.Turdibaeva - Ájiniyaz atındaǵı NMPI mektepke shekemgi tálim baǵdarı 3-kurs studenti

Annotaciya: Bul maqalada mektepke shekemgi hám kishi mektep jasındaǵı balalarga ekonomikalıq túsiniklerdi (aqsha, mútájlik, reje, únemlew) oyın texnologiyaları arqalı úyretiwdiń nátiyjeli usılları kórsetilgen. Maqalada teoriya hám ámeliyattıń únlesligi, balalardıń ekonomikalıq oylawın rawajlandırıwda interaktiv oyınlardıń roli tallanadı.

Tayanish sózler: Finanslıq sawatlılıq, únemlew, ekonomikalıq tárbiya, mútájlik, reje, oyın texnologiyaları, shańaraq byudjeti.

Házirgi bazar ekonomikası sharayatında shaxstıń hár tárepleme qáliplesiwinde finanslıq sawatlılıq áhmietli hám ajıralmas faktorlardan biri esaplanadı. Zamanagóy jámiette hár bir insan kúndelikli turmısında túrli ekonomikalıq qararlar qabıl etedi: satıp alıw, qarjını bólistiriw, únemlew yamasa rejelestiriw sıyaqlı procesler tikkeley finanslıq bilim hám kónlikpelerge baylanıslı. Sol sebepli, finanslıq sawatlılıqtı balalıq dáwirinen baslap qáliplestiriw búgingi bilimlendiriw sistemasınıń áhmietli wazıypalarınan biri sıpatında qaralmaqta.

Mektepke shekemgi jastaǵı balalar ele quramalı ekonomikalıq túsiniklerdi tolıq ańlay almasa da, olar kúndelikli turmıs arqalı pul, sawda, miynet hám mútájlik sıyaqlı ápiwayı ekonomikalıq kategoriyalar menen tanısıp baslaydı. Áyne usı dáwirde balaǵa aqshanıń qay jerden keliwi, onıń miynet esabınan tabılıwı, qarjını durıs jumsaw hám únemlew zárúrligi haqqında ápiwayı hám túsinikli túrde túsinik beriw áhmietli. Ásirese, “qálew” (tilek) hám “hájet” (zárúrlik) arasındaǵı ayırmashılıqtı ańlaw balada sanalı tutınıw mádeniyatınıń qáliplesiwine xızmet etedi.

Balalarǵa ekonomikalıq bilimlerdi beriwde dástúriy, qurǵaq túsindiriw usılları kóbinese kútilgen nátiyjeni bermeydi. Sebebi bul jastaǵı balalar ushın oyın tiykarǵı iskerlik túri bolıp, olar qorshaǵan ortalıqtı áyne oyın arqalı ańlaydı. Sol sebepli, finanslıq sawatlılıqtı qáliplestiriw procesinde didaktikalıq hám syujetli-rolli oyınlardan paydalanıw eń nátiyjeli pedagogikalıq jantasıw esaplanadı. Oyın procesinde bala “dúkan,” “bazar,” “bank,” “shańaraq byudjeti” sıyaqlı jaǵdaylardı modellestiredi, puldı sarıplaw, únemlew hám tańlaw tájiriybesin arttıradı.

Bunday qatnas balalardıń ekonomikalıq túsiniklerdi ańsat hám qızıqlı ózlestiriwine járdem berip ǵana qoymastan, al olarda juwapkershilik, únemlew, rejelestiriw hám erkin qarar qabıl etiw sıyaqlı áhmietli turmıslıq kónlikpelerdi de rawajlandıradı. Nátiyjede, bala keleshekte finanslıq jaqtan sanalı, óz qarjısın durıs basqara alatuǵın hám jámietlik turmısta belsene qatnasatuǵın shaxs sıpatında qáliplesiwine bekkem tiykar jaratıladı.

Mektepke shekemgi jastaǵı balalar ushın ekonomikalıq túsinikler quramalı hám abstrakt kóriniwi múmkin. Sol sebepli, olardı ápiwayı, turmıslıq mısallar hám balaǵa jaqın jaǵdaylar arqalı túsindiriw úlken áhmietke ie.

Pul - bul ápiwayı qaǵaz yamasa teńgeler emes, al insannıń miyneti esabınan tabılatuǵın qádiriyat. Balaǵa aqshanıń "aspannan túspeytuǵının," al ata-ananıń miyneti arqalı keletuǵınını túsindiriw onda miynetke húrmet hám aqshaǵa juwapkershilikli múnásibetti qáliplestiredi.

Talap hám qálew - bul ekonomikalıq tárbiyanıń tiykarǵı túsiniklerinen biri. Balaǵa "hájet" jasaw ushin zárúr bolgan nárseler (awqat, kiyim, suw), "qálew" bolsa tek qálew (oyinshiq, mazalı zat, gadjet) ekenligin misallar arqalı kórsetiw kerek. Bul ayırmashılıqtı ańlaǵan bala keleshekte sanalı tańlaw islewdi úyrenedi.

Reje (byudjet) - bul bar puldi duris bólistiriw óneri. Balaǵa ápiwayı mısal arqalı túsindiriw múmkin: máselen, berilgen puldı awqat, oyın hám jıynaw ushın bólip islew. Bul arqalı balada rejelestiriw, ústinlikti belgilew hám qadaǵalaw kónlikpeleri qáliplesedi.

Úyretiwshi oyınlardıń túrleri. Ekonomikalıq bilimlerdi balalarga jetkeriwde oyın tiykarǵı qural bolip xizmet etedi. Oyın arqalı bala tek ǵana túsiniklerdi ózlestirip qoymastan, al olardı ámelde qollanıwdı da úyrenedi.

1. "Dúkansha" oyını" Bul oyın balalar arasında eń nátiyjeli hám qızıqlı usıllardan biri. Bala gezekpe-gezek qarıydar hám satıwshı rolin atqaradı. Qarıydar sıpatında ol belgili muǵdardaǵı "pul" menen eń kerekli ónimlerdi tańlap alıwǵa háreket etedi, satıwshı sıpatında bolsa ónimniń bahasın belgilew hám esap-kitap etiwdi úyrenedi. Bul oyın balada tańlaw, esaplaw hám sóylesiw kónlikpelerin rawajlandıradı.

2. "Zárúrlik pe yamasa qálew?" kartochkaları. Bul oyın arqalı balaǵa túrli predmetler súwretlengen súwretler (úy, nan, kiyim, muzqaymaq, velosiped hám basqalar) beriledi. Bala olardı eki toparǵa – "qájet" hám "qálew" sebetlerine ajıratadı. Process dawamında tárbiyashı balaǵa "Ne ushin bul zárúrlik?," "Ne ushin bul tek qálew?" sıyaqlı sorawlar berip, oni pikirlewdi xoshametleydi. Bul usıl balanıń logikalıq oylawın hám qarar qabıl etiw qábiletin rawajlandıradı.

3. **"Jamǵarma banki" (kopilka).** Bul usıl balalarda únemlilik hám sabır-taqatlılıqtı qáliplestiriwde júdá áhmietli. Bala óz aldına belgili bir maqset qoyadı (máselen, kitap yaki oyinshiq satıp aliw) hám sol maqsetke qaray pul toplay baslaydı. Hár saparı kishi qarjı qosıp barıw arqalı bala waqıt ótiwi menen úlken nátiyjege erisiw múmkin ekenligin ańlaydı. Bul bolsa onda maqsetke umtılıw, erk-ıqrar hám ózin-ózi basqarıw sıpatların rawajlandıradı.

Oyın arqalı úyrenilgen bilim hám kónlikpelerdi real turmısta qollanıw júdá áhmietli. Sebebi, ámeliy tájiriybe arqalı bala óz bilimlerin bekkemleydi. Máselen,

ata-ana yamasa tárbiyashı bala menen birge dúkáńa barganda ogan belgili muǵdarda pul (máselen, 10 000 sum) berip, "paydalı ónim hám kishkene mazalı zat tańla" sıyaqlı tapsırma beriwi múmkin. Bul proceste bala tańlaw, salıstırıw hám ústinlikti anıqlawdı úyrenedi. Bunnan tısqarı, kúndelikli turmısta elektr energiyasın únemlew, suwdı ısırap etpew, artıqsha satıp alıwlardan tıyılıw sıyaqlı ádetlerdi qáliplestiriw de ekonomikalıq tárbiyanıń áhmietli bólegi esaplanadı. Usı tárizde bala únemlilikti tek ǵana oyın procesinde emes, al real turmısta da qollay baslaydı.

Ulıwma alǵanda, ekonomikalıq túsiniklerdi oyın hám kúndelikli turmıs penen úylestirip úyretiw balalarda bekkem finanslıq sawatlılıq tiykarların jaratadı hám olardı keleshekte sanalı jáne juwapkershilikli shaxs bolıp qáliplesiwine xızmet etedi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. G‘ulomov S.S. "Iqtisodiyot nazariyasi". – Toshkent, 2021.
2. Pedagogika jurnali: "Maktabgacha ta’limda innovatsion texnologiyalar". 2023-yil sonlari.

MEKTEPKE SHEKEMGI BILIMLENDIRIW SHÓLKEMINDE SANLÍ DIDAKTIKALÍQ OYÍNLAR ARQALÍ BALALARDÍŃ MEDIA SAWATXANLÍǴÍN QÁLIPLESTIRIW

S.Allayarova - Ájiniyaz atındaǵı NMPI mektepke shekemgi tálim baǵdarı 3-kurs studenti
V.Sh.Seytmuratova - Ájiniyaz atındaǵı NMPI Mektepke shekemgi tálim kafedrası assistent-oqıtıwshısı

Tayanish sózler: Media-sawatlılıq, sanlı didaktika, mektepke shekemgi bilimlendiriw, interaktiv oyınlar, málimleme qáwipsizligi, AKT.

Kalit so‘zlar: Media-savodxonlik, raqamli didaktika, maktabgacha ta’lim, interaktiv o‘yinlar, axborot xavfsizligi, AKT.

Ключевые слова: Медиаграмотность, цифровая дидактика, дошкольное образование, интерактивные игры, информационная безопасность, ИКТ.

Búgingi globallasıw hám málimleme texnologiyaları jedel rawajlanıp atırǵan dáwirde sanlı qurallar insan turmısınıń barlıq tarawlarına tereń kirip bardı. Ásirese, balalardıń turmısında smartfon, planshet, televizor hám internet tarmaqları kúndelikli jumıstıń ajıralmas bólegine aylanıp úlgerdi. Zamanagóy balalar "sanlı áwlad" sıpatında qáliplesip, olar málimlemeni tiykarınan media quralları arqalı qabıl etpekte. Sol sebepli, media ortalıǵı balalardıń pikirlewi, dúnyaqarası, minez-qulqı hám sociallıq qatnasıqlarına tikkeley tásir kórsetpekte.

Media-sawatlılıq túsinigi tek ǵana texnikalıq qurılmalardan paydalanıwdı biliw menen sheklenbeydi. Ol keńirek mániste informaciyanı sanalı túrde qabıl etiw, onı tallaw, isenimli hám isenimsiz dereklerdi ajırata alıw, zıyanlı kontentten qorǵanıw hám informaciyadan maqsetke muwapıq paydalanıw kónlikpelerin óz ishine aladı. Ásirese, mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemi (MTO) jasındaǵı balalarda bul

kónlikpelerdi erte qáliplestiriw olardıń keleshektegi intellektuallıq hám sociallıq rawajlanıwı ushın bekkem tiykar jaratadı.

Búgingi kúnde balalar kóbinese úlkenlerdiń qadaǵalawısız túrli media ónimlerge dus kelmekte. Bul bolsa nadurıs málimleme, zorlıq elementleri, reklama tásiri hám basqa da unamsız faktorlardıń balalardıń sanasına sińip ketiw qáwpin arttıradı. Usı kózqarastan, media-gigiyena túsinigi - yaǵnıy media qurallardan paydalanıwda norma saqlaw, waqıttı durıs bólistiriw, zıyanlı málimlemeden qorǵanıw - ayrıqsha áhmiyetke iye.

Sonday-aq, sın kózqarastan pikirlewdi rawajlandırıw da áhmiyetli wazıypalardan biri bolıp tabıladı. Sın kózqarastan pikirlew arqalı bala hár qanday xabardı ápiwayı túrde qabıllap qalmastan, al "Bul durıs pa?," "Bul kim tárepinen jaratılǵan?," "Bunnan qanday maqset gózlengen?" sıyaqlı sorawlardı beriwdi úyrenedi. Bul bolsa olardıń erkin pikirlewin, sanalı qarar qabıl etiwin hám málimleme mákanında durıs jol taba alıwın támiyinleydi. Sonlıqtan, mektepke shekemgi bilimlendiriw sistemasında balalarda media-sawatlılıq, media-gigiyena hám sın kózqarastan pikirlew kónlikpelerin qáliplestiriw zamanagóy pedagogikanıń áhmiyetli baǵdarlarınan biri esaplanadı. Bul processte tárbiyashı hám ata-analardıń birge islesiwi, durıs metod hám kózqaraslardan paydalanıw úlken áhmiyetke iye.

Tómende cifrlı didaktikalıq oyınlardıń media-sawatlılıqtı qáliplestiriwdegi tiykarǵı baǵdarları keńirek sáwlelendiriledi:

1. Informaciyanı parıqlaw hám qabıl etiw kónlikpelerin rawajlandırıw. Sanlı oyınlar arqalı balalar real turmıs hám virtual ortalıq arasındaǵı ayırmashılıqtı áste-aqırın ańlap baradı. Máselen, multfilm qaharmanlarınıń háreketleri bárqulla real turmısta tákirarlanbaytuǵınına túsiniw, fantastikalıq hám haqıyqıy waqıyalardı ajırata biliw áhmiyetli kónlikpe bolıp esaplanadı. Bunday oyınlarda balalarga hár túrli jagdaylar usınılıp, olar qaysı biri real turmısqa sáykes keliwin anıqlawga iytermeleydi.

2.Kritikalıq pikirlewdi qáliplestiriw. Sanlı didaktikalıq oyınlar balalardı passiv tamashagóyden aktiv qatnasıwshıǵa aylandıradı. Oyın procesinde bala tańlaw, salıstırıw, talqılaw hám qarar qabıl etiwge májbúr boladı.

Máselen, "Qaysı belgi qáwipli?," "Qaysı túymeni basıw múmkin?," "Bul reklama ras pa yamasa joq pa?" sıyaqlı tapsırmalar arqalı bala informaciyanı tek ǵana qabıl etpey, al onı bahalawdı úyrenedi.

3. Sanlı mádeniyat hám media-gigiyenanı qáliplestiriw. Sanlı oyınlar arqalı balalarda gadjetlerden durıs hám normada paydalanıw mádeniyatı qáliplestiriledi. Oyın scenariylerine waqıttı sheklew, tánepis etiw, kózlerdi dem aldırıw sıyaqlı elementler kirgiziliwi arqalı balalar media-gigiyena qaǵıydaların ámeliy tárizde ózlestiredi.

4. Informaciya qáwipsizligi elementlerin úyretiw. Sanlı didaktikalıq oyınlar arqalı balalarǵa ápiwayı qáwipsizlik qaǵıydaları da sińdiriledi. Máselen, basqalardıń siltemelerine baspaw, jeke maǵlıwmatlardı járiya etpew, belgisiz paydalanıwshılar menen sóylespew sıyaqlı túsinikler oyın arqalı ańsat hám túsinikli túrde jetkeriledi.

5. Kommunikativlik hám sociallıq kónlikpelerdi rawajlandırıw. Ayırım sanlı oyınlar jámáátlik tárizde oynaladı yamasa dodalaw tiykarında shólkemlestiriledi. Bul proceste balalar óz pikirin bildiriw, basqalardı tınlaw, kelisimge erisiw sıyaqlı áhmiyetli sociallıq kónlikpelerdi de rawajlandıradı.

Sanlı didaktikalıq oyınlar mektepke shekemgi jastaǵı balalardı zamanagóy media ortalıǵına sáykes túrde tayarlawda áhmiyetli pedagogikalıq qural sıpatında kórinedi. Olar arqalı quramalı hám kóp qırlı bolǵan media álem nızam-qaǵıydaları balalarǵa ápiwayı, túsinikli hám qızıqlı túrde jetkeriledi. Ásirese, oyın iskerligi balalar ushın tábiyiy úyreniw ortalıǵı bolǵanlıǵı sebepli, bul processte alınǵan bilim hám kónlikpeler tereńirek ózlestiriledi hám uzaq múddet saqlanadı.

Juwmaqlap aytqanda, sanlı didaktikalıq oyınlardan maqsetli hám durıs paydalanıw mektepke shekemgi bilimlendiriw sistemasında media-sawatlı, sın kózqarastan pikirleytuǵın, málimleme mákanında erkin hám qáwipsiz háreket ete alatuǵın bárkamal shaxstı tárbiyalaw ushın bekkem tiykar jaratadı. Bul processte tárbiyashı hám ata-analardıń birge islesiwi, zamanagóy pedagogikalıq qatnaslardan paydalanıw hám balalardıń jas ózgesheliklerin esapqa alıw sheshiwshi áhmiyetke iye.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida"gi Qonuni.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari.
3. Karimova V. "Media-savodxonlik asoslari", Toshkent, 2021.
4. Prensky, M. "Digital Natives, Digital Immigrants", 2001.

MAKTABGACHA TA’LIMDA KORPORATIV MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH VA JAMOAVIY BIRDAMLIKNI TA’MINLASH MEXANIZMLARI

Seyilxanova Ulziyra Ataniyazovna - 48-sanlı UTMMShBSh direktori

Annotatsiya: Ushbu tezisda MTT direktori faoliyatida jamoani boshqarishning psixologik va ma’muriy jihatlari ko‘rib chiqiladi. Muassasadagi korporativ madaniyat — bu nafaqat tartib-intizom, balki umumiy maqsad yo‘lida pedagoglarning o‘zaro hamkorligi sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqotda jamoaviy ruhni oshirish orqali ta’lim sifatini yaxshilash yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Boshqaruv, korporativ madaniyat, MTT direktori, jamoaviy birdamlik (teambuilding), motivatsiya, pedagogik etika.

Bugungi kunda MTT rahbari nafaqat xo‘jalik ishlarini yurituvchi, balki zamonaviy **menejer va lider** bo‘lishi talab etiladi. Bog‘chadagi muhit bevosita tarbiyachilarning ish samaradorligiga, bu esa o‘z navbatida bolalarning rivojlanishiga ta’sir qiladi. Korporativ madaniyat shakllanmagan jamoada ichki nizolar ko‘payadi va kadrlar qo‘nimsizligi yuzaga keladi. Shuning uchun jamoaviy birdamlik mexanizmlarini yaratish direktorning ustuvor vazifasidir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida samarali boshqaruvning asosiy omillaridan biri — bu kuchli korporativ madaniyatni shakllantirishdir. Korporativ madaniyat muassasaning ichki ruhini, jamoaning umumiy qadriyatlarini, xodimlarning bir-biriga va ta’lim jarayoniga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi. Aynan sog‘lom korporativ muhit

pedagogik jamoaning bir maqsad yo‘lida birlashishiga, ish samaradorligining ortishiga hamda bolalar tarbiyasida yuqori natijalarga erishishga xizmat qiladi.

Korporativ madaniyat — bu shunchaki tashqi tartib-qoidalar yig‘indisi emas, balki muassasaning kundalik hayotida namoyon bo‘ladigan qadriyatlar, an’analar, xulq-atvor me’yorlari va jamoaviy munosabatlar tizimidir. Uni shakllantirishda direktorning rahbarlik mahorati hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Korporativ madaniyatning tarkibiy qismlari

Maktabgacha ta’lim tashkilotida korporativ madaniyat bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan uchta asosiy darajadan iborat.

Moddiy daraja. Bu korporativ madaniyatning ko‘zga ko‘rinadigan qismi hisoblanadi. Muassasaning tashqi va ichki ko‘rinishi, ish joyining qulayligi, xodimlarning tashqi qiyofasi aynan shu darajaga kiradi.

Moddiy daraja quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- binoning estetik dizayni;
- xonalar tozaligi va ozodaligi;
- zamonaviy pedagogik jihozlar;
- xodimlarning kiyinish madaniyati;
- ish joyining ergonomik tashkil etilishi.

Go‘zal va qulay ish muhiti xodimlarda ijobiy kayfiyat uyg‘otadi, mehnat unumdorligini oshiradi hamda muassasa imijini mustahkamlaydi. Ota-onalarda ham muassasaga nisbatan ishonch shakllanadi.

Qadriyatlar darajasi. Bu korporativ madaniyatning ma’naviy negizidir. Muassasaning missiyasi, strategik maqsadi, asosiy tamoyillari aynan shu bosqichda shakllanadi.

Masalan:

- "Har bir bola — iqtidor";
- "Bola manfaatlari — ustuvor";
- "Hamkorlik orqali taraqqiyot";
- "Sifatli ta’lim — kelajak poydevori".

Agar ushbu qadriyatlar nafaqat hujjatlarda, balki har bir xodimning kundalik faoliyatida namoyon bo‘lsa, jamoada yagona maqsad sari intilish kuchayadi.

Xulq-atvor darajasi. Bu daraja korporativ madaniyatning amaliy ko‘rinishidir. Direktor, pedagoglar, texnik xodimlar va ota-onalar o‘rtasidagi muloqot uslubi muassasaning ichki iqlimini belgilaydi.

Xulq-atvor madaniyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- o‘zaro hurmat;
- xushmuomalalik;
- mas’uliyatlilik;
- adolat;
- kasbiy etika;
- nizolarni madaniyatli hal qilish.

Rahbarning nutqi, muomalasi va odobi jamoa uchun namuna bo‘lib xizmat qiladi.

Rahbar jamoaning markaziy figurasi hisoblanadi. Direktorning shaxsiy fazilatlari korporativ madaniyat rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Samarali direktor quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak:

- adolatlilik;
- ochiqlik;
- mas’uliyatlilik;
- innovatsiyalarga tayyorlik;
- empatiya;
- strategik fikrlash.

Agar direktor xodimlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lsa, ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlasa, jamoada muassasaga nisbatan sadoqat va fidoyilik shakllanadi.

Kuchli korporativ madaniyat quyidagi ijobiy natijalarni beradi:

- jamoada psixologik sog‘lom muhit yaratiladi;
- xodimlar o‘rtasida ishonch ortadi;
- kadrlar almashinuvi kamayadi;
- pedagogik faoliyat sifati oshadi;
- ota-onalar bilan hamkorlik mustahkamlanadi;
- muassasaning ijobiy imiji shakllanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida korporativ madaniyatni shakllantirish — bu uzoq muddatli, ammo nihoyatda muhim jarayondir. Direktor o‘zining yetakchilik salohiyati, adolatli boshqaruvi va insonparvar yondashuvi orqali jamoani yagona maqsad atrofida birlashtira oladi. Kuchli korporativ madaniyatga ega muassasa nafaqat xodimlar uchun qulay ish joyi, balki bolalar uchun ham baxtli va rivojlantiruvchi muhitga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Drucker P. "Menejment muammolari va vazifalari".
2. Ishmuhamedov R.J. "Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari".
3. O‘zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida"gi Qonuni.

TA’LIM SIFATINI TA’MINLASHDA PEDAGOGLARNING KASBIY MAHORATINI DOIMIY RIVOJLANTIRISH TIZIMI

Sultanbaeva Eleonora Baxıtbaevna 48-sanlı UTMMShBSh direktor orınbasarı

Annotatsiya: Ushbu tezisda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini oshirishning asosiy omili sifatida pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi (Continuous Professional Development - CPD) masalasi tadqiq etiladi. Maqolada an’anaviy malaka oshirish shakllaridan voz kechib, ish joyidagi doimiy o‘rganish va tajriba almashish tizimini joriy etishning afzalliklari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Kasbiy mahorat, CPD tizimi, metodik xizmat, pedagogik kompetensiya, ta’lim sifati, keys-stadi, refleksiv yondashuv.

Global o‘zgarishlar va ta’limga qo‘yilayotgan yangi talablar pedagoglarning bilim va ko‘nikmalarini doimiy ravishda yangilab borishni taqozo etadi. Faqatgina 5 yilda bir marta o‘tiladigan malaka oshirish kurslari zamon talabiga javob bermay qoldi. Shu sababli, MTTda **uzluksiz kasbiy rivojlanish (CPD)** tizimini yo‘lga qo‘yish, tarbiyachining kundalik faoliyati davomida yangi metodikalarni o‘zlashtirishi ta’lim sifatini kafolatlovchi asosiy mexanizmga aylandi.

Zamonaviy ta’lim tizimida pedagogdan nafaqat mavjud bilimlarni yetkazish, balki doimiy ravishda o‘z ustida ishlash, yangiliklarni o‘zlashtirish va kasbiy mahoratini takomillashtirib borish talab etiladi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim sohasida faoliyat yuritayotgan pedagoglar uchun uzluksiz kasbiy rivojlanish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ilk bolalik davri shaxs rivojlanishining eng nozik va mas’uliyatli bosqichidir. Bu davrda pedagogning bilimdonligi, kreativligi va innovatsion yondashuvi hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Shu nuqtai nazardan, uzluksiz kasbiy rivojlanish — CPD (Continuous Professional Development) tizimi pedagog faoliyatining ajralmas qismidir.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish (CPD) nima?

CPD — bu pedagogning kasbiy faoliyati davomida o‘z bilimlari, ko‘nikmalari, kompetensiyalari va shaxsiy fazilatlarini muntazam ravishda rivojlantirib borish jarayonidir. Bu bir martalik kurs yoki seminar emas, balki uzluksiz, maqsadli va tizimli faoliyatdir.

CPD pedagogga:

- zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallash;
- yangi metodlarni amaliyotga tatbiq etish;
- kasbiy muammolarni samarali hal qilish;
- reflektiv fikrlashni rivojlantirish;
- ta’lim sifatini oshirish imkonini beradi.

CPDning asosiy bosqichlari

Refleksiya. Kasbiy rivojlanishning birinchi bosqichi — o‘z faoliyatini tanqidiy tahlil qilishdir. Pedagog o‘z mashg‘ulotlarini kuzatadi, yutuq va kamchiliklarini aniqlaydi, rivojlanish uchun ehtiyojlarni belgilaydi.

Refleksiya jarayonida quyidagi savollar muhim:

- Mashg‘ulotning kuchli tomoni nimada bo‘ldi?
- Qaysi usullar samarali ishladi?
- Qanday qiyinchiliklar yuzaga keldi?
- Kelgusida nimani yaxshilash mumkin?

Bu bosqich pedagogning o‘z ustida ishlashiga zamin yaratadi.

O‘rganish. Aniqlangan ehtiyojlar asosida pedagog yangi bilimlarni egallaydi. Bu jarayon seminarlar, treninglar, vebinarlar, ilmiy adabiyotlar, xorijiy tajribalar va onlayn platformalar orqali amalga oshiriladi.

O‘rganish quyidagilarni qamrab oladi:

- zamonaviy pedagogik texnologiyalar;
- STEAM, Montessori, Reggio Emilia kabi ilg‘or yondashuvlar;
- bolalar psixologiyasidagi yangiliklar;
- raqamli ta’lim vositalari.

Amaliyot.O‘zlashtirilgan bilimlar kundalik mashg‘ulotlarga joriy etiladi. Pedagog yangi metodlarni sinovdan o‘tkazadi, ularning samaradorligini baholaydi va o‘z faoliyatini takomillashtiradi.

Nazariya amaliyot bilan uyg‘unlashgandagina haqiqiy kasbiy o‘sish yuz beradi.

MTTda CPD tizimini joriy etish shakllari

Maktabgacha ta’lim tashkilotida metodist yoki direktor o‘rinbosari pedagoglarning kasbiy rivojlanishini tizimli tashkil etishi lozim. Buning uchun bir qator zamonaviy shakllardan foydalanish tavsiya etiladi.

1. "Ustoz-shogird" (Mentoring)

Mentorlik tajribali pedagoglarning yosh mutaxassislarga amaliy yordam ko‘rsatishiga asoslanadi. Bu jarayonda ustoz:

- darslarni kuzatadi; tavsiyalar beradi; metodik materiallar bilan ta’minlaydi; kasbiy moslashuvga yordam beradi. Mentoring yosh pedagoglarda ishonchni oshiradi va ularning kasbga tezroq moslashishiga xizmat qiladi.

2. Lesson Study (Darsni o‘rganish)

Lesson Study — pedagoglarning jamoaviy o‘rganish modeli hisoblanadi. Unda bir guruh pedagoglar:mashg‘ulotni birgalikda rejalashtiradi; kuzatadi; natijalarni tahlil qiladi; takomillashtirish bo‘yicha xulosalar chiqaradi. Bu usul refleksiya va hamkorlikni rivojlantiradi.

3. Horizontal o‘rganish (Peer Learning)

Hamkasblar o‘rtasidagi o‘zaro tajriba almashish kasbiy rivojlanishning eng samarali shakllaridan biridir.Bunga quyidagilar kiradi:ochiq mashg‘ulotlar; mini-seminarlar; mahorat darslari; davra suhbatlari. Peer learning pedagoglarda hamkorlik madaniyatini shakllantiradi.

4. Keys-stadi

Murakkab pedagogik vaziyatlarni jamoaviy tahlil qilish pedagoglarning muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Masalan:moslashuv davridagi qiyinchiliklar; ota-onalar bilan nizolar; giperaktiv bolalar bilan ishlash; inkluziv ta’lim masalalari. Bu usul nazariyani real amaliyot bilan bog‘laydi.

5. Professional Learning Community (PLC)

Kasbiy o‘rganish hamjamiyatlari pedagoglarning muntazam ravishda birlashib, ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan hamkorlik platformasidir.

PLC doirasida:umumiy muammolar muhokama qilinadi; innovatsiyalar sinovdan o‘tkaziladi; tajribalar ommalashtiriladi.

Metodistning roli. Metodist CPD jarayonining asosiy koordinatori hisoblanadi. U: pedagoglarning ehtiyojlarini aniqlaydi; rivojlanish rejasini tuzadi; metodik yordam ko‘rsatadi; monitoring olib boradi; natijalarni tahlil qiladi. Metodist rahbar emas, balki rivojlanishga yo‘naltiruvchi lider bo‘lishi kerak.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish zamonaviy pedagog faoliyatining ajralmas qismidir. Maktabgacha ta’lim tashkilotida CPD tizimini samarali yo‘lga qo‘yish pedagoglarning professional o‘sishini ta’minlaydi, ta’lim sifatini oshiradi va bolalarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Shunday ekan, har bir metodist va rahbar CPDni muassasa taraqqiyotining strategik yo‘nalishi sifatida ko‘rishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to‘g‘risida"gi Qonuni.
2. Mavlonova R. va boshqalar. "Pedagogik mahorat". - Toshkent, 2010.
3. UNESCO Report: "Teachers and educational quality: Monitoring global needs for 2030".

VIZUAL OBRAZLAR YORDAMIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA XOTIRA VA BOG‘LANISHLI NUTQNI RIVOJLANTIRISH

M.B.Kuanıshbaeva – Ajiniyoz nomidagi NDPI maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 1 b - kurs talabasi
V.Sh.Seytmuratova – Ajiniyoz nomidagi NDPI maktabgacha ta’lim kafedrasi assistent - o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisda maktabgacha yoshdagi bolalarning xotira jarayonlarini faollashtirish va bog‘lanishli nutqini shakllantirishda ko‘rgazmali qurollar hamda vizual obrazlarning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda mnemonika usullari va rasmli modellar orqali bolaning so‘z boyligini oshirish hamda mantiqiy fikrlashini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Vizual obraz, xotira, bog‘lanishli nutq, mnemonika, maktabgacha ta’lim, kognitiv rivojlanish, didaktik o‘yin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda dunyoqarash asosan ko‘rish va his qilish orqali shakllanadi. Psixologik tadqiqotlarga ko‘ra, bu yoshdagi bolalarda **ixtiyorsiz xotira** ustunlik qiladi, ya’ni ular o‘zlari uchun qiziqarli, yorqin va aniq tasvirlangan ma’lumotlarni tezroq eslab qoladilar. Nutq va xotira o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, vizualizatsiya jarayoni bolaga fikrni tizimlashtirishga yordam beradi.

Maktabgacha yosh davri bolaning nutqiy, aqliy va ijodiy rivojlanishida eng muhim bosqichlardan biridir. Aynan shu davrda bola atrofdagi olamni asosan ko‘rish, eshitish va amaliy faoliyat orqali anglaydi. Shu sababli vizualizatsiya, ya’ni axborotni rasm, sxema, model, ramz va boshqa ko‘rgazmali vositalar yordamida taqdim etish, bolalarning xotirasini mustahkamlash va bog‘lanishli nutqini rivojlantirishda nihoyatda samarali vosita hisoblanadi.

Vizual obrazlar bolaning diqqatini jalb qiladi, ma’lumotni yaxshiroq tushunishga yordam beradi va eslab qolish jarayonini osonlashtiradi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda obrazli tafakkur ustun bo‘lgani sababli, ko‘rgazmalilik ularning bilish faoliyatida asosiy o‘rin egallaydi.

Psixologlarning ta’kidlashicha, inson eshitgan ma’lumotining bir qismini unutishi mumkin, ammo ko‘rgan obrazlari xotirada uzoq vaqt saqlanib qoladi. Bolalar ma’lumotni faqat tinglaganlarida emas, balki uni ko‘rganlarida, ushlaganlarida va faol ishtirok etganlarida ancha samarali o‘zlashtiradilar.

Vizual materiallar bolaning miyasida mustahkam neyron bog‘lanishlar hosil qiladi. Har bir rasm, belgi yoki rang bolaning xotirasida o‘ziga xos "tayanch nuqtasi" vazifasini bajaradi. Keyinchalik bola ushbu tayanch orqali kerakli ma’lumotni osongina tiklay oladi.

Masalan, "olma" so‘zini shunchaki eshitgan bola uni tez unutishi mumkin. Ammo qizil olma rasmini ko‘rgan bola nafaqat so‘zni, balki uning rangi, shakli va mazasi haqidagi tasavvurlarni ham eslab qoladi.

Vizualizatsiyaning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- diqqatni uzoqroq saqlab turadi;
- ma’lumotni tezroq qabul qilishga yordam beradi;
- uzoq muddatli xotirani shakllantiradi;
- tasavvur va tafakkurni rivojlantiradi;
- o‘rganishga qiziqishni oshiradi.

Bog‘lanishli nutq — bu fikrlarni izchil, mantiqiy va grammatik jihatdan to‘g‘ri ifodalash qobiliyatidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun bu ko‘nikma kelajakdagi o‘qish va yozish faoliyatining poydevorini tashkil etadi.

Vizual vositalar bolaga gapirish jarayonida tayanch vazifasini bajaradi. Bola rasm yoki sxemaga qarab voqealar ketma-ketligini eslaydi, fikrini tartiblaydi va izchil bayon qiladi. Natijada u so‘z tanlashda qiynalmaydi, gaplari mantiqiy va ravon bo‘ladi.

Bog‘lanishli nutqni rivojlantirish usullari

Mnemosxema — matn, she’r yoki hikoyani ramziy belgilar orqali ifodalash usulidir. Har bir gap yoki misra ma’lum bir rasm, shakl yoki belgiga moslashtiriladi.

Masalan, she’r yodlash jarayonida:quyosh rasmi — tongni; bulut — osmonni;

- qush — bahorni ifodalashi mumkin. Bola ramzlarga qarab she’rni osongina eslaydi va ifodali aytib beradi. Bu usul:xotirani kuchaytiradi; eslab qolishni osonlashtiradi; nutqning ravonligini oshiradi; mustaqil hikoya qilishga o‘rgatadi.

Syujetli rasmlar bolalarning kuzatuvchanligini, tafakkurini va nutqini rivojlantiradi. Bola rasmga qarab voqeani tasvirlaydi, qahramonlarning harakatlarini izohlaydi va sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlaydi.

Tarbiyachi quyidagi savollar orqali bolaning nutqini faollashtiradi:Kim tasvirlangan? Ular qayerda? Nima sodir bo‘lmoqda? Keyin nima bo‘ladi? Nima uchun shunday bo‘ldi? Bunday mashqlar bolaning hikoya tuzish ko‘nikmasini rivojlantiradi va tasviriy nutqini boyitadi.

Grafik modellashtirish orqali bolalar murakkab tushunchalarni sodda shakllarda ifodalaydilar. Ertak qahramonlari, voqealar yoki predmetlar geometrik shakllar, ranglar va belgilar yordamida tasvirlanadi.

Masalan:ayiq — jigarrang doira; tulki — to‘q sariq uchburchak; quyon — oq oval. Bu usul bolaning abstrakt tafakkurini rivojlantiradi, tasniflash va taqqoslash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Ketma-ket rasmlar bilan hikoyalash. Bir necha rasmdan iborat voqea ketma-ketligi bolaga hikoyaning boshlanishi, rivoji va yakunini tushunishga yordam beradi. Bu mashq orqali bola:vaqt ketma-ketligini anglaydi; sabab va natijani tushunadi; mustaqil hikoya tuzadi; mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.

Aqliy xaritalar (Mind Map). Markazga asosiy tushuncha joylashtirilib, uning atrofida tegishli obrazlar va tushunchalar joylashtiriladi. Masalan, "Bahor" mavzusida quyosh, gullar, yomg‘ir va qushlar tasvirlanadi.Bu usul: lug‘at boyligini kengaytiradi; assotsiativ fikrlashni rivojlantiradi; nutqning izchilligini ta’minlaydi.

Vizualizatsiya maktabgacha yoshdagi bolalarning xotirasi va bog‘lanishli nutqini rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biridir. U bolaga ma’lumotni nafaqat eslab qolish, balki uni mantiqan qayta ishlash, tahlil qilish va ravon ifodalash imkonini beradi. Vizual obrazlardan muntazam foydalanish natijasida bolaning nutqi boyiydi, tafakkuri rivojlanadi va kelajakdagi ta’lim jarayoniga puxta tayyorgarlik shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vygotskiy L.S. "Bola rivojlanishining psixologiyasi".
Búgingi kúnde balalardı pedagogikalıq hám psixologiyalıq jaqtan tárbiyalawda da bul dóretpelerden keń túrde paydalanıw lazım. Sebebi, házirgi waqıtlarda psixologiyalıq jaqtan rawajlanıw payıtında balalarǵa erteden kiyatırǵan bay ádebiy miyraslarımızdı jańasha tárizde úyretiwdi qolǵa alıp, olardıń bos waqıtlarında, sabaq payıtlarında milliy qádiriyatlarǵa degen súyispenshiligin sińdirip barıw biziń baslı wazıypamız. Bunıń ushın balalarǵa arnalǵan awızeki dóretpelerdi hár qıylı reńli, súwretli kitapshalar túrinde baspadan shıǵarıw isleri ámelge asırılsa, sonday-aq háreketli qosıq túrindegi balalar folkloru ulıwma bilim beriw orınlarında úyretilip barılsa, maqsetke muwapıq bolar edi. Bul jaǵday óz gezeginde balalar psixologiyasınıń hár tárepleme ósip rawajlanıwına, olardıń kórkem estetikalıq tolǵamınıń ósiwine hám gózzallıqqa qushtar bolıp ósiwine sózsiz óz tásirin tiygizedi. Jáne de mektep jasındaǵı balalar ushın da ertekler, ańızlar qaharmanları haqqında materiallar, videofilmler,

videorolikler, elektron qollanbalar islep shıǵılsa, bul olardıń oqıp hám esitip alǵanlarına qosımsha kórgizbelilik paydalı táreplerin keltirip shıǵaradı.

Paydalanǵan ádebiyatlar

1. Qurbanbayev I. Qaraqalpaq balalar ádebiyatı.-Nókis: «Bilim», 1992.

2.Сапарбаев Т. Нравственное воспитание младших школьников средствами устного народного творчество.-АД на соиск. уч.ст. к.п.н.-Ташкент, 1998.

3. Тлегенов А. Воспитание у подростков духовно-нравственных ценностей средствами народных дастанов.-АД на соиск.уч. ст. к.п.н.-Ташкент, 1998.

MEKTEPKE SHEKEMGI BILIMLENDIRIW SHÓLKEMLERINDE BALALARDÍŃ DÓRETIWSHILIK QÁBILETINIŃ RAWAJLANÍWÍNDA MUZÍKANÍN' ÁHMIYETI

Kalkorazova Periyzat-Nókis qalasi 40-sanlı MSHBSH metodisti

Annotatsiya: Maqala pedagogika teoriyası hám pedagogika tariyxı sheńberinde pedagogika pánleriniń aktual máselesine baǵishlanıp, bunda mektepke shekemgi tárbiya jasındaǵı balalar psixologiyasınıń rawajlanıwında muzıkalıq iskerligi keń mániste berilgen.

Tayanısh túsinikler: Mektepke shekemgi jastaǵı balalar, kórkem psixologiya, estetikalıq tásir, estetikalıq tárbiya, psixologiyalıq rawajlanıw ortalıǵı, balalar folklorı hám tárbiya.

Mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemlerinde tárbiyanıń tiykarǵı waziypası-balanı hár tárepleme rawajlandırıw. Muzıkanıń atqaratuǵın waziypası da usı. O`nerdiń jeke adamdı tárbiyalawdaǵı áhmiyetin Abu Nasr Al Farabiy «Bul pán deneniń sawlıǵı ushın paydalıdur» degen edi. Babamız Shayx Saadiy aytqan edi: «Muzıka adam ruwhınıń joldasıdur». Muzıka insanǵa tez tásir etiwshi kúshti aktiv rawajlandırıwshı qural bolıp esaplanadı.

Pedagogika usı qaǵiydalarǵa súyene otırıp, muzıkalıq tárbiya hám rawajlanıw túsinigin anıqlaydı. Muzıkalıq tárbiya degenimiz - muzıkalıq ónerdiń tásiri arqalı balanıń jeke basın qáliplestiriw, muzıkalıq intasın, uqıbın (muzıkaǵa) estetikalıq kóz-qarasın qáliplestiriw degen sóz. Bala muzikanıń hár túrin óziniń qabıllaw ózgesheligin, jasın esapqa alǵanda oydaǵıday ózlestiredi.

Muzıkalıq rawajlanıw balanıń muzıka isindegi aktivliginiń nátiyjesi. Hár balanıń hár tárepleme ózgesheliginiń ózinshelik mánisi bar. Emociyalar tarawında - ápiwayı muzıkalıq qubılıslarǵa eliklewden baslap az tásirli hám hár túrli emocionallı reakciyalarǵa shekem. Seziw, qabıllaw jáne esitiw tarawında jeke muzıkalıq dawıslardı ayıra biliwden baslap muzıkanı tutas, ayqın jáne inta-ıqlas penen qabıllawǵa, dawıstıń biyikligin, ırǵaqlardı, tembrdi, dinamikanı ayırıwǵa shekem. Íqlasın bildiriw tarawında turaqsız háwesleniwshilikten turaqlılıqqa kóshe baslawǵa zárúrlikke aylandırıwǵa, dáslepki muzıkalıq talǵam bildiriwge shekem. Orınlawshılıq tarawında kórsetiw, eliklew háreketlerinen baslap qosıq aytıwdaǵı hám muzıkalıq-ırǵaqlıq hárekettegi hár tárepleme aktiv hám dóretiwshilik kórinislerge shekem;

Muzıkalıq tárbiya beriw menen rawajlandırıw isi durıs shólkemlestiriwdi hám oqıtıwdı talap etedi. Muzıkaǵa úyretiw-tárbiyalawshı protsess onıń barısında pedagog muzıkalıq tájiriybe jiynawǵa, eń ápiwayı bilim alıwǵa járdemlesedi. Óz tárepinen bala onı shaqqan túrde ózlestiriwi kerek. Psixolog L.S.Vigotskiydıń aytıwınsha pútin alǵanda tárbiya, atap aytqanda oqıtıw isi rawajlanıwdan alda júrip otırıwı keyin onı sońınan meńgerip otırıwı tiyis. Muzıkalıq rawajlandırıw tárbiya menen oqıtıw protsessine baylanıslı.

Rawajlanıw dárejesi balalardıń muzıka sabaqlarındaǵı minez-qulqı menen hár tárepleme isindegi tvorchestvalıq kórinisleri menen belgilenedi. Eger bala óz talabı menen qızıqsına qosıq aytıp, oynap, muzıka menen háweslenip, bulardı durıs islese, onda onıń muzıkalıq rawajlanıwınıń jetkilikligi dárejede joqarı ekenligi haqqında aytıwǵa boladı. Balanıń uqıplılıǵı muzkalıq xizmet protsessinde rawajlanadı. Jas ósiw waqıtlarında ózgerislerdi esapqa ala otırıp muzıkalıq xizmetti balanıń eń jas waqıtınan baslap durıs shólkemlestirip baǵdarlaw pedagogtıń wazıypası. Mısalı: balalardı muzıkalıq seslerdiń biyikligine qaray ayıra biliwge úyretpese, onday balalar 7 jasqa tolǵansha ańsat orınlaytuǵın tapsırmanı orınlay almaydı. Muzıkalıq rawajlanıwdıń anaǵurlım belgili ózgeshelikleri: esitiw sezimi, muzıkalıq esitiw uqıbı, hár túrli sıpattaǵı muzıkadan emociyalıq tásir alıwshılıq sanası qosıq aytıw muzıka ırǵaǵınıń ápiwayı formaları.

Endi balanıń jasına baylanıslı muzikalıq rawajlanıwına toqtap óteyik. 1 jasqa qádem qoyǵanda. Psixiatr balalardıń esitiw seziminiń erte payda bolatuǵının aytadı. Alımlardıń maǵlıwmatları boyınsha bala tuwılǵannan keyingi 10-12 kúnde-aq sesti esitip eleńley baslaydı. Ekinshi ayda náreste sesti skripka dawısın esitkende tınıshlanadı, tıńlaydı. 4-5 ayda geybir muzıkalıq seslerdi esitkende náreste sestiń qay jerden shıqqanın ańǵarıp qosıq aytqan dawıstıń ırǵaqlarına qulaq saladı. Durıs rawajlanıp atırǵan náreste dáslepki aydan-aq muzıkanıń sıpatına qozǵalıs kompleksi dep atalatuǵın háreket penen juwap beredi, quwanadı yamasa tınıshlanadı. Al bir jasqa shıqqanda bala úlken adamnıń aytqan qosıǵın tińlap onıń intonaciyasına ıńıldap juwap beredi. Muzıkaǵa degen emociyalıq sezimtallıqtıń payda bolıwı esitiw sezimleriniń rawajlanıwı balanı náreste kúninen baslap-aq muzıkaǵa tárbiyalawǵa múmkinshilik beredi.

2 jasqa qádem qoyǵanda. Muzıkanı qabıl etkende balalar ashıq kontraslı emociyalar kórsetedi. Esitiw sezimleri ádewir anıqlıqlanǵan boladı: bala joqarı yamasa tómen seslerdi qattı jáne pás dawısta tembirlik reńdi ayıra biledi (metalloafonda yamasa barabanda oynaydi). Qosıqtıń sanalı túrde qaytalap aytatuǵın dáslepki intonaciyalar payda boladı. Bala qosıq aytqan úlken adamǵa qosılıp, qosıqtıń muzıkalıq sózleriniń ayaǵın oǵan ilese ayta aladı. Eń ápiwayı háreketler jasawdı ózlestiredi. Muzıka menen qosıqqa qosılıp alaqanın shappatlaydı, ayaǵı menen poldı tıqıldatadı, dóńgelenip oynaǵan boladı. 3-4 jasqa qádem qoyǵanda. Balalardıń sezimtallıǵı artadı, zatlar menen qubılıslardıń sonıń ishinde muzıkanıń qásiyetlerin durıs ayıra alatuǵın boladı. Hár balanıń esitiw seziminde ózine tán ózgeshelikler anıqlanadı, mısalı: geybir balalar ápiwayı qosıqtı durıs qaytalap ayta aladi. Jetilisiwdiń bul waqtında balanıń óz betinshe háreketke umtılıwı menen dálillenedi. Endi olar hár jaǵdayda ayta beriwdiń ornına olardıń basın qurap, baylanıstırıp sóyleytuǵın súwretti oylaytuǵın boladı, ayaq-

qollarınıń bulshıq etleri bekkemlenedi. Balanıń muzıka menen shuǵıllanǵısı keledi, 4 jasqa tolar waqıtında balalar úlkenlerdiń azǵana járdemi arqalı ortasha qosıqtı orınlay alatuǵın dárejege jetedi. Sonday-aq olar oynawǵa múmkinshilik beretuǵın túrli háreketler jasawǵa umıtıla baslaydı. 5 jasqa qádem qoyǵanda. Bul balalardıń kóp nárseni biliw waqtı. Nege? Ne ushın?-degen sorawlardı kóp aytadı. Bala qubılısları menen waqıyalar arasındaǵı baylanıstı ajırata baslaydı. Ápiwayı (tujirim) juwmaq jasay aladı. Ol júdá sezgir boladı. Muzıkanıń kewillik, quwanıshlı, sabırlı ekenligin, seslerdiń joqarı, tómen, qattı, ástenligin piessadaǵı eki bólimdi (birew tez ekinshisi áste) qosıqtıń qanday ásbapta oynalıp atırǵanlıǵın (royal, skripka, bayan) ajırata biledi. Bala qosıqtı qalay aytıw, qol uslasıp, qosıq aytıp júrip oynawdı (jay xorovodta) qalay qiymıldaw kerekligin túsinedi.

Bul jasta dawıs ashıq, qosıq intonaciyaları turaqlı bola baslaydı, bıraq ele de bolsa úlken adamnıń qadaǵalap otırıwın kózde tutadı. Vokallıq esitiw uqıplılıǵı qáliplese baslaydı. Qozǵalıstıń tiykarǵı túrleri-júriw, juwırıw, sekiriwdi balalardıń ózlestiriwi olardı oyınlarda keńirek qollanıwlarına múmkinshilik beredi. Geybirewleri roldi orınlaǵanda (mısalı syujetlik oyında) basqalarǵa elikleniwge tırısadı.Endi birewleri óziniń shaqqanlıq uqıbına qaray istiń tek bir túrine ǵana ıqlas qoyadı. 6-7 jasqa qádem qoyǵanda. Bul balalardı mektepke tayarlaytuǵın waqıt. Muzıka haqqında alǵan bilimleri menen tásirleri tiykarında balalar endi tek sorawǵa juwap berip qoymay sonıń menen birge muzıkalıq shıǵarmaǵa ózinshe sıpatlama bere aladı, muzıkanıń súwretlew quralların tallay biledi. Bala muzıkalıq obrazdı tutas qabıllawǵa uqıplı, ol onıń átirapındaǵılarǵa degen estetikalıq kóz-qarasın qáliplestiriw ushın áhmiyetli. Biraq tańlaw xızmeti tutas qabıllawǵa zıyan keltiredi degen mánis payda bolama?

Usı jerde balalardıń sensorlıq uqıplılıqları menen muzıkanı qabıllaw qásiyetlerin bayqaw ushın júrgizilgen izertlewler, onda qızıqlı nızamlıqtıń bar ekenin kórsetedi. Eger ıqlas qoyıp tıńlaw «muzıkalıq tildiń» eń jaqsı quralların ayıra biliw wazıypasın alǵa qoysaq, onda muzıkanı tıńlaǵanda, qosıq penen oyın háreketlerin orınlaǵanda belgili bir obrazǵa sáykes háreket jasay aladı. Bunıń ózi onıń muzıkalıq esitiw qábiletiniń jetilisiwine notalar boyınsha qosıq aytıwǵa járdemlesedi. 6-7 jastaǵı balalardıń dawısı burınǵıdan da bekkemlenip diapazonı keńeyedi, dawısı ashıladı. Endi qosıqlar menen oyınlardı óz betinshe dóretiwshilik jaqtan orınlaydı. Muzıkaǵa degen ıqlas penen uqıbı anıq kórine baslaydı.

Mámleketimizde balalardıń jámiyetlik tárbiyası mektepke shekemgi jastan baslanadı. Mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemleri xalıq bilimlendiriw sistemasınıń birinshi buwını bolıp esaplanadı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Abduraxmonova X.Sh. Bolalar boǵchasida musiqaviy uyinlar va boyram ertaliklari. T., 1993
2. G.Sharipova, S.Tajetdinova, L.Ibragimova Mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemlerinde muzıkanı oqıtıw metodikası Nókis-2020
3. Р.Кодиров ъОдушения детей дошколного возростаъ Т-1991
4. http://www.ziyonet.uz/
5. http://www.pedagog.uz/

ADABIYOT DARSLARI JARAYONIDA UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI O‘QUVCHILARINING TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Begjanova Meyramgul Jumabaevna-tayanch doktorant
Qoraqalpoq davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyot darslari jarayonida umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarining tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik metodlar va ularning hususiyatlari haqida so’z yuritiladi

Kalit so‘zlar: Adabiyot ta’limi, tadqiqotchilik kompetensiyasi, kompetensiyaviy yondashuv, zamonaviy pedagogik interfaol metodlar, raqamli ta’lim texnologiyalari, WebQuest metodi, bahs-munozara, ta’lim innovatsiyalari.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning faqat nazariy bilimlarni egallashi emas, balki mustaqil fikrlay olishi, muammolarni tahlil qila bilishi hamda ilmiy izlanish olib borish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. “Bugungi sharoitda jamiyat har tomonlama rivojlangan, analitik fikrlashga ega, ijodkor va mustaqil qaror qabul qila oladigan shaxslar” [1] ni talab etmoqda. Shu sababli ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, o‘quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish umumiy o‘rta ta’lim maktablari oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Tadqiqotchilik kompetensiyasi o‘quvchining muammoni aniqlay olish, savollar qo‘yish, farazlar ilgari surish, ma’lumotlarni tahlil qilish va dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bu kompetensiya o‘quvchilarda mustaqil bilim olish, tanqidiy fikrlash hamda ilmiy tafakkurni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Adabiyot fani o‘quvchilarning estetik didini, ma’naviy dunyosini va tafakkurini rivojlantirish bilan bir qatorda ularning tahliliy va ijodiy fikrlash qobiliyatini ham shakllantiradi. Adabiy asarlarni o‘rganish jarayonida o‘quvchilar turli voqea-hodisalarni tahlil qiladi, qahramonlarning xarakterini baholaydi, muallif g‘oyasini anglashga harakat qiladi hamda o‘z fikrini asoslashga intiladi. Shu jihatdan adabiyot darslari o‘quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish uchun keng pedagogik imkoniyatlarga ega. Adabiy matn bilan ishlash jarayonida o‘quvchilar matn mazmunini tahlil qiladi, qahramonlarning xatti-harakatlarini baholaydi, muallifning asosiy g‘oyasini aniqlaydi va turli manbalarni solishtirish orqali o‘z fikrini shakllantiradi. Bunday jarayon o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, dalillar asosida xulosa chiqarish hamda ilmiy yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ta’lim tizimida innovatsion pedagogik metodlardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy metodlar o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshiradi, ularni mustaqil izlanishga undaydi hamda bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Shunday metodlardan biri tadqiqotga asoslangan ta’lim hisoblanadi. “Ushbu yondashuvda o‘quvchilar tayyor bilimni qabul qilmaydi, balki savollar orqali bilimni o‘zlari izlab topishga harakat qiladi” [2]. Adabiyot darslarida bu metodni qo‘llash orqali o‘quvchilarga turli muammoli savollar beriladi va ular matn asosida dalillar topib, o‘z xulosalarini shakllantiradi. Masalan, adabiy asardagi bosh qahramonning harakati sabablarini aniqlash yoki muallifning

g‘oyaviy maqsadini tahlil qilish jarayonida o‘quvchilar kichik tadqiqot olib boradi. Bu jarayon ularning tahliliy fikrlashini rivojlantiradi va ilmiy izlanishga qiziqishini oshiradi.

Adabiyot darslarida qo‘llaniladigan yana bir samarali metodlardan biri vaziyatli tahlil metodi hisoblanadi. Bu metodda o‘quvchilarga adabiy asardagi muammoli vaziyatlar taklif etiladi va ular ushbu vaziyatni tahlil qilish orqali o‘z fikrlarini bildiradi. Masalan, qahramonning muayyan qarori to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligi haqidagi savol o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi. O‘quvchilar turli nuqtai nazarlarni tahlil qilib, o‘z fikrini dalillar bilan asoslashga harakat qiladi. Natijada ular muammoni chuqurroq anglaydi va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmasini egallaydi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida fanlararo integratsiya asosida tashkil etiladigan yondashuvlar ham katta ahamiyatga ega. Masalan, STEAM yondashuvi orqali adabiyot fanini tarix, san’at yoki psixologiya bilan bog‘lash mumkin. “Bunday integratsiya o‘quvchilarga adabiy asarlarni kengroq kontekstda tushunish imkonini beradi” [3]. Adabiy asarda tasvirlangan tarixiy voqealarni o‘rganish yoki qahramonlarning psixologik xususiyatlarini tahlil qilish o‘quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantiradi. Natijada ular faqat matn mazmunini emas, balki uning ijtimoiy va madaniy ahamiyatini ham anglay boshlaydi.

Bugungi kunda dunyo ta’lim tizimida keng qo‘llanilayotgan metodlardan biri “ag‘darilgan sinf” modeli hisoblanadi. Ushbu “metodda o‘quvchilar yangi material bilan darsdan oldin tanishadi, dars jarayonida esa tahlil, muhokama va tadqiqot ishlari olib boriladi” [4]. Adabiyot darslarida bu metodni qo‘llash orqali o‘quvchilar asarni oldindan o‘qib keladi va darsda uning g‘oyasi, qahramonlar xarakteri hamda muammolari ustida chuqur tahlil olib boradi. Bu jarayon o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi va darsni yanada samarali tashkil etishga yordam beradi.

Raqamli texnologiyalar ham zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Adabiyot darslarida “raqamli hikoya yaratish metodi orqali o‘quvchilar adabiy asar asosida videolar, prezentatsiyalar yoki multimedia materiallari tayyorlashi mumkin” [5]. Bu jarayon nafaqat ijodkorlikni rivojlantiradi, balki o‘quvchilarning axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini ham shakllantiradi. Raqamli vositalardan foydalanish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi hamda ularning tadqiqotchilik faoliyatini faollashtiradi.

Adabiyot darslarida qo‘llaniladigan yana bir muhim metodlardan biri bahs-munozara metodidir. Ushbu metod o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Munozara jarayonida o‘quvchilar o‘z fikrini asoslash, qarshi fikrlarni tahlil qilish va dalillar orqali o‘z nuqtai nazarini himoya qilishni o‘rganadi. Masalan, adabiy qahramonning harakati yoki asarning asosiy g‘oyasi yuzasidan tashkil etilgan bahs-munozara o‘quvchilarning fikrlash jarayonini faollashtiradi. Bu jarayon ularning nutq madaniyatini rivojlantiradi hamda ilmiy asosda fikr bildirish ko‘nikmasini shakllantiradi.

O‘quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida internet manbalariga asoslangan izlanish metodlari ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, WebQuest metodi orqali o‘quvchilar turli elektron manbalardan foydalanib yozuvchilar hayoti va ijodi haqida ma’lumot to‘playdi, turli fikrlarni solishtiradi va o‘z xulosasini

taqdim etadi [6]. Bunday faoliyat o‘quvchilarning axborot bilan ishlash, uni tahlil qilish hamda ilmiy xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Adabiyot darslarida tadqiqotchilik faoliyatini samarali tashkil etish uchun o‘qituvchi o‘quvchilarning faolligini ta’minlashi, muammoli vaziyatlar yaratishi hamda ularni mustaqil izlanishga yo‘naltirishi zarur. O‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ularning fikrini hurmat qilish va erkin muhokama muhitini yaratish ham muhim pedagogik shartlardan biridir. Bunday yondashuv o‘quvchilarning o‘z fikrini erkin ifoda etishiga hamda ijodiy salohiyatini namoyon etishiga imkon yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyot darslari umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarining tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun katta pedagogik imkoniyatlarga ega. Zamonaviy pedagogik metodlar va innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, analitik tahlil qilish qobiliyatini hamda ilmiy izlanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Natijada o‘quvchilar nafaqat adabiyot fanini chuqur o‘zlashtiradi, balki hayotiy muammolarni ham mustaqil hal qila oladigan, ijodiy va tafakkurli shaxs sifatida shakllanadi. Shu sababli adabiyot darslarini tashkil etishda tadqiqotchilik yondashuvi va zamonaviy metodlardan keng foydalanish bugungi ta’lim tizimining muhim talablaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Avliyakulov N.X. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya. /78–85-betlar/
3. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan. /102–110-betlar/.
4. Ishmuhamedov R. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya. /64–70-betlar/.
5. John Dewey. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916. /pp. 154–167/
6. Jerome Bruner. **The Process of Education**. – Cambridge: Harvard University Press, 1960. /pp. 31–45/

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Yo’ldasheva Umida. Ajiniyoz nomidagi NDPI Maktabgacha ta’lim yo’nalishi 3 kurs talabasi

Kalit so‘zlar: ijodiy fikrlash, maktabgacha ta’lim, pedagogik yondashuv, o‘yin faoliyati, rivojlanish, kreativlik.

Ключевые слова: творческое мышление, дошкольное образование, педагогический подход, игровая деятельность, развитие, креативность.

Keywords: creative thinking, preschool education, pedagogical approach, game activity, development, creativity.

Maktabgacha yosh davri inson hayotidagi eng muhim rivojlanish bosqichlaridan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaning tafakkuri, nutqi, tasavvuri va shaxsiy sifatlari shakllanishi uchun mustahkam poydevor yaratiladi. Zamonaviy pedagogika fanida bolalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Chunki bugungi kunda jamiyatda mustaqil fikrlaydigan, yangicha qarorlar qabul qila oladigan va muammolarga ijodiy yondasha oladigan shaxslar katta ahamiyat kasb etadi.

Ijodiy fikrlashni rivojlantirish masalasi nafaqat pedagogik, balki psixologik jihatdan ham dolzarb hisoblanadi. Ushbu jarayon bolalarning individual xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi zarur. Shu sababli maktabgacha ta’lim tizimida ijodiy fikrlashni shakllantirishning samarali metodlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim vazifa hisoblanadi.

Ijodiy fikrlash shaxsning yangi g‘oyalar yaratish, mavjud bilimlarni yangicha tarzda qo‘llash va muammolarga noodatiy yechim topish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu fikrlash turi insonning intellektual faoliyatida muhim o‘rin egallaydi va uning shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlash tabiiy ravishda rivojlanadi, biroq uni maqsadli ravishda qo‘llab-quvvatlash pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish jarayoni ularning yosh va individual xususiyatlariga mos ravishda tashkil etilishi lozim. Ushbu davrda bolalar ko‘proq obrazli va tasavvurga asoslangan fikrlashga moyil bo‘ladi. Shu bois ta’lim jarayonida bolalarning tasavvurini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur. Tasavvur va fantaziya ijodiy fikrlashning asosiy komponentlari bo‘lib, ular bolalarning ijodiy faoliyatini rag‘batlantiradi.

Maktabgacha ta’lim tizimida ijodiy fikrlashni rivojlantirishning muhim omillaridan biri bu ta’lim muhitining to‘g‘ri tashkil etilishidir. Rivojlantiruvchi muhit bolalarning erkin fikrlashiga, o‘z fikrlarini ifoda etishiga va yangi g‘oyalarni ilgari surishiga imkon yaratishi lozim. Bunday muhitda bola o‘zini erkin his qiladi va ijodiy faoliyatga faol jalb etiladi.

Ijodiy fikrlashni rivojlantirishda pedagogning roli alohida ahamiyatga ega. Pedagog bolalarning mustaqil fikrlashini qo‘llab-quvvatlashi, ularni yangi g‘oyalar yaratishga undashi va ijodiy faoliyat uchun qulay sharoit yaratishi zarur. Pedagogning yondashuvi demokratik va bolaga yo‘naltirilgan bo‘lishi, bolalarning fikrini hurmat qilishi va ularni rag‘batlantirishi muhim hisoblanadi.

Ta’lim jarayonida ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Innovatsion yondashuvlar bolalarning faolligini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga undaydi va ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etishga yordam beradi. Shu bilan birga, ta’lim jarayonini individuallashtirish orqali har bir bolaning rivojlanish darajasini hisobga olish mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish jarayoni ularning ijtimoiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ijodiy faoliyat orqali bolalar o‘z fikrlarini boshqalarga yetkazishni, muloqot qilishni va hamkorlikda ishlashni o‘rganadi. Bu esa ularning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ijodiy fikrlashni rivojlantirish bolalarning emotsional sohasiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ijodiy faoliyat jarayonida bola o‘z his-tuyg‘ularini erkin ifoda etadi, bu esa uning psixologik holatini barqarorlashtiradi. Shu sababli ijodiy faoliyat maktabgacha ta’lim jarayonining ajralmas qismi sifatida qaralishi lozim.

Biroq amaliyotda ijodiy fikrlashni rivojlantirish jarayonida ayrim muammolar mavjud. Jumladan, pedagogik jarayonning yetarli darajada innovatsion emasligi, metodik ta’minotning kamligi va pedagoglarning ijodiy yondashuvga yetarli darajada e’tibor qaratmasligi ushbu jarayon samaradorligini pasaytiradi. Shu sababli ta’lim tizimini takomillashtirish, pedagoglarni zamonaviy metodlar bilan tanishtirish va ta’lim muhitini rivojlantirish zarur.

Ijodiy fikrlashni rivojlantirish jarayonida kompleks yondashuvni qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon faqatgina ta’lim muassasasida emas, balki oilada ham davom ettirilishi lozim. Ota-onalar ham bolalarning ijodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlashi, ularning qiziqishlariga e’tibor qaratishi va erkin fikrlashiga sharoit yaratishi zarur.

Zamonaviy ta’lim tizimida ijodiy fikrlashni rivojlantirish istiqbollari keng hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar, innovatsion metodlar va yangi pedagogik yondashuvlar ushbu jarayonni yanada samarali tashkil etish imkonini beradi. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlar asosida yangi metodikalar ishlab chiqish ham muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish ularning shaxs sifatida shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Ushbu jarayon bolalarning intellektual, ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun pedagogik jarayonni to‘g‘ri tashkil etish, zamonaviy yondashuvlardan foydalanish va bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Xasanova, M. "Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlash va uning rivojlanishiga oid metodik tavsiyalar". – Toshkent: O‘qituvchi. 2017

2. Otaxanova Manzura “Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy rivojlantirish texnologiyalari «Научный импульс» Toshkent, 2023

3. Muhammadiev, Sh. “Maktabgacha ta’limda bolalar ijodiy faoliyatini rivojlantirish” – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018

MEKTEPKE SHEKEMGI JASTAǴÍ BALALARDA MASHQALALARDAN SHÍǴÍW KÓNLIKPESIN QÁLIPLESTIRIWDIŃ PSIXOLOGIYALÍQ-PEDAGOGIKALÍQ TIYKARLARÍ

Izmuxanova Katsha Bólekbaevna - Qońırat rayonı 10-sanlı MSHBSH tárbiyashısı

Kalit so‘zlar: Kognitiv moslashuvchanlik, heuristik yondashuv, fasilitatsiya, TRIZ texnologiyasi, emotsional intellekt, mustaqil qaror qabul qilish.

Ключевые слова: Когнитивная адаптивность, эвристический подход, фасилитация, технология TRIZ, эмоциональный интеллект, самостоятельное принятие решений.

Keywords: Cognitive adaptability, heuristic approach, facilitation, TRIZ technology, emotional intelligence, independent decision-making.

Búgingi jedel ózgerip atırǵan globallasıw dáwirinde bilimlendiriw sistemasınıń aldına qoyılǵan tiykarǵı talaplardan biri - bul tek ǵana tayar maǵlıwmatlardı ózlestirgen emes, al hár qanday kútilmegen jaǵdayda qarar qabıl ete alatuǵın jetik shaxstı qáliplestiriw bolıp esaplanadı. Usı kózqarastan, mektepke shekemgi jastaǵı balalarda mashqalalı jaǵdaylardan shıǵıw (problem-solving) kónlikpesin qáliplestiriw tómendegi faktorlar sebepli oǵada áhmietli esaplanadı:

Balalıq dáwiri insan shaxsınıń "psixologiyalıq tiykarı" qurılatuǵın basqısh. L.S. Vigockiy hám J. Piaje sıyaqlı psixologlardıń aytıwınsha, mektepke shekemgi jas dáwiri kognitiv beyimlesiwdiń eń joqarı shoqqısı - **sensitiv** dáwir esaplanadı. Bul dáwirde balada "Men ózim" krizisi arqalı ǵárezsizlikke umtılıw kúsheyedi. Eger bul basqıshta balaǵa mashqalalardı óz betinshe sheshiw imkaniyatı berilmese, onda keleshekte "úyrengen ilajsızlıq" (learned helplessness) sindromı qáliplesip qalıw qáwipi bar.

Zamanagóy pedagogikada tán alınǵan "XXI ásir kónlikpeleri" quramına kiriwshi sın kózqarastan pikirlew (Critical thinking) hám kreativlik (Creativity) tikkeley mashqalalardı sheshiw menen baylanıslı. Mektepke shekemgi bilimlendiriwden mektepke ótiw dáwirinde bala jańa sociallıq ortalıqqa túsedi. Mashqaladan shıǵıw kónlikpesi qáliplesken bala:

- Teńlesleri menen baylanıslı kelispewshiliklerdi tınısh jol menen sheshedi;
- Oqıw tapsırmalarında qıyınshılıqqa dus kelgende túskinlikke túspeydi;
- Jaǵdaydı sheship, alternativ sheshimlerdi izleydi.

Ózbekstan Respublikasınıń mektepke shekemgi bilimlendiriwge baylanıslı Mámleketlik talapları hám "Ilim jolı" baǵdarlamasında balalardıń "Biliw procesi" tarawı ayrıqsha ajıratılǵan. Onda balanıń qorshaǵan ortalıqtı úyreniwi, sebep baylanısların tabıwı hám ápiwayı mashqalalardı óz betinshe sheshiwi tiykarǵı kompetenciya sıpatında belgilengen. Bul bolsa usı baǵdarda ilimiy-metodikalıq izleniwler alıp barıwdı mámleket dárejesindegi wazıypa etip qoyadı.

Mashqaladan shıǵıw tek logikalıq process emes, bálkim emocional turaqlılıq (resilience) penen de baylanıslı. Balanıń mashqalanı sheshe alıwı onda "menin qolımnan keledi" degen unamlı self-koncepciyanı jaratadı. Bul bolsa óz gezeginde balanıń stresske shıdamlılıǵın arttıradı hám sociallıq beyimlesiwin támiyinleydi.

Mektepke shekemgi jastaǵı balalarda mashqalanı sheshiw ápiwayı háreket emes, al quramalı kognitiv-emocional process esaplanadı. Ol tómendegi komponentlerden quralǵan:

Kognitiv-analitikalıq komponent (Jaǵdaydı ańlaw): Bala mashqalanı "kóre alıwı" kerek. Máselen, "Oyınshıq mashinamnıń dóńgelegi shıǵıp ketti, endi ol júrmeydi." Bul basqıshta bala bar jaǵday hám kútilgen nátiyje ortasındaǵı ayırmashılıqtı túsinedi.

Kreativ-izleniw komponenti (Alternativlerdi izlew): Bul basqıshta "miyli húјim" júz beredi. Bala bir mashqalaǵa birneshe sheshim oylaydı: mashinanı jabıstırıw, dóńgelekti almastırıw yaki onı dóńgeleksiz samolyot etip oynaw.

Prognostikalıq komponent (Nátiyjeni boljaw): Bala "Eger sonday islesem, ne boladı?" degen sorawǵa juwap izleydi. Bul logikalıq pikirlewdiń dáslepki búrtikleri.

Erkinlik hám emocional komponent (Sezimli turaqlılıq): Sátsizlikke ushıraǵanda jılamaw, bas tartpaw hám óz sezimlerin basqara alıw. Bul kónlikpe balanıń stresske shıdamlılıǵın (resilience) qáliplestiredi.

Juwmaqlap aytqanda, mektepke shekemgi jastaǵı balalarda mashqalanı sheshiw strategiyaların qáliplestiriw - bul tek ǵana oyın emes, al olardı keleshektegi quramalı sociallıq turmısqa tayarlawdıń eń nátiyjeli mexanizmi bolıp esaplanadı. Bul kónlikpe balanıń intellektuallıq potencialı hám sociallıq belsendiligi arasında altın kópir wazıypasın atqaradı.

Mektepke shekemgi jastaǵı balalarda mashqaladan shıǵıw kónlikpelerin qáliplestiriw - bul ápiwayı logikalıq shınıǵıw emes, al turmısqa tayarlıq strategiyası bolıp tabıladı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. Toshkent, 2019-yil.
2. “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari”. Toshkent, 2018-yil.
3. “Ilm yo‘li” maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashning variativ dasturi.
4. Sodiqova Sh.A. "Maktabgacha pedagogika". – T.: "Tafakkur bo'stoni", 2013.

Babaeva D.R. "Maktabgacha ta’lim muassasalarida nutq o‘stirish metodikasi". – T.: "Innovatsiya-Ziyo", 2020.

RAQAMLI TA'LIM TUSHUNCHASIN PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ADABIYOTLARDA O’RGANILISHI

Paraxatova Azada Baxadirovna - NMPI Pedagogika yo'nalishi 1 kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada "rahamli ta'lim" tushunchasining psixologik va pedagogik asoslari keng va izchil tahlil etiladi. Tadqiqotda antik falsafadan tortib zamonaviy kognitiv neyrobiologiyagacha bo'lgan ko'plab manbalar sintez qilingan.

Kalit so'zlar: rahamli ta'lim, compassionate education, empatiya, karuna, psixologik xavfsizlik, gumanistik pedagogika, kasbiy kompetentlik, self-compassion, mindfulness, o'qituvchi farovonligi.

Zamonaviy ta'lim paradigmasi tom ma'noda inqilobiy o'zgarishlar davrini boshidan kechirmoqda. XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida bilim uzatish (transmission model) modelidan o'quvchi markazli (student-centred) yondashuvga o'tish global miqyosda kuzatildi. Ushbu siljish bilan birga ta'lim muhitidagi insoniy munosabatlar, hissiy iqlim va psixologik xavfsizlik masalalari ilmiy-pedagogik diskursning markaziga chiqib keldi.

"Rahamli ta'lim" tushunchasi ushbu yangi paradigmaning eng chuqur va yaxlit ifodasini anglatadi. U nafaqat metodologik yondashuv, balki butun bir qadriyatlar tizimini o'z ichiga oladi: insonga hurmat, zaiflikni qabul qilish, o'zaro qo'llab-quvvatlash va birgalikda o'sish. Britaniyalik psixolog Paul Gilbert (2005) va amerikalik tadqiqotchi Kristin Neff (2003) ishlab chiqqan "rahm-shafqat" nazariyasi pedagogikaga tatbiq etilib, mustaqil ilmiy yo'nalishga aylandi [1, 2].

O'zbekiston Respublikasida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (2020) o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, uning ruhiy salomatligini muhofaza etish va ta'lim muhitida insonparvarlik tamoyillarini tatbiq etishni ustuvor vazifa sifatida belgilaganiga qaramasdan, rahamli ta'lim konsepsiyasining mahalliy kontekstda ilmiy tadqiqoti hali yetarli darajada olib borilmagan. Ushbu maqola ana shu bo'shliqni qisman to'ldirishga da'vogar. Rahamli ta'lim falsafasi ming yillik intellektual an'anaga tayanadi. Turli sivilizatsiyalar rahm-shafqat (compassion) tushunchasini turlicha, ammo bir-biriga yaqin ma'nolarda talqin etgan.

Antik Yunon falsafasida Aristotel "philia" (do'stlik-sevgi) va "eudaimonia" (yaxshi hayot) tushunchalari orqali insonlar o'rtasidagi ezgulik asosidagi munosabatlarni tasvirlagan. Yangi davr falsafasida Jan-Jak Russo (1712-1778) bolaning tabiiy yaxshiligiga bo'lgan ishonchni pedagogik asos sifatida e'lon qildi. "Emil yoki ta'lim-tarbiya haqida" asarida u qat'iylik va jazoning o'rniga tabiat bilan uyg'un, mehr-muhabbatga asoslangan ta'limni taklif etdi [6].

1-jadval. Rahamli ta'limning falsafiy manbalari va pedagogik ahamiyati

Mutafakkir / Davr	Asosiy konsepsiya	Ta'limdagi ahamiyati
Aristotel (M.av. IV asr)	Philia (do'stlik) va eudaimonia (farovonlik) — ezgulik orqali yaxshilik	Fazilat etikasi, burch va rahm-shafqat birligi
Budda falsafasi (V-IV asr)	Karuna (rahm-shafqat) — barcha tirik mavjudotga nisbatan universal mehr	Dunyoviy azobni yengishda rahm-shafqat kaliti
J.J. Russo (1712-1778)	Tabiiy insonparvarlik — bolaning tabiiy yaxshiligiga ishonch	Ta'limda qat'iylik emas, mehribonlik asosiy vosita

Mutafakkir / Davr	Asosiy konsepsiya	Ta'limdagi ahamiyati
K. Rojers (1902-1987)	Person-centred approach — insonni to'liq qabul qilish (unconditional positive regard)	Empatiyanin psixoterapiyadan pedagogikaga ko'chishi
P. Gilbert (2005-hozir)	Compassion Focused Therapy (CFT) — rahm-shafqatga yo'naltirilgan terapiya	Uyat va tanqidni rahm-shafqat bilan almashtirish
K. Neff (2003-hozir)	Self-Compassion — o'z-o'ziga nisbatan rahm-shafqat (3 komponent)	Mindfulness, umumiy insoniylik, o'z-o'ziga mehribonlik

O'zbek ta'lim tizimiga nisbatan ushbu konsepsiyani tahlil qilganda, rahamlilik an'anasining o'zimizda ham chuqur ildizlari borligini ko'ramiz. Qomusiy olimlarimiz Ibn Sino, Al-Forobiy, Beruniylarning pedagogik qarashlari o'qituvchining mehr-muruvvati, sabr-toqati va o'quvchiga individual yondashuvi haqidagi g'oyalarga boy. Mahalla instituti, ustoz-shogird an'anasi va milliy tarbiya tizimidagi "ochiqqo'llik" va "mehribo'llik" qadriyatlari rahamli ta'limning mahalliy ekvivalenti sifatida talqin etilishi mumkin. Kelgusida rahamli ta'lim konsepsiyasini o'zbek milliy ta'lim tizimiga moslashtirish, mahalliy o'qituvchilar bilan tajriba-sinov ishlarini o'tkazish va empirik ma'lumotlar asosida uning samaradorligini tekshirish ustuvor ilmiy vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gilbert, P. (2010). Compassion Focused Therapy: Distinctive Features. Routledge. ISBN: 978-0-415-45898-3. https://doi.org/10.4324/9780203851197

2. Neff, K.D. (2003). Self-compassion: An alternative conceptualization of a healthy attitude toward oneself. Self and Identity, 2(2), 85-101. https://doi.org/10.1080/15298860309032

3. Aristotle. (2009). Nicomachean Ethics (D. Ross, Trans., L. Brown, Ed.). Oxford University Press. (Original work published ca. 340 BCE). https://global.oup.com/academic/product/nicomachean-ethics

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK O‘YINLAR AHAMIYATI

R.Aleuova, NDPI dotsenti
M.Tazabayeva, 1 kurs magistranti

Bolaning tarbiyasida o‘yinning ahamiyati o‘tmish va hozirgi davrdagi ko‘plab pedagogik tizimlarda ko‘rib chiqilgan. Aksariyat pedagoglar o‘yinni bola uchun jiddiy va zarur faoliyat deb bilishadi. Buyuk chex pedagogi Ya.A.Komenskiy o‘yinni bolaning tabiati va moyilliklariga mos keladigan zaruriy faoliyat shakli deb hisoblagan: o‘yin – bu jiddiy aqliy faoliyat bo‘lib, unda bolaning barcha qobiliyatlari rivojlanadi,

o‘yin davomida atrof-olam haqidagi tasavvurlar doirasi kengayadi va boyiydi, nutq o‘sadi, birgalikdagi o‘yinlarda bola tengdoshlari bilan yaqinlashadi deb aytib o’tgan.

F.Frebel o‘yinga katta tarbiyaviy ahamiyat beradi: o‘yin bolani jismonan rivojlantiradi, uning nutqi, tafakkuri va tasavvurini boyitadi; o‘yin maktabgacha yoshdagi bolalar uchun faol mashg‘ulotdir deb ta’kidlaydi.

K.D.Ushinskiy bolalar o‘yinlari mazmunining ijtimoiy muhitga bog‘liqligini ko‘rsatib bergan. Uning ta’kidlashicha, o‘yinlar bola uchun izsiz o‘tmaydi: ular insonning jamiyatdagi xarakteri va xulq-atvorini belgilab berishi mumkinligini, birgalikdagi o‘yinlarga katta ahamiyat qaratib, ularda dastlabki ijtimoiy munosabatlar shakllantiriladi.

E.I.Tixeyeva o‘yin tashkilotdagi pedagogik jarayonni tashkil etish shakllaridan bo’lib, bolaga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishning eng muhim vositalaridan biri sifatida ko‘radi. E.I.Tixeyeva didaktik o‘yin bolaning turli qobiliyatlarini, uning idroki, nutqi va diqqatini rivojlantirish imkonini beradi, deb hisoblagan.

Shuningdek, o‘yin bolaning barcha qobiliyatlari rivojlanadigan jiddiy aqliy faoliyat bo‘lib, u orqali bolaning tevarak-atrof haqidagi tasavvurlar doirasi kengayadi va boyiydi, nutqi o‘sadi. Didaktik o‘yin bolaning turli qobiliyatlarini, xususan, idroki, tafakkuri, nutqi va diqqatini rivojlantirish imkonini beradi. Didaktik o‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish, tarbiyalash va o‘qitishning muhim shartlaridan biridir. O‘yin va didaktik vazifalarning uyg‘unligi hamda kattalarning tutgan o‘rni uni "tarbiyachi-tarbiyalanuvchi" tizimidagi o‘zaro munosabatlarning o‘ziga xos shakliga aylantiradi.

Didaktik o‘yinlar o‘z navbatida asl o‘yinlar, o‘yin-mashg‘ulotlar va o‘yin-mashqlarga ajratiladi. Didaktik o‘yin uchun o‘yin g‘oyasi yoki o‘yin vazifasining mavjudligi xosdir. Qoidalarga rioya qilish o‘yin mazmunining amalga oshishini ta’minlap boradi. Qoidalarning mavjudligi esa o‘yin harakatlarini bajarishga va o‘yin vazifasini yechishga yordam beradi. Shu tariqa, bola o‘yin davomida o‘zi bilmagan holda o‘rganib boradi.

Foydalaniladigan materialning xususiyatiga ko‘ra didaktik o‘yinlar buyumli o‘yinlar, stol-bosma o‘yinlari va so‘z o‘yinlariga bo‘linadi.

Buyumli o‘yinlar — bu xalq didaktik o‘yinchoqlari, mozaika, tabiiy materiallar yordamida o‘ynaladigan o‘yinlardir. Ular bilan bajariladigan asosiy o‘yin xarakatlari: ipga o‘tkazish, terish, dumalatish, qismlardan butun yasash va hokazo. Bu o‘yinlar rang, hajm va shaklni idrok etish qobiliyatini rivojlantiradi.

Stol-bosma o‘yinlari atrofdagi olam haqidagi tasavvurlarga aniqlik kiritish, bilimlarni mustahkamlash, fikrlash jarayonlari va amallarini (tahlil, sintez, umumlashtirish, tasniflash va b.) rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo’ladi. Stol-bosma o‘yinlari bir necha turga bo‘linadi: juft rasmlar, loto, domino, qirqma rasmlar va yig‘ma kubiklar, katta yoshdagi maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar uchun "Labirint" kabi o‘yinlar.

So‘z o‘yinlarga "Bo‘yoqlar", "Jim", "Oq va qora" kabi ko‘plab xalq o‘yinlari kiradi. Bu o‘yinlar diqqat, topqirlik, tezkorlik va bog‘lanishli nutqni rivojlantiradi. O‘yin shaklida tafakkur jarayonining o‘zi tezroq va faolroq kechadi, chunki o‘yin bu yoshga xos bo‘lgan faoliyat turidir. O‘yinda bola aqliy mehnat qiyinchiliklarini osonlik

bilan yengadi va unga bilim berilayotganini sezmaydi. Ta’limiy vazifadan kelib chiqib, kattalar o‘yin shartlarini o‘zlari o‘zgartirishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda og‘zaki-mantiqiy tafakkur shakllana boshlaganida, o‘yinlardan aynan fikr yuritish mustaqilligini rivojlantirish va aqliy faoliyatni shakllantirish maqsadida ko‘proq foydalanish zarur. Ayniqsa, katta maktabgacha yoshda bolalarning fikrlash mustaqilligi va faolligini tarbiyalashga jiddiy e’tibor qaratish lozim. Didaktik o‘yin — bolalarda mustaqil fikrlashni tarbiyalashning qulay, foydali va samarali usulidir. U maxsus material yoki muayyan sharoitlarni talab qilmaydi, faqat kattalardan o‘yinni bilishni talab etadi, xolos. Shu bilan birga, taklif etilayotgan o‘yinlar, agar ular zaruriy metodika asosida muayyan tizimda olib borilsagina, mustaqil fikrlashni rivojlantirishga yordam berishini hisobga olish kerak.

Demak, turli-tuman o‘yinlarni tanlash zarurati ularning soni ko‘p bo‘lishi kerakligini anglatmaydi. Didaktik o‘yinlar va o‘yinchoqlarning ko‘pligi bolalar diqqatini bo‘ladi, ularga o‘yinning didaktik mazmuni va qoidalarini yaxshi o‘zlashtirishga imkon bermaydi. Yangi o‘yinlarni asta-sekin joriy etish kerak. Ular bolalarga tushunarli bo‘lishi, ayni vaqtda ulardan ma’lum darajada kuch-g‘ayrat talab qilishi, rivojlanishiga va o‘z-o‘zini tashkil etishiga ko‘maklashishi lozim.

Didaktik o‘yinlarning o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, ular kattalar tomonidan bolalarga ta’lim-tarbiya berish maqsadida yaratiladi. Biroq, didaktik maqsadlarda yaratilgan bo‘lsa-da, ular o‘yinligicha qoladi. Bunday o‘yinlarda bolani, avvalo, o‘yin vaziyati o‘ziga jalb qiladi va u o‘ynash jarayonida o‘zi sezmagan holda didaktik vazifani bajaradi.

O‘yin bolalar o‘rtasida to‘g‘ri o‘zaro munosabatlarni tarbiyalashning beqiyos vositasi xisoblanadi. O‘yinda bola o‘rtog‘iga nisbatan e’tiborli bo‘lishni, adolatli bo‘lishni, zarur bo‘lganda yon berishni, qiyin ahvolda yordam berishni va hokazolarni o‘rganib boradi. Shu sababli, o‘yin jamoaviylikni tarbiyalashning ajoyib vositasi hisoblanadi.

Didaktik o‘yinlar jarayonida ko‘pgina murakkab hodisalar oddiy qismlarga ajratiladi va aksincha, alohida hodisalar umumlashtiriladi. Demak, tahliliy va umumlashtiruvchi faoliyat amalga oshirilib boriladi. Ko‘pgina didaktik o‘yinlar bolalarni umumlashtirish va tasniflashga, shuningdek, umumlashtiruvchi tushunchalarni ifodalovchi so‘zlarni (choynak-piyola, oshxona idishlari, mebel, kiyim-kechak, poyabzal, oziq-ovqat) qo‘llashga undaydi. Didaktik o‘yinlar — bolalarga aqliy va axloqiy faoliyatdagi turli qiyinchiliklarni yengib o‘tishni o‘rgatishning ajralmas vositasidir. Bu o‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish uchun katta imkoniyatlarga ega xisoblanadi.

Shunday qilib, didaktik o‘yin maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini rivojlantirishning muhim pedagogik sharti hisoblanadi. Didaktik o‘yin bolalarning aqliy faoliyatini, fikrlashining mustaqilligi va faolligini rivojlantirishga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. Z.Nishonova va bosh. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi. T.2019y.

2. Вахрушева Л.Н. Развитие мыслительной деятельности детей дошкольного возраста.- М.: Форум, 2014.

KATTA GURUH BOLALARNING TADQIQOT FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI

R.Aleuova, NDPI dotsenti
Sh.Tursunboyeva, Maktabgacha ta'lim yonalishi 3 kurs talabasi

Katta guruh bolalar o‘zlarini o‘rab turgan olamni tinimsiz o‘rganadilar. Ular uchun doimo yangi taassurot va his-tuyg‘ularni boshdan kechirish muhim hisoblanadi. Aynan shu intilish maqsadli tadqiqot, izlanish faoliyatining paydo bo‘lishi va joriy etilishi uchun asosiy turtki hisoblanadi. Tadqiqot faoliyatining dinamikasi to‘lig‘icha uni tashkil etishga hamda jarayonda qo‘llaniladigan usullarga bog‘liq: bolalarga yetkazilayotgan axborot qanchalik yangi va rang-barang bo‘lsa, ular shunchalik tez va har tomonlama rivojlanadi.

Bolalar bilimlarni mustahkam va uzoq vaqt o‘zlashtirish jarayoni pedagoglar va ota-onalarning yordamisiz biror narsani mustaqil eshitganida, ko‘rganida, yodida saqlaganida va bajarganida yuz beradi. Zero, bolalar tabiatan tadqiqotchidir, ular o‘zlarini o‘rab turgan olamni katta xursandchilik, ishtiyoq va hayrat bilan o‘rganadilar. Ular hammasini to‘liq bilishni istaydilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar atrofdagi ijtimoiy muhitni o‘zlarining shaxsiy tajribalari, kechinmalari va his-tuyg‘ulari orqali anglab yetishlari lozim. Bolalar atrof-muhit bilan turli usul va vositalar yordamida tanishadilar. Bolalar uchun eng kichik kashfiyot ham zavq va shodlik baxsh etadigan yutuqdir.

Bola vaqt o‘tishi bilan hamma narsaga qiziqishini yo‘qotadi. Kamalakning nima ekani, qorning nima uchun erishi, quyoshning qayerda uxlashi yoki oyning kunduzi qayerga berkinishi uni mutlaqo qiziqtirmay qo‘yadi. Bunday holat yuz bermasligi va bolalar atrof-olamga bo‘lgan qiziqishini so‘ndirmasligi uchun ularning olamni anglashga bo‘lgan intilishlarini o‘z vaqtida qo‘llab-quvvatlash zarur. Kattalar va pedagogning vazifasi — sabr-toqatli bo‘lish, bolaning qiziquvchanligini hech qachon rad etmaslik, aksincha, tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish istagini faol qo‘llab-quvvatlashdir.

Tadqiqotchilik faoliyati — bu izlanuvchanlik va tadqiqotchilik xulq-atvoriga asoslanuvchi aqliy-ijodiy faoliyatning shaxsiy yo‘lidir. Bola predmetlarni, ularning tuzilishini, atrof-muhitdagi turli hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishda tashabbus ko‘rsatadi, ularni tizimlashtirish va optimallashtirishga qiziqadi. Tadqiqotchilik faoliyatining asoslari quyidagilardir: Izlanuvchanlik — bu natijalarni aniq bilmagan holda, lekin samaradorlik darajasini doimiy hisobga olgan tarzda vaziyatni (yoki unga munosabatni) ongli ravishda o‘zgartirishga qaratilgan xatti-harakat turidir. Tadqiqotchilik faolligi — bu har bir bolaning tabiiy holati bo‘lib, aynan tadqiqotchilik faolligi (dinamikligi) bevosita atrof-muhitni o‘rganishga yo‘naltirilgan. Biror narsani kashf etgan, o‘rgangan, tadqiq qilgan bolalar uchun bu xuddi o‘zlari uchun eng muhim ilmiy kashfiyotni amalga oshirish bilan barobardir. Katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tadqiqotchilik faoliyatining ahamiyatini alohida ta'kidlash lozim.

Tadqiqot ishlarini tashkil etish jarayonida quyidagilar sodir bo‘ladi:

- maktabgacha yoshdagi bolaning xotirasi boyiydi, aqliy jarayonlari kuchayadi;

- bolaning nutqi rang-barang va sermazmun bo‘ladi;

- bola yangi aqliy usullar va amallar bilan tanishadi;

- bola mustaqillik namoyon etadi, shuningdek, predmetlarni o‘zgartira olish qobiliyatini ko‘rsatib, ko‘zlangan natijaga erishadi;

- bolada ijobiy hissiy holat va ijodkorlik uchun zamin shakllanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar “qanday?” va “nima uchun?” degan savollarga mustaqil javob topa oladilar va bu qobiliyatni ularda tadqiqotchilik faoliyati shakllantiradi. Bolalar uchun bunday imkoniyatni qo‘ldan boy bermaslik kerak. Bu faoliyat jarayonida bolalar fikrlash, sinab ko‘rish, tajriba va tadqiqotlar o‘tkazish, eng muhimi, o‘zligini namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Shuningdek, tadqiqot faoliyati jarayonida katta guruh bolalarning turli individual jarayonlari rivojlanadi, chunki ularda muayyan faoliyatni bajarish, obyektlarni taqqoslash va guruhlarga ajratish, shuningdek, xulosa chiqarishga doimiy ehtiyoj mavjud bo‘ladi. Bolalarning qonuniyatlarni ifodalay olish va xulosa chiqara bilish qobiliyati muhim omil hisoblanadi. Shu asosda tarbiyalanuvchilarda bilishga oid ko‘nikmalar to‘planib boradi va ayni vaqtda ularning ijodiy salohiyati ham rivojlanadi, deb ishonch bilan aytish mumkin.

Aynan katta guruh davrida faoliyatning asosiy turlaridagi o‘sish bilan tavsiflanadi va bolalarning hissiy holati tubdan o‘zgaradi. Xususan, maktabgacha yoshdagi bolalarning xotirasi ham miqdoriy, ham sifat o‘zgarishlarini o‘zlashtiradi, ya’ni uning hajmi ortadi. Masalan, katta yoshdagi maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar 7-8 ta turli obyekt nomini osonlikcha eslab qolsa, tayyorlov guruhidagi bolalar 10-12 tagacha nomni yod olishga qodir bo‘ladi.

Katta guruh bolalarda diqqatning rivojlanishi ham o‘xshash mezonlarga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, 3-4 yoshli bolalar diqqati o‘zining yorqinligi bilan ajralib turadi: predmetlarning yorqinligi ularning e’tiborini tortadi. Katta guruh bolalar esa berilgan vazifalarni yechishga diqqatini barqaror qarata oladi. Shuning uchun katta guruh bolalarda diqqat sifati ham hajmi, ham barqarorligi jihatidan ortib borishini ta’kidlash mumkin. Katta guruhda bolalar bilan tashkil etilgan ta’lim faoliyati 15-20 daqiqa davom etadi va tarbiyalanuvchilar shu vaqt davomida muayyan faoliyatga diqqatini qarata oladi. Yetti yoshga kelib, bolalar diqqatini 30 daqiqagacha barqaror saqlay oladigan bo‘ladi. Shuni ta’kidlash joizki, bola biror harakatni bajarayotganda murakkab bo‘lmagan shartlarni xotirasida saqlab tura oladi. Katta guruh bolalar uchun yangi va muhim jihat – bu tasavvurning rivojlanishidir. Bu yosh tasavvurning rivojlanishi uchun eng qulay davr bo‘lib, uni takomillashtirish fursatini qo‘ldan boy bermaslik lozim. Tarbiyalanuvchilar o‘z harakatlari va xatti-harakatlarida erkinroq bo‘lib, u yoki bu holatlarda o‘ziga xoslik namoyon bo‘ladi. 5-6 yoshli bolalar hech qanday qiyinchiliksiz, mutlaqo mustaqil ravishda biror hikoya yoki to‘qima voqea o‘ylab topishi va keyinchalik shu mavzuda harakat qilishi mumkin. Yetti yoshli bolalar o‘z fikrlari oqimini mustaqil nazorat qilib, tasavvurlarini belgilangan maqsadga to‘liq yo‘naltira oladi. Tarbiyalanuvchilar mashg‘ulot yoki muayyan tadbirning borishiga rioya qila oladi,

albatta, bu jarayonda ta’lim faoliyatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmaydigan kichik o‘zgartirishlar bo‘lishi tabiiy.

Katta guruh bolalar bu davrda asosan natijaga erishish uchun ishlaydi. Bolalardagi ijodiy ibtidoning boshlang‘ich bosqichi tasavvurning faol rivojlanishi va o‘z-o‘zini takomillashtirishdan iboratdir. Aynan katta guruh bolalar juda ko‘p rasm chizadi. Shu bilan birga, bolalarning konstruktiv faoliyati ham rivojlanadi, ular namunani o‘rganishning eng oddiy usullarini o‘zlashtiradi. Bolalarda amaliy faoliyat tarbiyachining rejasi yoki taklif etilgan sxema bo‘yicha kechishi mumkin. Bu davrda bolalar origami kabi faoliyat turiga qiziqadi va qog‘ozdan o‘z konstruksiyalarini yaratishdan zavqlanadi.

Boshqacha aytganda, tabiiy materiallardan buyumlar yasash jarayoni takomillashib, murakkablashib boradi. Aynan shu davrda tarbiyalanuvchilarda obrazli tafakkur rivojlanishda davom etadi. Olti yoshli bola predmetni obrazli tarzda o‘zgartirish, shuningdek, kattalarga yoki pedagogga predmetlar qanday ketma-ketlikda o‘zaro ta’sirga kirishishini ko‘rsatib berish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, katta yoshdagi maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar muayyan vazifani hal qilish uchun turli sxemalardan foydalanishini ham ta’kidlash lozim. Bunga konstruktiv faoliyatda ham, labirint shaklidagi masala va mashqlarni yechishda ham duch kelish mumkin. Tarbiyalanuvchilar ko‘rgan predmetlariga asoslanib, mashg‘ulotning borishini oldindan taxmin qila oladi, ya’ni ular taqdim etilgan obyektlar nisbatini tahlil qilib, ularning o‘zaro ta’siri natijasida nima hosil bo‘lishi mumkinligini aytib beradi. Shuni bilish kerakki, bolalar uchun boshqa kuzatuvchining nuqtayi nazarini o‘zgartirish va o‘z ichida g‘oyani ma’naviy jihatdan qayta qurish oson kechmaydi.

Shuni ham ta’kidlash joizki, bolalar aynan shu davrda xulosa chiqarish qobiliyatini mashq qiladilar. Bu esa bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishdagi eng asosiy omildir. 6-7 yoshda bolalar ongli ravishda kashfiyotlar qiladi, ularda yuqori darajadagi bilish faolligi kuzatiladi. Katta guruh bolalarning bilim zaxirasi ortib, o‘zlari, yaqin atrofi va tevarak-olam haqidagi tasavvurlari rivojlanadigan tabiiy jarayon kechadi. Bu jarayonda umumlashtirish sodir bo‘ladi. Barcha zarur qobiliyatlarga ega bo‘lgan bolalar yangi bilimlarni egallashga tayyor bo‘ladilar. Bu yoshdagi tarbiyalanuvchilar kattalarni yoki tarbiyachini diqqat bilan tinglaydilar, savollarga ancha aniq va batafsil javob bera oladilar, shuningdek, to‘g‘ri savol berishni ham uddalaydilar.

Xulosa qilib aytganda, katta maktabgacha ta’lim yoshi bolalikning yakuniy davri hisoblanadi. Keyinchalik bolalar yanada murakkab vazifalarni hal qilishlari kerak bo‘lgan yuqoriroq bosqichga ko‘tariladilar.

Adabiyotlar

1. Z.Nishonova va bosh. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi. T.2019y.

2. F.Qodirova va bosh. Maktabgacha pedagogika.- T.: Tafakkur, 2019.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TA’LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA TARBIYACHINING ROLI

P.E.Oteniyazova - Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o’qutivchichi
Yo’ldosheva Sevara - Maktabgacha ta’lim yonalishi 3 bosqich talabasi

Tayanch so‘zlar: *Maktabgacha ta’lim, tarbiyachi, bola, o’yin, muloqot metod va vositalar, kompetenciya.*

Bola shaxsini shakllantirishda tarbiyachi alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, har bir bolaning shaxs sifatida shakllanishida javobgar ekanligini taqozo etadi. Shunga ko’ra, tarbiyachi bolalarga kundalik hayotda, o’yinlarda, mashg‘ulotlarda, birgalikdagi mehnat faoliyatida, ular bilan bo’ladigan muomalada, muloqotda ibrat, namuna bo’lishi bolani har tomonlama diqqat bilan o’rganishi, uning shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini bilishi, pedogogik nazokatini namoyon qilishi, bolalarning xulq-atvori ish natijalarini haqqoniy baholashi va ularga o’z vaqtida yordam ko’rsata olishi hamda oilaviy ahvoli bilan qiziqishi zarur hisoblanadi. Demak, ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta’minlash ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan tarbiyachi murabbiylarning ma’naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga ham bog‘liqdir. Bolani tarbiyalash nihoyatda qiyin va murakkab jarayon bo’lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgandir.

Xususan, qadimgi Gretsiya va Rim tarixidan yaxshi bilamizki, miloddan avvalgi davrlarda ham yosh avlod tarbiyasi o’zining ma’naviy qiyofasi va aqliy qobiliyati bilan jamiyat a’zolari o’rtasida yuksak hurmatehtiromga sazovor bo’lgan kishilar, ya’ni donishmandlar zimmasiga ishonib topshirilgandir. Ushbu holat yosh avlod tarbiyasi uning tashkil etilishi mazmunini faqat shaxs kamolotini emas, balki jamiyat taraqqiyotini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

“Tarbiyachilarning o’ziga zamonaviy bilim berish, ularning ma’lumotini oshirish kabi paysalga solib bo’lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz... tarbiyachi bolalarimizga zamonaviy bilim berishi uchun avvalo, murabbiyning ana shunday bilimga ega bo’lishi kerak” .

Yuqoridagi qayd etilgan fikrlardan bugungi kun tarbiyachisi shaxsiga nisbatan qo’yilayotgan talablarning naqadar muhimligini anglash lozim. Demak, tarbiyachi-maxsus pedagogik, psixologik va mutaxassisligi bo’yicha yetuk bilimli va yuksak fazilatli shaxs sanaladi. Shuning uchun zamonaviy tarbiyachi murabbiy qiyofasida quyidagi fazilatlarni namoyon eta olishi kerak.

Zamonaviy murabbiy o’zini mutaxassisligi bo’yicha chuqur puxta bilimga ega bo’lish, o’z ustida tinimsiz ishlashi kerak. Tarbiyachi maktabgacha tarbiya pedagogikasi va psixologiya, fiziologiya fanlarining asoslarini bilishi, ta’lim-tarbiya jarayonida bolalarning yoshi va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyatni tashkil etishi kerak. Tarbiyachi ta’lim-tarbiya jarayonida samarali shakl, metod va vositalaridan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo’lishi kerak.

Tarbiyachi yuksak darajadagi pedagogik mahoratga, chunonchi kommunikativlik layoqatiga ega bo'lishi, pedagogik texnika, nutq, yuz, qo'l, oyoq va gavda harakatlari, mimika, jest, pantomimika) qonuniyatlarini chuqur o'zlashtirib olishi lozim. Tarbiyachi bolalarni kuzata oladigan, ularning xulqi, xatti-harakati sabablarini to'g'ri tahlil qilib, unga ta'sir etuvchi vositalarni qo'llay oladigan bo'lishi kerak.Yosh avlodni kerakli bilim, malaka, ko'nikmalardan xabardor qilish uchun tarbiyachi nutq madaniyatiga ega bo'lishi va uning nutqida quyidagi xususiyatlar aks etishi kerak:

• Nutqning aniqligi.

• Nutqning irodaviyligi. Nutqning sofligi (uning turli sheva so'zlaridan xoli bo'lib), faqat adabiy tilda ifoda etish, jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassislarga xos so'zlar), varvarizm (muayyan millat tilida bayon etiladigan nutqqa o'zga millatlarga xos so'zlarning o'rinsiz qo'llanilishi), vulgarizm (harakat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda kontselyarizm (o'rinli bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy nutqda so'zlash) so'zlaridan xoli bo'lishi va pedagogning nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi kerak.

Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi. O'z ustida ishlash – pedagogning izchil ravishda o'zining kasbiy bilim kunikma va malakasi va shaxsiy sifatlarini rivojlantirib borish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etishi. O'z ustida ishlash quyidagilarda ko'rinadi:

- kasbiy bilim kunikma va malakasini takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;
- ijobiy sifatlarni o'zlashtirish.

Tarbiyachi-pedagogning kasbiy kompetentlikka ega bo'lishida o'zini tahlil qila olishi ham ahamiyatli sanaladi. O'zini o'zi tahlil qilish pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etayotgan o'z amaliy harakatlari mohiyatining o'rganilishidir. O'zini o'zi tahlil qilish orqali pedagog o'zini o'zi obyektiv baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Zero, pedagoglarning kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo'lishida ularning o'z-o'zini baholash malakalariga egaligi ham muhimdir.

Adabiyotlar:

1. Sodikova Sh.A. Maktabgacha pedagogika T.: Tafakkur bo'stoni 2013.
2. Yo'ldoshev J. "Ta'lim yangilanish yo'lida" T.: O'qituvchi. 2000 yil.
3. Takomillashtirilgan ”llk qadam” davlat o'quv dasturi T.2022

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MILLIY ONG VA QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH

Jumaboyeva Maxliyo Javlon qizi - Ellikqa'la fakulteti 2-kurs talabasi Nukus davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy ong va milliy qadriyatlarni shakllantirishning hususiyatlari haqda so‘z yuritiladi va bolalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi tamoyili muhim metodik yondashuv sifatida ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta'lim, milliy ong, milliy qadriyatlar, ma'naviy tarbiya, vatanparvarlik, milliy g‘urur, ona tili, xalq og‘zaki ijodi, axloqiy fazilatlar.

Maktabgacha yosh davri shaxs kamolotining eng muhim bosqichi bo‘lib, aynan shu davrda bolaning ma'naviy-axloqiy qarashlari, dunyoqarashi va o‘zligini anglash jarayoni shakllanadi. Shu sababli "maktabgacha ta'lim tizimida bolalarda milliy ong va milliy qadriyatlarni tarbiyalash muhim vazifa" [1]lardan biri hisoblanadi. Shu bois maktabgacha ta'lim jarayonida milliy qadriyatlarni yosh xususiyatlariga mos, tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan holda singdirish dolzarb hisoblanadi.

Albatta milliy ong – bu bolaning o‘z millatiga mansublik hissini anglash, ona yurtiga muhabbat va milliy an'analarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishidir. O‘zbek xalqining boy madaniy merosi, jumladan Alisher Navoiy, Ibn Sino, Farobiy, Farg‘oniy kabi buyuk mutafakkirlarning ijodi shuningdek dostonlarimizdan Alpomish, Tumaris, Go‘ro‘g‘li va boshqalar bolalarda vatanparvarlik va milliy g‘ururni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sababi, maktabgacha yosh davri shaxs kamolotining poydevori hisoblanadi. Aynan "3–7 yosh oralig‘ida bolaning dunyoqarashi, o‘zini anglash jarayoni, axloqiy mezonlari va ijtimoiy xulq-atvori shakllanadi". Shu sababli bolalar hayotida bu bosqichda milliy ong va milliy qadriyatlarni singdirish pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi sifatidda e'tirof etiladi.

Bolaning o‘z millatiga mansublik hissini anglash, ona tilini qadrlash, milliy urf-odat va an'analarga hurmat bilan qarash milliy qadriyatlargai asoslanadi. Ilmiy manbalarda "milliy qadriyatlar xalqning asrlar davomida shakllangan ma'naviy, axloqiy, madaniy meros bo‘lib hisoblanadi" - deb keltirilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy ongni shakllantirish jarayoni murakkab nazariy tushuntirish orqali emas, balki ko‘rgazmali, hissiy, amaliy faoliyat orqali amalga oshiriladi. Bola bu yoshda o‘rganishni ko‘proq taqlid qilish, kuzatish, o‘yin va obrazli tafakkur orqali amalga oshiradi. Shu bois milliy o‘yin, ertak, qo‘shiq, sahnalashtirish, bayram tadbirlari va kundalik muloqot jarayonida tarbiyaviy ishlar olib boriladi. "Milliy ongni shakllantirishning eng muhim vositalaridan biri ma'lumotlarni tushuntirishdan iborat bo‘ladi, bu esa albatta ona tilimizning boy merosidan foydalanishni taqazo etadi". Sababi ona tili nafaqat muloqot vositasi, balki millatning ruhiy boyligi ekanligi barchaga ma'lum. Bolalarga xalq maqollari, topishmoqlari, tez aytishlari, she'rlar o‘rgatilishi orqali til boyligi kengayadi va milliy ruh singadi. Masalan, Alisher Navoiy ijodidan

bolalar uchun mos parchalarni sodda shaklda tushuntirish, milliy adabiy merosga hurmatni uyg‘otadi. Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan Zumrad va Qimmat (yana 1-2 ertak qo‘shing) kabi ertaklar, Alpomish, Tumaris, Go‘ro‘g‘li dostonlaridan parchalarni o‘qib mazmunini tushuntirib berish bolalarda jasorat, sadoqat, mehr-oqibat, to‘g‘ri so‘zlik kabi fazilatlarni tarbiyalaydi.

Milliy ongni shakllantirishda tarixiy xotira elementlari ham muhim o‘rin tutadi. Bolalarga yurtimizning buyuk siymolari haqida yoshiga mos ravishda hikoyalar aytib berish orqali ularda faxr va g‘urur tuyg‘usi paydo bo‘ladi. Masalan, Amir Temur hayoti haqidagi asarlardan parchalar, bolalarda mardlik va adolat timsoli sifatida gavdalansa, Mirzo Ulug‘bek haqida ilm-fan va bilimga intilish namunasi sifatida ma’lumot berish bolalarda ilmga qiziqish va vatanparvarlik hissini kuchaytiradi.

Milliy qadriyatlarni bola qalbida singdirishda milliy bayramlarimiz ham alohida o‘rin tutadi. Xususan, Navro‘z bayrami orqali bolalar milliy taomlar, milliy kiyimlar, qadimiy urf-odatlar bilan tanishadi. Sumalak sayli, milliy o‘yinlar, sahna ko‘rinishlari bolalarda jamoaviylik, mehr-oqibat, do‘stlik tuyg‘ularini rivojlantiradi. Shuningdek bayram tadbirlarida bolalarning faol ishtiroki ularning o‘zligini anglashga va his qilishiga yordam beradi.

Ayniqsa milliy ongni shakllantirish jarayonida umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlik muhimdir. Ya’niy bola o‘z millatini sevishi bilan birga boshqa millat va elat vakillariga hurmat bilan qarashni o‘rganishi lozim. “Bag‘rikenglik, tinchliksevar, insonparvarlik kabi fazilatlar milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unlashuvi asosida rivojlanadi”.

Eng muhimi, milliy qadriyatlar tarbiyasi oila va maktabgacha ta’lim tashkiloti hamkorligida olib borilgandagina mustahkam natija beradi. Natijada ma’naviy barkamol, milliy o‘zligini anglagan va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qaraydigan shaxsni tarbiyalash imkoniyati yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy ong va milliy qadriyatlarni shakllantirish shaxs kamolotining muhim poydevorini yaratadi. Aynan shu davrda bolada Vatanga muhabbat, ona tiliga hurmat, milliy an’ana va urf-odatlarga sadoqat kabi fazilatlar shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. – Toshkent, 2018.

2. Maktabgacha pedagogika: o‘quv qo‘llanma / Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2019. – 256 b.

3. Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari: o‘quv qo‘llanma / Toshkent, 2018. – 132 b.

4. Alisher Navoiy. Xamsa / Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, turli nashrlar.

OYIN ARQALI BALALARDA INTELLEKTYAL QÁBILETLERDI RAWAJLANDIRIW

P.E.Oteniyazova - NMPI, Mektepke shekemgi tálim kafedrası úlken-oqıtıwshısı
Tolibayeva Dilnoza , Yangiboyeva Sevinchoy - NMPI, Mektepke shekemgi tálim baǵdarı talabaları

Tayanısh sózler: Oyın, mektepke shekemgi jastaǵı balalar, milliy tárbiya, sózlik qorı, iskerlik, logikalıq pikirlew.

Oyın iskerligi balalardı insaniyattıń sociallıq tájiriybesin iyelewdiń aktiv forması bolǵan tálim iskerligine tayarlaydı. Kópshilik psixologlar hámde pedagoglar oyınnıń psixologiyalıq máseleleri menen tikkeley shuǵullanıp, oyınlardıń balanı psixik kámal taptırıwdaǵı áhmiyetine bólek toqtalıp ótedi. Jánede aytıp ótiw kerek, oyın bala ushın haqıyqatlıqtı sáwlelendiriw bolıp tabıladı. Bul haqıyqatlıq balanı qorshap turǵan haqıyqatlıqtanda qızıqlı bolıp tabıladı. Oyınnıń qızıqlılıǵı onı ańlap jetiwdiń ańsatlıǵında bolıp tabıladı. Insan birden sociallıq tájiriybeni ózlestiriwge kirise almaydı. Sociallıq tájiriybelerdi aktiv iyelew ushın adam áwele jeterli dárejede sóylewdı iyelegen bolıwı, belgili ilmiy tájriybeler, uqıplar hám elementar túsiniklerdi ıyelewi kerek boladı. Bularǵa bala oyın iskerligi arqalı erisedi.

Sonday-aq, balalardıń tiykarǵı waqıtı oyın menen ótedi. Oyın mektepke shekemgi jastaǵı balalardı hár tárepleme rawajlanıwınıń zárúrli quralı, olardıń tiykarǵı iskerligi bolıp esaplanadı. Oyın procesinde bala shaxsı iskerlik sub'ekti retinde qáliplese baslaydı. Oyın uzaq dáwirlerden berli belgili ilimpazlar, pedagog psixologlar, filosoflar, sotsiologlar, etnograflar hám mádeniyat ǵayratkerleri dıqqatın ózine qaratıp kelgen aktual temadaǵı mashqalalardan biri bolıp tabıladı.

Mektepke shekemgi dáwir ushın say bolǵan oyın iskerligi balalardaǵı jámiyetlik biliw iskerliginiń qanday rawajlanıp barıwı, ilimiy izertlew juwmaqları kórsetip beredi. Oyında balalar tárbiyashınıń basshılıǵında hár qıylı háreket usılların, zat hám buyımlar haqqındaǵı bilimlerdi, olardıń sıpat hám ózgesheliklerin bilip aladı. Balalar, sonday aq waqıt qatnasıqları, uqsaslıq, teńlik sıyaqlı túsiniklerdi hám iyelep baradı. Birgelikte orınlanǵan háreketli oyınlar arqalı balalar insanlar ómirindegi, olar arasındaǵı qatnaslardı, kelisip háreket etiwdi bilip aladı, olardıń dógerek-átirap haqqındaǵı túsinikler keńeyedi. Úlken topar balalardıń oyın iskerligi hár qıylı bolaladı hám hár tárepleme rawajlanıw imkaniyatları hám keńeyedi.

Oyın balalardıń qıyalın hám oylawın rawajlandıradı, dógerek-átiraptaǵı barlıq, insanlar miyneti haqqındaǵı bilimlerin keńeytedi, shaxsda jámáátshilik sıpatların qáliplestiredi. Eger tálim procesinde 3-4 jaslı balalar dıqqatı tábiyat, insanlar haqqındaǵı konkret faktke qaratılsa, 5-6 jaslı balalarǵa tálim beriwde tiykarǵı itibar zárur baylanıslar hám qatnaslarǵa, olardı ulıwmalastırıwǵa, olardaǵı ápiwayı túsiniklerin qáliplestiriwge qaratıladı hám bular arqalı balalarda logikalıq oylaw rawajlanadı.

Balalar iyelegen bilimlerinen, aqlıy qábiletlerinen ózleriniń turli iskerliklerinde paydalanadı. Bulardıń hámmesi bala shaxsınıń qáliplesiwine tásir etedi, olarda jańa mazmundaǵı iskerlikke qızıǵıwshılıq oyanadı. Mektepke shekemgi dáwirinde bala shaxsın qáliplestiriwge qaratılǵan tárbiyalıq tásirler sonday dárejege kóteriledi, bul onıń

mektep tálimine ótiwin támiyinleydi. Kishi mektep jasında balalar ushın oqıw tiykarǵı iskerlik bolıp qaladı hám bul iskerlikti balalar jámiyetlik áhmiyetli iskerlik sıpatında ańlay baslaydı. Bala óziniń mektep oqıwshısı ekenligin túsine baslaydı. Úlkenlerdiń bala xulqına, iskerligine qoyatuǵın hám bekkemlesip baratuǵın talapların aktivlik penen dóretiwshilik penen orınlay baslaydı.

Mektepke shekemgi jastaǵı balalar oyınları aktivlesedi jáne bul processte basqa balalar menen baylanıs quramalılasadı, temalar keneyedi hám syujetler bayıp baradı. Bunday oyınlar qanshelli hár túrli bolsa, bala sonshelli tezirek rawajlanadı jáne social rol dúnyasına kiredi. Oyın mudamı málim qaǵıydalarǵa muwapıq oynaladı. Onıń payda bolıwı ushın konventsiyaga ıye bolıw shárt emes (ob'ektlerdiń atınıń ózgertiw, ol oyın iskerligi procesinde payda boladı); Oyın dawamında ob'ektlerdiń atınıń ózgertiwdiń intellektual háreketiniń zárúrli strukturalıq bólegi - bul oyda sawlelendiriw.

Balalardıń oyınları arqalı olarda sociallıq paydalı, yaǵnıy joqarı insanıy páziyletlerdi tárbiyalaw múmkin. Bunnan tısqarı, egerde biz balalardıń oyın xızmetlerin sırttan baqlasaq, oyın procesinde olardıń barlıq jeke páziyletleri (kimniń nege kóbirek qızıǵıwı, qábileti, erk temperamenti) anıq aydın kórinetuǵınlıǵın bayqaymız.

Sonıń ushın balalardıń oyın iskerlikleri olardı individual túrde úyreniw ushın júdá qolay qural bolıp tabıladı. Kishi mektepke shekemgi jastaǵı balalar ádetde ózleri jalǵız oynaydı. Predmetli hám konstruktorlı oyınlar arqalı bul jastaǵı balalar ózleriniń aqıl, yad, kóz-qaras, oylaw hámde háreket imkaniyatların rawajlandıradı. Syujetli rolli oyınlarda balalar tiykarınan ózleri har kúni kórip júrgen hám baqlap júrgen úlkenlerdiń is-háreketlerin sáwlelendiredi.

Paydalanılgan ádebiyatlar:

1. «Maktabgacha yoshda bólgan balalar ushın rivojlantiruvchi o'yinlar» Ota-onalar va pedagoglar ushın qo'llanma, Rivojlantirish akademiyasi, Moskva, 1997 yil.

2. Jumasheva G. X. Balalarǵa qaraqalpaq tilin úyretiwde didaktikaliq oyinlardan paydalaniw. N. «Bilim», 1997.

3. Jóraev S, Qodirov H. Kichkintoylar nutqini óstirish. T. , Óqituvchi. 1995 y.

OYÍN ARQALÍ BALALARDA ELEMENTAR MATEMATIKALÍQ KÓNLIKPELERIN QÁLIPLESTIRIW

Orınbaeva Nargiza Madiyarovna - Qońırat rayonı 24-sanlı MSHBSH tárbiyashısı

Annotaciya: Bul maqalada mektepke shekemgi jastaǵı balalardıń logikalıq oylawın rawajlandırıwda didaktikalıq oyınlardıń ornı, san hám sanaw, forma hám keńislik kózqarasların qáliplestiriwdiń nátiyjeli usılları sáwlelendirilgen.

Tayanısh túsinikler: Didaktikalıq oyın, elementar matematika, mektepke shekemgi bilimlendiriw, logikalıq pikirlew, interaktiv metodlar, geometriyalıq figuralar, muǵdar.

Zamanagóy bilimlendiriw sistemasında balalardı hár tárepleme rawajlandırıw tiykarǵı wazıypalardan biri esaplanadı. Ásirese, mektepke shekemgi bilimlendiriw basqıshı shaxstıń intellektuallıq, sociallıq hám psixologiyalıq rawajlanıwında sheshiwshi áhmiyetke iye. Usı kózqarastan, balalarda elementar matematikalıq túsiniklerdi qáliplestiriw áhmiyetli pedagogikalıq baǵdar sıpatında qaraladı.

Matematika tek esap-kitap islew quralı emes, al logikalıq pikirlew, analizlew, salıstırıw, uliwmalastırıw sıyaqlı aqılıy operaciyalardı rawajlandırıwshı áhmiyetli faktor. Mektepke shekemgi jastaǵı balalar abstrakt túsiniklerdi qabıllawda qıyınshılıq kóretuǵını sebepli, matematikalıq bilimlerdi oyın iskerligi arqalı beriw eń nátiyjeli usıl esaplanadı.

Oyın bala ushın tábiyiy hám jetekshi iskerlik bolıp, áyne oyın procesinde bala dúnyanı ańlaydı, jańa bilim hám kónlikpelerdi ózlestiredi. Sonıń ushın didaktikalıq oyınlar arqalı matematikalıq túsiniklerdi qáliplestiriw pedagogikanıń áhmiyetli wazıypalarınan biri.

1. Matematikalıq kózqaraslardı qáliplestiriw bagdarları

1.1. Muǵdar hám sanaq túsinikleri. Balalarda muǵdarlıq tusiniklerdi qaliplestirió – matematikalıq raóazhlanyódyng baslanǵısh basqıshı. Bul proceste bala tómendegi túsiniklerdi ózlestiredi: kóp hám kem; teń hám teń emes; bir hám kóp; sanlardıń izbe-izligi. Mısalı, oyın dawamında balalarga birneshe oyınshıqlar berilip, "Qaysısı kóp?" yamasa "Neshe qaldı?" sıyaqlı sorawlar beriledi. Bul arqalı bala sanaw hám salıstırıwdı úyrenedi.

1.2. Shama túsinigi. Úlkenlikti ańlaw balada salıstırıw kónlikpesin rawajlandıradı. Bala buyımlardı tómendegi ólshemler tiykarında salıstıradı: uzın-qısqa; biyik-pás; keń-tar. Máselen, hár qıylı uzınlıqtaǵı tayaqshalardı salıstırıw arqalı bala vizual hám ámeliy túrde shamanı ańlaydı.

1.3. Geometriyalıq figuralar. Balalar dáslep ápiwayı geometriyalıq figuralar menen tanısadı: dóńgelek, kvadrat, úshmúyeshlik, tuwrimúyeshlik.

Didaktikalıq oyınlar járdeminde bala: formalardı ataw; olardı parıqlaw; real ómirdegi predmetler menen baylanıstırıwdı úyrenedi. Máselen, "Qaysı buyım sheńber formasında?" oyını arqalı bala qorshagan ortalıqtı baqlaydı.

1.4. Keńisliktegi túsinikler. Keńislik túsinikleri balanıń átirapın ańlawına járdem beredi: oń-shep; joqarıda-tómende; aldında-artta. Bul túsinikler háreketli oyınlar arqalı nátiyjeli úyretiledi. Mısalı, "Oń tárepke júr," "Topti stol ústine qoy" sıyaqlı tapsırmalar.

1.5. Waqıt túsinigi. Waqıttı ańlaw quramalı process bolıp, ol basqıshpa-basqısh qáliplesedi: kún hám tún; azanda, túste, keshte; hápte kúnleri; máwsimler. Bul proceste vizual materiallar, súwretler hám kúndelikli rejim zárúr rol oynaydı.

Didaktikalıq oyınlar balalardıń bilim alıw procesin tábiyiy hám qızıqlı halatqa keltiredi. Oyın dawamında:

• bala erkin pikirleydi;
• qátelikten qorıqpaydı;
• óz betinshe qarar qabil etedi;
• aktiv qatnasadı.

Mısalı: "Dúkan" oyını sanaw hám ápiwayı esaplawdı úyretedi; "Tangram" oyını - geometriyalıq pikirlewdi rawajlandıradı; "Mozaika" – eleslew hám dóretiwshilikti arttıradı.

Didaktikalıq oyınlar tek ǵana matematikalıq bilimlerdi emes, al sóylew, yad, dıqqat hám sociallıq kónlikpelerdi de rawajlandıradı. Matematikalıq bilimlerdi nátiyjeli úyretiw ushın tómendegi metodlar qollanıladı:

1. Barmaq oyınları. Bul oyınlar arqalı balalar sanlardı ańsat yadlap aladı. Ritmli háreketler yadtı bekkemleydi.

2. Háreketli oyınlar. Fizikalıq iskerlik penen baylanıslı oyınlar balalarda qızıǵıwshılıqtı arttıradı. Mısalı: "Kim tez sanaydı?," "Neshe qádem júrdi?"

3. Logikalıq oyınlar. Balalardıń oylawın rawajlandıradı: "Artıǵın tabıń"; "Ne jetispey atır?,"

4. Vizual hám ámeliy metodlar. kartochkalar; oyınshıqlar; konstruktorlar; tábiyiy predmetler (tas, japıraq, miywe).

Juwmaqlap aytqanda, mektepke shekemgi bilimlendiriwde matematikalıq kózqaraslardı qáliplestiriw procesi oyın menen únles halda shólkemlestiriliwi zárúr. Oyın – bul tek kewil ashar is emes, al kúshli bilim beriw quralı.

Didaktikalıq oyınlar arqalı: bala matematikalıq túsiniklerdi ańsat ózlestiredi; oniń intellektual potencialı rawajlanadı; dóretiwshilik hám logikalıq pikirlew qáliplesedi. Sol sebepli tárbiyashılar hám ata-analar balalar menen islewde oyın texnologiyalarınan keń paydalanıwları kerek. Kúndelikli turmıstaǵı ápiwayı jaǵdaylardı da oqıw procesine aylandırıw arqalı balalarda matematikalıq qızıǵıwshılıq hám bilimlerdi bekkemlew múmkin.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Sh. Mirziyoyev. "Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori.
2. P. Yusupova. "Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi". Toshkent, "O‘qituvchi", 1993.
3. F. Qosimov. "Maktabgacha ta’lim muassasalarida matematikadan mashg‘ulotlar". Toshkent, 2010.
4. Z. Nishanova, G. Alimova. "Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi". Toshkent, 2006.
5. L.G. Peterson. "Igralochka: Practical course of mathematics for preschoolers". (Metodik qo‘llanma).

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA BOLALARNI MILLIY O‘YINLAR ORQALI VATANPARVARLIK VA QADRIYATLARNI SINGDIRISH

Allambergenova Nigora Muratbayevna – Qo‘ng‘irot tumani 19-sonli MTT tarbiyachisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida o‘zbek xalq milliy o‘yinlarining o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Milliy o‘yinlar orqali bolalarda vatanparvarlik, milliy g‘urur, jamoaviylik va ajdodlar merosiga hurmat tuyg‘ularini shakllantirishning pedagogik usullari tahlil qilingan. Shuningdek, MTT o‘quv-tarbiya jarayonida milliy o‘yinlardan foydalanish bo‘yicha metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim, milliy o‘yinlar, vatanparvarlik, qadriyatlar, ma’naviy tarbiya, "Ilk qadam", jismoniy faollik, ajdodlar merosi, xalq pedagogikasi.

Ключевые слова: Дошкольное образование, национальные игры, патриотизм, ценности, духовное воспитание, "Первый шаг," физическая активность, наследие предков, народная педагогика.

Keywords: Preschool education, national games, patriotism, values, spiritual education, "First Step," physical activity, ancestral heritage, folk pedagogy.

Bugungi globallashuv sharoitida yosh avlodni har tomonlama yetuk, intellektual salohiyatli va eng muhimi, o‘z Vataniga sadoqatli qilib tarbiyalash ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim bosqichi bu jarayonda muhim o‘rin tutadi. Chunki bolalik davri inson shaxsining poydevori qo‘yiladigan, uning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy xulq-atvori shakllana boshlaydigan eng muhim davrdir. Shu bois aynan shu bosqichda bolalarga milliy qadriyatlarni singdirish, ularda milliy o‘zlikni anglash va Vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantirish zarur.

Milliy o‘yinlar esa bu jarayonda samarali pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi. Ular xalq pedagogikasining ajralmas qismi bo‘lib, asrlar davomida xalqimizning turmush tarzi, urf-odatlari, an’analari va ma’naviy qadriyatlari asosida shakllangan. Milliy o‘yinlar orqali bolalar nafaqat jismoniy rivojlanadi, balki ularda axloqiy fazilatlar, ijtimoiy ko‘nikmalar va milliy ong ham shakllanadi.

Masalan, “Oq terakmi, ko‘k terak”, “Kim oladi-yo, shig‘ay-yo”, “Lanka” kabi o‘yinlar bolalarda chaqqonlik, tezkorlik, diqqat va sabr kabi sifatlarni rivojlantirish bilan birga, ularda jamoada ishlash, o‘zaro hurmat va do‘stlik kabi muhim fazilatlarni ham shakllantiradi.

Vatanparvarlik tuyg‘usi bolada birdaniga paydo bo‘lmaydi, balki u kichik yoshdan boshlab bosqichma-bosqich shakllanadi. Avvalo bola o‘z oilasiga mehr qo‘yadi, so‘ngra bog‘chasi, mahallasi va nihoyat o‘z Vataniga nisbatan sadoqat hissini his eta boshlaydi. Milliy o‘yinlar aynan shu jarayonni tabiiy va samarali tarzda qo‘llab-quvvatlaydi. Chunki o‘yin davomida bola o‘z milliy muhitini his qiladi, ona tilida muloqot qiladi, milliy sanamalar va aytishuvlar orqali o‘z

madaniyatiga yaqinlashadi. Bu esa unda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘usini shakllantiradi.

Bundan tashqari, milliy o‘yinlar bolalarning ijtimoiylashuv jarayonida ham muhim rol o‘ynaydi. Jamoaviy o‘yinlar orqali bolalar o‘zaro muloqot qilishni, boshqalar bilan hisoblashishni, qoidalarga rioya qilishni o‘rganadilar. Har bir o‘yinning o‘ziga xos qoidalari mavjud bo‘lib, ularga amal qilish bolalarda mas’uliyat, halollik va intizomni shakllantiradi. Masalan, o‘yin qoidalarini buzgan bola o‘yindan chetlatilishi yoki “jarima” olishi mumkin, bu esa unda adolat tushunchasini mustahkamlaydi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida milliy o‘yinlardan samarali foydalanish uchun pedagoglar ularni to‘g‘ri tanlash va maqsadga muvofiq tashkil etishlari lozim. O‘yinlar bolalarning yosh xususiyatlariga mos, sodda va qiziqarli bo‘lishi kerak. Shuningdek, o‘yin jarayonida ko‘rgazmali vositalardan, masalan, milliy liboslar, an’anaviy buyumlar va o‘yin anjomlaridan foydalanish bolalarda qiziqishni yanada oshiradi. O‘yin davomida sanamalar, tez aytishlar va dialoglardan foydalanish esa bolalarning nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Milliy o‘yinlarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish ham muhim ahamiyatga ega. Ularni jismoniy tarbiya, nutq rivoji, musiqa va atrof-muhit bilan tanishtirish mashg‘ulotlari bilan uyg‘unlashtirish orqali ta’lim samaradorligini oshirish mumkin. Shu bilan birga, har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish, faol bolalarni yetakchi sifatida jalb qilish, tortinchoq bolalarni esa asta-sekin o‘yinga qo‘shish pedagogik jihatdan to‘g‘ri yondashuv hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, milliy o‘yinlar maktabgacha ta’lim tizimida bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularda milliy qadriyatlarga hurmat, ijtimoiy faollik va vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ular orqali bolalarda sog‘lom turmush tarzi, jamoaviylik, halollik va mas’uliyat kabi muhim fazilatlar shakllanadi. Shu sababli tarbiyachilar milliy o‘yinlardan samarali foydalanib, ularni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirishlari zarur. Faqat shundagina biz o‘zligini anglaydigan, milliy qadriyatlarni qadrlaydigan va Vataniga sadoqatli avlodni tarbiyalashga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. Toshkent, 2019-yil.

2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. Toshkent, 2022-yil.

3. Sattorov U. “O‘zbek xalq o‘yinlari”. Toshkent, "O‘qituvchi", 2001.

4. Usmonxo‘jayev T.S., Xo‘jayev F. “Harakatli o‘yinlar”. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1992.

5. Shodmonova Sh. “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi”. Toshkent, 2008.

6. Qurbonova M. “Bolalarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash metodikasi”. Metodik qo‘llanma. Toshkent, 2015.

MILLIY URF-ODATLAR, AN’ANALAR, UDUMLAR, MAROSIMLARNING TARBIYA VOSITASI SIFATIDAGI O‘RNI

Z.B.Seytekova - Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
D.Q.Janabayeva - Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Tayanch tushunchalar: milliy urf-odatlar, ta’lim-tarbiya, etika, estetika, jahongashtalar, maqollar.

Ключевые понятия:: национальные обычаи, традиции, воспитание, этика, эстетика, заблуждения, пословицы, поговорки.

Mamlakatimiz o‘ziga xos turli milliy urf-odat, an’analarga boy ulkan mamlakat. Xo‘sh, “milliy urf-odat", "milliy- ananalar" yoki qadriyatlar" deganda iimalar ko‘zda tutiladi? Ularning aniq, bir o‘lchovi, mezoni bormi? Biz XXI asrda yashayabmiz.

Qadriyat so‘zi alohida e’tibor va e’zozga ega bo‘lgan odat ma’nosini anglatar ekan, u bir xalq ichida emas, barcha xalqlar tomonidan e’tirof etilsa, oliy maqom kasb etadi. O‘zbekiston zaminida yashovchi xalqlarga mansub kattayu kichikka birdek salom berish, keksalarni e’zozlash, qo‘shniga hurmat, qarindoshga oqibat, bolaparvarlik, mehmonni ikrom etish, dini va millatidan qat’i nazar Bani bashar avlodiga uning, avvalo, inson ekanligi e’tiboridan bag‘rikeng munosabatda bo‘lish kabi fazilatlar asrlar davomida jahon tamadduni sahifalariga zarhal harflar bilan bitilgan.

Ikkinchi jahon urushida O‘zbekistonga ko‘chirilgan kattayu kichikka ko‘rsatilgan mislsiz mehr-oqibat tillarda doston bo‘lgan. Ona xalqimiz yetimlarni bag‘riga bosib, ular bilan bir burda nonini baham ko‘rib, minglab insonlarning hayoti va hayotdagi munosib o‘rnini saqlab, yaxshilikning oliy namunasini namoyon qilgani ma’lum va mashhur haqiqat. Yetim so‘zi arab tilidan tarjima qilganda “yolg‘iz, yagona”, degan ma’noni anglatadi. Bu so‘z urush yillarida yurtimizda o‘z ma’nosidan uzoqlashdi. Manbalarga ko‘ra, O‘zbekistonga urush o‘choqlaridan ko‘chirilgan 200 ming murg‘ak bolaning barchasi oilali, boshpanali bo‘ldi.

Islom dini ko‘rsatmalarida yetimlarga mehr ko‘rsatish jannatiy fazilat sifatida e’tirof etilgan. Hadisi sharifda Muhammad alayhis-salom: “Men va yetimga kafillik qiluvchi, ya’ni yetimga g‘amxo‘rlikni o‘z zimmasiga oluvchi jannatda yonma-yon bo‘lamiz”, deya ikki barmoqlarini juftlashtirib ko‘rsatdilar. Qo‘limizdagi ikki barmoq bir-biriga qanchalik yaqin bo‘lsa, yetimni bag‘riga bosuvchilar ham olamlar sarvari bilan jannatda shunchalar yaqin turar ekanlar.

Islom dinining asrlar davomida bashariyatni ezgulikka, ma’rifatga chorlab kelayotgan, yillar davomida hayotbaxsh ma’nolari kishilar qalbidan o‘rin olib, tarixning turli murakkab onlarida ham benazir hamdam, dillarga malham bo‘lib, hazrat

Alisher Navoiy ta’biri bilan aytganda, turmushiga ro‘zg‘or safoligini, dunyoqarashiga hidoyat ziyosini olib kirayotgan tushunchalarini diniy qadriyatlar, deb ataymiz. Bu qadriyatlar imon, e’tiqod, vijdon, diyonat, ma’naviyat kabi o‘lmas va yengilmas tuyg‘ular samarasidir. Bu qadriyatlar oliy darajadagi odob-axloq, bilim va ma’rifatning asosidir. Ularda tinchliksevarlik, haqsevarlik, insonparvarlik, ma’rifatparvarlik, mehnatsevarlik hamda bunyodkorlik kabi umuminsoniy, deya e’tirof etilgan, jahon tamadduni taraqqiyotiga bemisl ulush qo‘shgan an’analar hosilasi mujassam.

Kezi kelganda milliy va diniy qadriyatlarimiz o‘zaro chambarchas bog‘lanib ketganini, ularni bir-biridan ajratish mushkulligini ta’kidlash joiz. Ayniqsa, ko‘p asrlar mobaynida xalqimiz qalbidan chuqur joy olib, hayot ma’nosini anglash, milliy madaniyat, turmush tarzimiz, qadriyatlarimiz, urf-odat va an’analarimizni bezavol saqlashda muqaddas dinimiz qudratli omil bo‘lib kelmoqda. Zero, insoniylik, mehr-oqibat, halollik, oxiratni o‘ylab yashash, yaxshilik, mehr-shafqat singari xalqimizga mansub bo‘lgan fazilatlar aynan ana shu zaminda ildiz otadi va rivojlanadi.

Sir emaski, qadriyat masalasi islomda ibodat darajasiga ko‘tarilgan. Ibodatlar mohiyatida esa qadriyatlarni muhofaza qilish yotadi. Masalan, Qur’oni karim va hadisi shariflarda ota-onaga yaxshilik qilish ta’kidlangan. Bu qadriyat savobi ulug‘ amallardan hisoblanadi. Shoir ta’kidlaganidek,

“Otang bilan onang qalbi o‘tar Ka’ba tavofidin,

Alar ko‘nglin shod etolsang bu xizmat ham ibodatdir”.

Islomdagi besh asosning mohiyatiga e’tibor qaratilsa, ularning barchasi insoniyat uchun qadriyat hisoblangan ezguliklarga chorlashi ma’lum bo‘ladi. Masalan, imonning eng kichik belgisi yo‘ldan kishilarga ozor beradigan narsani olib tashlash, deyiladi. Islom asoslari insoniyatni yomon va buzg‘unchi ishlardan qaytarishi qayd etilgan. Savob uchun ochlik va tashnalikni iroda qilsa-yu yomonliklardan tiyilmasa, bunday mashaqqatdan hech qanday manfaat yo‘qligi, savob uchun ulug‘ ziyoratga borsa-yu ammo tilini buzuq so‘zlar, o‘zini fisqu fujur ishlardan tiymasa, hatto uzoq davom etgan safaridan ham foyda bo‘lmasligi ta’kidlangan. Daromadining qirqdan birini ehtiyojmand kishilarga beraman desa-yu, bu daromad nopok yo‘llardan kelgan bo‘lsa yoxud nopok yo‘llarga sarflansa, savob qilaman, deb gunoh va jinoyatga botib ketishi haqida ogohlantirilgan. Demak, islomda savob va qadriyat tushunchalari o‘zaro chambarchas bog‘langan.

O‘zini imonli, deb hisoblovchi har bir inson atrofdagilarga faqat ezgulik ulashib, kishilarga ozor beradigan ishlardan o‘zini tiyishi lozim. Bu borada Alisher Navoiy insoniyatga ibratdir. So‘z sultonining umrini buyuk ishlarga bag‘ishlashiga sabab bo‘lgan tuyg‘u komil imon edi. Shuning uchun hazrat: “Naqdi jon chiqqanda imon gavharin ko‘nglimg‘a sol, Aylagil jondin judo, lek etma imondin judo”, deya munojot qildi.

Qadim-qadimdan zaminimizda ulug‘langan qadriyatlardan biri bu kattaga hurmat, rahbarga itoat, qonunga rioyatdir. Har bir imonli inson yoshi ulug‘larni e’zozlashi, rahbarlarga bo‘ysunishi, davlat va jamiyat qonun-qoidalariga amal qilishi o‘ta muhim. Ayni paytda islom olamining ba’zi nuqtalarida yuz berayotgan parokandalik va ziddiyat, ixtilof va adovat, halokatning asosiy sabablaridan biri aynan shu kabi tushunchalarning barbod bo‘lganidandir. “Kattalarimizni hurmat, kichiklarimizga shafqat qilmaganlar bizdan emas”, “Baraka kattalaringiz bilan birga”, “Bir qavmning mo‘tabar kishisi kelsa siz ham uni izzat-ikrom qiling”, “Kim sultonni xorlasa, Alloh uni xorlaydi” mazmunidagi hadislar mazkur fikrlarga isbot bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika T.: Tafakkur bo‘stoni 2013
2. Yuldoshev J. “Ta’lim yangilanish yo‘lida” T.: O‘qituvchi. 2000 yil

3. “Ilk Qadam” Davlat o‘quv dasturi. T. : 2022.
4. O‘zbekirton Respublikasi Ill va Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. T.: 2018.

MEKTEPKE SHEKEMGI SHOLKEMLERDE KITAP OQIW MÁDENIYATI HÁM ONIN TÁSIRI

Z.B.Seytekova - Mektepke shekemgi talim kafedrasi oqitiwshisi
A.Jienbaeva Sh.Bazarbayeva - Mektepke shekemgi talim baǵdarı 2-b kurs talabalari

Tayanish sózler: kitap oqıw mádeniyatı, ruwxıylıq, bilim, tárbiya, oqıwshı, jeke rawajlanıw, oylaw qábileti, til baylıǵı, ruwxıy baylıq, sanlı ásir, oqıw mádeniyatı, kitap tásiri, ruwxıy tınıshlıq, milliy mádeniyat.

Ключевые слова: культура чтения, духовность, знания, воспитание, ученик, личностное развитие, способность к мышлению, словарный запас, духовное богатство, цифровое влияние, культура чтения, влияние книг, духовное спокойствие, национальная культура.

Annotation: This article discusses the culture of reading and its impact on individuals. The culture of reading plays a significant role in gaining knowledge and developing a person’s spiritual world. The article examines how reading influences personal development, expands vocabulary, enhances critical thinking skills, and contributes to spiritual purification. It also highlights the importance of preserving the habit of reading in the era of digital technologies and fostering this culture from early childhood.

Búgingi kúnniń jedellik penen rawajlanıp atırǵan málimleme ásirinde kitap oqıw mádeniyatı insan hám jámiyettiń rawajlanıwında áhmiyetli orın iyeleydi. Kitap - bilim, aqıl, tárbiya hám ruwxıy baylıqtıń deregi. Kitap oqıw arqalı adam tek bilim almaydı, sonıń menen birge dúnyanı tanıydı, ózin rawajlandıradı hám ruwxıy dúnyasın bayıtadı. Kitap oqıw mádeniyatı - bul, insannıń oqıwǵa bolǵan múnásibeti, oqıw mádeniyatı, oqıw dáwirleri hám oqılǵan maǵlıwmatlardı túsinip, onı turmısqa qollay alıw qábileti. Kitap oqıw mádeniyatı balalıq dáwirden payda boladı. Kitap oqıw adamnıń logikalıq oylaw qábiletin, yadta saqlaw qábiletin, til boyınsha sóz baylıǵın hám kórkem ónerge, estetikaǵa bolǵan sezimin arttıradı.

Oqıwshı adam ózin-ózi túsinedi, qızıǵıwshılıq sheńberi keńeyedi, hár bir jańa kitap onı jańa maǵlıwmatlar menen bayıtadı.Búgingi texnologiya ásirinde, internet hám sanlı qurallardıń keń tarqalǵan waqtında kitap oqıw mádeniyatın saqlaw hám rawajlandırıw ushın gúres kerek. Sebebi kópshiligimiz waqtımızdı ekran aldında ótkeremiz, biraq kitap oqıw - ruwxıy tınıshlıq beredi, oyǵa batıradı hám jeke dárejemizdi kóteredi. Kitap oqiwdin insanǵa tásiri:

1. Ruwxıy tásiri: Kitap adamnıń ruwxıy dúnyasın bayıtadı, onı jaqsılıqqa, hadallıqqa, sabırlılıqqa úyretedi.

2. Bilimlilik tásiri: Hár bir oqılǵan kitap jańa bilim, jańa túsinikler beredi. Oqıwshı adam kóp nárseden xabardar boladı.

3. Til boyinsha tásiri: Kitap oqiw til baylıǵın asıradı, durıs sóylew hám jazıw mádeniyatın qáliplestiredi.

4. Psixologiyalıq tásiri: Kitap oqıw tınıshlıq, sabrılıq hám pozitiv pikirlew qábiletin beredi.

Kitap oqıw mádeniyatın qáliplestiriwde ata-analar hám muǵallimlerdiń roli sheksiz. Eger ata-ana ózi kitap oqıp, perzentine órnek bolsa, bala da kitap oqıwdı ádet etedi. Mektep dáwirinde bolsa muǵallimler oqiwshilarda kitap penen islew, oqilgan shiǵarma boyinsha pikir alısıw, talqılaw arqalı sın kózqarastan pikirlewdi rawajlandıradı. Kitap oqiw mádeniyatı - jeke hám jámiyetlik jetilisiwdiń tiykarı. Kitaptı ómiriniń bir bólegi dep bilgen insan hár bir iske juwapkershilik penen qatnas jasaydı, oy-pikiri keń, sózi bay hám ruwxıy jaqtan joqarı boladı.Sonday-aq, kitap oqıw - milliy mádeniyattı, tildi, tariyxtı saqlap qalıwdıń eń nátiyjeli jolı. Kitaplar arqalı biz xalqımızdıń tariyxı, ádebiyatı, úrp-ádetleri, shayır hám jazıwshılardıń dóretiwshiligi menen tanısamız. Bul bolsa jas áwladta milliy maqtanısh, watansúyiwshilik hám ózlikti ańlaw sezimin qáliplestiredi.Búgingi sanlı dáwirde kitap oqıw mádeniyatın rawajlandırıw ushın tómendegi ilajlar áhmiyetli: Kitapqumarlıq kúnleri, ádebiy kesheler shólkemlestiriw;

Mekteplerde "Eń belsendi kitapqumar," "Eń qızıqlı shıǵarma" tańlawların ótkeriw; Elektron kitaplar hám audiokitaplar arqalı oqiw imkaniyatların keńeytiw; Jaslar arasında kitapqumarlıq dógereklerin hám klubların shólkemlestiriw. Bunday baslamalar tek ǵana kitap oqıw ádetin úgit-násiyatlap qoymastan, al jámiyette oqıwǵa qızıǵıwshılıq hám ruwxıy ortalıqtı bekkemleydi.Kitap oqıw mádeniyatı insan turmısınıń ajıralmas bólegine aylanǵanda, jámiyette ruwxıy oyanıw, intellektuallıq rawajlanıw hám mádeniyattıń joqarılawı júz beredi. Kitap oqimaǵan insan ózin bilimnen, tájiriybeden, pikirlew keńliginen ayıradı. Sonıń ushın da hár bir insan óz ómirinde oqıw hám úyreniwdi turaqlı ádetke aylandırıwı zárúr.Kitap oqıw tek bilim alıw quralı emes, al insannıń ruwxıy dúnyasın tárbiyalaydı, pikirin bayıtadı, durıs jol kórsetetuǵın turmıs mektebi bolıp esaplanadı. Ullı oyshıl Áliysher Nawayı da óz shıǵarmalarında ilim hám kitaptıń áhmiyetine úlken itibar qaratqan. Onıń "Ilimsiz adam haywan" degen sózi kitap oqıwdıń qanshelli áhmiyetli ekenin ańlatadı. Sonday-aq, Abdulla Avloniy "Milletti tárbiyalaw - bul milletti saqlaw" degen. Demek, kitap oqıw arqalı insandı tárbiyalaw, jas áwladtı bilimli, pikirlew sheńberi bay insan etip kamalǵa keltiriw - jámiyetti rawajlandırıwǵa xızmet etedi.Búgingi jaslar arasında kitap oqıwǵa bolǵan qızıǵıwshılıqtı arttırıw ushın tek ǵana mektep hám joqarı oqıw orınları emes, al shańaraqlar da belsendi bolıwı kerek. Ata-analar hár kúni perzentleri menen birgelikte oqıw, shıǵarmalar boyınsha sáwbetlesiw, olardıń pikirlerin tıńlaw arqalı oqıwǵa mehir oyatıwı múmkin.Kitap oqıw ádetin qáliplestiriwde milliy qádiriyatlar, xalıq awızeki dóretiwshiligi, ápsana hám ertekler de úlken áhmiyetke iye. Ásirese, balalıqtan baslap kitap oqıwǵa úyretilgen bala keleshekte bilimli, zıyalı, keń dúnyaqarasqa iye insan bolıp jetilisedi.Jámiyette kitapqumarlıqtı rawajlandırıw ushın tómendegi faktorlar áhmiyetli:

Jaslar arasında "Kitapqumarlar háptelikleri"n shólkemlestiriw;

Jazıwshılar, shayırlar menen ushırasıwlar ótkeriw;

Kitapxanalardı zamanagóylestiriw hám olardı jaslar ushın tartımlı orınǵa aylandırıw;

Sociallıq tarmaqlarda kitapqumarlıq háreketlerin úgit-násiyatlaw. Kitap oqıw mádeniyatı - bul xalıqtıń ruwxıy kelbeti, millettiń mádeniy dárejesin joqarı kóteredi. Kitap oqıw mádeniyatı - bul milliy hám ruwxıy mádeniyatımızdıń ajıralmas bólegi. Hár bir adam kitaptı súyip oqıwdı ádet etse, jámiyette bilimli, mádeniyatlı shaxslar kóbeyedi. Sonıń ushın da biz kitap oqıw mádeniyatın balalardıń erte jasınan baslap qáliplestiriwimiz kerek. Kitap oqıw ádetin qáliplestiriw hár bir shańaraq, bilimlendiriw mákemesi hám pútkil jámiyettiń minneti bolıp esaplanadı. Kitap - bul insannıń eń jaqın dostı, ruwxıy baylıq deregi hám millet kelesheginiń kepili.Solay eken, hár birimiz kitap oqıwdı ómirimizdiń ajıralmas bólegine aylandırıwımız, ózimizde hám átirapımızdaǵılarda kitapqumarlıq mádeniyatın qáliplestiriwimiz kerek. Sebebi kitap - mánawiyat aynası, millettiń joqarıǵa jeteklewshi kúshi bolıp esaplanadı.

Paydalanilǵan ádebiyatlar

1. Kitap qumarlıq mádeniyatı. - Tashkent: "Óqituvchi" baspası, 2019.
2. Pedagogika / M. Ochilov tahriri ostida. - Tashkent: Fan va texnologiya, 2020.
3. Uliwma pedagogika / R. Xasanboeva hám basqalar. - Tashkent: Ilm Ziyo, 2018.
4. Balalar ádebiyatı hám kórkem oqıw. - Tashkent: Sharq, 2017.

ZAMANAGÓY BILIMLENDIRIW SISTEMASINDA STEAM TÁLIMINIŃ ÁHMIYETI HÁM NÁTIYJELILIGI

Ulıkpanova.A.K - NMPI Mektepke shekemgi tálim kafedrası oqıtıwshısı

Ermaǵanbetova Muslima - NMPI. Mektepke shekemgi tálim baǵdarı 2 - kurs talabası.,

Jumamuratova Anargul - NMPI. Mektepke shekemgi tálim baǵdarı 2 - kurs talabası

Tayanısh túsinikler: Maktabgacha ta’lim, STEAM ta’limi, texnologiya tajriba, ART.

Ключевые слова: Дошкольное образование, STEAM-образование, технология, опыт, ART.

Keywords: preschool education, STEAM education, technology experience, ART.

Zamanagóy dúnyada ilim hám texnologiyalardıń jedel rawajlanıwı nátiyjesinde bilimlendiriw sistemasında da jańasha qatnasıqlarǵa talap artıp barmaqta. Sol sebepli , STEAM tálimi búgingi kúnde áhmiyetli baǵdarlardan biri esaplanadı. Bul kózqaras balalardı real mashqalalardı sheshiwge úyretiw menen birge, olardıń sın kózqarastan hám dóretiwshilik pikirlew qábiletin rawajlandırıwǵa, anıq pánler, texnologiya, injenerlik, kórkem óner hám matematika pánlerin bir-birine baylanıstırǵan halda alǵan barlıq bilimlerin turmısta qollanıwǵa, oy-pikirin, kózqarasın rawajlandırıwǵa, erkin pikirlewge, jedellikke xızmet etedi.STEAM táliminiń tiykarı bolǵan STEM modeli dáslep 1990-jıllarda AQShta rawajlana baslaǵan. Bul koncepciya ilim hám texnologiya

tarawlarındaǵı bilimlendiriw sistemasın reformalaw hám studentler ámeliy mashqalaların. STEAM Amerikada islep shıǵılǵan bolip pán, texnologiya, injenerlik hám matematika sıyaqlı pánlerdi birlestirip STEM (pán, texnika, injenerlik hám matematika) sisteması sol tárzde qáliplesti. Keyinirek buǵan Art qosıldı hám endi STEAM aqırına toliq qáliplesti.

STEAM bul-S -science, T- technology, E- engineering, A- art hám M-mathematics. Anglichan tilinen ózbek tiline awdarma qilǵanda usınday boladi: ilim-pán, texnologiya, injenerlik, kórkem-óner hám matematika.Science (Pán)-Bul tabiyiy pánler birlespesi bolip bunda tábiyat qubilislari ham qorshaǵan ortaliqtı úyreniwge qaratilǵan bilimler sistemasi bolip esaplanadi.

Technology (Texnologiya)– texnik qurallar menen islesiw, jańa texnologiyalar arqalı modellestiriw, hám proektlestiriw, sol menen bir qatarda jańa robotlar jaratiwdı óz ishine aladı.

Engineering (İnjenerlik)-qurılıs hám konstruksiyalar jaratiw arqalı hár túrli maketlerdi jaratiwdi óz ishine aladi.

Art (Kórkem óner)- tiykarın proektlestiriwdiń dóretiwshilik jantasıwı shólkemlestirilip, bunda eń dáslep shınıǵıw yamasa processtiń prototipi jaratıladı.

Mathematics (Matematika)- esaplaw matematikalıq bilimlerdi ózlestiriw arqalı logikaliq oylaw hám pikirlewin rawajlandiriwǵa qaratilǵan bilimler sisteması bolip tabiladi. STEAM - házirgi kúnde dúnya tálim sistemasınıń eń tiykarǵı innovasiyalıq metodlarınan biri esaplanıp, usı metod járdeminde pánler ayrıqsha tarmaqlarda emes, al integrasiyalasqan jaǵdayda, ulıwma baylanısta kórsetip úyretiledi. Mektepke shekemgi tálimde steam texnologiyasi pániniń waziypası – talabalarga STEAM tálim texnologiyasınan paydalanıw usılların úyretiw, STEAM tálim texnologiyasın tálim-tárbiya processinde qollawda túrli iskerliklerdi integrasiyalaw, mektepke shekemgi jastaǵı balalardı erte izertlewshilik iskerligine tayarlaw wazıypaların orınlaydı. STEAM balalarda mashqalalardı túsiniw, dóretiwshilik hám kritikalıq pikirlew sıyaqlı ózgeshelikler hám kónlikpelerdi rawajlandırıwǵa járdem beredi. Bul bolsa, keleshekte balalarda turmıslıq mashqalalardı sheshiwge járdem beredi.

Шаңарақтың әдеп-икрамлылық, психологиялық жақтан жаңаланыўы узақ, қурамалы, қарама-қарсылықларға байланыслы процесс. Шаңарақлық өзгерислердиң әмелге асыўында социаллық-экономикалық факторлардан тысқары, басқа - биологиялық, психологиялық, демографиялық факторлар да қатнасады. Илимпазлардың пикиринше, адамлар турмысының бирден-бир дурыс жолы шаңарақлық турмыс. Шаңарақ инсан ушын мийнет қәбилетин тиклеў ҳәм дем алыў орны. Сондай-ақ, шаңарақ әҳмийетли тәрбия ошағы да есапланады. Шаңарақта балалар тәрбиясында ата-бабалардан, кемпир-ғаррылардан қалған, мың жыллар даўамында турмыс сынақларынан өткен жақсы дәстүрлер, әдетлер бар.

Педагогика илимлериниң доктори, профессор М. Иномова шаңарақтың төмендеги тәреплерин айрықша ажыратып көрсеткен: бириншиден, шаңарақ өзине тән ҳәм тәкирарланбас тәсирге ийе; екиншиден, шаңарақ бала ушын өзине тән "айна" болып, ата-ананың жеке үлгиси, үлгиси бала тәрбиясында үлкен әҳмийетке ийе; үшиншиден, шаңарақ өзине тән сезимлер әлеминен ибарат болып, онда унамлы ҳәм гейде унамсыз сезимлер жәмленеди; төртиншиден, шаңарақ шараятында балаларда басқаларға қарата тилеклеслик сезимлери де тәрбияланады; бесиншиден, шаңарақтағы турмыслық турмыста баланың қатнасыўы да әдеп-икрамлылық тәрбиясының әҳмийетли фактори есапланады; алтыншыдан, шаңарақ - ерли-зайыплылық, ата-аналық ўазыйпаларын сәўлелендиреди. Ата-ананың бир-бирине болған муҳаббаты балаға тәсир көрсететуғын тийкарғы тәрбиялық факторлардан бирине айланыўы мүмкин. Демек, шаңарақ - тәрбиялық жәмәәт ҳәм ҳеш ким ҳеш қандай жағдайда шаңарақтың ўазыйпасын атқара алмайды. Шаңарақ турмысы көп тәреплеме қатнасықлар менен характерленеди: социал-биологиялық, хожалық-экономикалық, әдеп-икрамлылық, психологиялық. Шаңарақ раўажланыўының ҳәр бир басқышы бир функциясының тамамланыўы, басқасының пайда болыўы,

оның ағзаларының социаллық искерлигиниң өсип барыў көлеми ҳәм характери менен байланыслы.

В.А. Сластенин, И.Ф. Исаев, Е.Н. Исаевлардың пикиринше, шаңарақ жәмийет ҳәм адамларға қатнасы бойынша әҳмийетли жәмийетлик әҳмийетке ийе функцияларды атқарады. Өзбекстанда шаңарақ тәрбиясының миллий өзгешеликлериниң бала шахсына тәсири мектепке шекемги билимлендириў шөлкеминиң орны теңсиз. Балаларды мектепке таярлаўда үйретиў ҳәм анализ жасаў, соның тийкарында жасларды руўхый жақтан раўажландырыў, тәлим-тәрбия нәтийжелилигине ерисиў жоллары изертлеў жумысы шеңберинде системалы үйренилгенлиги теманың актуаллығын белгилейди.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “O’zbekiston Respublikasining xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish” Kontseptsiyasi (2019 yil 29 aprelь) // https://lex.uz/docs/ 4312785.

2. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz. – T.: O’zbekiston, 2017. – 486-b.

3. Komilov T., Abidova S. Milliy axloqiy qadriyatlar va ularning tarbiyaviy ahamiyati. – T.: “Fan”, 2000. – 20-b.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARDA MEDIAKOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHDA O‘QITUVCHI VA OTA-ONANING HAMKORLIGI

Salayeva Muxabbat Saburovna - p.f.d., prof., Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti professori
Rajapbayeva Soxiba Farxod qizi – 2-bosqich magistranti, Urganch davlat pedagogika instituti

Zamonaviy ta’lim tizimida mediakompetentlikni shakllantirish o‘quv jarayonining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Boshlang‘ich ta’lim bosqichidayoq o‘quvchilarda axborotni tanlash, tahlil qilish, baholash va undan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalariga, jumladan, ta’lim tizimiga ham chuqur kirib kelmoqda. Ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlari, mobil qurilmalar kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning kundalik hayotida muhim o‘rin egallab, ularning tafakkuri, dunyoqarashi va xulq-atvoriga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim bosqichidayoq o‘quvchilarda mediakompetentlikni shakllantirish pedagogik jihatdan dolzarb masalaga aylanmoqda.

Shuni ta’kidlash lozimki, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda mediakompetentlikni shakllantirish **faqat maktabdagi darslar bilan chegaralanmaydi,** balki ota-onalar bilan uzviy hamkorlikni ham talab qiladi. O‘qituvchi pedagogik metodlar, media vositalar va xavfsiz muhitni ta’minlasa, ota-ona uy sharoitida qo‘llab-quvvatlash va nazoratni amalga oshiradi. Bu ikki tomonlama yondashuv mediakompetentlikni samarali rivojlantirishning asosiy garovi hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanishicha, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda mediakompetentlikni shakllantirish jarayonida ***o‘qituvchi va ota-onaning hamkorligi*** muhim ahamiyatga ega. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda mediakompetentlikni shakllantirish jarayoni faqat maktab bilan cheklanmay, ota-onalar bilan hamkorlikni talab qiladi. O‘qituvchi va ota-onaning faol ishtiroki mediakompetentlikni rivojlantirishning asosiy omillari hisoblanadi.

O‘qituvchi mediakompetentlikni shakllantirishda quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. ***Ta’lim strategiyasini belgilash –*** media vositalar bilan o‘quv jarayonini boyitadi.

2. ***Interfaol metodlarni qo‘llash –*** mediao‘yinlar, multimedia taqdimotlar, video va slaydlar orqali.

3. ***Axborot xavfsizligini nazorat qilish*** – noto‘g‘ri yoki zararli axborotdan himoya qiladi.

4. ***O‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish*** – yosh, qiziqish va bilim darajasiga mos yondashadi.

1-jadval

O‘qituvchining mediakompetentlikni shakllantirishdagi vazifalari

Vazifa	Tavsifi	Kutiladigan natija
Media ta’lim strategiyasi	Media vositalarni darsga integratsiya qilish	Axborotni samarali tushunish
Interfaol metodlar	Mediao‘yin, guruhli muhokama	Faollik va motivatsiya
Xavfsizlikni nazorat qilish	Noto‘g‘ri axborotdan himoya	Tanqidiy fikrlash rivojlanadi
Individual yondashuv	O‘quvchining qiziqishi va xususiyatiga moslash	Shaxsiy rivojlanish

Ota-onalar mediakompetentlikni shakllantirishda uy muhitida o‘quvchilarga **media bilan xavfsiz va ongli ishlash ko‘nikmalarini o‘rgatadi.** Ularning roli quyidagilardan iborat:

1. ***Nazorat va cheklash*** – zararli media resurslarni chegaralash.

2. ***Qo‘llab-quvvatlash*** – media mashg‘ulotlarda ishtirok etish, bolani rag‘batlantirish.

3. ***Hamkorlik*** – maktab va o‘qituvchi bilan birgalikda media faoliyatini rejalashtirish.

4. ***Namuna bo‘lish*** – o‘zining axborot bilan ishlash odatlari orqali bolaga ta’sir ko‘rsatish.

2-jadval

Ota-onaning mediakompetentlikni shakllantirishdagi vazifalari

Vazifa	Tavsifi	Kutiladigan natija
Nazorat	Zararsiz media tanlash	Media xavfsizligi

Vazifa	Tavsifi	Kutiladigan natija
Qo‘llab-quvvatlash	Mashg‘ulotlarda ishtirok	Qiziqish va motivatsiya
Hamkorlik	Maktab bilan muloqot	O‘quv jarayoni uyg‘unligi
Namuna	O‘zining media xulqi	Tanqidiy fikrlash rivojlanadi

Mediakompetentlikni shakllantirishda o‘qituvchi va ota-onaning o‘zaro bog‘liqligi

O‘qituvchi
↓
Pedagogik yondashuv
↓
O‘quvchi
↑
Media ko‘nikmalar
↑
Ota-ona

Mazkur model o‘qituvchi va ota-onaning mediakompetentlikni shakllantirishdagi hamkorlik tizimini ko‘rsatadi. Bu hamkorlik orqali o‘quvchi media bilan xavfsiz, ongli va samarali ishlashni o‘rganadi.

O‘qituvchi:

1. Mediata’lim metodlarini bilishi;
2. Media vositalardan pedagogik maqsadda foydalanishi;
3. O‘quvchilarni to‘g‘ri yo‘naltirishi lozim.

Ota-onalar esa:

1. Uy sharoitida media nazoratni ta’minlashi;
2. Bolaga xavfsiz foydalanish qoidalarini o‘rgatishi;
3. O‘qituvchi bilan hamkorlik qilishi zarur.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar (7–10 yosh) uchun quyidagi psixologik-pedagogik xususiyatlar xos:

a) Taqlidga moyillik;
b) Tasviriy va vizual axborotni tez qabul qilish;
c) Tanqidiy fikrlashning hali to‘liq shakllanmaganligi;
d) O‘yin faoliyatiga yuqori qiziqish.

Shu sababli mediakompetentlikni shakllantirish:

a) o‘yin texnologiyalari;
b) multimediali materiallar;
c) ertak, rasm va videolar asosida olib borilishi lozim.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, o‘zaro ta’sir jarayonining asosiy elementi endi nafaqat bilim, balki axborot bo‘lib, yangi o‘quv vositasi sifatida kompyuter va tarmoq rol o‘ynaydi. Ushbu pedagogik shart-sharoitlar ta’lim jarayonida pedagogik o‘zaro ta’sir usullari va shakllarini qayta ko‘rib chiqish imkonini beradi hamda turli fanlarini kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga o‘qitishda media vositalari va darsliklarni birgalikda ishlatiladigan takomillashgan shaklni yaratadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. 2022 — 2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2022- yildagi PF-134-son farmoni va uning 1-ilovasi – // Elektron manba.
2. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi: https://lex.uz/docs/
3. Babadjanov S.S. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish texnologiyasi («Informatika va axborot texnologiyalari» o‘quv fani misolida): p.f.b.f.d (PhD) disser.... Toshkent, 2018. – B. 36-37.
4. Mediakultura i obrazovanie: osobennosti vzaimodeystviya i razvitiya. – // https://topuch.ru/referat-mediakuletura-i-sovremennoe-obshestvo/index.html
5. Salayeva M.S. Rajapbayeva S.F. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda mediakompetentlikni shakllantirishning pedagogik tizimi. «Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў» № 6/3. Нөкис — 2025. - 290-296 betlar.

MEKTEPKE SHEKEMGI BILIMLENDIRIW SHÓLKEMLERINDE BAYRAM ERTELIKLERIN SHÓLKEMLESTIRIWDIŃ MAZMUNI

Jumasheva Gulnara NMPI p.f.d., professor
Daniyarova Shaxribanu 2-kurs magistri

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bayram ertaliklarini tashkil etishning muhim shartlari aniqlangan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bayram ertaklarini sahnalashtirishga qaratilgan tayyorgarlik jarayonining asosiy bosqichlarini tahlil qilish, ma`naviy-ahloqiy jihatdan barkamol insonni voyaga etkazish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ular ongiga singdirish vatarbiyalashning nazariy asoslari masalalari ko’rib chiqiladi, yosh avlod shaxsining ma`naviy rivojlanishi tushunchasining mohiyati ochib beriladi. Maqola ma`naviyat va axloqni tarbiyalashga qiziqish ko’rsatish, yosh avlod o’rtasida axloqiy tarbiya samaradorligini oshirish muammosini o’rganishga bag`ishlangan bo’lib, bu o’z xalqi madaniyati bilan tanishish imkoniyatini yaratdi.

Kalit so’zlar. Maktabgacha ta'lim tashkiloti, bayram ertaliklarini tashkil etish, ma’naviy-axloqiy tarbiya, ertaklar, tarbiya, ta’lim.

Mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemlerinde bayram ertelikleri bala ómiriniń eń áhmietli hám quramlı bólegine aylanǵan bolıp, saltanatlılıq, quwanısh hám shadlıq jaǵdayın júzege keltiredi, balalardıń kórkem estetikalıq talǵamın tárbiyalaydı. Mektepke shekemgi jastaǵı balanıń hár tárepleme rawajlanıwında muzıkalıq bayramlardıń ornı oǵada úlken. Solay eken, bayram ertelikleri bala tárbiyasında turmıslıq mashqalalardı saplastırıw, ádep-ikramlılıq tárbiya beriw, ruwxıylıqqa qarsı turıw, balalarda belsendi aqılıy iskerlikke umtılıw hám zárúrlikti oyatıwdı názerde tutadı.

Mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemlerindegi ertelikler hám bayramlar elimizdiń áhmietli waqıyalarına baylanıslı tárizde shólkemlestiriledi. Balalarımız hár qıylı bayramlarǵa baǵıshlanǵan erteńliklerde mámleketimizdiń

áhmietli sáneleri hám bayramları menen tanısıp, tásirler aladı.Bunday erteńliklerde muzıka úlken áhmietke ie. Sebebi, azanǵı waqıtları balalar qosıq aytadı, ayaq oyın oynaydı, balalar saz ásbaplarında atqaradı. Bayram azanǵıları ushın arnawlı scenariyler jazıladı. Scenariylerdiń teması bayram ruwxına jaqın bolıwı, hár qıylı qosıqlar, nama hám qosıqlardan ibarat bolıwı kerek. Demek, bayram erteliklerindaǵı scenariy hár qıylı bolıwı kerek. Tańlanatuǵın scenariydin mazmuni bayram mazmuni menen tıgız baylanıslı boliwi kerek. Bayramlardan tısqarı mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemlerinde xoshlasıw kesheleri de shólkemlestiriledi. Onda tiykarınan, tayarlaw toparlarınıń tárbiyalanıwshıları qatnasıp, olar Mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemi menen xoshlasıp mektepke jollama aladı. Bayram azanǵılarınıń scenariyi muzıkalı fon astında kórsetiledi. Sonıń ushın muzika basshısı hám tárbiyashı hár bir hádiyse hám procesler ushın sáykes keletuǵın muzika úlgilerin tańlawı júdá áhmiyetli esaplanadı.

Bunnan tısqarı keshe ótkeriletuǵın zallardı da bayram keypiyatına say úskenelew zárúr. Muzika sabaqlarında hám tárbiyashi tárepinen úyrenilgen qosıq, ayaq oyın, oyın hám áhmiyetli sáneler ótkeriletuǵın azanǵı kúnlerde atqarıladı. Mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemlerinde tiykarınan sánelerge baǵıshlanǵan erteńliklerge rejeli túrde tayarlıq kórilip barıladı: Jańa jıl, Xalıqaralıq hayal-qızlar kúni hám tayarlaw toparı tárbiyalanıwshıların mektepke shıǵarıp salıw bayram erteńlikleri. Bul bayram azanǵıların balalar asıǵıslıq penen kútedi.

Bayram kúni balalar ushin eń quwanishli minutlarga aylanıwı kóbirek azanǵi ssenariyadagi qosıq, muzika, ayaq oyin, oyın hám muzika procesleri ssenariydin puqta tayarlanıwına baylanıslı. Bul scenariy mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemindegi barlıq topar balalarınıń bir jámáát bolıp birlesiwine úlken járdem beredi. Ertelikte ata-analar da qatnasıwı sebepli balalar olardıń aldında óz shıǵıwların joqarı dárejede atqarıwǵa umtıladı. Ulıwma etip aytqanda, muzıka tárbiyasınıń mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemi tárbiyashıları menen birgelikte bayramnan bayramǵa shekem alıp barılǵan ulıwma jumısınıń juwmaǵı hám esabatı sıpatında úlken áhmietke ie. Muzika sabaqları hám tárbiyashı tárepinen úyretilgen hám úyrenilgen qosıq, ayaq oyın, oyın hám belgili sánelerge ótkeriletuǵın azanǵi dem alıwlarda atqarıladı.

Mektepke shekemgi jasta sezimtallıqtıń rawajlanıwı tiykarınan sezimlik bahalawǵa tiykarlanǵan balalarda muzıkaǵa unamlı múnásibettiń payda bolıwına alıp keledi. Oylaw hám qıyal procesleri járdeminde júzege keletuǵın sezim-bahalaw qatnasıǵı áste-aqırın jetilisip baradı, bul bolsa balanıń muzıkalıq-estetikalıq sanasınıń qáliplesiwiniń kórinisinde kórinedi. Muzika kórkem óneriniń joqarı kórkem shıǵarmaların ańlawda intonaciya tájiriybesin toplaw hám sezim tásirsheńligin rawajlandırıw balalar muzika mádeniyatın qáliplestiriwdiń zárúr shárti esaplanadı. Tájiriybelerdiń bul bahalı nátiyjesi, óz gezeginde, balalarda muzıkaǵa unamlı sezimlik hám bahalaw múnásibetin qáliplestiriw ushın tiykar bolıp esaplanadı.

Balanıń sezimlerin, qızıǵıwshılıqların, oy-pikirin, kóz aldına keltiriwin, talǵamın rawajlandırıp, biz onıń muzıkalıq-estetikalıq sanasın hám ulıwma

muzıkalıq mádeniyatınıń tiykarların qáliplestiremiz. Muzikalıq mádeniyattı keyingi iyelew ushin mektepke shekemgi jas dáwiri júdá áhmiyetli. Áyne balalıqta gózzallıq normaları qáliplesedi, bul balalardıń muzıkalıq hám uliwma rawajlanıwı kóp tárepleme baylanıslı.

Paydalanílǵan ádebiyatlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent. 2020, 23.09. 40 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2019 yil 14 dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. SQ-556-III-son qarori.
3. B.Boltayev va J.A. Xodjayevlar tomonidan "Maktabgacaha ta'lim tashkilotlarida musiqa tarbiyasi". T.:2015.

KICHIK MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI SENSOR TARBIYALASHDA M. MONTESSORI METODIKASINI QO'LLASHNING AHAMIYATI

Jumasheva Gulnara Xamidullaevna - p.f.d., professor,
Bayımbetova Manzura Salamat qızı - Ajiniyoz nomidagi NDPI 1-kurs magistri

Ключевые слова: дошкольное образования; направление образования; социально-экономические условия; дети младшего дошкольного возраста; сенсорное развитие; занятие; инновационный подход.

Tayansh so'zlar: maktabgacha ta'lim; ta'lim sohasi; ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar; kichik maktabgacha yoshdagi bolalar; sensor rivojlanish; mashgulot; innovatsion yondoshuv.

Key words: preschool education; educational sphere; socio-economic conditions; younger preschool children; sensory development; training; innovative approach.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalar uchun quvonch, shodlik taraqatuvchi maskan bo'lishi lozim. Kichkintoylar bu erga hatto dam olish kunlari ham kelishga intilishi lozim. M. Montessori pedagogikasi asosida yaratilgan muhit bunga misol bo'la oladi. YAxshi yaratilgan bunday psixologik muhitda bola o'zini o'z uyidek tutadi, mustaqillik va barcha muammolardan holi bo'ladi. MMTda jazoga yo'l qo'yish mumkin emas. Bu erda asosiy narsa- bu bolalarning o'z yutuqlaridir. MTMda bolalar yaratilgan qulaylik natijasida bolalar sog'lom faoliyat yuritadilar. Imkon qadar har bir guruhda M. Montessori pedagogikasi asosida bolalar uchun ijodiy rivojlantiruvchi muhit yaratilishi lozim. Bunday muhitda kundalik ish faoliyati davomida bolalar o'zlarini erkin tutishlari, bir-biriga nisbatan hurmat, muhabbat, o'zaro yordam berish kabi insonparvarlik tuyg'ularini shakllantiruvchi fikrlar vositasida hayotiy faollikka erishadilar va o'zqiziqishlari asosida taraqqiy etib boradilar. Ish faoliyati davomida turli tajribadan o'tkazilgan mualliflik uslublarini va texnologiyalarni qo'llash mumkin. Bolalarni taraqqiy etishiga

yordam beradigan, ularni o‘ylashga, ijod qilishga yordam beradigan barcha noyob narsalardan foydalaniladi. Rahbarlarning asosiy vazifasi-bolalar uchun qulay sharoit yaratib berishdir.

Guruhlarda turli yoshdagi bolalar bolalar tarbiyalanishadi. Bu bolalarning imkoniyatlari turlicha, mijozlari turlicha, ularning orasida «alohida bolalar» ham bo‘lishi mumkin. Kattalar va bolalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar oiladagi munosabatlarga o‘xshashi: kattalar kichiklarga yordam berishi, tajriba almashishi, kichiklar kattalardan o‘rganishi lozim. Nima bilan shug‘ullanishni esa muhitning o‘zi yordam beradi. Bu muhit bolalarda u yoki bu mustaqil faoliyat bilan shug‘ullanishni, turli-tuman ta’limiy o‘yinlar va M. Montessori jihozlarini tanlash imkoniyatini yaratadi. Bola o‘zini o‘rab turgan atrof-olamni tahlil qiladi va uning atrofida ularni o‘rganish uchun: munchoqlar, bankachalar, jadvallar, xumchalar va patnislar kabi turli tuman narsalardan foydalanadi.

Har bir bola erkin holda ko‘ngli xohlagan narsalarni tanlashi, ular bilan xohlaganicha ishlashi mumkin. M. Montessori uslubiga ko‘ra ijodiy rivojlantiruvchi muhit: maxsus jihozlangan xona, shakllangan bolalar guruhi, rivojlantiruvchi jihozlar, malakali tarbiyachidan iborat. Har bir burchak mini muhitni jihozlashda uning har bir mayda- chuydasi ham o‘ylab chiqilishi va u bolaning har taraflama taraqqiy etishiga ta’sir ko‘rsatishi lozim.

Har bir xonaning maydoni shartli ravishda quyidagi mini-muhitga ajratish mumkin. Ular:

- amaliyotda tajriba o‘tkazish mini-muhiti;
- sensor rivojlanish mini-muhiti;
- nutqo‘stirish, savod va o‘qishga tayyorlash va o‘rgatish mini- muhiti;
- matematika mini-muhiti;
- sahnalashtirish mini-muhiti;
- o‘ynash mini-muhiti;
- ijodiy ustaxona mini-muhiti va boshqalar.

Hamma jihozlar bolaning yoshiga mos va olishiga qulay va ochiq joyda, patnislarda joylashgan bo‘lishi, bola uni osonlikcha ko‘ra olish va unda qiziqish uyg‘otgan narsani tanlab olish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. Agar u birorta narsani birinchi marta olayotgan bo‘lsa, bu narsa bilan tajriba o‘tkazib ko‘rishi yoki kattalarga yordam so‘rab murojaat qilishi, bu nima va qanday qilib bu narsa yoki jihoz bilan nimalar qilish mumkinligini bilib olishi imkoniyatiga ega bo‘lsin. Stol va stullar har bir bolaning yoshiga mos tanlanadi.

Shuni ta’kidlash lozimki, bolalarning o‘zlari tashkiliy ishlarning qatnashchilari bo‘lishi va xonani jihozlashlari mumkin. Ular xatto mebellarning o‘z xohishlaricha joyini o‘zgartirishlari mumkin. Bugun stollar «yulduzcha» shaklida joylashtirilgan bo‘lsa, ertasiga aylana shaklida joylashtirish mumkin. Kirishdagi devorlar bolalarning o‘zlarining ishlari bilan jihozlanishi-imkon qadar bolalar o‘zlarining ishlarini o‘zlari qilishlari lozim. Mebellarning joylashtirilishi bolaga alohida o‘ynashga va mustaqil ishlashi uchun qulay bo‘lishi lozim. Har bir bolaning o‘zining alohida gilamchasi mavjud bo‘lib(shaxsiy masofa modeli) va unga bolaning ruxsati bilangina boshqa bola joylashishi mumkin.

M.Montessori pedagogikasi ijodiy fikrning jamlanishini tezlashtiradi va ma’naviy charchoq davrida unga yordam beradi. Biz tomondan yaratilgan rivojlantiruvchi muhitning ajralib turadigan tomoni-bu uning estetik jihatidan talabga javob berishidir. Biz imkon qadar bolalar uchun mo‘ljallangan jihozlar yorqin, tabiiy ranglarda bo‘lishi, bu jihozlar yoshlikdan bolada chiroyli narsalarga muhabbat uyg‘otishi, badiiy didlarini taraqqiy ettirib borishi lozim. Chiroy ko‘rkamlikda emas, balki rang va tasvirlarning uyg‘unligida, tartiblikda va to‘g‘ri joylashtira bilishdadir. Atrofimizda yaratilgan barcha shart- sharoit – xonani jihozlashdan tortib to tarbiyachining tashqi ko‘rinishigacha – bolani tarbiyalaydi.

Amaliyotda tajriba o‘tkazish mini-muhitida mebellarni yuvish uchun lozim bo‘ladigan jihozlar: idish- tovoqlar, o‘simliklar, gullar to‘plami va boshqa jihozlar mavjud bo‘lishi lozim. Bu muhitda bola o‘zi to‘g‘risida, atrofidagi odamlar to‘g‘risida, o‘zi yashayotgan, o‘ynayotgan narsalar to‘g‘risida o‘ylashga o‘rganadi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, bu tajribalar bolalarga quvonch bag‘ishlabgina qolmasdan, balki ularning malaka va qobiliyatlarini taraqqiy ettiradi-shuningdek matematik tasavvurlarni kengaytiradi, izlanuvchanlik va nutqiy malakalarini ham oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni. 2017 yil 30 sentyabr, PF-5198-son.

2. O’zbekstan Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Nizami. Tashkent. 2020. 23.09.

3. Shayxova X. Intellektual salohiyat – taraqqiyot mezoni. – T.: O’zbekiston, 2011 y. -112 b.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARGA O’YIN ORQALI TA’LIM BERISHNING PEDAGOGIK MUAMMOLARI

Jumasheva G. X. - p.f.d., professor, Maktabgacha ta’lim kafedrasi mudiri
Jenisova A.M. - 2-kurs magistri Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayansh so’zlar: maktabgacha ta’lim tashkilot, tarbiyalanuvchilar, pedagogik diagnostika, faoliyat, aqliy rivojlanish, pedagogik-psixologik tekshirish, rivojlanish.

Ключевые слова: дошкольная образовательная организация, воспитанники, педагогическая диагностика, активность, психическое развитие, педагогико-психологическое обследование, развитие.

Key words: preschool educational organization, pupils, pedagogical diagnostics, activity, mental development, pedagogical and psychological examination, development.

O’yin qadim zamonlardan beri pedagog, psixolog, faylasuf, etnograf, san`atshunos olimlar diqqatini o’ziga tortib kelgan bo’lib, jamiyat hayotida mehnatdan keyin turadi va uning mazmunini belgilaydi. Ibtidoiy jamoa qabilalari o’z o’yinlarida ovchilik, urush, dexqonchilik ishlarini aks ettirganlar. Masalan, o’sha

davrdagi ba`zi qabilalarning sholi sepish jarayoni o'yinlar bilan juda katta tantana qilib amalga oshirilar edi. YA.A.Komenskiy, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, P.F.Lestgaflarning g'oyalari hozirgi zamon bolalar o'yinlari nazariyasi uchun ham ahamiyatlidir. «Bolalar o'yini ko'p asrlik tarixga ega– deb yozgan edi K.D.Ushinskiy, - insonning o'zi tomonidan ishlab chiqilgan qudratli tarbiyaviy vosita va shuning uchun ham unda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan». Bola o'yinda o'zining bevosita ehtiyoj va qiziqishlaridan kelib chiqadi. Bolalarning o'yinlari o'zining rang-barangligi bilan ajralib turadi. O'yino'z mazmuni va tashkil etilishi, bolalarga ta'sir ko'rsatish darajasi, buyumlaming turlari hamda kelib chiqishiga ko'ra ijodiy va qoidali o'yinlarga bo'linadi. Ijodiy o'yinlar-bolalarning mustaqil, ijodiy, o'zlari o'ylab chiqqan O'yin, majmuyi. P.F.Lestgaft bolalar o'z o'yinlarida tevarak-atrofdan olgan tasurotlarini aks ettiradilar, deydi. Bunday faoliyat bolaning rivojlanishida katta ahamiyatga egadir. SHunday qilib o'yinning ijtimoiy voqea ekanligini, o'yinda tevarak-atrofdagi borliq aks ettirilishini ilg'or olim va pedagoglar o'zlarining kuzatish va ilmiy tadqiqotlari orqali isbotlab berdilar. Tarbiyachilar bolalar o'yiniga rahbarlik qilishda quyidagilarga rioya qilishi lozim.

1. O'yin bilan mehnat o'rtasida to'g'ri munosabat o'rnatish

2. O'yinda bolalarning bo'lajak mehnat axliga xos bo'lgan jismoniy va ruhiy sifatlarini tarbiyalash. Shu tariqa o'yin tarixiy taraqqiyot jarayonida mehnat faoliyati natijasida paydo bo'lgan ijtimoiy faoliyatdir; o'yin doimo haqiqiy hayotni aks ettiradi. Demak, ijtimoiy hayot o'zgarishi bilan uning mazmuni ham o'zgaradi; o'yin ma`lum maqsadga yo'naltirilgan ongli faoliyat bo'lib, uning mehnat bilan ko'p umumiyligi bor va yoshlarni mehnatga tayyorlashga hizmat qiladi. O'yin faoliyati asosida boladagi o'quv faoliyati rivojlanadi, bola qanchalik yaxshi o'ynasa, u maktabda shunchalik yaxshi o'qiydi. Ilk yoshli bolalar o'yin faoliyatining birinchi bosqichi tanishtiruvchi o'yin bo'lib, u narsa-buyum-o'yin faoliyatidir. Uning mazmuni qo'l ishidagi murakkab va nozik harakatlardir. Keyingi bosqich aks ettirish o'yini hisoblanadi. Bu ilk yoshli bolalar o'yini psixologik mazmunining rivojlanishida eng yuqori nuqta hisoblanadi. Kattalar ta`lim-tarbiyaviy ishlarini ma`lum izchillik bilan olib borsalar, bu yoshdagi bolalar narsa va buyumlar nomini, nimaga ishlatilishini bilib oladilar va bu yangi bilimlarni o'z o'yinlarida qo'llay boshlaydilar.

Bu yoshdagi bolalar o'yini mazmuni jihatidan predmetli faoliyatni aks ettiradi. Birinchi yoshning oxiri va ikkinchi yoshdagi bolalar o'yinida syujetni aks ettirish yuzaga keladi. Bola qo'lidagi buyum bilan undan qanday foydalanish keraqligini aks ettiradi. Navbatdagi bosqich rolli o'yin bo'lib, unda bolalar o'zlariga tanish bo'lgan kattalar mehnati va qishilarning ijtimoiy munosabatilarini aks ettiradilar. Bolalar o'yin faoliyatining bosqichma-bosqich rivojlanishi to'g'risidagi ilmiy tasavvurlar har xil yosh guruhlarida bolalarning o'yin faoliyatiga rahbarlikning aniq sistemali tavsiyalarni ishlab chiqish imkoniyatini yaratdi. Shunday qilib MTMning pedagogik jarayonda o'yinning tutgan o'rni juda katta bo'lib, o'yindan maktabgacha yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta`lim berishda keng foydalaniladi. Zero:

- o'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo'ladi;
- o'yin maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar hayotini tashqil etish shaklidir;

• o’yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir;
• o’yin bolalarga ta`lim va tarbiya berishning metod va usulidir;
• o’yin bolalarni o’quv faoliyatiga tayyorlash vositasidir.
• aniqli pedagog-olimlarning olib borgan tadqiqotlari o’yinga kompleks rahbarlik qilish orqali bolalarga o’yinning mazmuni, tashqil etilishi, tuzilishi, bolalarning axloqiy munosabatlari, bolalar o’yinining rivojlanish darajasiga ta`sir etish mumkinligini ko’rsatdi.
• Bolalar o’yini uning mazmuni, xususiyati, tashkil etilishiga ko’ra xilma-xildir.
• Ijodiy o’yinlarni bolalar o’zlari o’ylab topishadi. Unda oldindan belgilangan qoidalar bo’lmaydi. O’yin qoidasini bolalar o’zlari o’yin jarayonida belgilashadi.
• Qoidali o’yinlarning mazmuni va qoidasi kattalar tomonidan belgilanadi. Qoidali o’yinlarga quyidagilar kiradi: didaktik o’yinlar, harakatli o’yinlar, musiqaviy o’yinlar, ermak o’yinlar.
• Bolalarga ta`lim-tarbiya berish maqsadida kattalarning o’yinni tanlay bilishi, unga to’g’ri rahbarlik qilish “MTM ta`lim va tarbiya dasturi”da belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta`minlaydi.
• O’yin bolalarni rivojlantirish va tarbiyalash vositasidir. Psixologlar o’yinni maktabgacha yosh davrida etakchi faoliyat deb hisoblaydilar. O’yin tufayli bolaning yuqori rivojlanish bosqichiga o’tishini ta`minlovchi sifatlar shakllanadi, uni ruhiyatida sezilarli o’zgarishlar yuz beradi.
• O’yinda bola shaxsining hamma tomoni bir-biriga o’zaro ta`sir etgan holda shakllanadi. O’ynayotgan bolani kuzatayotib uning qiziqishlarini, tevarak-atrof to’g’risidagi tasavvurini, kattalarga va o’rtoqlariga bo’lgan munosabatini bilib olish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risida”gi Qonuni 6.12.2019 y. O’RQ-595-son.
2. Коменский Я.А. Избр.пед.соч. Т. I.-М.: - С. 207.
3. Ушинский К.Д. Избр.пед.соч./ Под ред. А.И.Пискунова, Г.С.Костюка и др. –Москва, 1974, -Т.1, -147 с.
4. Макаренко. О воспитании. -М.: Политиздат. 1990.

XALQ OG‘ZAKI IJODI VOSITASIDA MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNING KOGNITIV QIZIQISHLARI VA NUTQ FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMOLARI

Babaeva Dona Razzakovna – Nizomiy nomidagi O’zMPU, p.f.n., professor,
Dastanova Juldız Talgatovna – Ajiniyoz nomidagi NDPI 1-kurs magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kognitiv qiziqishlari va nutq faolligini rivojlantirishning nazariy asoslari, bolaning nutqiy qobiliyatini, kognitiv qiziqishlarini rivojlantirishda mutafakkirlarning pedagogik-psixologik qarashlari, pedagogik muammo sifatida ekanligi o‘rganib chiqilgan.

Shuningdek ilmiy metodik ta’minot ishlab chiqib va amaliyotga tadbiq etish o‘rganiladi va katta guruh bolalarining kognitiv qiziqishlarini rivojlantirish metodlarini takomillashtirish ishning predmetini tashkil qiladi.

Аннотация: В данной статье изучены теоретические основы развития познавательных интересов и речевой деятельности дошкольников, педагогико-психологические взгляды мыслителей на развитие речевых способностей и познавательных интересов детей, как педагогическую проблему. Также разрабатывается и применяется на практике научно-методическое обеспечение и совершенствование методов развития познавательных интересов детей в старшей группе.

Annotation: This article examines the theoretical foundations of the development of cognitive interests and speech activity of older preschool children, the pedagogical and psychological views of thinkers on the development of children's speech abilities and cognitive interests, as a pedagogical problem. It also studies the development of scientific methodological support and its application in practice, the improvement of methods for the development of cognitive interests of children in the senior group.

Maktabgacha ta‘lim sohasi uzluksiz ta‘lim tizimining dastlabki bo‘g‘ni bo‘lishi bilan birga keyingi ta‘lim tizimida, bolani maktabga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda bu ta‘lim sohasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi bejiz emas. Bu borada davlatimiz tomonidan qabul qilingan qator farmon,qaror va farmoyishlar maktabgacha ta‘lim tizimini tubdan isloh qilishga yo‘naltirilganligi barchaning e‘tiboridadir. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi 2023 yil aprel oyida ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi tashkil etilib, maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining ta’lim mazmunini belgilovchi (ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari va darsliklarga oid) qator vakolatlari shu markazga o‘tkazilgan edi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda bu markaz ta’lim sohasidagi vakolatli davlat organlari qatorida aks etirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining - Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida‖ 2019 yil 3 maydagi PQ–4307-son qaroriga muvofiq yoshlarni mustaqil hayotga kafolatli tayyorlash, tarbiyaning homiladorlik davridan boshlanib, 18 yoshigacha davom etadigan, tadrijiylik va uzluksizligiga asoslangan metodikani ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish, yoshlarni shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirish, dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash vazifasi qo‘yilgan[1.12.]. “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni maktabgacha ta’limga qamrab olishni 81% ga yetkazish, bolalarga sifatli ta’lim berish asosida ularning intellektual salohiyatini oshirish, xalqaro maydonda munosib o‘rin egallashi uchun sharoit yaratish” ustuvor vazifa etib belgilangan. Natijada xalq og‘zaki ijodi vositasida bolalarning kognitiv va nutq faolligini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari kengayadi. Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan qoraqalpoq tili xalqimiz uchun milliy o‘zlik va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma’naviy boylik mamlakatimizning siyosiy va ijtimoiy, madaniy-ma’rifiy taraqqiyotida g‘oyat muhim o‘rin egallab kelayotgan buyuk qadriyatdir. Har kim o‘z tilini yaxshi bilishi uchun xalq og‘zaki ijodi namunalariga murojaat qilsa, undagi mohiyatni anglasa, albatta, maqsadga

muvofiq bo‘ladi. Chunki xalq og‘zaki ijodi janrlarida xalqimizning o‘zi boshidan o‘tkazgan, hayot sinovida sinalgan, tajriba namunalari sanalib, unda hayotning turli xil vaziyatlari va ularning yechimlari xususidagi qarashlar jamlangan[2.5]. Dono xalqimiz tomonidan yaratilgan maqol, ertak, rivoyat va hikoyatlarda ham tilimizdan keladigan foyda va zararlar, yaxshilik va yomonliklar talqin qilib berilgan. Tilni keng imkoniyatidan to‘g‘ri foydalanish haqidagi ibratlar jamlanmasi jamlangandir. Shu imkoniyatlardan to‘g‘ri va maqsadli foydalanishni o‘rgatish esa nutq madaniyatini fanining vazifasidir. Nutq madaniyati tilni imkoniyatidan imkon darajasida oqilona va mohirlik bilan foydalanishdir.

Xalq og‘zaki ijodi janrlaridan hisoblangan maqollarda ham ayni shu haqida juda kerakli fikrlar berilgan. Maqollar - bu xalqning donoligi, millatning ruhini ko‘rsatadigan xalq og‘zaki ijodining gavharidir. Maqollar - bu xalq tajribasi, uning nafasi, yig‘isi, shodligi va sevinchi, qayg‘usi va ovunchi, xalq haqiqati uni to‘g‘ri yo‘lga eltuvchi mayoqdir

Maqol fikrlarni ixcham, lo‘nda aniq mantiqli ta’sirchan tarzda o‘zida qamrab olganligi bilan oson o‘zlashadi, xotirada saqlanadi. Ana shu omil asosida xalq og‘zaki ijodi janri sifatida shakllanishi, qo‘llanishi imkonyatlari ta’minlanadi.U fikr ifodalashning oson va qulay, ta’sirchan vositasi sifatida keyinchalik og‘zaki nutqdan yozma adabiyotga ko‘cha boshlagan. Kishi har bir so‘zini o‘ylab, ehtiyot bo‘lib gapirishi kerak. Shu bois ayrim xalq maqollarida biror gapni aytishdan avval uni obdon o‘ylab, atroflicha mulohaza qilib olish zarurligi uqtiriladi.

Bolalarga xalq og‘zaki ijodi na’munalari orqali milliy qadriyatlarni singdirish masalalari mustaqil O‘zbekistonimizda shitob bilan rivojlanmoqda. Bir qator o‘zbek olimlari: M. Jo‘raev, S. Ochilov, O. Safarov, U. Mahkamov kabi olimlar xalq og‘zaki ijodidan foydalanish orqali yoshlarda kognitiv qiziqishlari va nutq faolligini shakllantirish masalalariga e'tibor qaratmoqdalar. Xalq og‘zaki ijodi namunalarida komil inson g‘oyasi, ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalashda kuchli vosita bo‘lib xizmat qiladi. Buyuk entsiklopedist-olimlar: Ibn Sino, Beruniy, Forobiy, Navoiy kabi mutafakkirlarning komil insonni tarbiyalash haqidagi fikrlari ham qaysidir bir ma'noda xalq og‘zaki ijodi namunalarida ilgari surilgan g‘oyalar asosida vujudga kelgan va jamiyat taraqqiyotiga yangi ma’naviy imkoniyatlar izlash maqsadlari bilan bog‘langan. Forobiy fozil shahar aholisi haqidagi g‘oyalarini ilgari surar ekan, shaxsning ma’anviy kamolotini adolatli jamiyat qurishning asosiy sharti deb hisoblagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2019-yil 3-maydagi PQ–4307-son qaroriga ilova O‘zbekiston Respublikasining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni oshirishni yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-to'g'risida"gi qaroriga

2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning turli ma’ruzalarida, xususan, “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonunning 33 yilligi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqlari

3. "Ilk qadam". Davlat o'quv dasturi. Toshkent 2018.

4. Qodirova F., Toshpo‘latova Sh., Qayumova N, A’zamova M. Maktabgacha pedagogika.-T.: Tafakkur nashriyoti, 2019.

O‘ZBEK MA’RIFATCHILIGI RIVOJIDA JADIDLARNING O‘RNI

Jalilova Sevinch Muhiddin qizi. Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika inistituti 2-boshich tarix mutaxasisligi talabasi

Shavkat Mirziyoev: “Jadidlar g’oyasi — Yangi O’zbekiston strategiyasi bilan har tomonlama uyg’un va hamohang”

Annotatsiya. Ushbu maqolada Markaziy Osiyodagi jadidchilik harakati konseptual tahlilga tortiladi. Jadid ma’rifatparvarlari publitsistikasida ularning Turkistonda ijtimoiy vokelikni yangilash uchun kurashi, ayniqsa, yaqqol o‘z aksini topgan bo‘lib, mazkur makolada jadidlar publitsistikasiga alohida e’tibor qaratiladi. Zero, Markaziy Osiyodagi ma’rifatparvarlik harakatining butun tarixi publitsistikasiz o‘z mazmunini yo‘qotgan bo‘lur edi.

Kalit so‘zlari: jadidchilik; madaniyat; publitsistika; intellektual va ma’naviy mavjudlik, estetik xarakteristika; ma’naviy hayot, mafkura; ma’rifiy konsepsiya; tarbiya.

Jadidlar g’oyasi — Yangi O’zbekiston strategiyasi bilan har tomonlama uyg’un va hamohang. Bu haqda Shavkat Mirziyoev 2023 yil 22 dekabr kuni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi yig’ilishida aytib o’tdi. “Mamlakatimiz o’z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g’arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur”, “Ma’rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo’lib xizmat qilishi tabiiy. Bu kimgadir yoqadimi yoki yo’qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko’rsatib bergan yo’ldan og’ishmay borishi kerak. Chunki ularning g’oya va dasturlari Yangi O’zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg’un va hamohangdir”, — dedi prezident.

Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o‘zbeklar madaniyatida intellektual va ma’naviy hodisa bo‘lgan jadidchilik hozirgi davrda alohida va maxsus tarixiy-madaniy, falsafiy-axloqiy va konseptual harakteristika talab etadi. Sho‘rolar davlati tarixchilari, faylasuflari, adabiyotshunoslari jadidchilikni reaksion ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida baholadilar. Taniqli davlat arbobi, olim, akademik B. G‘. G‘afurov o‘zining "Tojik xalqi tarixi" ("История Таджикского народа ") nomli asarining dastlabki ruscha nashrida (Москва: "Наука, 1949), mazkur asarga atoqli sharqshunos olim I. S. Braginskiy mas’ul muharrirlik qilgan, shunday yozadi: "jadidchilik hech qachon mutaraqqiy harakterga ega bo‘lmagan, u hech qachon milliy-ozodlik harakati tusini olmagan. Jadidchilik Markaziy Osiyoda xalqqa qarshi, burjua-millatchi, aksilinkilobiy harakat bo‘lgan.

Diniy fanatizm tuyg‘ularini qo‘zg‘atib, bir millat mehnatkashlarini boshqasiga karshi gijgijlab, jadidlar ushbu millatlarning va buyuk rus xalqining umumiy

zolimlarga qarshi birgalikdagi inkilobiy kurashiga ulkan ziyon etkazdilar". I.S.Braginskiy o‘zining Sadriddin Ayniyning ijodi tahliliga bag‘ishlangan "Из истории персидско-таджикской литературы" asarida yozadiki: "Ayniy o‘shanda jiddiy xatolikka yo‘l qo‘ydi: o‘zning ma’rifatparvarlik faoliyatini u jadidchilik harakti bilan bog‘ladi" . Jadidchilik va jadidlar masalasida akademik Z. Sh. Radjabov ham yanada keskinroq fikr bildiradi . O‘zbekiston olimlari jadidchilik harakatini yagona va yaxlit harakat sifatida qarab, ularning ijodini jadidlar yashagan o‘sha real tarixiy voqelik bilan chambarchas bog‘ladilar. Arab, Eron va Turk dunyosida ma’rifatparvarlik qanday vazifani bajargan bo‘lsa, Markaziy Osiyoda jadidchilik ham mohiyatan aynan shunday tarixiy vazifani bajardi. Misrda, Turkiyada, Eronda, Hindistonda qudratli ma’rifatparvarlik harakati shakllandiki, bu Markaziy Osiyo shaharlaridagi jadidchilik harakatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning Misrda, Abdurauf Fitratning Turkiya, Eron va Rossiyada, Mirza Sirojning Evropada va boshqa yerlarda bo‘lishi jadidlarning intellektual va tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ko‘maklashdi. Jadidlar Markaziy Osiyoda hayotning barcha jabhalarida o‘zgarishlar uchun yetilgan ijtimoiy ehtiyojni o‘tkir his eta boshladilar. Zero, jadidlar tomonidan ko‘tarilgan masalalar Markaziy Osiyoda hayotning barcha sohalariga daxl qilganligi bejiz emas. Ular O‘rta asr ijtimoiy munosabatlarini qoralab chiqdilar, ijtimoiy taraqqiyot va insonlar hayotini sivilizatsiya me’yorlariga mos ravishda yangilash g‘oyalarini targ‘ib qildilar. Yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash muammolari jadidlar dasturida ustuvor o‘rin egalladi. Ular ta’lim tizimini isloh qilishga intildilar, o‘qitishning yevropacha shakldagi yangi usullariga ega yangi maktablarning tashabbuskori va tashkilotchilari sifatida bo‘y ko‘rsatdilar. O‘zlari darsliklar yozdilar, ta’lim dasturlarini tuzdilar, madaniy-ma’rifiy muassasalar tarmog‘ini yaratdilar, turk va fors tillarida gazeta, jurnal, kitoblar chop etdilar va tarqatdilar. Agar jadidlar faoliyatiga ijtimoiy va gumanitar nuqtai nazardan yondashilsa, ularning faoliyati yaxlit holda ma’rifatparvarlik xarakteriga ega ekanligini qayd qilish mumkin.

Jadidlar, jumladan, Ahmad Donish juda katta qalb iztirobi bilan o‘z o‘lkalarining qoloqligi hamda hokimiyat vakillari tomonidan jamiyat bosh-qaruvining mustabid (zulmkor) xarakteri xususida yoza boshladilar, hokimiyatning jabr-zulmi va o‘zboshimchaligini, ruhoniylarning munofiqligi va mutaassibligini, sudxo‘rlarning ochko‘zligini tanqid ostiga oldilar. Jadidlar chukur idrok etgan holda o‘z o‘lkalarining mustaqilligi, xalqlarning ozodligi, til va madaniyat ravnaqi va boshka masalalarni keskin kun tartibiga qo‘ydilar.

Markaziy Osiyoda jadidchilikning vujudga kelishi va shakllanishiga tashqi ta’sirlar xususida gap ketganda, qayd etish joizki, odatda, sho‘rolar davrida tadqiqotchilar rus ijtimoiy fikrining ta’sirini bo‘rttirib ko‘rsatdilar, aniqrog‘i mutlaqlashtirdilar, shuningdek, turk, tatar xamda eron, afg‘on, arab va hind ma’rifatparvarlarining ta’siriga etarlicha urg‘u bermadilar. Ma’lumki, XX asr boshlarida Hindiston, Misr va Turkiyada chop etilgan forsiy matbuot Markaziy Osiyoning Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarida ma’rifatparvarlik g‘oyalarini keng yoydi. Tabiiyki, o‘z davrining ilg‘or va eng o‘qimishli kishilari

sifatida jadidlar ushbu hodisadan chetda qolmadilar. Ma’rifatparvarlik g‘oyalarini o‘zlashtirar ekan, jadidlar Buxoro va Turkiston voqeligini ushbu yo‘l orqali izohladilar va ularga o‘z xalqlarining moddiy va ma’naviy ehtiyojlariga muvofiq milliy va mintaqaviy tus baxsh etdilar.

Jadidchilik yuzaga kelishi bilan ijtimoiy fikr masalasi keskin o‘zgardi, uning yo‘nalishi yanada haqqoniy, hayotiy harakter kasb etdi. Ushbu yangi tartiblar jamiyatni yangilash bilan bog‘liq muammolarga daxl qildi, Buxoro amirligining o‘rta asr dunyosidan evropacha turmush tarzi va fikrlashga o‘tishiga ko‘maklashish maqsadini ko‘zladi.

Markaziy Osiyoda jadidchilikning shakllanishiga, Ahmad Donishdan tashqari, ilgariroq Volgabo‘yi, Krim va Kavkazning turk, tatar xalqlari orasida, xususan, Ozarboyjonda shakllangan ma’rifatparvarlik harakati shubhasiz katta ta’sir ko‘rsatdi. Turkiy mintaqalarda chop etilgan gazeta va jurnallar, publitsistik maqolalar, ma’rifatparvarlik yo‘nalishidagi jurnallar Markaziy Osiyo shaharlarida keng tarqaldi. Yosh turklar inqilobidan so‘ng Turkiyaning Turkiston va Buxoro amirligiga g‘oyaviy ta’siri keskin ortdi. Tatar va turk tillaridagi nashrlar Markaziy Osiyoda jadidchilikning shakllanishiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatdi.

Bizning barcha jadidlarimiz, ham birinchi, ham ikkinchi avlod (Yosh buxoroliklar orasidan bolsheviklar partiyasi saflariga kirgan ayrim vakillarni hisobga olmaganda), mustaxkam e’tiqodli musulmon bo‘lgan holda, ularning tarixiy davri dunyoqarash muhitini belgilab bergan islom ma’naviy qolipi doirasida umrguzaronlik va ijod qildilar. Islom dini esa ularga nafaqat turmush tarzi, balki tafakkur tarzini ham amr etgan mazkur holatda har qanday vaziyatdan, shu jumladan, jamiyatning yuqorida qayd qilingan tarixiy inqirozidan chikish yo‘llarini izlashda ham ma’naviy yo‘riqnoma sifatida xizmat qilgan.

Abdurauf Fitrat hatto "Najot yo‘li" degan kitob ham yozgan, unda o‘z salaflari va zamondoshlarining barcha ijtimoiy muvaffaqiyatsizliklarini ularning islom asoslarini yetarlicha bilmasliklarida ko‘rgan. Vaholanki, o‘sha davr musulmon Sharkining, qolversa hozirgi davrda ham, tarixiy tanazzulining asosiy ma’naviy sababi islom dini muqaddas manbalari ko‘rsatmalarining dogmatik talqinida edi."Jadid" tushunchasi etimologik jihatdan arabchadan kelib chiqqan va u "yangi" ma’nosini anglatadi. Ushbu tushuncha ta’lim faoliyatiga nisbatan o‘qitishning yangicha usuli sifatida tatbiq etildi. Ammo bora-bora Markaziy Osiyoda ma’rifatparvarlik harakati kengaya borishi jarayonida "jadid" yoki "jadidchilik" tushunchasi anchayin keng ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy mohiyat kasb eta bordi. Shunday keng ma’noda jadidchilik ijtimoiy fikrdagi ma’rifatparvarlik oqimini hamda Buxoro amirligida ijtimoiy- siyosiy sistema islohotlari tarafdorlari g‘oyalarini anglatdi, biroq siyosiy partiyaga aylanmadi. Madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan "jadidchilik" tushunchasi insonlar ma’naviy hayotining barcha shakllarini o‘zgartirish usuli sifatida qo‘llanildi. Albatta, jadidchilik bo‘sh zaminda vujudga kelgani yo‘q, yuqorida aytib o‘tganimizdek, uning Markaziy Osiyoda paydo bo‘lishiga, Axmad Donish va Ismoilbek Gasprinskiyning ta’siri bilan birga, muayyan ijtimoiy-siyosiy, falsafiy dunyoqarashga asoslangan shart- sharoit yuzaga kelgan edi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, jadidlar - istiqlol kurashining g‘oyaviy ilhomchilari edilar. O‘zbekiston mustaqilligining tiklanishi tasodifiy va favquloddagi hodisa bo‘lmay, vatan uchun uchun kurash ildizlari uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Millatimiz fidoyilari bo‘lmish, vatanparvarlik harakatlari bilan jadid ziyolilari orzu qilgan istiqlolga, hur va ozod vatanimiz O‘zbekistonga erishdik. Lekin mening fikrimcha odamlar o’zgaryapti hozir ortiqcha to’y, tomoshaga pul sovurgandan ko’ra kelajak avlodni ta’lim sifatiga etibor berish kerak deb o’ylayman aynan jadidlar shunaqa fikrda edi. Mahmudxo‘ja Behbudiy 1915 yil oyna jurnalida Bizni yemirguvchi illatlar maqolasini chop etgandi,undagi ushbu jumla menga chuqur ta’sir qildi: “Bu millatni yeb bittiradigani to’y va marosimi” degan jumla bugungi kunga ham to’g’ri keladi. Qarzga katta to’y qilib xorijga mardikorlikka ketgandan ko’ra o’qish, izlanish kerak va o’ylaymanki bu o’z samarasini berdi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O‘rta Osiyoda shakllangan jadidchilik harakati o‘zbek ma’rifatchiligi taraqqiyotida muhim burilish nuqtasi bo‘ldi. Jadidlar xalqni johillik va qoloqlikdan chiqarish, zamonaviy ilm-fan, texnika va madaniyat yutuqlarini o‘zlashtirish g‘oyasini ilgari surib, bu yo‘lda maktab ta’limini isloh qilish, yangi usuldagi maktablar ochish, darsliklar yaratish va matbuot rivojiga hissa qo‘shdilar. Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi jadidlar millat kelajagini faqat ilm-ma’rifat bilan bog‘lashgan va bu yo‘lda ko‘plab ibratli ishlarni amalga oshirganlar. Ular faqat o‘qituvchi yoki yozuvchi emas, balki jamiyatning ongini o‘zgartirishga intilgan buyuk islohotchilar edilar. Jadidlarning ma’rifiy faoliyati zamonaviy O‘zbekiston ta’lim tizimi va madaniy hayotining shakllanishiga mustahkam zamin yaratdi. Bugungi kunda ularning g‘oyalari nafaqat tarixiy, balki dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib, yosh avlodni tarbiyalashda, milliy o‘zlikni anglashda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.https://daryo.uz/k/2023/12/22/shavkat-mirziyoyev-jadidlar-goyasi-yangi-ozbekiston-strategiyasi-bilan-har-tomonlama-uygun-va-hamohang

2. https://www.gazeta.uz/uz/2023/12/22/jadids/

3. Braginskiy I.S. Iz istorii persidsko-tadjikskoy literaturы. M.: Nauka, 1972. 524 s.

4. Muxametshin R.M. Tatarы i islam v XX veke. Kazan: Izdatelstvo «Fen», 2003. 303 s.

5. Radjabov Z. SH. Iz Istorii obщestvenno-politicheskoy mыsli tadjikskogo naroda vo vtoroy polovine XIX i nachale XX vv. Dushanbe, 1957. — 459 s.

6. Turson A. "V jizni ya delal vsyo, chto mechtal bы ne delat..." // Iran-name. 2017, №1-2 (41-42). S. 19-58.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA XALQ MAQOLLARIDAN FOYDALANISH MODELI

Jumasheva G.X. - *Ajiniyoz nomidagi NDPI, Maktabgacha talim kafedrasi mudiri , p.f.d., professor,*
Kamalova S.A. *- 2-kurs magistri Nukus davlat pedagogika instituti.*

Ключевые слова: Речь, культура речи, деятельность, фольклор, употребление пословиц, семейные, социально-педагогические, технологии, познавательные, языковые нормы, дикция, выразительное чтение, развитие.

Tayansh so'zlar: Nutq, nutq madaniyati, faoliyat, xalq og'zaki ijodi, maqollardan foydalanish, oila, ijtimoiy-pedagogik, texnologiyalar, kognitiv, til me'yorlari, diksiya, ifodali o'qish, rivojlantirish.

Key words: Speech, culture of speech, activity, folklore, use of proverbs, family, socio-pedagogical, technologies, cognitive, language norms, diction, expressive reading, developmen.

Bugungi kunda mamlakatimizning maktabgacha ta'limni yanada isloh qilish eng ko'p muhokama qilinadigan mavzulardan biriga aylangan. Bu esa maktabgacha ta'limni moderinizatsiyalangan yangi avlod ta'lim standartlarini joriy qilishni taqozo etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kelgusi ta'lim bosqichlariga tayorlashda kun sayin innovatsion texnologiyalar asosida ta'lim-tarbiya berish sifatiga yangi talablar qo'yadi. Shuningdek maktabgacha ta'lim tashkilotlarida zamonaviy ta'limning dolzarb muammolaridan biri yosh avlodni nutq madaniyatini tarbiyalash hamda ushbu jarayonda xalq pedagogikasiga murojatni samarali natija berishi ko'zda tutiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq madaniyatini shakllantirishda maqollardan foydalanish texnologiyasining didaktik shart-sharoitlarini amalga oshirish modeli ishlab chiqilgan va mazmunan takomillashtirilgan (5-rasm).

Ushbu tuzilmaviy modelda bola shaxsining nutq madaniyatini shakllantirishda xalq maqollaridan foydalanish texnologiyasini amalga oshirishda didaktik talablar, maqsad va vazifalar, didaktik shart-sharoitlar (zaruriy, yetarli, baholash-natijaviy komponentlari)ni amalga oshirish masalalari mohiyati ochib berilgan.

Tadqiqot didaktik shart-sharoitlarida tarkibiy komponentlarga mos uzviylikni amalga oshirish uchun: ona tilini o'rgatish, nutq madaniyatini shakllantirish (ravon nutq; nutqning leksik jihatlari; nutqning tovushini rivojlantirish), obrazli nutq (adabiy til normalari:fikr, hissiyot, tasavvur va boshqalar) mazmunan takomillashtirish zarurati biz tomonimizdan taklif etildi.

Modelda zaruriy komponent sifatida maktabgacha yoshdagi bolalarning yoshiga xos va madaniy o'xshash tarkibiy qismlarining bir-birini to'ldirishi va bolani nutq madaniyatini shakllantirishda xalq maqollaridan foydalanish texnologiyasi uzluksizlikka asoslangan konseptual-obrazning o'ziga xos xususiyatlari; tarkibiy komponentlar (tinglash qobiliyati; hissiy madaniyat, va mustaqil fikrlash operatsiyalari)ga mos uzviylikni amalga oshirish ko'rsatib o'tildi.

Bolada nutq madaniyatini shakllantirishni faollashtirish uchun uning ijodkorligi; bilishning dialektik bosqichlarini amalga oshirishga qaratilgan ta'limni rivojlantirishning

maqbul usullaridan foydalanish; bola shaxsiga tarbiyaviy ta’sirni kuchaytirish; maxsus didaktik materiallarni qo‘llash kabi nutq madaniyatini shakllantirishda maqollardan foydalanish diagnostikasini takomillashtirish yo‘llari kiritildi.

Baholash-natijaviy komponentda bolada nutq madaniyatini shakllantitishda maqollardan foydalanishni takomillashtirish darajalari (yuqori, o‘rta, past) va natija (Maktabgacha ta’limda nutq madaniyati shakllangan tarbiyalanuvchilar) ta’kidlab o‘tildi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida bolalarni nutq madaniyatini shakllantirishda xalq maqollardan foydalanish texnologiyasini takomillashtirish komponentlari va darajalari tavsifi asoslab berildi.

Tarkibiy komponentlar sifatida tushuncha – integrativ shakl sifatida (bunda nutq madaniyatini shakllantirishda xalq maqollaridan foydalanish texnologiyasi integrativ shakli ekanligi); nutq madaniyatini shakllantirish texnologiyasi operatsiyalari (obrazli nutq: adabiy til normalari; fikr, hissiyot, tasavvur); nutq madaniyatini shakllantirish xossalari (mustaqillik, kreativlik, refleksiv elementlar) hamda rivojlantirish darajalari bo‘yicha ularning mazmun-mohiyati va tavsifi yoritib berildi.

Maktabgacha 5-6 yoshdagi bolalarni nutq madaniyatini shakllantirishda xalq maqollaridan foydalanish texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha metodikani grafik tarzda loyihalashtirish tanlandi va tadqiqot ishimiz matnida grafik loyihalash metodikasi sifatida berib o‘tildi.

Metodikada tushunchalar belgilar (umumlashtirish, qaytarib bo‘lmaslik, bosqichma-bosqich, izchillik, refleksivlik);

Nutq madaniyatini shakllantirishda 10 ta savol bo‘yicha tarbiyalanuvchilarning xalq maqollarini mazmun-mohiyatini tushunishiga oid ish olib borildi. Har bir savolga tarbiyalanuvchilardan berilgan javoblar, tushunchalar shartli belgilar asosida ko‘rsatib o‘tildi.

Ushbu maktabgacha yoshdagi bolalarni nutq madaniyatini shakllantirishda xalq maqollaridan foydalanish texnologiyasi takomillashtirilganligini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur va yetarli shart-sharoitlarni tanlash maqsadga muvofiq.

Bolaning optimal rivojlanishi muammosini hal qilish uchun ta’lim mazmunini puxta tashkil qilish, bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘qitishning tegishli shakllari va usullarini, uning texnologiyasini tanlash kerak. Binobarin, har bir 5-7yoshli maktabgacha yoshdagi bolaning individual xususiyatlariga qarab guruhlarga ajratilishini hisobga olgan holda, ularning moyilligi va qobiliyatlarini aniqlash va maksimal darajada rivojlantirish uchun farqlash vazifalaridan biri kelib chiqadi. Barcha bolalarning mayl va qiziqishlarini turlicha shakllanganligi maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishga qaratilgan ta’limotlarda halq maqollari yondashuvni qo‘llash zaruratini taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. – T., 2019. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019 y., 03/19/595/4160-son.

2. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi Qarori 2018 yil 18 iyun. -T., 2018 y.
3. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. -Toshkent: O'qituvchi, 1998.-43b.
4. Babayeva D.R., Najmiddinova G. O. «Bolalarni nutqini o‘stirish» /O‘quv qo‘llanma/ -T.: 2020. -178b.

MAKTABGACHA 3–7 YOSHDAGI BOLALAR UCHUN QORAQALPOQ XALQ ERTAKLARI VA BOLALAR QO‘SHIQLARI ASOSIDA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARINI YARATISHNING AMALIY AHAMIYATI

Bekimbetova Aynagul Amangeldievna – O‘zbekiston Milliy universiteti, “Pedagogik ta’lim” kafedrasi dotsenti, p.f.n.
Ollaberganova M. – NDPI, Maktabgacha ta’lim kafedrasi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha 3-7 yoshdagi bolalar uchun qoraqalpoq xalq ertaklari va bolalar qo‘shiqlari asosida multimedia texnologiyalarini yaratishning amaliy ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda milliy folklor namunalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirish orqali bolalarda milliy qadriyatlarni shakllantirish, ularning tafakkuri, nutqi, estetik didi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Tayanch iboralar: qoraqalpoq folklori, multimedia texnologiyalari, maktabgacha ta’lim, ertaklar, bolalar qo‘shiqlari, media savodxonlik.

Qoraqalpoq xalq ertaklari, rivoyatlari hamda bolalar qo‘shiqlarini multimedia vositalari asosida aks ettirish zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu yondashuv bolalarni milliy merosga oshno qilish, ularda milliy g‘urur, Vatanga muhabbat va ajdodlarga hurmat tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bolalarning tafakkuri, nutqi, estetik didi va ijodiy qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirishga yordam beradi [3]. Mazkur loyiha doirasida interaktiv multfilm, o‘yinlar, audio ertaklar, qo‘shiqlar va mashg‘ulotlarni multimedia formatida tayyorlash nazarda tutilgan bo‘lib, bu tarbiyachilarga o‘quv-tarbiya jarayonida milliy folklor namunalaridan zamonaviy vositalar orqali samarali foydalanish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, bolalarda zamonaviy texnologiyalardan ongli va xavfsiz foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirib, ularning media savodxonligini oshiradi [5].

Tadqiqot ishida Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Uslubchilar va tajribali tarbiyachilar fikrlari asosida qoraqalpoq xalq ertaklari va bolalar qo‘shiqlarining ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyati o‘rganildi. Dastlabki ishlarimiz “Qoraqalpoq folklori” manbalari asosida folklorshunos olimlar, adabiyotshunoslar, filologlar, psixologlar hamda maktabgacha ta’lim sohasi mutaxassislari bilan birgalikda olib borildi va maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mos ertaklar saralab olindi (rasm-1).



Har bir xalqning o‘ziga xos turmush tarzi, qadriyatlari va tarixini aks ettiruvchi og‘zaki ijodi mavjud. Qoraqalpoq xalq pedagogikasida ertaklar va bolalar qo‘shiqlari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ularning tuzilishi bolalarning tasavvuriga mos yaratilgan, yakuni ezgulik bilan tugaydi va tarbiyaviy g‘oyalarni o‘zida mujassam etadi



(rasm-2).

Ertaklar va bolalar qo‘shiqlari maktabgacha yoshdagi bolalarda umuminsoniy tuyg‘ular, milliy qadriyatlar va axloqiy me’yorlarni shakllantiradi. Qoraqalpoq xalq ertaklarida xalqning turmush tarzi, tarixi va ijtimoiy munosabatlari aks etgan. Ularning og‘izdan-og‘izga o‘tishi ularning hayotiyligini ta’minlaydi. Ota-bobolarimiz farzandlarini milliy ruhda tarbiyalashda ertak va qo‘shiqlardan samarali foydalangan.



Tadqiqot natijasida 28 ta ertak va 20 dan ortiq bolalar qo‘shiqlari saralab olindi. Tajriba-sinov ishlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi ruxsati bilan Chimboy, Qanliko‘l va Nukus shahridagi MTTlarda amalga oshirildi (rasm-3).

Tajriba davomida:

- tarbiyachilar bilim darajasi suhbat, anketa va testlar orqali aniqlanildi;
- seminar-treninglar orqali ularning innovatsion kompetensiyalari rivojlantirildi;
- multimedia asosidagi mashg‘ulotlar joriy etildi.

Natijada multimedia asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar bolalarda yuqori qiziqish uyg‘otishi, nutq va tafakkur rivojlanishini tezlashtirishi aniqlandi. Tadqiqot natijalari asosida o‘quv qo‘llanmalar, mobil ilova va **qqertekler.netlify.app** domeni bilan ta’lim platformalari yaratildi. Ushbu ishlanmalar tarbiyachilar va ota-onalar hamkorligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari ilmiy-amaliy konferensiyalar, maqolalar va metodik qo‘llanmalar orqali amaliyotga joriy etildi (rasm-4).



Mazkur natijalari asosida yaratilgan o‘quv qo‘llanmalar, mobil ilova va **qqertekler.netlify.app** domenli ta’lim platformalari O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan huquqiy himoyaga olingan. Xulosa qilar ekanmiz, Qoraqalpoq xalq ertaklari va bolalar qo‘shiqlari asosida multimedia texnologiyalarini yaratish:

- milliy folklorni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish;
- bolalarning kognitiv va ijodiy rivojlanishini ta’minlash;
- pedagoglar uchun samarali metodik vositalar yaratish;
- ta’lim jarayonini innovatsion bosqichga olib chiqish imkonini beradi.

Shuningdek, multimedia asosidagi mashg‘ulotlarni keng joriy etish orqali ta’lim samaradorligini oshirish va resurslarni takomillashtirildi. Mazkur tadqiqot milliy madaniy merosni saqlash va uni zamonaviy ta’lim tizimiga integratsiya qilishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qoraqalpoq folklori. 67–76-jildlar. – Nukus, 2010–2018.
2. Alewov U. Qaraqalpaq pedagogik qarashlari. – Nukus, 1993.
3. Mayer R. Multimedia Learning. – Cambridge, 2009.
4. Qosimov A. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent, 2018.
5. UNESCO. ICT in Early Childhood Education. – Paris, 2012.

BALALARDI TÁBIYAT PENEN TANISTIRIWDA OYIN TEXNOLOGIYALARINIŃ ROLI

Bekimbetova Aynagúl - Mirzo Ulugbek atındaǵı Milliy universiteti «Pedagogika tálim» kafedrası docenti

Abdijamilova Anjim - Ájiniyaz atındaǵı NMPI “Mektepke shekemgi tálim” baǵdarı 1 kurs talabası

Tayanısh tusinikler: oyın texnologiyaları, ekologiyalıq tárbiya, mektepke shekemgi jas, tábiyat, pedagogika, kognitiv rawajlanıw.

Tayanch tushunchalar: o‘yin texnologiyalari, ekologik tarbiya, maktabgacha yosh, tabiat, pedagogika, kognitiv rivojlanish.

Ключевые слова: игровые технологии, экологическое воспитание, дошкольный возраст, природа, педагогика, когнитивное развитие.

Zamanagóy pedagogikada mektepke shekemgi jastaǵı balalardıń rawajlanıwında oyın tiykarǵı orındı iyeleydi. Balanıń psixologiyalıq hám kognitiv rawajlanıwı onıń iskerligi, tájiriybesi hám úyreniw procesi menen tıǵız baylanıslı. Ásirese, balalardı tábiyat penen tanıstırıwda oyın texnologiyalarınan paydalanıw bilim beriwdi qızıqlı hám nátiyjeli etedi. Oyın - bul tek ǵana kewilli iskerlik emes, al balanıń qabıllaw qábiletin, dıqqatın, pikirlewin rawajlandırıw quralı esaplanadı.

Bala oyın arqalı tábiyat qubılısların túsinedi, olardı sezedi hám tábiyiy processlerge qatnasın qáliplestiredi. Sonıń menen birge, oyın balada baqlaw, salıstırıw, ulıwmalastırıw, sebep-aqıbet baylanısların túsiniw sıyaqlı aqılıy iskerlik kónlikpelerin rawajlandıradı. Mektepke shekemgi jastaǵı balalarǵa tábiyattı tanıstırıw procesinde oyın texnologiyaları bilimdi ámeliyat penen baylanıstırıwǵa, tájiriybege tiykarlanǵan úyreniwge hám dóretiwshilik pikirlewdi rawajlandırıwǵa xızmet etedi.

Oyın texnologiyaları – bul balalardı oqıtıw hám tárbiyalawda oyın elementlerin sistemalı túrde qollanıwǵa negizlengen pedagogikalıq usıl. Onıń teoriyalıq tiykarları

pedagogika hám psixologiya ilimlerinde qarastırılǵan. Oyın texnologiyaların qollanıw arqalı pedagoglar balalardıń ekologiyalıq bilimlerin, tábiyiy ortalıqqa húrmetin hám juwapkershilik sezimin qáliplestiredi. Máselen, balalar oyın dawamında gúllerdi suwgarıw, terek hám ósimliklerdi baqlaw, quslar hám haywanlarga gamxorlıq kórsetiw arqalı tábiyatqa doslıq qatnasın úyrenedi. Sonıń menen birge, oyın balalarǵa sociallıq kónlikpelerdi, jámáátte islewdi hám birge islesiwdi de úyretedi.

Oyın – bala ushın tiykarǵı iskerlik bolıp, ol arqalı bala átirap ortalıqtı tanıp-biledi. Psixologlardıń pikirinshe, oyın balanıń kognitiv, emosional hám social rawajlanıwına tikkeley tásir etedi.

Oyın texnologiyaları tómendegi printsiplerge súyenedi:

- balanıń jas ereksheliklerin esapqa alıw;
- qızıǵıwshılıqqa tiykarlanıw;
- ámeliy iskerlikti ústinlik etiw;
- erkinlik hám dóretiwshilikti qollaw.

Tábiyat penen tanıstırıwda balalardıń ekologiyalıq sanasın qáliplestiriwdiń tiykarı bolıp esaplanadı. Oyın texnologiyaları bul processti jeńillestiredi hám qızıqlı etedi.

Oyın arqalı balalarda tábiyat hádiyselerin gúzetedi, ósimlik hám haywanlar haqqında bilim aladı, tábiyatqa muhabbat hám ǵamxorlıq sezimin rawajlandıradı. Mısalı, “Kim qay jerde jasaydı?”, “Jıl máwsimleri”, “Haywanlardıń dawısı” sıyaqlı didaktikalıq oyınlar balalarda túsiniklerdi jeńil qáliplestiredi.

Mektepke shekemgi tálimde tómendegi oyın texnologiyaları keń qollanıladı:

1. Didaktikalıq oyınlar – bilim beriwge qaratılǵan oyınlar;
2. Saxnalastırılǵan rolli oyınları – balalar belgili bir roldi atqaradı;
3. Háreketli oyınlar – fizikalıq hám aqliy rawajlanıwdı qamtıydı;
4. Eksperimental oyınlar – tábiyat penen baylanıslı tajiriybeler.

Bul oyınlar balalardıń gúzetiwshilik, pikirlew hám analiz qábiletlerin rawajlandıradı. Oyın texnologiyaların nátiyjeli qollanıw ushın tómendegi shártlerdi saqlaw zárúr:

- rawajlandırıwshı ortalıq jaratıw;
- balanıń qızıǵıwın esapqa alıw;
- oyın hám bilimdi integraciyalaw;
- tárbiyashınıń dúris basqarıwı.

Tárbiyashı oyın barısında balalardıń iskerligin baqlap, olardıń bilimlerin bekkemlep barıwı kerek.

Oyın texnologiyaları arqalı balalarda: ekologiyalıq sana qáliplesedi, tábiyatqa juwapkershilik sezimi artadı, átirap ortalıqqa sanalı qatnas payda boladı. Bala oyın arqalı “tábiyattı asıraw kerek” degen túsinikti tabiiy túrde qábıllaydı.

Juwmaqlap aytqanda, mektepke shekemgi jastaǵı balalardı tábiyat penen tanıstırıwda oyın texnologiyaları eń nátiyjeli pedagogikalıq qurallardıń biri bolıp esaplanadı. Olar balalardıń qızıǵıwshılıǵın arttıradı, bilimdi jeńil ózlestiriwge járdem beredi hám ekologiyalıq sananı qáliplestiredi. Sol sebepli, mektepke shekemgi tálim shólkemlerinde oyın texnologiyaların keń qollanıw balalardıń har tárepleme rawajlanıwında úlken áhmiyetke iye.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. SH.Shodmonova. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. «Fan va texnologiya» -T:, 2008.
2. Kayumova N. Maktabgacha pedagogika. Toshkent 2013
3. Takomillashtirilgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. Toshkent 2022 yil.

4.Xasanboyeva O.U, Djabborova X.J Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi. T. Cho'lpon. 2007

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ ВОСПИТАТЕЛЕЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ

Эргашова Муниса Хошим кизи - Независимый исследователь
МТТДМҚТМОИ

Аннотация: Данная статья посвящена проблеме развития профессиональных компетенций будущих воспитателей, осуществляющих деятельность в сфере дошкольного образования. В статье анализируется значение интерактивных методов в педагогическом процессе, а также их роль в формировании теоретических знаний и практических навыков воспитателей. В исследовании рассматриваются эффективные способы применения интерактивных методов, в том числе через ситуационные игры, решение проблемных задач, групповые занятия и проектную деятельность, направленные на повышение профессиональной квалификации.

Также в статье освещаются механизмы оценки и развития педагогических и социальных компетенций воспитателей, анализируются проблемы, возникающие в практике, и предлагаются пути их решения. Результаты исследования показывают, что интерактивные методы способствуют развитию у будущих воспитателей не только знаний, но и навыков коммуникации, творческого мышления и работы в команде. В статье представлены рекомендации по внедрению современных инновационных подходов в педагогическую практику и процесс подготовки воспитателей.

Ключевые слова: будущий воспитатель, профессиональная компетенция, интерактивные методы, педагогическое мастерство, инновационный подход.

Введение: Система дошкольного образования является одним из важнейших социальных институтов общества, в котором уровень подготовки и профессиональные компетенции воспитателей напрямую влияют на развитие ребёнка. В современных условиях к воспитателю предъявляются требования не только владения теоретическими знаниями, но и наличия практических навыков. В связи с этим проблема развития профессиональных компетенций будущих воспитателей приобретает особую актуальность как в практическом, так и в научном аспекте.

Интерактивные методы рассматриваются как одно из наиболее эффективных средств формирования знаний и навыков в педагогическом

процессе. Данные методы способствуют развитию творческого мышления, способности к решению проблем, навыков командной работы и коммуникативных умений будущих воспитателей.

Кроме того, интерактивные методы создают условия для самореализации обучающихся, проявления инициативы и формирования мотивации к профессиональному росту в педагогической деятельности. В этой связи в статье рассматриваются теоретические и практические аспекты развития профессиональных компетенций будущих воспитателей с использованием интерактивных методов, анализируются современные педагогические подходы и предлагаются эффективные пути их внедрения в практику.

В исследовании Р. Ш. Садыковой отмечается, что интеграция интерактивных методов в педагогический процесс способствует эффективному формированию профессиональных, коммуникативных и креативных компетен-ций будущих воспитателей. Такой подход обеспечивает одновременное развитие педагогических знаний, практических умений и навыков сотрудничества.

В работе А. В. Ведяшкиной подтверждается, что интерактивные и активные методы обучения являются важным фактором формирования общепрофессиональных и специальных компетенций будущих педагогов. Данные методы ориентируют студентов на взаимодействие, совместную деятельность и принятие решений в реальных педагогических ситуациях.

ПРИМЕРЫ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ

Игра «Воспитатель и ребёнок»

Цель: формирование коммуникативных и речевых навыков у воспитателей.

Процесс: участники поочерёдно выполняют роли воспитателя и ребёнка. После выполнения задания проводится групповая рефлексия, анализируются возникающие проблемы и предлагаются пути их решения.

Игра «Педагогический проект»

Цель: развитие творческого мышления и навыков работы в группе.

Процесс: группы разрабатывают мини-проект для детей (например, игровое занятие или тематический урок), после чего представляют его и обсуждают с другими участниками.

Игра «Проблемный сценарий»

Цель: развитие оперативного мышления и способности принимать педагогические решения.

Процесс: участникам предлагается неожиданная педагогическая ситуация, для решения которой необходимо в течение 2–3 минут предложить оптимальный вариант действий.

Список использованной литературы

1. Абдукодиров А. А. Педагогические технологии и интерактивные методы. – Ташкент: Учитель, 2020.

2. Akhmedova M., Dilmurodova N. The use of interactive methods in teaching professional speech to students // Linguistics and Culture Review. – 2021. – Vol. 5 (S2). – P. 1801.

3. Ferizat M., Kuat B. The effectiveness of interactive teaching methods in the professional training of pre-service geography teachers // Cypriot Journal of Educational Sciences. – 2021. – Vol. 16(4). – P. 1976–1996.

4. Жалилова С. Технология развития коммуникативных способностей учащихся посредством интерактивных методов обучения // Журнал дошкольного и школьного образования.

5. Каримова Н. М. Интерактивные методы в современном образовании. – Самарканд: Инновация, 2019.

6. Мелиев Х. А., Жамолдинова О., Рискулова К. Профессиональная компетентность и мастерство воспитателя. – Ташкент, 2021.

7. Ramachandran S., Rengamani J. Interactive teaching methods in contemporary higher education // International Journal of Management. – 2015. – Vol. 6(10). – P. 95–103.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MUVAFFAQIYATLI IJTIMOIYLASHUVI – TARBIYACHINING KOMMUNIKATIV SHARTI SIFATIDA

F.Kongratbayeva - Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat pedagogika instituti, maktabgacha talim mutaxassisligi 1-bosqich talabasi

K.Tleumbetova - Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat pedagogika instituti, Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Mazkur tezisda maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuv jarayoni hamda ushbu jarayonda tarbiyachining kommunikativ kompetensiyasining ahamiyati yoritilgan. Maktabgacha yosh davrida bolalarda muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy muhitga moslashuvini ta’minlash pedagogik jarayonning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Pedagogic jarayonda bolalarning ijtimoiylashuvi jarayonida pedagogning nutq madaniyati, pedagogik muloqot uslubi hamda ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, bolalarda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik usullar ham ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiylashuv, maktabgacha ta’lim, kommunikativ kompetensiya, pedagogik muloqot, tarbiyachi, nutq madaniyati, ijtimoiy rivojlanish.

Maktabgacha ta’lim tizimi bolalarning shaxs sifatida shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, maktabgacha yosh davrida bolaning ijtimoiy rivojlanishi, muloqot madaniyati va jamiyatga moslashuv jarayoni faol tarzda kechadi. Shu sababli maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta’minlash dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

Ijtimoiylashuv – bu shaxsning jamiyat qoidalari, qadriyatlari va ijtimoiy tajribasini o‘zlashtirish jarayonidir. Bu jarayon inson hayotining ilk davrlaridan boshlanadi va ayniqsa maktabgacha yosh davrida jadal rivojlanadi. Bolalar bu davrda kattalar hamda tengdoshlari bilan muloqot qilish orqali turli ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtiradilar.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarning ijtimoiylashuvi jarayonini samarali tashkil etishda tarbiyachining roli nihoyatda muhimdir. Tarbiyachi bolalar uchun nafaqat bilim manbai, balki ijtimoiy tajriba va muloqot madaniyatini shakllantiruvchi shaxs hisoblanadi. Shu sababli tarbiyachining kommunikativ kompetensiyasi pedagogik jarayonning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Bolalarning ijtimoiylashuvi ularning shaxs sifatida rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Ijtimoiylashuv jarayonida bola jamiyatda mavjud bo‘lgan qoidalar, ijtimoiy me’yorlar hamda qadriyatlarni o‘zlashtiradi. Bu jarayon bolaning ijtimoiy tajriba orttirishiga, atrofdagi insonlar bilan munosabat o‘rnatishiga hamda jamoada faol ishtirok etishiga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiylashuv jarayoni asosan quyidagi faoliyat turlari orqali amalga oshadi:

- O‘yin faoliyati;
- Muloqot faoliyati;
- Ta’limiy mashg‘ulotlar;
- Jamoaviy faoliyatlar.

Bolalar o‘yin jarayonida turli ijtimoiy rollarni bajaradilar, tengdoshlari bilan hamkorlik qilishni o‘rganadilar hamda ijtimoiy tajriba orttiradilar. Shu sababli maktabgacha ta’lim jarayonida o‘yin faoliyatini samarali tashkil etish bolalarning ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, bolalarning ijtimoiylashuvida muloqot muhim ahamiyatga ega. Muloqot jarayonida bola o‘z fikrlarini ifodalashni, boshqalarni tinglashni hamda o‘zaro munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishni o‘rganadi.

Tarbiyachining kommunikativ kompetensiyasi pedagogik jarayonning samaradorligini ta’minlovchi muhim omillardan biridir. Kommunikativ kompetensiya pedagogning bolalar, ota-onalar hamda hamkasblari bilan samarali muloqot o‘rnatish qobiliyatini anglatadi.

Tarbiyachining kommunikativ kompetensiyasi quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

- Nutq madaniyati;
- Pedagogik muloqot ko‘nikmalari;
- Tinglash madaniyati;
- Empatiya va hamdardlik;
- Ijtimoiy-psixologik muhitni boshqarish.

Tarbiyachining nutqi aniq, ravon va bolalar yoshiga mos bo‘lishi zarur. Pedagogning nutqi bolalar uchun namuna hisoblanadi. Shu sababli pedagog nutq madaniyatiga alohida e’tibor qaratishi lozim.

Bolalar bilan samarali muloqot o‘rnatish uchun tarbiyachi ularning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olishi zarur. Har bir bola o‘ziga xos shaxs bo‘lib, uning psixologik xususiyatlari, qiziqishlari hamda ehtiyojlari turlicha bo‘lishi mumkin.

Maktabgacha ta’lim jarayonida bolalarning ijtimoiylashuvini ta’minlash uchun turli pedagogik metodlardan foydalanish muhim hisoblanadi. Ushbu metodlar bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Quyidagi metodlar ayniqsa samarali hisoblanadi:

Suhbat metodi: suhbat jarayonida bolalar o‘z fikrlarini ifodalashni, savollarga javob berishni va muloqot jarayonida faol ishtirok etishni o‘rganadilar.

Rolli o‘yinlar: rolli o‘yinlar bolalarning ijtimoiy tajribasini kengaytiradi. O‘yin jarayonida bolalar turli ijtimoiy rollarni bajaradilar va jamiyatdagi munosabatlarni modellashtiradilar.

Dramatizatsiya faoliyati: Ertaklar va sahna ko‘rinishlari orqali bolalarda muloqot madaniyati, hamkorlik va ijodkorlik rivojlanadi.

Jamoaviy faoliyatlar: jamoaviy faoliyat bolalarda hamkorlik, o‘zaro yordam va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Tarbiyachi ushbu metodlardan foydalanish orqali guruhda ijobiy psixologik muhit yaratishi mumkin.

Xulosa qilib aytganimizda, maktabgacha yoshdagi bolalarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi ularning shaxs sifatida rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Bu jarayon bolalarning jamiyatga moslashuvi, muloqot madaniyatini o‘zlashtirishi hamda ijtimoiy tajriba orttirishida muhim rol o‘ynaydi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarning ijtimoiylashuvini ta’minlashda tarbiyachining kommunikativ kompetensiyasi muhim ahamiyatga ega. Tarbiyachining nutq madaniyati, pedagogik muloqot uslubi hamda bolalar bilan samarali aloqa o‘rnatish qobiliyati bolalarning ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli maktabgacha ta’lim tizimida tarbiyachilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, pedagogik muloqot madaniyatini oshirish hamda bolalar bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuni. T.: 2019.

2. Qodirova F. Va boshq. Maktabgacha pedagogika. – T.: 2019

3. Н.Эгамбердиева. Ижтимоий педагогика. Т.: 2009

ESHITISHIDA NUQSONI BO’LGAN BOLALARNI MEHNATGA O’RGATISH

G.Tasbaeva – Ajiniyoz NDPI Maktabgacha tarbiya va defektologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Esbosinova Ayzada Ajiniyoz NDPI Defektologiya(logopediya) ta’lim yo’nalishi 3-b talabasi

Oilada farzandning dunyoga kelishi ota –ona uchun nafaqat quvonch va shodlik manbai – baxt nashidasi, balki mas’uliyat hissi ham demakdir. Chunki go’dakning dunyoga kelishi muayyan orzular, hayotiy rejalar bunyod bo’ladi. Har ne bo’lganda ham baxt va mas’uliyat hissi ota –onani go’dagi bilan birga qayta tarbiyalaydi, desak yanglishmaymiz. Axir farzand – u qanday bo’lishidan, qay holatda bo’lishidan qat’iy nazar naslimiz davomchisi, o’zligimizning, balki kamchiliklarimizning mevasi….

Maqolamizda eshitishida nuqsoni bo’lgan bolalarni mehnatga o’rgatish xususida so’z yuritmoqchimiz.

Ota-onaning ko’pchiligi farzandini mehnatdan chegaralab, mehnatsevarlik bola balog’at yoshiga yetib, o’z hayot yo’lini tanlaganida shakllanadi, deb fikrlaydilar. Agar yosh bolani mehnatga hayot quvonchlari sifatida munosabatda bo’lish, undan shodlanishga o’rgatilmasa, mehnat bola uchun majburiy zaruriyatga aylanadi. Bolani maktabgacha tarbiya yoshidan boshlab mehnat faoliyatiga ko’niktirish, mehnat qilish usullarini egallashiga ko’maklashish unda inson hayoti va mehnatidagi o’rnini belgilaydigan xarakter qirralarini shakllantirishga qulay shart- sharoit yaratadi.

Eshitishida nuqsoni bo’lgan bolalar tarbiyasi esa ota-onalar zimmasiga yanada ko’proq mas’uliyatni yuklaydi. Bola tarbiyasiga taqdim etiluvchi umumiy talablardan chekinmagan holda mutaxassis taklif etgan maxsus vazifalarni ado eting. Bugungi kunda eshitishida nuqsoni bo’lgan bolalar tarbiyasi yuzasidan ko’plab adabiyotlar, tavsiya va yo’riqnomalar mavjud. Ulardan farzandingizga zarur o’quv va maishiy ko’nikmalarni hosil qilish uchun foydalanishingiz mumkin. Lekin yodingizda bo’lsinki, hech bir shaxs dangasa, ishyoqmas, yolg’onchi, tovlamachi bo’lib dunyoga kelmaydi, ularda bu xususiyatlar tarbiya natijasida shakllanadi. Yana shu narsa aniqki, hamma ham farzandining haqiqiy inson bo’lib voyaga yetishini istaydi. Afsuski, istak o’zi yetarli emas. Bolalarni mehnatsevar, adolatparvar, qat’iyatli qilib tarbiyalash, ularga shu sifatlarni singdirish lozim, buning uchun esa, avvalo, o’zingiz namuna ko’rsata bilishingiz darkor.

Mehnat inson hayoti uchun, uning farovon turmush kechirishi uchun hamisha asos bo’lib kelgan va shunday bo’lib qoladi. Mehnat - farovon va baxtli hayot kechirishining eng asosiy sharti bo’lganligi sababli hamma fuqarolar uchun majburiydir. Mehnat odamlarning biror maqsad uchun sarflagan vaqti, aqliy va jismoniy kuchi yoki faoliyatidir. Barcha tirik mavjudot nimanidir iste’mol qilish hisobiga yashaydi, umrini davom ettiradi. Yerda yashovchi mayda qurt-qumursqalardan tortib, parrandalargacha, suv ostida yashovchi jonivorlardan tortib ulkan hayvonlargacha ovqatsiz yashay olmaydi. Shuningdek, odamlar ham uzluksiz ovqatlanadi, hayot kechiradi. Boshqa tirik mavjudotlardan farqli o’laroq, odamlar kiyinishadi, ijod qilishadi. Mehnat jarayonidagina oziq-ovqat, kiyim –kechak va boshqa zarur narsalar yaratiladi. Mehnat inson hayotini sermazmun qiladi va boyitadi. Odamlar mehnat qilish jarayonida sog’liqlarini mustahkamlaydilar, obro’ orttiradilar va o’z kelajaklarini yaratadilar. Ota-bobolarimiz asrlar davomida mehnatni ulug’lab kelishgan, o’zlari ham sidqidildan mehnat qilishgan. Bizga ulardan meros bo’lib qolgan barcha xazina – ilmiy-badiiy kitoblar, turli xildagi san’at asarlari, memorchilik obidalari va boshqa narsalar ana shu mehnatning mahsulidir.Eshitishda nuqsoni bolgan bolalarni ha’m barcha tendoshlari kabi mehnatka orgatish mumkin. Bunda eshitishda nuqsoni bolgan bolalaga, eshitishda nuqsoni bo’lganligi uchun engil vaziyfa berish bilan cheklanishga yo’l qoymaslik kerak. Bolalarda mehnat faoliyatidagi xotasini o’z baqtida bartaraf etishga urgatish kerak boladi. Ishlamaslik bolalarda dangasaliklarga sabab bo’ladi. Mehnat eshitishda nuqsoni bo’lgan bola shaxsini har tomonlama kamol toptirishning asosiy omili hisoblanadi. Shuning uchun kar bolalarni kichik yoshidan boshlab mehnat qilishga o’rgatish zarur.

Demak, eshitishida nuqsoni bo’lgan bolalarni ham sog’lom tengdoshlari kabi mehnatsevar bo’lib tarbiyalash bilan bir vaqtda, inson qo’li bilan yaratilgan narsalarni

qadrlash, ardoqlash va uni uvol qilmaslikka o'rganishlari kerak. Ota-onalar kar farzandlarini kelajagini o'ylab, ularni ilk yoshlaridan mehnatga o'rgatib, chiniqtirib borishlarimaqsadga muvofiq. To'g'ri tarbiyaning eng ta'sirli, eng samarali usuli ham mehnatdir. Ota-onalar eshitishida nuqsoni bo'lgan farzandlarining mehnatiga har doim ham muhtoj bo'lavermaydilar, lekin bolani yoshligidan ishga o'rgatish, mehnatga ko'niktirish zimmalaridagi burch, asosiy vazifadir.

Foydalangan adabiyatlar

1.LogopediY(pod red .A.S .volkovoy)M.:vlados.2003 g
2.Muminova L,Ayupova M.LogopediY.T.:Oqıtıwshı 1993 y

INSONIY MULOQOT TARBIYANING ASOSI

Ilmiy rahbar- Naimova Zuxra-Ajiniyoz nomidagi NDPI
Usenova Tursinay-Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-v kurs o'zbek guruh talabasi

Tayanch so'zlar: Muloqot, ijtimoiiy, psixologiya, amaliy muloqot, jamiyat, jamoa, insoniyat, tarbiya,odob

Muloqotning bevosita muvaffaqiyatining sharti o`zara ta`sir etuvchi kishilarning har biridan kutilayotgan harakatlarga mos keluvchi xulq-atvor namunasi qo`llanishidadir. Kishining boshqalar undan nimani kutayotganini, nimani eshitishga va undan nimani ko`rishga tayyor ekanligini to`g`ri, aniq,xatosiz ko`chira olish qobiliyati takt deb ataladi.

So`zlar kishi ongining boshqa faktlari kabi mohiyatlarining umumiy tarzda qabul qiling`an tizimidan tashqari alohida har bir kishi ushun xos ma`lum darajadagi shaxsiyatga oid mazmun, ahamiyat kasb etadi.

Qadim qadimdan shakllanib kelgan muloqot harqanday inson hayotining , faoliyatining ajralmas bo`lagi va muhim shartidir. Mulohat jayonida inson xulq atvorining muayyan obriz va modellari ham shakllanib boradi.

Mohiyatlar bilan shaxsiyatga oid mazmunning nisbati A.N.Leyontevning asarlarida chuqur tadqiq etilgan edi «Shaxsiyotga oid mazmunlar mohiyotlardan farqli o`laroq…o`zining ortiqcha individualligiga, «nopsixologik» tarzda mavjudligiga ega emas.Tashqi sezuvchanlik subyekt ongida mohiyatlarini obyektiv olamning realligi bilan bog`lab turadi, shaxsiyatga oid mazmun esa ularni uning ushbu olamdagi hayoti realligi bilan, uning sabablari bilan bog`laydi.Shaxsiyatga oid mazmun inson ongining g`arazligini yuzaga chiqaradi».(Leontev A.N.Деятельность.Сознание.Личность.2-nashri.M.153 bet.)

Bugungi kunda Respublikamiz yoshlarini yangicha ijtimoiy muhitga tayyorlash, davr ruhida tarbiyalash dolzarb va ustuvor vazifalardan biridir.

Amalga oshirilayotgan islohatlarning rivoji yoshlarning ma`naviy qiyofasiga, shaxsiy barkamalligiga ham ko`p jihatdan bo`g`liq. Bu vazifalarni amalga oshirish, insoniy o`zaro munasbatlarda demokratik tamoyillarining teran tafakkur etishini taqoza qiladi.

Insonlar o`rtasidagi ijtimoiy munosabatlar sharqda o`ziga xos va har bir millat psixologiyasiga mos holda qaor topgan.

Tinglash madaniyati muloqot jarayonining samarali bo`lishida muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun biz suhbatdoshimizni diqqat bilan tinglashimiz, unda o`z-o`ziga hurmatni tarbiyalashimiz, uni ilhomlantirishimiz, ruhlantirishimiz kerak.

O`qituvchining maruzasi o`quvchilar tomonidan yaxshi tinglansa dars samarali bo`ladi.

Ijtimoiy psixologiyada kishilarni samarali muloqotga ataylab o`rgatishga katta e`tibor beriladi. Buning o`z uslubi bo`lib uning nomi «Ijtimoiy-psixologik trenning» deyiladi.(I.P.T.)

Amaliy muloqot treningi IPTning bir ko`rinishi bo`lib u yoki bu kasbiy faoliyotni amalga oshirish jarayonida zarur bo`ladigan kommunikativ malaka,ko`nikma va bilimlarni xosil qilishga qaratilgan tadbirdir.Guruh va jamoalarda muloqot treningi vositasida muzokaralar olib borish ish yuzasidan hamkorlik qilish yo`l-yo`riqlarini birgalikda toppish, katta odditoria oldida so`zlashga o`gatish, majilislar o`tkazish, nizoli holatlarda o`zini to`g`ri tutish malakalari xosil qilinadl.

Bunda asosiy narsa - trenning qatnashchilari ongiga birovlarni qo`ya olish,boshqalar manfatlari bilan o`zinikini uyg`unlashtira olish g`oyasni singdirishdir.

Muloqot tashqi ijobiy tasrlar,namunalar asosida o`zini-o`zi tuzatish qayta tarbiyalash,shaxsiy imkoniyatni ro`yobga chiqarish uchun puxta zamin hozirlaydi, komillik sari yetaklaydi.

Har qanday jamiyat rivojlangan sari jamiyatda istiqomat qilayotgan insonlarga ayniqsa endigina kelajak hayotga qadam qo`yayotgan yoshlarimiz tarbiyasida eng muhim jihatlardan biri muloqotdir. Azal-azaldan ota bobalarimiz ham bolalar tarbiyasida ehg muhim sanalgan muloqot tarbiyosiga alohida e`tibor berip tarbiyolanuvchilarni to`g`ri yo`lga yo`naltirishgan,va shunga harakat qilishgan.Shuning uchun ham bola tug`ilib gapira boshlashidan oq Bolani to`g`ri gapirish,so`zlarni xatosiz o`z o`rnida foydalanishga o`rgatish-tarbiyaning muhim jihatlaridan eng asosiysi deb hisoblagan.Shunga binoan bola nato`g`ri talaffus qilgan so`zlarni vaqtida to`g`irlab tushuntirib tarbiyalanuvchining nutq madaniyatini betinim rivojlantirganlar.

Eng avvalo to`g`ri muloqot qilish bilan birga odob-axloq tarbiyalarini ham birgalikda olib borganlar.Mana shunday tarbiyalangan bolalar o`z odob-axloqi va tarbiyali muloqatlari bilan ajralib turishgan.

Qaysi davrda yashasa ham qanday kasbni egallasa ham to`g`ri gapirish fikirini erkin bemalol ayta olish va o`z vaqtida buyirilgan ishni sitqi dildan bajarib kattalarga qilgan ishi va mehnatlari natijalarini tushunarli ,ravon va batafsil gapirip ikkinchi bir insonga to`g`ri yetkazib berish,kimki xatolarini ko`rsatib bersa jahl qilib emas balki ustozining nasihatini o`rinli tarzda qabul qilishgan.O`z navbatida fikrlarini sodda, tushunarli va ravon tillarda gapirib yetkazib bera olish qobilyatlarini mukammal tarzda doimiy ravishda to`g`ri o`rgatib yo`naltirishgan.

Gapiradigan gapini yeti o`lchab bir kes degan xalqimiz ichidan chiqqan xalq durdonalari bo`lgan xalq o`g`zaki ijodi va katta tarbiyaviy ahamiyatini o`zlarida mujassamlashtirishgan. Mana shunday xalqchil tarbiya ko`rgan shuningdek ustozlar

qo`lida maktabga bormasdan oldin ham to`g`ri gapirish madaniyatini yoshlar o`zlarida shakllantirganlar.

Turli davr,turli yoshdagi insonlar orasidagi muloqot bir-birini tushunish,anglash,o`z fikrini yetkazib bera olish jihatlarini doimo kengroq shaklda aks ettirganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. M.Maxsudova.Muloqot psixologiyasi. O`quv qo`llanma.-T ; «Turon-Iqbol» nashriyoti.
2. Leontev A.N. Деятельность.Сознание.Личность.2-nashri.M.153 bet.
3. https://inlibrary.uz Muloqot va shaxslararo munosabat
4. https:worldlyjournals.com Pedagogik muloqot madaniyati tushunchasi

BALALARDÍŃ LOGIKALÍQ PIKIRLEWINDE XALÍQ AWÍZ-EKI DÓRETPELERINIŃ ÁHMIYETI

Yo‘ldosheva Oltinoy- Mektepke shekemgi tálim baǵdarı 3-kurs talabası
L.A.Ibragimova-NMPI docenti

Tayanch tushunchalar: Kichik maktab yoshidagi bolalar, bolalar psixologiyasi, psixologizm, mantiqiy wrgatish, badiiy psixologizm, nafosat ta’siri, bolalar folklori, nafosat tarbiyasi psixologik rivojlanish vositasi, bolalar folklori va tarbiya.

Ключевıе слова: Дети школьного возраста, детская психология, психологизм, логическое учение, художественнiй психологизм, эстетическое влияние, детский фольклор, эстетическое воспитание, средства психологического развития, детский фольклор и воспитание.

Key words: School children, children’s psychology, psychology area, teaching logically, area of fine psychologism,aethetik influence, children’s folklore, aesthetic education, the means of psychological devclopment, childre’s folklore and education.

Qaraqalpaq xalıq awız-eki dóretpeleriniń tálim-tárbiya jónelisinde tutqan ornı haqqında pedagogika teoriyası hám pedagogika tariyxı aspektinde bir qatar arnawlı izertlewlerde [2,3,4] júdá qızıqlı pikirler bildirilgen. Haqıyqatında da, xalıq awız-eki dóretpeleri kútá erte dáwirlerden baslap qáliplesip, biziń búgingi kúnimizge shekem óziniń rawajlanıw jolın dawam ettirip kiyatırǵan bay mádeniy-ádebiy ǵáziynemiz sanaladı. Bul dóretpelerdiń kishi janrlarınan baslap, úlken kólemdegi dástanlarǵa shekem xalqımızdıń mádeniy turmısında óziniń áhmiyyetli ornına iye. Ásirese, biziń keleshegimiz bolǵan jas áwladtı tárbiyalawda, olardıń sana-sezimin, oy-órisin rawajlandırıwda áwızeki ádebiy shıǵarmalardıń úlken orın tutatuǵınlıǵı bárshemizge málim.

Folklorlıq shıǵarmalar payda bolıw dáwirlerinen baslap balalar psixologiyasına tereń tásir etip, olardıń kámil insan dárejesinde ósip jetilisiwinde áhmiyetli funktsiyanı atqarıp kelgen. Máselen, besik jırı, balalar qosıqları, salt-dástúr qosıqları, naqıl-maqallar, jańıltpash hám jumbaqlar balalardı kishi jasınan baslap tárbiyalawda belgili dárejede xızmet atqarǵan. Al, ertekler hám dástanlar tárbiya quralı sıpatında úlken

jastaǵı balalar ushın kóplep dóretilgen. Bul shıǵarmalardı dóretiwshiler úlken jastaǵılar menen bir qatarda balalardıń da psixologiyalıq talǵamın qabıl etiw, túsiniw hám sezim múmkinshiliklerin esapqa alǵan halda jaratqan hám xalıq arasında awızdan-awızǵa ótip tarqalǵan.

Búgingi biz jasap turǵan dáwir informatsiya tarmaqlarınıń rawajlanǵan, balalar sanasın hár tárepleme rawajlandırıwda keń múmkinshilikler jaratılǵan dáwir bolsa da, ata-babalarımızdan miyras bolıp kiyatırǵan awızeki dóretpeler de ele óz qádirin joytqan joq. Olar kishi mektep jasıntaǵı balalardıń psixologiyasın rawajlandırıw quralı sıpatında paydalanılıp kiyatır. Bul baǵdarda kórkem shıǵarmalardaǵı qaharman psixologiyasınıń, yaǵnıy aytqanda, psixologizmlerdiń tutqan ornı ayrıqsha. Sebebi, psixologizm - kórkem shıǵarmalarda qaharmanlardıń ishki ruwqıy dúnyasın, olardıń ádep-ikramlıq belgilerin ashıp beriwshi kórkem súwretlew quralı bolıp tabıladı.[1:170]

Demek, hár qanday kórkem shıǵarmada qatnasıwshı qaharmanlardıń ádep-ikramlıq normalarınıń júzege shıǵıwı oqıwshıda da belgili bir psixologiyalıq tásir etiw kúshine iye boladı.

Qaraqalpaq xalqınıń ótken ásir dawamında dóretken awızeki ádebiyatınıń barlıq janrlarında xalıq turmısı óz sáwleleniwin tapqan. Olarda xalıqtıń túpkilikli arzıw-ármanları kórsetilip ǵana qoymastan, bul ármanlarǵa jetkergendey sezimtallı lirika menen hár bir uǵımdı balalarǵa qonımlı etip, sheber jetkere biliw ata-ananıń balalarǵa bergen wásiyatnaması retinde kórinedi.

Balalar folkloı «Besik jırı»nan baslanadı. Olardı analar atqarǵan menen negizgi tásir kúshi balalardıń sanasına baǵdarlanǵan. «Besik jırın»day názik sezimlerge tolı qosıqlardı tańlap ata-anasına, eline degen súyispenshilik, mehribanlıq sezimleri menen ósedi. Demek, balanıń psixolgiyasın rawajlandırıw onıń nárestelik paytınan baslanadı.

Kishi mektep jasındaǵı balalar ushın arnalǵan «Balalar qosıqları» bolsa olardıń psixologiyasına unamlı tásir etiwshi xızmet atqaradı. «Túlkishek», «Hákke qayda», «Áwelemen dúwelemen» h.t.b. sıyaqlı oyın túrindegi balalar qosıqları tek ǵana balalardıń waqıtın mazmunlı ótkeriwde ǵana emes, olardıń sana-sezimin, kórkem sózge qushtarlıǵın, shaqqanlıǵın hám ómirge talpınıwshılıq qásiyyetlerin atqarıwda da kútá áhmiyetli.

Bul qosıqlardı búgingi kúndegi bala tárbiyası islerinde ónimli qollanıw maqsetke muwapıq boladı. Sebebi, balalardıń psixologiyasında milliy maqtanısh sezimlerin qáliplestiriwde, ótmish áwladlarımızdı, bay tariyxımızdı, mádeniyatımızdı úyrenip ótken jas áwlad kleshekte de óz Watanın qásterlep, ardaqlaytuǵın kámil insan bolıp jetilisiwi gúmansız.

Sonday-aq balalar qosıqlarınıń jáne bir nátiyjeli tárepi sonda, bul qosıqlardıń kópshiligi aytıs formasında, dialoglarǵa qurılǵan bolıp, balalardan háreketsheńlikti de talap etedi. Sol ushın da balalar folkloı jaslardı miynet súygishlikke, yadlaw qábiletiniń rawajlanıwında da áhmiyyetli ornı bar. Usılardı esapqa alıp meketepke shekemgi tárbiya orınlarında, baslawısh klass oqıwshıları sabaqlarına balalar qosıqların engiziwde ámelge asırıw lazım dep oylaymız. Bul nárse óz náwbetinde tez arada óziniń unamlı nátiyjesin beriwi sózsiz.

Paydalanǵan ádebiyatlar

1. Axmetov S., Yesenov J., Járimbetov Q. Ádebiyattanıw atamalarınıń orıssha-qaraqalpaqsha túsindirme sózligi. -Nókis: «Bilim», 1994.
2. Qurbanbayev I. Qaraqalpaq balalar ádebiyatı.-Nókis: «Bilim», 1992.
3. Сапарбаев Т. Нравственное воспитание младших школьников средствами устного народного творчество.-АД на соиск. уч.ст. к.п.н.-Ташкент, 1998.
4. Тлегенов А. Воспитание у подростков духовно-нравственных ценностей средствами народных дастанов.-АД на соиск.уч. ст. к.п.н.-Ташкент, 1998.

XALQ PEDAGOGIKASIDA KIChIK YoShDAGI BOLALARNI TOPIShMOQLAR ORQALI INSONNI IDROQ QILIShGA O`RGATISh AN'ANALARI

Avezmuratova Zulayho-Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi
Ibragimova L.A-NMPI dotsenti

Har qanday ijod mahsuli kabi topishmoqlar ham insoniyat bilan hamnafas asrlar osha rivojlanib, takomillashib, insonning dunyoni bilishi, idrok etishining bir vositasi sifatida hukm surib, yashab kelmoqda. Ularda insoniyatning dastlabki tirikchilik vositasi, kasb-hunari, turmush tarzi, uning hayot kechirishi, o`z faoliyatini olib borishi uchun zarur bo`lgan maishiy qurollari, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechagi, xulq-atvori kabilar o`z ifodasini topgan.

Ma'lumki, insoniyat tirikchiligining bosh manbai chorvachilik va dehqonchilikdir. Hali insoniyat madaniy hayot kechirish davriga yetmasdan ilgari o`z tirikchiligini chorvachilik va dehqonchilik bilan amalga oshirgan. Chorvachilik insonlarning eng qadimgi kasbi bo`lib, o`z hayotini yo`lga qo`yishga, ovlangan hayvonlarning ba'zilarini qo`lga o`rgatib, chorvachilik bilan shug`illanishga o`tganlar.

Topishmoqlar ham, eng avvalo, insonlarga yaqin, ularning doimiy kuzatuvida bo`lgan narsalarga bag`ishlangan. Chunki topishmoqqa olingan narsa va predmetlarni topishmoq aytuvchi ham, uni topuvchi shaxs ham doim ko`rib, yoki eshitib, xususiyatlarini bilib, kuzatib yurgan. Shu tariqa topishmoqdagi narsa har ikki tomon ongida ham gavdalanadigan narsadir.

Shuni ham qayd etish zarurki, tabiyatdagi jonzotlarni kichik yoshdagi bolalarning atroflicha bilib olishi , o`larga xos xususiyatlarning bola ongida o`rnashib qolishi, ularning tabiyi, ijtimoyi belgilariga sinchkovlik bilan nazar qilish har bir hayvonni aniq tasavvur qilish imkoniyatini paydo etishi aniq misollarda berilgan. Masalan:

On eki túye, on biye
Toǵız sıyır, bes eshki
eki yarım qoyan
úsh túlki

Degan topishmoqda ushbu hayvonlarning tulash (jun tashlash) vaqti aniqlab berilgan, ya'ni tuyaning o`n ikki, otning o`n, sigirnig to`qqiz, echkining besh, quyonning ikki yarim, tulkining uch oyda jun tashlash mavsumi kelishini nihoyatda topqirlik bilan qayd etadi. Bundan bolada tabiyatning biz bilmagan qonuniyatlari

mavjud ekanligi, uning yashirin sirlari qanday sodir bo`lishi mumkinligi haqida fikr yuritib, ularni bilib olishga bo`lgan qiziqishi ortishi, har bir hayvonning inson bilmagan sirli belgilari borligi, ba'zi jonzotlarning o`lkamizga kelishi, ketishida ob-havoning o`zgarishi asosiy mezon bo`lib xizmat qilishi kabi fikrlar bola dunyoqarashining o`sishiga, tabiat hodisalariga qizikishi va ular tilsimini yechishga intilishi kabilarni maydonga keltiradi, bolalar bular haqida mushoda yuritishga, mantiqiy fikrlash saviyasining o`sishiga zamin hozirlanadi.

Topishmoqlar ham insonni kashf etishga, uning belgilari, fikr-hayoli , qalb sirlari, insoniy fazilatlari, umr yo`llaridagi voqea-hodisalar, a'zolari, mardlik va qahramonliklari , insoniy hislatlari, aloqalari, munosabatlarini topishmoqda aks ettirishga intilgan va ular boshlang`ich kashfiyotchilik, inson mo``jizasini, fenomenini qamrab olishga bo`lgan intilish, oyna sifat inson borlig`ini tasvirlash, tarannum etishning sodda va halqano ko`rinishidir. Masalan,

Azanda tórt ayaqlap júredi
Túste eki ayaqlap júredi
Keshte úsh ayaqlap júredi

deyilgan topishmoqda inson umriga xos tabiiy qonuniyat inson onadan tug`ilgach, kichkina paytida emaklab , to`rt oyoqlab yo`rishi, kattagaygach, ikki oyoqlab yo`rishi, qarigach xassa tayanib uch oyoqlab yurishi aks ettirilgan. Bu katta falsafaviy, hech bir inson bundan qochib qutila olmaydi. Bolaga ushbu falsafani idrok qildirish uchun hayotiy misollar keltirish , uning o`zining hayotdagi o`rni nimadan iborat ekanligini tushintirish, o`qtirish, har bir soat va kunni g`animat bilib hayotni mazmunli va na'munali yashashga ilhomlantirish, shu orqali uning kelajakda kim bo`lib, qanday yashash zarurligi haqidagi fikrlarini mantiq torazusiga solib ko`rib, uni mantikiy fikr dunyosiga chomiltirish zarur.

Insonga xos narsalar tilsimli xazina, mubolag`ali narsa-predmet sifatida ko`rsatiladi, va o`quvchilarni o`ylashga, fikr yuritishga yetaklaydi: «bazarda tabılmaydı, tárezige tartılmaydı, ózi paldanda tatlı, biraq onı jep bolmaydı» (uyqu); «bir tawdıń basında eki lashın, kórmeydi qansha ushsada tawdıń basın» (bosh-ko`z); «qatar-qatar tas qoydım, jiyren attı bos qoydım» (tis-til). Inson a'zolari har xil topishmoqlardan o`rin olgan va xuddi zinapoyadek biridan keyin boshqasi ramzlar vositasida tasvirlanavergan: «uzın qayır, uzın qayır astında qara qayır, qara qayır astında jılpıldawıq, jılpıldawıq astında pısıldawıq, pısıldawıq astında toqıldawıq» (soch,qosh, kiprik, ko`z, burin, til).

Topishmoqlarda insonga zarur bo`lgan buyumlar, mehnat kirollari ,ovchilik asboblari, ro`zg`or buyumlari, kiyim-kechak, tikuvchilik, etikchilik, durodgarlik, temirchilik xar xil narsalardagi nakshlar topishmoqlarda aks etib , ularning yaratilishi inson turmush sharoitining o`zgarishi, hayotdagi rivojlanish natijasida yangi topishmoqlar yaratilgan va ushbu ijodiy jarayon hayot bilan xamqadam rivojlanib borgan. Bular ijod maxsuli sifatida topishmoqlarning inson va uni o`rab turgan atrof muhit, kasb-hunar , inson turmush tarzi va shug`ullanayotgan sohalari bilan bog`liq holda ko`p tushinchilarning nomlari sifatida topishmoqqa jalb etilib , yosh avlodning tabiyat va jamiyat haqidagi bilimlari, malaka va ko`nikmalarining shakllanishi va takomillashib borishiga zamin hozirlaydi. Demak, inson butun umri davomida tarbiyaga muhtoj. Shu sababli ham uni jamiyat uchun foydali, ongli, barkamol,

ma’naviy-madaniy yetuk etib tarbiyalash tarbiya maskanlarining, qolaversa, butun jamoatchilikning vazifasi. Ayniqsa, oila bu o`rinda muhim vazifa bajaradi. Kichik yoshdagi bolaga ota-onaga, aka-uka, opa-singil va boshqa qarindoshlarga hurmat hissini singdirish bolaning yaxshi xulqli bo`lib kamol topishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmetov S., Yesenov J., Járimbetov Q. Ádebiyattanıw atamalarınıń orıssha-qaraqalpaqsha túsindirme sózligi. -Nókis: «Bilim», 1994.

2. Jumbaqlar Baspaǵa tayarlaǵanlar: Abbazov S., Alımov Á.-Nókis: QQMB, 1963.

3. Qurbanbayev I. Qaraqalpaq balalar ádebiyatı.-Nókis: «Bilim», 1992.

4. Сапарбаев Т. Нравственное воспитание младших школьников средствами устного народного творчество.-АД на соиск. уч.ст. к.п.н.-Ташкент, 1998.

5. Тлегенов А. Воспитание у подростков духовно-нравственных ценностей средствами народных дастанов.-АД на соиск.уч. ст. к.п.н.-Ташкент, 1998.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA MUSIQIY TARBIYA BERISHDA TARBIYACHINING KREATIVLIGI

Kalkorazova Shaxrizada – Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti musiqiy ta’lim mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Tayanısh túsinikler: Mektepke shekemgi jastaǵı balalar, kórkem psixologiya, estetikalıq tásir, estetikalıq tárbiya, psixologiyalıq rawajlanıw ortalıǵı, balalar folklorı hám tárbiya.

Ключевые слова: Дети дошкольного возраста, художественный психологизм, эстетическое влияние, эстетическое воспитание, средства психологического развития, детский фольклор и воспитание.

Key words: Children of preschool age, psychology area, aethetik influence, children’s folklore, aesthetic education, the means of psychological devclopment, childre’s folklore and education.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga musiqiy tarbiya berishdagi pedagogning asosiy vazifasi-bu bolalarda musiqa tinglashda paydo bo`lgan emotsoinal javob berish, eshitish qobiliyatlarini rivojlantirish, tovushlarning yuqori yoki pastligini ajratish qobiliyatini rivojlantirish bo`lib topiladi. Musika darslarida pedagog bolalarni qo`shiq aytishga o`rgatadi. Bolalarda ritmikani rivojlantirishda tarbiyachi ularni musiqa ostida yurishga oddiy o`yin (tantsa) harakatlarini bajarishga, qo`l shappatlashga va boshqalar o`rgatish. Shuningdek, bolalarni musiqa ostida predmetlar bilan murakkab emas harakatlar ishlashga o`rgatadi. Masalan : bayroqchani yuqori ko`tarish.

Musiqa tinglashda o`yinchoq ko`rsatishda keng qo`llaniladi. Bu demak qo`shiqning mazmuniga qarab tanlanib olinadi. Kichik bolalarning musiqiy tarbiyasi faqatgina darslarda emas, kundalik hayotida amalga oshiriladi. O`rta guruhlarda musiqiy tarbiya bo`yicha tarbiyachining vazifasi bolalarni musiqaga tortish, unga degan qiziquvchanligini tarbiyalash. Bolalarning musiqaga degan hislarini boyitish, unga

degan javobini shakllantirish kerak. Qo`shiq aytishda bolaning tovushi musiqaga degan qobiliyatini rivojlanadi.

Bolalarning musiqaga degan hislarini boyitib, unga degan javobini shakllantirish kerak. Qo`shiq aytishda bolaning tovushi musiqaga degan qobiliyati rivojlanadi. O`yin va tantsalarda harakatlarning tartibliligi shakllanadi. Musiqa darsida bolalarga yaxshi tovush bilan o`zgalarni aniq aytish orqali qo`shiq aytishga o`rgatiladi. Bu bolalar odatda tez o`zlashtira olmaydi. U dastlab so`zlarni aytishi mumkin. Shuningdek bolalarni musiqa xarakterini sezib, uni o`yinlarida berishga o`rgatish kerak. Qo`shiqlar, raqslar (tantsalar), bolalarning yosh imkoniyatlariga qarab tanlab olinadi. Qo`shiqlar murakkab emas, takrorlanishi naqoratlari bilan bo`lishi kerak. Qo`shiqlarning xarakteri bog`chada o`tkaziladigan ertaklarning mazmuniga karab tanlanib olinadi. Bolalar ayniqsa tabiat, yomg`ir, quyosh, gullar va h. haqidagi qo`shiqlarni qanaotlandirish bilan tinglaydi.

Pedagog qo`shiq o`rgatishda dastlab uning mazmunini tushuntirib, so`ng uning bajarilish sifatini nazorat qiladi. Kata guruhlarda musiqiy tarbiya berish asosida tarbiyachining vazifasi musikaga degan qiziquvchanlik uyg`otish, quvonib bilishga o`rgatish, tinglash tilagini uyg`otish. Musiqa yordamida ularda Vatanga, xalqiga muhabbatini uyg`otish kerak.

Maktab yoshigacha bolalar o`ynash xarakatini o`zlashtirilgan bo`lishi kerak. Bolalar musiqiy tarbiyasi ularning rivojlanishi va o`qitilishi kattalar tomonidan quyidagicha metodlarni qo`llangan sharoitda amalga oshiriladi. Kattalar tomonidan musiqani ta`sirli bajarish, qisqa va obrazli tushuntirishlar, topshiriq, ko`rsatmalar va badiiy harakatning usulini ko`rsatish bu'lib xisoblanadi. Musiqa asboblari haftasiga 2 marta o`tkaziladi. Kata guruhda dars davomiyligi 30-35 minut. Bolalarni musiqiy, estetik tomonidan tarbiyalashni amlaga oshirish uchun musika asbob, qo`llanma o`yinchoqlar kerak bo`ladi. Har xil musiqiy asarlar bilan tushuncha berishga musiqiy mavzuga Yangi o`yin o`ylab topishdan iborat. Musiqiy tarbiya mashg`ulotlarini bog`cha tarbiyasi bilan bog`liq bog`chada o`tkaziladigan har xil rejalarni va tayyorliklarni o`rganilgan kuy va qo`shiqlardan keng turda foydalanish, har xil ertaliklar, kontsertlar tashkil qilish orqali musiqa kundalik hayotimizning ajralmas yo`ldoshi ekanligi haqida bolalarda tushuncha qoldirish, bolalar bog`chasida va maktablarda musiqa bilan shug`ullanishi asosan qo`shiq aytishga, musiqa tinglash, musiqaning ritmiga harakat qilish, bolalarning yoshiga mos tovush diapazoniga loyiq qo`shiqlarni aytish, shuningdek soz asboblarida kuylarni o`rganishdan iborat bo`lganasosiy musiqaning elementlari haqida uslubiy tushunchalar beramiz.

Shu sohada aytilgan barcha qoidalar bolalar bog`chasidagi musiqiy tarbiyaning vazifalarini aniqlab berishga imkon tug`diradi, bu qoidalar bolaning shaxsining har tomonlama tarbiyalashning umumiy maqsadiga bo`ysundirilib, musiqiy san`atning farqi bilan maktab yoshigacha bolalarning yosh xususiyatlari hisobga olib ishlanadi. Musiqani sevishni va qiziquvchanlikni tarbiyalash, bu vazifa bolaning eshitgan asarlarining mazmunini chuqurroq sezib, tushunishga yordamlashadigan musiqiy idrok qilishni, musiqani esda saqlash qobiliyatini rivojlantirish yo`li bilan echiladi. Musiqaning tarbiyaviy ta`siri amalga oshiriladi. Bolalarni har xil musiqiy asarlar bilan tanishtirib, ularning musiqiy tasavvurlarini boyitish kerak. Bolalarni musikaning eng oddiy tushunchalari bilan tanishtirish, musiqa tinglash, qo`shiq aytish, musiqiy navo

harakat bolalarning musiqiy asboblarida o`ynash sohasidagi qobiliyatini rivojlantirish kerak. Emotsoinal ta`sir olish sensor qobiliyatlari bilan lad baland tovushlarni ajrata bilishni, navo tovushini takomillashtirib, qo`shiqchilik tovush bilan harakatlarini rivojlantirish kerak.

Qo`shiq aytishning oddiy turiga va qiymil harakatlariga o`rgatish, bu ishda musiqiy asarlarning tabiiy va ta`sirli bajarilishini nazorat qilish kerak. Olgan ta`sirlari bilan musiqa xaqidagi tushunchalari asosida musiqiy didini paydo bo`lgan bolalarning dastlabki ko`rinishiga yordamlashish kerak, u uchun eng avval ularning musiqiy asarlarini tinglashga, so`ng kuzata bilishga yordamlashgan to`g`ri. Musiqaning bolalarga tushunarli barcha tushunchalarida o`yinlar bilan xorovodlarda xarakterli obrazlarni berishda, o`rgangan o`yin harakatlarini o`zlari topgan yangi uylesimlardan foydalanishda, esdan chiqargan qo`shiqlarni aytishda ijodiy chaqqonlikni rivojlantira berish kerak. Shunda har tomonlama o`rgangan repertuarni kundalik hayotda qo`llanishga degan intsiativa paydo bo`ladi, musiqiy asboblarda o`ynashga, qo`shiq aytishga degan xushtorlik shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T.: O'qituvchi, 1993.

2.Xasanboeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta`lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo,2006.

3.Nafisa Yusupova. Musiqa savodi metodikasi va ritmika. T.: Musiqa, 2010.

Internet saytlari

4. www. tdpu. uz

5. www. Ziyonet. Uz

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA SAN'ATNING ROLI

Jaxmetova Aynura Azamatovna Ajiniyoz nomidagi NDPI 2 kurs magistranti
Ilmiy rahbar L.Ibragimova-Maktabgacha ta'lim kafedrasi dotsenti

Kalit so'zlar: ijodkorlik, maktabgacha ta'lim, san'at, estetik tarbiya, kreativ rivojlanish, pedagogik yondashuv

Ключевые слова: творчество, дошкольное образование, искусство, эстетическое воспитание, креативное развитие, педагогический подход

Keywords: creativity, preschool education, art, aesthetic education, creative development, pedagogical approach

Maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Ushbu davrda bolaning tafakkuri, tasavvuri, hissiy dunyosi va ijodiy qobiliyatlari jadal rivojlanadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda bolalarning ijodkorligini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ijodkorlik insonning mustaqil fikrlashi, yangilik yaratishi va muammolarga noodatiy yondashuvi bilan bog'liq bo'lgan muhim sifat hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun samarali vositalardan biri san’at hisoblanadi. San’at orqali bola o‘z ichki dunyosini ifoda etadi, estetik didini shakllantiradi va atrof-muhitni chuqurroq anglay boshlaydi. Shu sababli san’at faoliyatini ta’lim jarayoniga keng joriy etish dolzarb pedagogik masalalardan biri hisoblanadi.

Ijodkorlik shaxsning yangi g‘oyalar yaratish, yangicha fikrlash va muammolarni noodatiy tarzda hal etish qobiliyatini ifodalaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlik tabiiy ravishda rivojlanadi, biroq uni maqsadli ravishda qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish pedagogik jarayonning muhim vazifasi hisoblanadi. Ushbu jarayonda san’at muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

San’at bolalarning estetik rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Estetik tarbiya orqali bolalar go‘zallikni anglashni, uni qadrlashni va yaratishni o‘rganadi. Bu esa ularning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. San’at faoliyati bolalarning tasavvurini kengaytiradi, ularni yangi obrazlar yaratishga undaydi va ijodiy faolligini oshiradi.

Maktabgacha ta’lim tizimida san’at faoliyati bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. San’at orqali bola nafaqat estetik jihatdan rivojlanadi, balki uning emotsional va ijtimoiy rivojlanishi ham ta’minlanadi. San’at faoliyati jarayonida bola o‘z his-tuyg‘ularini erkin ifoda etadi, bu esa uning psixologik holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

San’at faoliyatining pedagogik ahamiyati shundaki, u bolalarda mustaqil fikrlashni shakllantiradi. Bola san’at orqali o‘z fikrini ifoda etadi, bu esa uning nutqiy va tafakkur rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, san’at faoliyati bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodkorligini rivojlantirishda san’at faoliyatining turli yo‘nalishlari muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayon bolalarning tasavvurini boyitadi, ularni yangi g‘oyalar yaratishga undaydi va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. San’at faoliyati bolalarning shaxs sifatida shakllanishida muhim omil hisoblanadi.

San’at asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni bolalarning faolligini oshiradi. Bunday jarayonda bola passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa ta’lim samaradorligini oshiradi va bolalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Pedagogning roli san’at orqali ijodkorlikni rivojlantirish jarayonida alohida ahamiyatga ega. Pedagog bolalarga erkin ijod qilish uchun sharoit yaratishi, ularni rag‘batlantirishi va ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashi zarur. Pedagogning ijodiy yondashuvi bolalarning ijodiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

San’at orqali ijodkorlikni rivojlantirish jarayonida ta’lim muhitining ahamiyati ham katta. Rivojlantiruvchi muhit bolalarning ijodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlashi, ularni yangi g‘oyalar yaratishga undashi lozim. Bunday muhitda bola o‘zini erkin his qiladi va ijodiy faoliyatga faol jalb etiladi.

Biroq amaliyotda san’at faoliyatidan ijodkorlikni rivojlantirishda to‘liq foydalanilmayotgan holatlar ham uchrab turadi. Ayrim hollarda san’at faoliyati faqatgina ko‘ngilochar vosita sifatida qaraladi va uning pedagogik imkoniyatlari yetarli

darajada hisobga olinmaydi. Bu esa bolalarning ijodiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu sababli san’at faoliyatini ta’lim jarayoniga to‘g‘ri integratsiya qilish zarur. Bu jarayonda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish, pedagoglarning malakasini oshirish va ta’lim muhitini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

San’at orqali ijodkorlikni rivojlantirish jarayonida oilaning ham roli katta. Ota-onalar bolalarning ijodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlashi, ularning qiziqishlariga e’tibor qaratishi va erkin ijod qilishiga sharoit yaratishi zarur. Bu esa bolalarning ijodiy rivojlanishini yanada jadallashtiradi.

Zamonaviy ta’lim tizimida san’atning roli tobora ortib bormoqda. San’at orqali bolalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish ta’lim jarayonining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, ushbu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish va yangi metodikalarni ishlab chiqish zarur.

Xulosa o’rnida aytish joizki, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodkorligini rivojlantirishda san’at muhim pedagogik vosita hisoblanadi. U bolalarning estetik didini shakllantiradi, tasavvurini kengaytiradi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. San’at asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni bolalarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Ijodkorlikni rivojlantirish uchun pedagogik jarayonni to‘g‘ri tashkil etish, san’at faoliyatidan samarali foydalanish va bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. - Toshkent, 2022.

2. Xasanova M. "Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlash va uning rivojlanishiga oid metodik tavsiyalar". – Toshkent: O‘qituvchi. 2017

3. Otaxanova Manzura “Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy rivojlantirish texnologiyalari «Научный импульс» Toshkent, 2023

4. Muhammadiev Sh. “Maktabgacha ta’limda bolalar ijodiy faoliyatini rivojlantirish” – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018

MEKTEPKE SHEKEMGI BILIMLENDIRIW PROCESSINDE AXBOROT-KOMMUNIKACIYA TEXNOLOGIYALARINAN PAYDALANIW

Ibragimova L.A - NMPI docenti

Orazbeva Ulbogan Salamat qızı - Mektepke shekemgi tálim 3A kurs talabası

Tayanch tushunchalar:: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, maktabgacha ta’lim, raqamli texnologiyalar, interaktiv o‘yinlar, individual, vizual.

Ключевıе слова: Информационно-коммуникационные технологии, дошкольное образование, цифровые технологии, интерактивные игры, индивидуальные, визуальные.

Key words: Information and communication technologies, preschool education, digital technologies, interactive games, individual, visual.

Búgingi kúnde jámiyettiń barlıq tarawlarında axborat texnologiyalar keńnen engizilmekte. Bilimlendiriw sisteması da bul processten shette qalıp atırǵan joq. Ásirese, mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemlerinde axborat-kommunikaciya texnologiyalarınan (AKT) paydalanıw balalardıń hár tárepleme rawajlanıwına xızmet etpekte. AKT quralları járdeminde bilimlendiriw procesin jáne de qızıqlı, nátiyjeli hám zamanagóy shólkemlestiriw imkaniyatı jaratıladı.

Mektepke shekemgi jastaǵı balalar kóbirek kóriw hám esitiw arqalı informaciyanı tez qabıl etedi. Sol sebepli AKTdan paydalanıw olardıń jas ózgesheliklerine say keledi hám bilimlerdi ańsat ózlestiriwge járdem beredi.

Mektepke shekemgi bilimlendiriw processinde AKTdan paydalanıwdıń tiykarǵı abzallıqlarınan biri - bul balalardıń bilim alıwǵa bolǵan qızıǵıwshılıǵın arttırıw. Reńli súwretler, animaciyalar, videolar hám audio materiallar balalardıń dıqqatın tartadı hám olardı belsene qatnasıwǵa shaqıradı. Nátiyjede shınıǵıw procesi janlı hám nátiyjeli boladı. AKT quralları járdeminde tárbiyashı shınıǵıwdı hár túrli metodlar tiykarında shólkemlestiriwi múmkin. Máselen, interaktiv oyınlar arqalı balalardıń logikalıq pikirlewi, yadı hám oylawı rawajlanadı. Sonıń menen birge, balalar óz betinshe pikirlewge úyrenedi.

Zamanagóy bilim beriwde individual jantasıw úlken áhmiyetke iye. AKT bul baǵdarda úlken imkaniyat jaratadı. Hár bir balanıń qábileti hám rawajlanıw dárejesine qarap tapsırmalar beriw múmkin. Bul bolsa bilimlendiriwdiń sapasın jáne de arttıradı. Bunnan tısqarı, AKT tárbiyashınıń jumısın da jeńillestiredi. Elektron resurslar, tayar prezentaciyalar hám didaktikalıq materiallar shınıǵıwǵa tayarlıq waqtın qısqartadı. Sonıń menen birge, tárbiyashı óz shınıǵıwın jáne de kreativ hám nátiyjeli shólkemlestiredi. Bul interaktiv oyınlar tárbiyashi tárepinen mámleket talaplarına muwapıq Power Point baǵdarlamasında hám shınıǵıwda balalar menen birge oynaw ushin jaratılǵan boliwi zárúr. Máselen, "Imarat quramız," "Parqın tap," "Ne kemis," "Qátesin tap," "Quwırshaqtı kiyindiremiz," "Figurani jaylastır," "Súwretti boya" bilim beriw oyınların animaciyalıq súwretler járdeminde oynasa bala temaǵa baylanıslı berilgen bilimlerdi úlken qızıǵıwshılıq penen ózlestiredi. Bunnan tısqarı, AKT balalardıń dóretiwshilik qábiletlerin rawajlandırıwda da áhmiyetli qural esaplanadı. Súwret salıw, boyaw, túrli figuralardı jaylastırıw sıyaqlı tapsırmalar arqalı olar óz oy-pikirlerin erkin bildiredi. Animacion materiallar menen islew bolsa balalarda jańa ideyalardıń payda boliwina hám óz betinshe izleniwge qızıgıwshılıq oyatadi.

Mektepke shekemgi jastaǵı balalar tálim-tárbiyasında dástúriy tálim formaları menen kompyuterlestirilgen pedagogikalıq texnologiyalardı salıstırsaq, kompyuter-lestirilgen texnologiyalarda joqarı nátiyjeler baqlanadı. Kompyuter ekranında informaciyanıń oyın formasında sáwleleniwi balalarda usı iskerlik túrine bolǵan dıqqat hám qızıǵıwshılıqtı arttıradı. Háreket, ses hám de animaciyalıq kórinisler bala yadında uzaq waqıt saqlanıp qaladı. Mashqalalı wazıypalardıń qoyılıwı hám olardıń duris sheshimin kompyuter arqalı tabiw balalarda logikalıq pikirlew qábiletiniń rawajlanıwına unamlı tásir kórsetedi. Ózbekstan Respublikası mektepke shekemgi bilimlendiriw koncepciyasında atap ótilgenindey, kompyuter balaǵa individual qatnas jasaw imkaniyatın jaratadı. Bul proceste hár bir bala óziniń intellektual dárejesi hám jeke ózgesheliklerine qarap tapsırmalardı orınlaw imkaniyatına iye boladı.

Sonday-aq, bilimlendiriwde AKTdan paydalanıw tek pedagoglar ushın emes, ata-analar ushın da qolaylı imkaniyatlar jaratadı. Ata-analar balasınıń rawajlanıwın baqlap barıwı, olardıń jetiskenliklerin kóriwi hám bilimlendiriw procesine belsene qatnasıwı múmkin. Bul bolsa "balalar – tárbiyashı – ata-ana" ortasındağı sheriklikti bekkemleydi. Sol sebepli, AKTdan aqıllı hám orınlı paydalanıw arqalı mektepke shekemgi bilimlendiriw sistemasın jáne de jetilistiriw, zaman talaplarına juwap beretuǵın, bilimli hám kreativ shaxslar tarbiyalaw múmkin boladı. Sonıń menen birge, AKTdan paydalanıwda normaǵa ámel etiw zárúr. Balalardıń densawlıǵına zıyan jetkermew ushın ekran aldında otırıw waqtı shekleniwi kerek. Sonday-aq, tańlanǵan materiallar balalardıń jasına say hám qáwipsiz bolıwı kerek.

Juwmaqlap aytqanda, mektepke shekemgi bilimlendiriw procesinde axborat-kommunikaciya texnologiyalarınan paydalanıw bilimlendiriw nátiyjeliligin arttıradı, balalardıń bilim alıwǵa bolǵan qızıǵıwshılıǵın kúsheytedi hám olardıń intellektual rawajlanıwına unamlı tásir kórsetedi. AKTdan durıs hám maqsetke muwapıq paydalanıw tárbiyashıdan joqarı mamanlıq hám zamanagóy qatnastı talap etedi. Keleshekte mektepke shekemgi bilimlendiriw sistemasında AKTdan keń hám nátiyjeli paydalanıw áhmiyetli wazıypalardan biri bolıp qaladı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. O'zbekiston Respublikasini Prezidentining Qarori PQ-3261 — "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 09.09.2017.

2. UNESCO, Montoya S. Defining literacy. GAML fifth meeting, Germany, 2018.

3. Barnett, W. Preschool education for economically disadvantaged children: Effects on reading achievement and related outcomes. In S. B. Neuman & D. K. Dickinson (Eds.), Handbook of early literacy research, Vol. 1, pp. 421-443. New York: Guilford Press,

4. To'raqulov X.A. Pedagogik tadqiqotlarda axborot tizimlari va texnologiyalari. - T.;Fan, 2007.

5. Aziz xodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T.: 2018.

VIRTUAL REALLIQ (VR) ELEMENTLERIN QOLLANÍW ARQALÍ BALALARDÍŃ KÓZQARASÍN KEŃEYTIW

Mamirbayeva Gulnara Sagindikovna - Qońırat rayonı 17-sanlı MSHBSH tárbiyashısı

Tayanısh sózler: virtual reallıq, mektepke shekemgi bilimlendiriw, innovaciyalıq texnologiyalar, kózqaras, kognitiv rawajlanıw, interaktiv bilimlendiriw.

Kalit so‘zlar: virtual reallik, maktabgacha ta’lim, innovatsion texnologiyalar, dunyoqarash, kognitiv rivojlanish, interaktiv ta’lim.

Ключевые слова: виртуальная реальность, дошкольное образование, инновационные технологии, мировоззрение, когнитивное развитие, интерактивное образование.

Zamanagóy bilimlendiriw sisteması sanlı texnologiyalar menen tıǵız baylanıslı halda rawajlanıp barmaqta. Ásirese, mektepke shekemgi bilimlendiriw sistemasında innovaciyalıq texnologiyalardı engiziw balalardıń intellektuallıq hám jeke rawajlanıwında áhmiyetli faktor esaplanadı. Virtual reallıq (VR) texnologiyaları bul processte ayrıqsha orın iyelep, balalarǵa real turmısta kóriw qıyın bolǵan obekt hám hádiyselerdi úyreniw imkaniyatın beredi.

Virtual reallıq - bul paydalanıwshını jasalma jaratılǵan ortalıqqa alıp kiretuǵın zamanagóy texnologiya bolıp, ol arqalı insan túrli processlerge "tikkeley qatnasıp atırǵanday" sezinedi. Mektepke shekemgi bilimlendiriwde virtual reallıq elementlerinen paydalanıw balalardıń bilim alıwǵa bolǵan qızıǵıwshılıǵın arttıradı hám olardıń biliw iskerligin jedellestiredi. Bul bolsa oqıw procesin tek nátiyjeli emes, al qızıqlı hám motivaciyalıq jaqtan bay etedi.

Virtual reallıq texnologiyaları járdeminde balalar kosmos, okean túbi, tariyxıy estelikler, haywanat hám ósimlikler dúnyası sıyaqlı ortalıqlardı virtual túrde úyreniw imkaniyatına iye boladı. Bunday interaktiv "saparlar" arqalı bala qorshaǵan ortalıq haqqındaǵı bilimlerin keńeytedi hám óz tájiriybesin bayıtadı. Ásirese, abstrakt túsiniklerdi vizual túrde kórsetiw imkaniyatı balalar ushın quramalı bilimlerdi ańsat ózlestiriwge járdem beredi.

Virtual ortalıqtıń tiykarǵı abzallıqlarınan biri **immersivlik**, yaǵnıy tolıq "súńgiw" effekti bolip tabıladı. Bala virtual mákanda ózin real haqıyqatlıq ishinde sezedi, bul bolsa onıń dıqqatın maksimal dárejede toplawǵa járdem beredi. Nátiyjede úyreniw procesi tereńirek hám nátiyjelirek ótedi. Sonıń menen birge, virtual reallıq texnologiyaları multisensorlıq qatnastı támiyinleydi: bala bir waqıttıń ózinde kóredi, esitedi hám háreket etedi. Bul bolsa bilimdi bekkemlewde júdá áhmiyetli faktor esaplanadı.

Pedagogikalıq kózqarastan, virtual reallıq texnologiyaları konstruktivistlik bilim beriw qatnasına tolıq sáykes keledi. Bul jantasıw boyınsha, bala bilimdi tayar halda qabıl etpeydi, al onı óz tájiriybesi tiykarında quraladı. Bul pikirler ataqlı alımlar, atap aytqanda, Jan Piaje hám Lev Vygotsky teoriyalarında da óz kórinisin tapqan. Virtual reallıq bolsa tap tájiriybe tiykarında úyreniwdi támiyinleydi.

Sonday-aq, Virtual reallıq (VR) texnologiyalarınıń jáne bir áhmiyetli tárepi - bul differenciallıq qatnastı qollanıw imkaniyatı bolıp tabıladı. Hár bir bala óz qızıǵıwshılıǵı hám qábiletine sáykes túrde virtual tapsırmalardı orınlawı múmkin. Bul bolsa individual rawajlanıw pátin esapqa alıw imkaniyatın beredi.

Virtual oyınlar hám shınıǵıwlar balalarda tómendegi kompetenciyalardı qáliplestiredi:

- mashqalalı jagdaylardı sheshiw;
- sın kózqarastan hám logikalıq pikirlew;
- dóretiwshilik qatnas;
- óz betinshe qarar qabil etiw;
- informaciyanı analizlew hám juwmaq shıǵarıw.

Bunnan tısqarı, Virtual reallıq texnologiyalarınan paydalanıw balalardıń sociallıq rawajlanıwına da unamlı tásir kórsetedi. Topar bolıp orınlanatuǵın virtual tapsırmalar arqalı balalar birge islesiwdi, pikir alısıwdı hám jámáátte islewdi úyrenedi. Bul bolsa olardıń kommunikativ kompetenciyaların rawajlandıradı.

Sonıń menen birge, Virtual reallıq texnologiyaların qollanıwda abaylılıq ta zárúr. Mektepke shekemgi jastaǵı balalar ushın xirtual reallıq shınıǵıwları 5-10 minuttan aspawı usınıs etiledi. Bunnan tısqarı, texnologiyadan paydalanıwda gigiyenalıq talaplar, kóz salamatlıǵı hám psixologiyalıq jaǵday da inabatqa alınıwı kerek. Tárbiyashı bul proceste qadaǵalawshı, baǵdarlawshı hám shólkemlestiriwshi sıpatında belsendi qatnasadı.

Ámeliy jaqtan qaraǵanda, VR texnologiyaların mektepke shekemgi bilimlendiriwge engiziw tómendegi imkaniyatlardı jaratadı:

- bilimlendiriwdiń sapasın arttırıw;
- balalardıń oqıwǵa bolǵan motivaciyasın kúsheytiw;
- quramalı temalardı ápiwayılastırıw;
- innovaciyalıq bilimlendiriw ortalıǵın qáliplestiriw.

Keleshekte jasalma intellekt hám VR texnologiyalarınıń integraciyası bilimlendiriw procesin jáne de individuallastırıw imkaniyatın beredi. Máselen, hár bir bala ushın óz aldına virtual oqıw ortalıǵın jaratıw arqalı onıń qábiletlerin maksimal dárejede rawajlandırıw múmkin boladı.

Juwmaqlap aytqanda, virtual reallıq texnologiyalarınan mektepke shekemgi bilimlendiriw procesinde paydalanıw balalardıń dúnyaǵa kóz qarasın keńeytiwde júdá úlken imkaniyatlar jaratadı. Ol tek bilim beriw quralı emes, al balanı ǵárezsiz pikirleytuǵın, kreativ hám zamanagóy shaxs sıpatında qáliplestiretuǵın nátiyjeli pedagogikalıq qural bolıp esaplanadı. Sol sebepli, VR texnologiyaların bilimlendiriw sistemasına basqıshpa-basqısh hám ilimiy tiykarda engiziw áhmiyetli wazıypalardan biri esaplanadı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
2. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. – Toshkent: Maktabgacha ta’lim vazirligi, 2018.
3. John Dewey. *Experience and Education*. – New York: Kappa Delta Pi, 2007 (qayta nashr).
4. Sherman, W. R., & Craig, A. B. *Understanding Virtual Reality: Interface, Application, and Design*. – Morgan Kaufmann, 2018.
5. Radianti, J., Majchrzak, T. A., Fromm, J., & Wohlgenannt, I. Immersive virtual reality in education: A systematic review. – *Education and Information Technologies*, 2020.

MEKTEPKE SHEKEMGI BILIMLENDIRIW SHÓLKEMINDE ZAMANAGÓY MÁLIMLEME RESURSLARÍNAN PAYDALANÍW METODIKASÍ

N.Tleumuratova - Qońırat rayonı 22-sanlı MShBSh direktorı

Annotaciya: Usı teziste mektepke shekemgi bilimlendiriw procesine zamanagóy informaciya-kommunikaciya texnologiyaları (AKT) hám sanlı resurslardı engiziwdiń metodikalıq tiykarları kórsetilgen. Sonday-aq, AKT dan paydalanıwdıń balalardıń intellektuallıq rawajlanıwındağı ornı hám pedagoglardıń sanlı kompetenciyasına qoyılatuǵın talaplar tallanǵan.

Tayanısh túsinikler: sanlı bilimlendiriw, multimedia, interaktiv metodlar, IKT-kompetenciya, mektepke shekemgi bilimlendiriw, gamifikaciya.

Kalit so‘zlar: Raqamli ta’lim, multimedia, interaktiv metodlar, AKT kompetensiya, maktabgacha ta’lim, geymifikatsiya.

Ключевые слова: цифровое образование, мультимедиа, интерактивные методы, ИКТ-компетенция, дошкольное образование, геймификация.

Búgingi kúnde bilimlendiriw sistemasın sanlastırıw mámleketlik siyasattıń tiykarǵı baǵdarlarınan biri bolıp esaplanadı. Mektepke shekemgi jastaǵı balalardıń informaciyanı qabıl etiw psixologiyası vizuallastırıwǵa tiykarlanǵanlıǵı sebepli, bilimlendiriw procesine multimedia quralların alıp kiriw oqıw nátiyjeliligin arttırıwdıń tiykarǵı faktorı bolıp esaplanadı. Mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemi sistemasında qollanılatuǵın zamanagóy resurslardı shártli túrde tómendegi toparlarǵa ajıratıw múmkin:

Multimedia resursları: Interaktiv oyınlar - bul balanıń ekrandaǵı obyektler menen tikkeley qatnasta bolıwı. Bul proceste bala baqlawshıdan aktiv qatnasıwshıǵa aylanadı. Balanıń mayda motorikasın hám kóz-qol koordinaciyasın rawajlandıradı. Máselen, "Smart-doska"da geometriyalıq figuralardı ornına qoyıw yamasa reńlerdi ajıratıw oyınları balada logikalıq juwmaqlar jasawdı úyretedi. Saralaw oyınları (klassifikaciyalaw), labirintler, "artıǵın tap" sıyaqlı didaktikalıq oyınlar. Oyın nátiyjesi balaǵa dárhal (dawıslı yamasa vizual signal arqalı) málim bolıwı kerek: "Bárekella!" yamasa "Qayta urınıp kóriń!."

Audio-ertekler vizual súwretlersiz tek dawıs arqalı xabar beretuǵınlıǵı ushın balanıń fantaziyasın maksimal dárejede islewge májbúrleydi. Balanıń sóz baylıǵın arttıradı hám durıs sóylewdi qáliplestiredi. Professional sóylewshiler tárepinen oqılǵan ertekler balaǵa intonaciya hám pauzalardıń áhmiyetin úyretedi. Ertekti esittiriwden aldın mashqalalı soraw qoyıladı. Mısalı: "Ertek qaharmanı bul jaǵdaydan qalay shıǵıp ketti dep oylaysız?." Audio-resurslar balanıń dıqqatın jámlew (auditiv dıqqat) qábiletin rawajlandıradı, bul bolsa mektepte muǵallimniń sózin túsiniw ushın tiykar boladı.

Multfilmler hám animaciyalar mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemi jasındağı bala ushın eń kúshli bilim beriw quralı bolıp esaplanadı, sebebi olar "háreketleniwshi obrazlar" arqalı maǵlıwmat beredi. Tábiyattaǵı ózgerisler (mısalı, jawınnıń jawıwı, gúbelektiń qáliplesiwi) sıyaqlı kóz benen kóriwge bolmaytuǵın yamasa uzaq waqıt talap etetuǵın proceslerdi 1-2 minutta túsindirip beredi. Animaciyalıq rólikler "agressiv" reńlerden jıraq, kadrlar almasıwı áste hám balanıń

psixologiyasına sáykes, tárbiyalıq áhmiyetke iye bolıwı shárt. Multfilm kórip bolınnan soń, álbette, "Ne ushın?," "Qaharman durıs isledi me?" sıyaqlı sorawlar menen talqılanıwı kerek.

Programmalıq qurallar: Smart-doska (interaktiv doska) - bul ápiwayı ekran emes, al tárbiyashı hám bala arasındaǵı vizual baylanıs maydanı.

"Drag and Drop" (Jılıstırıp bariw) usılı: Bala elementlerdi ekranda qolı menen jıljıtıp, toparlarǵa bóledi (mısalı, miywelerdi bir sebetke, palız ónimlerin basqasına).

Ximiyalıq yamasa fizikalıq proceslerdi (máselen, reńlerdi aralastırıw yamasa suwdıń agregat halatların) qáwipsiz hám túsinikli tárizde kórsetiw. Súwretlerdiń artına jasırıngán maǵlıwmatlar arqalı balada "jumbaq" elementin payda etiw. Balalar ushın ápiwayılastırılǵan sızıw modulleri. Durıs juwap tańlanǵanda "kúlip turǵan quyashsha" yamasa muzıka jańlaytuǵın kewilli viktorinalar.

Aralıq platformalar: Pedagoglar hám ata-analar ortasındaǵı keri baylanıstı támiyinlewshi sistemalar. Bul sistemalar "baqsha-shańaraq" shınjırınıń úzliksizligin támiyinlewge xızmet etedi hám tómendegi funkciyalardı atqaradı:

Monitoring hám esabat: Balanıń qatnasıwı, densawlıǵı hám rawajlanıw kórsetkishlerin sanlı qadaǵalaw.

Informaciya almasıw: Kún tártibi, menyu, ilajlar hám daǵazalardı ata-analarǵa real waqıt rejiminde jetkerip beriw.

Metodikalıq járdem: Úy sharayatında bala menen islew ushın tárbiyashılar tárepinen usınıslar beriw.

Házirgi kúnde mektepke shekemgi bilimlendiriwdi sanlastırıw sheńberinde bir qansha sistemalar engizilgen:

1. EMSHBS (Mektepke shekemgi bilimlendiriwdi basqarıw málimleme sisteması): Dawamlılıq, náwbetke turıw hám xızmetkerlerdi basqarıwdıń oraylasqan sisteması.

2. Mobil qosımshalar (máselen, "Balajan"): Ata-analar ushın balanıń baqshadaǵı turmısı haqqında maǵlıwmat beriwshi interaktiv qural.

3. Sociallıq tarmaqlar hám messendjerler (Telegram kanallar): Tez baylanıs hám video esabatlar ushın eń ǵalabalı rásmiy emes platforma.

AKTdan paydalanıwda pedagog tómendegi metodikalıq principlerge ámel etiwi kerek:

1. Vizuallıq principi: Abstrakt túsiniklerdi (máselen, kosmos, tábiyat qubılısları) video-materiallar arqalı túsindiriw.

2. Geymifikaciya (Oyın arqalı oqıtıw): Bilim beriw tapsırmaların kompyuter oyınları formasında usınıw arqalı balanıń motivaciyasın arttırıw.

3. Waqıt normasına ámel etiw: Sanitar-gigienalıq talaplarǵa bola, 5-7 jastaǵı balalar ushın ekran aldındaǵı waqıt 10-15 minuttan aspawı kerek.

Informaciya resurslarınan durıs paydalanıw nátiyjesinde:

- Balalarda kognitiv procesler (diqqat, yad, kóz aldına keltiriw) jedellesedi;
- Shınıǵıwlarǵa bolǵan qızıǵıwshılıq hám belsendilik dárejesi artadı;
- Pedagogtıń jumıs waqtı únemlenedi hám materialdı kórsetiw sıpatı jaqsılanadı.

Mektepke shekemgi bilimlendiriwde zamanagóy málimleme resurslarınan paydalanıw tek ǵana texnikalıq qural emes, al bilimlendiriwdiń sapasın jańa basqıshqa

alıp shıǵatuǵın metodikalıq qural bolıp esaplanadı. Biraq, texnologiya janlı pedagogikalıq baylanıstı biykarlamawı, kerisinshe, onı bayıtıwı kerek.

Paydalanilgan ádebiyatlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O‘zbekiston strategiyasi". – Toshkent: "O‘zbekiston" nashriyoti, 2021-yil.
2. Djuraeva D.R. va boshqalar. "Maktabgacha ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar". – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2015-yil.
3. Gulyamov S.S. "Ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari". – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2018-yil.
4. O‘zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida"gi Qonuni. 2019-yil 16-dekabr.

TARBIYACHI VA BOLALAR O‘RTASIDAGI PSIXOLOGIK MUNOSABATLARNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Erejepova Gulbanu Batirbay qizi Ajiniyoz nomidagi NDPI, 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar **G.Turebekova**

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, psixologik munosabat, tarbiyachi, bola shaxsi, emotsional rivojlanish, pedagogik muloqot.

Ключевые слова: дошкольное образование, психологические отношения, воспитатель, ребенок, эмоциональное развитие, педагогическое общение.

Keywords: preschool education, psychological relationships, educator, child, emotional development, pedagogical communication.

Maktabgacha ta’lim tizimi bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda bolalarda nafaqat bilim va ko‘nikmalar, balki emotsional holat, ijtimoiy munosabatlar va o‘ziga bo‘lgan ishonch shakllanadi. Shu jarayonda tarbiyachi va bola o‘rtasidagi psixologik munosabatlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Tarbiyachi bolaning rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy subyektlardan biri bo‘lib, uning pedagogik faoliyati faqat bilim berish bilan cheklanmaydi. U bolaga nisbatan mehr, e’tibor va tushunish orqali uning ichki dunyosini shakllantiradi. Shu bois mazkur munosabatlarni ilmiy asosda o‘rganish va takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

Tarbiyachi va bola o‘rtasidagi psixologik munosabatlar pedagogik jarayonning ajralmas qismi bo‘lib, ular bolaning shaxsiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu munosabatlar ishonch, hurmat, mehr va hamkorlik tamoyillari asosida shakllanishi zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalar sezgir va emotsional jihatdan faol bo‘lganligi sababli, ular kattalarning munosabatiga tez ta’sirchan bo‘ladi. Agar tarbiyachi bolaga ijobiy yondashsa, uni qo‘llab-quvvatlasa va rag‘batlantirsa, bolada o‘ziga ishonch, faoliyatga qiziqish va ijobiy kayfiyat shakllanadi. Aksincha, sovuqqon yoki befarq munosabat bolaning ichki dunyosiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Psixologik jihatdan qulay muhit yaratish tarbiyachining asosiy vazifalaridan biridir. Bunday muhitda bola o‘zini erkin his qiladi, fikrini ochiq ifodalay oladi va faol ishtirok etadi. Bu esa uning nutqiy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tarbiyachi va bola o‘rtasidagi samarali muloqot pedagogik muvaffaqiyatning muhim omili hisoblanadi. Muloqot jarayonida tarbiyachi bolaning yosh xususiyatlarini, individual imkoniyatlarini va psixologik holatini inobatga olishi zarur. Har bir bola o‘ziga xos bo‘lganligi sababli, ularga individual yondashuv qo‘llash muhimdir.

Bundan tashqari, tarbiyachining nutqi, mimikasi, ovoz ohangi va umumiy xatti-harakati ham bola psixikasiga ta’sir ko‘rsatadi. Samimiy va muloyim munosabat bolada ijobiy emotsiyalarni uyg‘otsa, keskin va qo‘pol munosabat aks ta’sir ko‘rsatadi.

Amaliyotda tarbiyachi va bola o‘rtasidagi psixologik munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda ayrim muammolar uchrab turadi. Jumladan, ayrim pedagoglarda psixologik bilim va kommunikativ ko‘nikmalarning yetarli darajada shakllanmaganligi kuzatiladi.

Shuningdek, guruhlarda bolalar sonining ko‘pligi ham har bir bola bilan individual ishlash imkoniyatini cheklaydi. Bu esa psixologik munosabatlarning sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ba’zi hollarda tarbiyachining kasbiy zo‘riqishi yoki emotsional charchoqlari ham bolalar bilan munosabatlarga ta’sir qiladi. Bu esa pedagogik jarayonda ziddiyatli holatlarning yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin.

Tarbiyachi va bola o‘rtasidagi psixologik munosabatlarni yanada takomillashtirish uchun quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratish lozim:

-pedagoglarning psixologik bilim va kompetensiyalarini oshirish;

-samarali pedagogik muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish;

-har bir bolaga individual yondashuvni ta’minlash;

-ijobiy psixologik muhit yaratish va tarbiyachilarning emotsional holatini qo‘llab-quvvatlash.

Shuningdek, treninglar, seminarlar va amaliy mashg‘ulotlar orqali pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, tarbiyachi va bola o‘rtasidagi psixologik munosabatlar maktabgacha ta’lim samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Ushbu munosabatlar bolaning shaxs sifatida shakllanishi, uning ijtimoiylashuvi va emotsional rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli pedagogik faoliyatda insonparvarlik, mehr-oqibat va individual yondashuv tamoyillariga asoslanish zarur. Faqat shundagina sog‘lom psixologik muhit yaratiladi va ta’lim jarayoni yuqori samaradorlikka erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umarova N.Sh., Arziqulov D.N. Umumiy psixologiya / O‘quv qo‘llanma-T.: “Fan va texnologiya”, 2018y.-220 b. - ISBN 978-9943-11-964

2. Абрамова Г.С. Возрастная психология: Учебное пособие для вузов. М.: Академический Проект, 2019г.- 623 с.

3. Бабаева D.P, Алиходжаева Г.С. Детская психология и психодиагностика ТГПУ, Учебник, Т:2023г.

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA INTERFAOL METODLARNING O'RNI VA IMKONIYATLARI

Bobojonova Muyassar Obod qizi-Nukus davlat pedagogika instituti “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi”(maktabgacha ta’lim) 1-bosqich magistranti
Pazilov Mirbek Arzievich -NDPI Maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o’qituvchisi, p.i.b.f.d. (PhD)

Kalit so'zlar: interfaol metodlar, maktabgacha ta'lim, bolalar rivojlanishi, pedagogik innovatsiya, faol o'rganish, ta'lim texnologiyalari.

Ключевые слова: интерактивные методы, дошкольное образование, развитие детей, педагогические инновации, активное обучение, образовательные технологии.

Keywords: interactive methods, preschool education, child development, pedagogical innovation, active learning, educational technologies.

Bugungi kunda ta'lim tizimini isloh qilish davlatimiz siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim — shaxsning intellektual, ijtimoiy va emotsional rivojlanishining poydevori sifatida alohida e'tiborni talab etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori hamda «2030-yilgacha bo'lgan davrda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi»[1] bu sohaga davlat e'tiborining yanada kuchayganini tasdiqlaydi.

An'anaviy ta'lim usullari ko'p hollarda bolalarning ijodiy tafakkuri va mustaqil fikrlash qobiliyatini to'liq rivojlantirishga imkon bermaydi. Shu bois, interfaol metodlarning maktabgacha ta'limga tatbiq etilishi ilmiy-pedagogik muhitda katta qiziqish uyg'otmoqda. Interfaol ta'lim — bu o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi ikki tomonlama muloqotga asoslangan, bilimlarni faol o'zlashtirish jarayonini ta'minlaydigan yondashuv bo'lib, u an'anaviy «ko'rsatish-tushuntirish» usulidan tubdan farq qiladi.

Interfaol ta'lim metodologiyasi bir qancha xorijiy olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Amerikalik psixolog J. Piajening konstruktivizm nazariyasi bolaning bilimni passiv qabul qiluvchi emas, balki faol yaratuvchi ekanligini asoslab bergan [2]. L. S. Vigotskiyning «Yaqin rivojlanish zonasi» kontseptsiyasi esa bolalar o'rtasidagi hamkorlikka asoslangan o'rganishning ahamiyatini nazariy jihatdan mustahkamlagan.[3]

Tadqiqotchilar o’z tadqiqotlari natijalarida pedagogika sohasida bir nechta o’quv modellari farq qilinishini ta’kidlagan: 1. Passiv – bola mashg’ulotning “obekt” sifatida ishlaydi (tinglash va tomosha qilish) 2. faol – bola mashg‘ulotning “mavzusi” sifatida ishlaydi (mustaqil ish, ijodiy vazifalar) 3. Interfaol – bola va o‘qituvchining o‘zaro ishlashi ekanligi haqida fikr yuritganlar [4]. Albatta, maktabgacha ta'lim tizimida interfaol metodlarning o'rni juda muhimdir. Interfaol metodlar, o'quvchilarning o'rganish jarayonini yanada samarali qilish va ularning motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Bunday metodlar, an’anaviy dars usullaridan farqli ravishda, o'quvchilarni faollashtirish va ularning bilim darajasini oshirish maqsadida amalga

oshiriladi. Bu metodlar orqali o'quvchilar, axborot texnologiyalaridan (kompyuterlar, smartfonlar, planshetlar) foydalanib, ma'lumotlarga tez va qulaylik bilan kirishi mumkin bo'ladi.

Interfaol metodlarning turlari va xususiyatlari haqida fikr yuritadigan bo’lsak, maktabgacha yoshdagi bolalarda interfaol metodlar quyidagi yo’llar orqali olib boriladi:

1. O'yin orqali o'rganish (game-based learning) - o'yin maktabgacha yoshdagi bolalar uchun eng tabiiy faoliyat turi hisoblanadi. Pedagogik o'yinlar nafaqat qiziqarli vaqt o'tkazish vositasi, balki murakkab kognitiv ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyatini ham beradi. Didaktik o'yinlar, rolli o'yinlar va muammoli vaziyatlar orqali bolalar mantiqiy fikrlash, muammolarni hal etish va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradilar.

2. Loyiha usuli (Project-Based Learning) - loyiha usuli bolalarni real hayotiy vaziyatlarga yaqin muammolarni hal etishga yo'naltiradi. Bu usulda bolalar kichik guruhlar bo'lib, biror mavzu yoki muammoni chuqur o'rganib, o'z natijalarini namoyish etadilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, loyiha usuli bolalarda mas'uliyat hissi, ijodiy fikrlash va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda ayniqsa samarali ekanligini tasdiqlaydi.

3. Muammoli ta'lim (Problem-Based Learning) - muammoli ta'lim metodida bolalarga tayyor javob berilmaydi — aksincha, ular mustaqil ravishda yechim izlashga yo'naltiriladi. Pedagog «nima uchun?», «qanday qilib?», «agar shunday bo'lsa nima bo'ladi?» kabi savollari orqali bolaning kritik tafakkurini rivojlantiradi. Bu metod bolalarda qiziquvchanlik, izlanish va yangilikka ochiqlik kabi muhim sifatlarni tarbiyalaydi.

4. Hamkorlikda o'rganish (Cooperative Learning) - hamkorlikda o'rganish metodida bolalar kichik guruhlarda birgalikda ish olib boradilar. Har bir bola guruh muvaffaqiyatiga hissa qo'shishi kerak bo'lgan alohida rol yoki vazifaga ega bo'ladi. Bu metod bolalarda muloqot ko'nikmalari, empati va do'stona raqobat tuyg'usini shakllantiradi.

5. Raqamli va multimedia vositalari - zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari maktabgacha ta'limda ham keng qo'llanilmoqda. Interaktiv doskalar, ta'lim ilovalar va animatsion dasturlar bolalarning e'tiborini jalb etishda, mavzuni ko'rgazmali tarzda tushuntirishda va o'rganilgan bilimlarni mustahkamlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tizimida interfaol metodlarning qo'llanilishi — zamonaviy pedagogik fanining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashda katta imkoniyatlar yaratadi. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, interfaol metodlar nafaqat bilim berish jarayonini samarali qiladi, balki bolalarda ijodiy tafakkur, mustaqillik, kommunikativ kompetentlik va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda ushbu metodlarni maktabgacha ta'lim tizimiga keng miqyosda joriy etish uchun bir qancha tizimli muammolarni hal etish lozim: pedagog kadrlarni tayyorlash sifatini oshirish, moddiy-texnik bazani yaxshilash va milliy sharoitga moslashtirilgan metodologik bazani shakllantirish zarur. Ushbu muammolarni

hal etish yo'lida davlat, ilmiy muassasalar va pedagog hamjamiyatining hamkorlikdagi sa'y-harakatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi PQ-3261-sonli Qarori «Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida». — Toshkent, 2017.

2. Piaget, J. The Psychology of the Child. Basic Books, New York. (1972).

3. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press. (1978).

4. Suvanova Sevara Baxodir qizi ‘’Maktabgacha yoshdagi bolalar ning aqliy tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish’’ Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi 130 b

BO‘LAJAK TARBIYACHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

Mektepke shekemgi jastaǵı balalarda súwretlew iskerliginiń túrli formalarınan paydalanıw texnologiyası ata-ana hám pedagog birge islesiwin kúsheytedi. Ata-analar úy sharayatında balalardı súwret salıw, boyaw, applikaciya hám ılaydan model soǵiwga tartsa, bul process balalardıń sociallıq kónlikpelerin rawajlandıradı. Pedagoglar hám ata-analar tárepinen jaratılgan sistemalı jantasıw balalardıń dóretiwshilik rawajlanıwın nátiyjeli qollap-quwatlaydı.

Mektepke shekemgi jastaǵı balalarda dóretiwshilik hám fantaziyanı rawajlandırıwda súwretlew iskerliginiń túrli formalarınan paydalanıw texnologiyası ilimiy tiykarlanǵan, pedagogikalıq ámeliyatqa sáykes hám nátiyjeli qural esaplanadı. Bul texnologiya balalardıń dóretiwshilik qábiletlerin kompleksli túrde rawajlandırıw, fantaziyanı qáliplestiriw hám jeke kórsetiw imkaniyatların keńeytiw imkaniyatın beredi. Sonıń menen birge, zamanagóy texnologiyalar hám innovaciyalıq qurallardan paydalanıw pedagogikalıq processti jáne de nátiyjeli etedi, balalardıń individual qábileti hám qızıǵıwshılıqların esapqa alǵan halda shınıǵıwlardı shólkemlestiriw imkaniyatın beredi.

Juwmaq sıpatında aytıw múmkin, mektepke shekemgi jastaǵı balalarda dóretiwshilik hám fantaziyanı rawajlandırıwda súwretlew iskerligi túrlerinen paydalanıw texnologiyası tek ǵana ilimiy tiykarlanǵan emes, al pedagogikalıq ámeliyatta keń qollanılıwı múmkin bolǵan nátiyjeli qural ekenligi dálillendi. Mektepke shekemgi bilimlendiriw mákemelerinde dóretiwshilik rawajlanıwdı qollap-quwatlaw hám balalar fantaziyasın qáliplestiriwge ayrıqsha itibar qaratıw kerek**.**

Paydalanilǵan ádebiyatlar.

1. Sharipova T.S. Bolalarning ijodiy rivojlanishi va tasviriy faoliyat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 15-b.
2. O‘zbekiston Respublikasi. **“**Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun. – Toshkent, 2019.
3. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. – Toshkent, 2018.
4. Sharipova T.S. Bolalarning ijodiy rivojlanishi va tasviriy faoliyat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 120 b.
5. Mamatqulov Sh. Fantaziya va ijodkorlikni shakllantirish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2019. – 98 b.
6. Sharipova T.S. Bolalarning ijodiy rivojlanishi va tasviriy faoliyat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 120 b.
7. Mamatqulov Sh. Fantaziya va ijodkorlikni shakllantirish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2019. – 98 b

MEKTEPKE SHEKEMGI JASTAĠI BALALARDA ÁDEP-IKRAMLILIQ TARBIYASIN QÁLIPLESTIRIWDE XALIQ AWIZEKI DÓRETIWSHILIGINEN PAYDALANIWDIŃ ÁHMIYETI

Uzakbayeva Jadra Azamatovna-University of innovation technologies 1-basqısh studenti

Annotaciya: Bul teziste mektepke shekemgi jastaģı balalardı ádep-ikramlılıq jaqtan tárbiyalaw procesinde xalıq awızeki dóretiwshiliginiń pedagogikalıq áhmiyeti kórsetilgen. Ertek, naqıl, jumbaq hám ráwiyatlar arqalı balalarda unamlı ádep-ikramlılıq pazıyletlerdi qáliplestiriwdiń nátiyjeli usılları ilimiy tiykarda tallanģan.

Tayanish sózler: ádep-ikramlılıq tárbiya, xalıq awızeki dóretiwshiligi, mektepke shekemgi bilimlendiriw, ertek, naqıl-maqal, balalar rawajlanıwı, mánawiyat.

Аннотация: В данной работе рассматривается значение устного народного творчества в нравственном воспитании детей дошкольного возраста. Анализируются педагогические возможности сказок, пословиц и других жанров фольклора.

Ключевые слова: нравственное воспитание, устное народное творчество, дошкольное образование, сказка, пословица.

Annotation: This thesis explores the importance of folk oral creativity in the moral education of preschool children. The pedagogical potential of fairy tales, proverbs, and folklore genres is analyzed.

Keywords: moral education, folklore, preschool education, fairy tales, proverbs.

Mektepke shekemgi jas dáwiri insan ómirindegi eń áhmiyetli hám juwapkershilikli basqıshlardan biri esaplanadı. Áyne usi dáwirde balanıń shaxs sipatında qáliplesiwi, oniń dúnya qarası, minez-qulqı hám ádep-ikramlılıq qádiriyatları tiykar salınadı. Psixolog hám pedagog ilimpazlardıń aytıwınsha, 3-7 jas aralıģı balalarda sociallıq normalar hám ádep-ikramlıq túsiniklerdi ózlestiriwdiń eń aktiv dáwiri bolıp, bul dáwirde berilgen tárbiya keyingi ómir basqıshlarında áhmiyetke iye boladı.

Házirgi globallasıw hám informaciyalasıw processleri kúsheyip baratırģan sharayatta jas áwladtı hár tárepleme bárkamal, ruwxıy jetik, ádep-ikramlı insanlar etip tárbiyalaw áhmiyetli wazıypalardan biri bolıp esaplanadı. Jámiyettiń rawajlanıwı, sociallıq turaqlılıq hám milliy qádiriyatlardıń saqlanıwı tikkeley jas áwladtıń ádep-ikramlılıq jetikligine baylanıslı. Sol sebepli Ózbekstan Respublikasının mektepke shekemgi bilimlendiriw tarawına tiyisli normativ-huqiqiy húJjetlerinde de balalardı hár tárepleme rawajlandırıw, ásirese, olardıń ruwxiy-ádep-ikramlılıq tárbiyasına ayrıqsha itibar qaratılgan [6].

Ádep-ikramlılıq tárbiya - bul shaxsta jámiyet tárepinen qabıl etilgen minez-qulıq normaları, qádiriyatlar hám sociallıq qatnasıqlardı qáliplestiriwge qaratılgan quramalı pedagogikalıq process bolıp, ol balada jaqsılıq hám jamanlıqtı ajırata biliw, hadallıq, ádillik, miyrim-shápáát, húrmet sıyaqlı pazıyletlerdi rawajlandırıwdı názerde tutadı. Mektepke shekemgi jastaģı balalarda ádep-ikramlıq sıpatlar kóbirek seziwsheńlik, eliklew hám obrazlı pikirlew arqalı qáliplesedi. Sol sebepli bul proceste kórkemlew

qurallarınan, ásirese xalıq awızeki dóretiwshiliginen paydalanıw úlken nátiyje beredi [3].

Xalıq awızeki dóretiwshiligi - bul xalıqtıń ásirler dawamında qáliplesken ruwxıy miyrası bolıp, onda milliy qádiriyatlar, ádep-ikramlılıq normaları, úrp-ádetler hám turmıslıq tájiriybe jámlengen[1]. Ertekler, naqıl-maqallar, jumbaqlar, ráwiyatlar hám dástanlar arqalı balalarga jaqsılıq hám jamanlıq, ádillik hám jawızlıq, hadallıq hám insapsızlıq sıyaqlı túsinikler ápiwayı hám túsinikli formada jetkeriledi. Ásirese ertekler balalardıń sanasına kúshli tásir etip, olardıń minez-qulqın qáliplestiriwde áhmiyetli rol oynaydı. Sonday-aq, xalıq awızeki dóretiwshiligi balalarda tek ǵana ádep-ikramlılıq pazıyletlerdi emes, al sóylew mádeniyatı, pikirlew, kózqaras hám sociallıq qatnas kónlikpelerin de rawajlandıradı. Folklor shıǵarmalarındaǵı obrazlar arqalı balalar óz is-háreketlerin bahalawdı, basqalarǵa durıs múnásibette bolıwdı úyrenedi. Bul bolsa olardıń sociallıq beyimlesiwi hám shaxs sipatında kamalǵa keliwinde áhmiyetli faktor bolip xizmet etedi [5].

Ádep-ikramlılıq tárbiya pedagogika pániniń áhmiyetli bagdarlarınan biri bolip, ol shaxsta jámiyet tárepinen qabıl etilgen minez-qulıq normaları hám qádiriyatlardı qáliplestiriwge xizmet etedi. Pedagog ilimpaz F.R. Qadirovanıń aytıwınsha, mektepke shekemgi jastaǵı balalarda ádep-ikramlılıq sıpatları tiykarınan sezimlik ańlaw, eliklew hám sóylesiw arqalı qáliplesedi hám bul proceste kórkem qurallar ayrıqsha áhmiyetke iye boladı[2].

Psixolog ilimpaz Z.T. Nishonova bolsa balalarda ádep-ikramlılıq sanasınıń qáliplesiwi olardıń sociallıq ortalıq penen óz ara qatnası nátiyjesinde júzege keletuǵının atap ótedi. Onıń pikirinshe, balalar dáslep úlkenlerdiń is-háreketin baqlaydı, sońınan onı óz iskerliginde sáwlelendiredi[4]. Sol sebepli mektepke shekemgi bilimlendiriwde tárbiyalıq qurallardı durıs tańlaw áhmietli.

Shet el izertlewshilerinen biri bolǵan Lev Vıgotskiy balalardıń rawajlanıwında sociallıq ortalıq hám mádeniy qurallardıń ornı sheksiz ekenligin atap ótedi. Onıń mádeniy-tariyxıy teoriyasına kóre, bala ózlestirip atırǵan bilim hám qádiriyatlar sociallıq tájiriybe arqalı qáliplesedi. Bul bolsa xalıq awızeki dóretiwshiliginiń tárbiyalıq áhmiyetin jáne de kúsheytedi.

Xalıq awızeki dóretiwshiligi balalarda ádep-ikramlılıq pazıyletlerdi qáliplestiriwde nátiyjeli qural bolıp, ol arqalı milliy hám ulıwma insanıylıq qádiriyatlar sińdiriledi. Ózbek folklortanıwshı alım Ǵ. Abdurahmanov xalıq awızeki dóretiwshiligin "xalıqtıń ruwxiy turmısı, dúnyaqarası hám ádep-ikramlılıq kózqarasların sáwlelendiriwshi bay derek" sipatında bahalaydı.

Ertekler balalardıń sanasına kúshli tásir etiwshi janr bolıp, onda jaqsılıq hám jamanlıq arasındaǵı gúres ayqın sáwlelendiriledi. Pedagog ilimpaz O. Xudoyberdievanıń pikirinshe, ertekler arqalı balalarda ádep-ikramlılıq pazıyletler obrazlar arqalı ańsat hám nátiyjeli qáliplesedi.

Naqıl-maqallar xalıq danalıǵınıń kórinisi bolıp, olar arqalı balalarda durıs minez-qulıq kónlikpeleri qáliplesedi. Naqıl-maqallar qısqa hám anıq bolǵanı ushın balalar tárepinen tez yadlanadı hám ámeliyatta qollanıladı. Pedagogikalıq izertlewler sonı kórsetedi, naqıl-maqallar arqalı berilgen ádep-ikramlılıq ideyalar balalarda uzaq múddetli este saqlanadı hám olardıń minez-qulqına unamlı tásir kórsetedi.

Jumbaqlar balalarda logikalıq pikirlewdi rawajlandıradı, sonıń menen birge sabır-taqat hám diqqat sıyaqlı sıpatlardı qáliplestiredi. Ráwiyatlar bolsa tariyxıy hám ruwxıy qádiriyatlardı jetkerip, balalarda húrmet, izzet hám watansúyiwshilik sezimlerin rawajlandıradı.

Juwmaqlap aytqanda, mektepke shekemgi jastaǵı balalardı ádep-ikramlılıq jaqtan tárbiyalaw procesi úzliksiz, sistemalı hám maqsetke baǵdarlanǵan pedagogikalıq jumıstı talap etedi. Bul processte balalardıń jas hám individual ózgesheliklerin esapqa alǵan halda nátiyjeli qurallar hám metodlardı tańlaw úlken áhmiyetke iye. Usınday qurallardıń biri sıpatında xalıq awızeki dóretiwshiligi ayrıqsha orın ieleydi. Xalıq awızeki dóretiwshiligi mektepke shekemgi jastaǵı balalarda ádep-ikramlılıq pazıyletlerdi qáliplestiriwde kúshli pedagogikalıq resurs esaplanadı. Ertekler, naqıl-maqallar, jumbaqlar hám ráwiyatlar arqalı balalarga jaqsılıq hám jamanlıq, hadallıq hám insapsızlıq, doslıq hám dushpanlıq sıyaqlı túsinikler ápiwayı, obrazlı hám túsinikli formada jetkeriledi. Bul bolsa balalardıń ádep-ikramlılıq sanasın rawajlandırıwǵa, olardıń minez-qulqın durıs baǵdarlawǵa xızmet etedi.

Sonday-aq, xalıq awızeki dóretiwshiligi balalarda tek ǵana ádep-ikramlılıq pazıyletlerdi emes, al sóylewdiń rawajlanıwı, pikirlew, kózqaras hám sociallıq qatnas kónlikpelerin de qáliplestiriwge járdem beredi. Ásirese, ertek qaharmanları obrazları arqalı balalar óz is-háreketlerin bahalaw, unamlı hám unamsız minez-qulıqtı ajıratıw, basqalarǵa miyrim-shápáátli bolıw sıyaqlı kónlikpelerdi iyeleydi. Bul bolsa olardıń shaxs sipatında bárkamal bolip qáliplesiwinde áhmiyetli faktor bolip xizmet etedi.

Talqılawlar sonı da kórsetedi, xalıq awızeki dóretiwshiliginen paydalanıw tek ǵana bilim beriw quralı bolıp qalmastan, al balalardıń sezim-emocionallıq rawajlanıwına da unamlı tásir kórsetedi. Balalar ertek hám ráwiyatlar arqalı qaharmanlarga tilekles boliwdi, olardıń jagdayın seziwdi úyrenedi. Nátiyjede olarda empatiya, yaǵnıy basqalardı túsiniw hám olarǵa járdem beriwge umtılıw sıyaqlı áhmiyetli ádep-ikramlılıq pazıyletler qáliplesedi.

Bunnan tısqarı, xalıq awızeki dóretiwshiligi balalarda milliy ózlikti ańlaw, milliy qádiriyatlarǵa húrmet hám sadıqlıqtı rawajlandıradı. Búgingi globallasıw sharayatında bul júdá áhmietli bolıp, jas ávladtı ruwxıy jaqtan bekkem, óz qádiriyatlarına sadıq shaxs etip tárbiyalawda folklordıń ornı sheksiz. Usı tiykarda tómendegi ilimiy-ámeliy juwmaqlarǵa keliw múmkin:

- mektepke shekemgi bilimlendiriw procesinde xalıq awızeki dóretiwshiliginen paydalanıw ádep-ikramlılıq tárbiyasınıń nátiyjeliligin arttıradı;
- folklor janrları balalardıń jas ózgesheliklerine say kelip, olardıń qızıǵıwshılıǵın oyatadı hám bilimlendiriw procesin janlandıradı;
- ertek hám basqa janrlar arqalı berilgen ádep-ikramlılıq ideyalar balalardıń sanasında bekkem ornaydı;
- xalıq awızeki dóretiwshiligi balalarda sociallıq beyimlesiw, sóylesiw mádeniyatı hám erkin pikirlew kónlikpelerin rawajlandıradı.

Ulıwma alǵanda, xalıq awızeki dóretiwshiligi mektepke shekemgi jastaǵı balalardı ádep-ikramlılıq jaqtan tárbiyalawda tek ǵana dástúriy emes, al zamanagóy pedagogikalıq talaplar kózqarasınan da áhmiyetli hám nátiyjeli qural esaplanadı. Onı

tálim-tárbiya procesine keńnen engiziw arqalı ruwxıy jetik, ádep-ikramlı hám sociallıq belsendi áwladtı tárbiyalaw múmkin.

Paydalanilǵan ádebiyatlar

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
2. Қодирова Ф.Р. Мактабгача педагогика. – Тошкент: Ўқитувчи, 2019. – 320 б.
3. Худойбердиева О. Болалар адабиёти ва фольклор. – Тошкент: Фан, 2017. – 240 б.
4. Нишонова З.Т. Педагогик психология. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 300 б.
5. Тўхтаева Н.Г. Мактабгача таълим методикаси. – Тошкент: Фан ва технология, 2020. – 256 б.
6. Абдураҳмонов Ғ. Ўзбек халқ оғзаки ижоди. – Тошкент: Фан, 2016. – 280 б

MEKTEPKE SHEKEMGI JASTAǴI BALALARDA SOCIALLIQ KÓNLIKPELERDI QÁLIPLESTIRIWDE TÁRBIYASHINIŃ ORNI

Kurbanbayeva Moldir Abatbay qiz- Innovaciyalıq texnologiyalar universiteti mektepke shekemgi tálim baǵdarı 2-kurs studenti

Annotaciya: Bul teziste mektepke shekemgi jastaǵı balalarda sociallıq kónlikpelerdi qáliplestiriw procesinde tárbiyashınıń ornı, pedagogikalıq jantasıwları hám nátiyjeli metodları kórsetilgen. Sonday-aq, sociallıq kompetenciyalardı rawajlandırıwda oyın, pikirlesiw hám innovaciyalıq texnologiyalardıń áhmiyeti ilimiy tiykarda analizlengen.

Tayanish sózler: sociallıq kónlikpe, mektepke shekemgi bilimlendiriw, tárbiyashi, kompetenciya, qarım-qatnas, oyın iskerligi, sociallasıw.

Аннотация:В данной статье рассматривается роль воспитателя в формировании социальных навыков у детей дошкольного возраста. Освещаются педагогические подходы, методы и значение игровой деятельности и общения в развитии социальных компетенций.

Ключевые слова: социальные навыки, дошкольное образование, воспитатель, компетенция, общение, игровая деятельность.

Abstract: This thesis explores the role of educators in developing social skills in preschool children. It highlights pedagogical approaches, methods, and the importance of play and communication in fostering social competencies.

Keywords: social skills, preschool education, educator, competence, communication, play activity.

Búgingi globallasıw sharayatında jámiyettiń hár tárepleme rawajlanıwı, bárinen burın, bárkamal áwladtı tárbiyalaw menen tikkeley baylanıslı. Ásirese, mektepke shekemgi jas dáwiri bala shaxsınıń qáliplesiwinde eń áhmiyetli basqısh esaplanadı. Bul dáwirde balalarda tek bilim hám kónlikpeler emes, al sociallıq minez-qulıq, qarım-qatnas mádeniyatı, jámáátte islesiw uqıbı sıyaqlı sociallıq kónlikpeler de qáliplesedi.

Ózbekstan Respublikasında mektepke shekemgi bilimlendiriw sistemasın rawajlandırıwǵa ayrıqsha itibar qaratılıp, bir qatar normativlik-huqıqıy húJjetler qabıl etilgen. Sonıń ishinde, 2017-jıl 30-sentyabrdegi PQ-3305-sanlı qarar, "Mektepke shekemgi bilimlendiriw sistemasın túp-tiykarınan jetilistiriw ilajları haqqında"ǵı[1] párman hám 2019-jıldaǵı "Mektepke shekemgi bilimlendiriw sistemasın 2030-jılǵa shekem rawajlandırıw koncepciyası" bul tarawdaǵı reformalardıń tiykarın quraydı[2].

Mektepke shekemgi jastaǵı balalarda sociallıq kónlikpelerdi qáliplestiriw mashqalası zamanagóy pedagogika hám psixologiyanıń áhmiyetli máselelerinen biri esaplanadı. Sebebi, áyne usı jas dáwirinde bala shaxs sıpatında qáliplesiwin baslaydı hám onıń jámiyetke beyimlesiwi ushın zárúr bolǵan tiykarǵı kompetenciyalar rawajlanadı. Sociallıq kónlikpeler degende balalardıń átiraptaǵılar menen nátiyjeli qarım-qatnas jasaw, jámáátte islew, óz sezimlerin basqarıw, basqalardıń pikirin húrmet etiw hám tartıslı jaǵdaylardı tınısh jol menen sheshe alıw qábiletleri túsiniledi. Bul kónlikpeler keyingi bilimlendiriw basqıshlarında tabısqa erisiwdiń áhmiyetli faktorı esaplanadı.

Mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkeminde bul kónlikpelerdi qáliplestiriwde tárbiyashınıń ornı ayrıqsha áhmiyetke iye. Tárbiyashı balalar ushin tek bilim beriwshi shaxs emes, al olardıń kúndelikli minez-qulqına, sóylesiw usılına hám sociallıq qatnasıqlarına tikkeley tásir kórsetiwshi áhmiyetli pedagogikalıq figura esaplanadı. Ol óziniń jeke úlgisinde balalarǵa durıs qatnasta bolıw, húrmet, birge islesiw hám miyrim-shápáát sıyaqlı sociallıq qádiriyatlardı sińdiredi. Sol sebepli tárbiyashınıń kásiplik sheberligi, pedagogikalıq mádeniyatı hám psixologiyalıq qatnası balalarda sociallıq kónlikpelerdi qáliplestiriw nátiyjeliligin belgileytuǵın tiykarǵı faktorlardan biri bolıp esaplanadı.

Tárbiyashi tárepinen jaratılgan unamlı psixologiyalıq ortalıq balalardıń erkin pikir bildiriwine, ózin kórsetiwine hám jámáátke beyimlesiwine járdem beredi. Ásirese, kishi toparlarda shólkemlestirilgen iskerlik, birgeliktegi oyınlar hám sóylesiwler arqalı balalar óz ara sóylesiwdi, bir-birin tıńlawdı hám pikir almasıwdı úyrenedi. Bul proceste tárbiyashı balalardıń individual ózgesheliklerin esapqa alǵan halda, hár birine ayrıqsha qatnas jasawdı ámelge asıradı. Bul bolsa olardıń sociallıq rawajlanıwında áhmietli rol oynaydı.

Sociallıq kónlikpelerdi rawajlandırıwda oyın iskerligi ayrıqsha orın tutadı. Mektepke shekemgi jastaǵı balalar ushın oyın tiykarǵı iskerlik túri bolıp, áyne oyın procesinde olar sociallıq rollerdi ózlestiredi, hár qıylı jaǵdaylarda qalay háreket etiwdi úyrenedi hám óz-ara múnásibetlerdi qáliplestiredi. Syujetli-rolli oyınlar arqalı balalar "shańaraq," "dúkan," "emlewxana" sıyaqlı sociallıq ortalıqlardı modellestirip, onda belsene qatnasadı. Bul bolsa olarda birge islesiw, juwapkershilik hám sóylesiw mádeniyatın rawajlandıradı. Tárbiyashı bolsa bul procesti basqarıp, balalardıń duris sociallıq minez-qulıqtı iyelewine bagdarlaydı. Bunnan tısqarı, sóylesiwge tiykarlanǵan metodlar da sociallıq kónlikpelerdi rawajlandırıwda nátiyjeli esaplanadı. Tárbiyashı balalar menen turaqlı sáwbetler ótkeriw arqalı olardıń sóylewin rawajlandıradı, pikirlew qábiletin keńeytedi hám óz pikirin anıq bayan etiwge úyretedi. Sonıń menen birge, balalarda basqalardı tıńlaw, soraw beriw hám juwap qaytarıw sıyaqlı kommunikativ

kompetenciyalar qáliplesedi. Bul bolsa olardıń keleshekte sociallıq belsendi bolıp jetilisiwine tiykar jaratadı.

Solay etip, mektepke shekemgi jastaǵı balalarda sociallıq kónlikpelerdi qáliplestiriw kóp qırlı pedagogikalıq process bolıp, onda tárbiyashınıń roli sheshiwshi áhmiyetke iye. Ol balalar ushın qolaylı tálim-tárbiya ortalıǵın jaratadı, olardı sociallıq turmısqa tayarlaydı hám jámiyette óz ornın taba alatuǵın shaxs sıpatında qáliplesiwine járdemlesedi.

Balalarda sociallıq kónlikpelerdi nátiyjeli qáliplestiriwde tárbiyashınıń roli sheksiz. Tárbiyashı tárepinen jaratılǵan pedagogikalıq-psixologiyalıq ortalıq, qollanılıp atırǵan metod hám jantasıwlar, sonday-aq, onıń jeke úlgisine tiykarlanǵan tásiri balalardıń sociallıq rawajlanıw dárejesin belgilep beredi. Ásirese, oyın iskerligi, baylanısqa tiykarlanǵan metodlar hám interaktiv texnologiyalar arqalı balalarda sociallıq kompetenciyalardı rawajlandırıw joqarı nátiyjelilikke ie ekenligi anıqlandı.

Sonday-aq, mámleket tárepinen mektepke shekemgi bilimlendiriw sistemasın rawajlandırıwǵa qaratılǵan normativlik-huqıqıy húJjetler balalarda sociallıq kónlikpelerdi qáliplestiriw ushın zárúr sharayatlardı jaratıwǵa xızmet etpekte. Bul bolsa bilimlendiriw procesine zamanagóy pedagogikalıq texnologiyalardı engiziw, tárbiyashılardıń kásiplik kompetenciyaların arttırıw hám bilimlendiriw sapasın jaqsılawdı talap etedi.

Juwmaqlap aytqanda, mektepke shekemgi jastaǵı balalarda sociallıq kónlikpelerdi qáliplestiriwde tárbiyashınıń jumısı sistemalı, maqsetke baǵdarlanǵan hám innovaciyalıq kózqaraslarǵa tiykarlanǵan bolıwı zárúr. Tek sonda ǵana keleshekte sociallıq belsendi, erkin pikirleytuǵın, jámiyette óz ornın taba alatuǵın bárkamal áwladtı tárbiyalaw múmkin boladı.

Paydalanilǵan ádebiyatlar dizimi

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3305-son qaror. – Toshkent, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”. – Toshkent, 2019.
3. Nishonova Z.T. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.– 256 b.
4. Qodirova F.R. Maktabgacha ta’lim metodikasi. – Toshkent: Fan, 2019. – 220 b.
5. Hasanboyeva O.U. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 300 b.
6. To‘xtaxodjayeva M.X. Umumiy pedagogika. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018. – 320 b.
7. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 1991. – 480 s.
8. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005. – 280 b.
9. Shodmonov Sh.S. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Fan, 2020. – 240 b.
10. Usmonova M.A. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. – 200 b

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

G. Genjebaeva – assistent o’qituvchii University of Innovation Technologies

Annotatsiya: Ushbu tezisda maktabgacha ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etishning zaruriyati, xalqaro va milliy tajribalar hamda ularning bolalar intellektual rivojlanishidagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning metodik asoslari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), multimediya, interaktiv o‘yinlar, individual yondashuv, raqamli savodxonlik, pedagogik innovatsiyalar, intellektual rivojlanish

Аннотация: В данном тезисе освещается необходимость внедрения цифровых технологий в систему дошкольного образования, международный и национальный опыт, а также их роль в интеллектуальном развитии детей. Также проанализированы методические основы использования современных информационно-коммуникационных технологий.

Ключевые слова: дошкольное образование, информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), мультимедиа, интерактивные игры, индивидуальный подход, цифровая грамотность, педагогические инновации, интеллектуальное развитие

Abstract: This thesis highlights the necessity of introducing digital technologies into the preschool education system, international and national experience, and their role in the intellectual development of children. The methodological foundations of the use of modern information and communication technologies are also analyzed.

Keywords: preschool education, information and communication technologies (ICT), multimedia, interactive games, individual approach, digital literacy, pedagogical innovations, intellectual development

Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, xususan, maktabgacha ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni tatbiq etish davr talabidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3305-sonli qarori sohaga innovatsiyalarni jalb etish va boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Raqamli muhit bolalarning axborotni qabul qilish tezligini oshiradi va o‘quv motivatsiyasini kuchaytiradi.[1]

Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Zamonaviy kompyuterlar, interaktiv doskalar, planshetlar hamda internet tarmog‘i bilan ta’minlangan muassasalar soni ortib bormoqda. Biroq bu jarayonda pedagog kadrlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish bo‘yicha bilim va malakasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki texnik vositalarning o‘zi emas, balki ulardan to‘g‘ri va maqsadli foydalanish ta’lim samaradorligini belgilaydi. T.V. Kalininaning fikricha,

maktabgacha ta’lim muassasasini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish pedagoglarning ish hujjatlarini yuritishini soddalashtiradi va ota-onalar bilan qayta aloqani mustahkamlaydi. [6]

M. Shayxova ta’kidlaganidek, AKT vositalari mashg‘ulotlarni ko‘rgazmali va interaktiv shaklda tashkil etish imkonini beradi. Bu borada quyidagi yo‘nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi: Smart ta’lim muhiti: B. Gros (2016) ta’rifiga ko‘ra, aqlli ta’lim muhiti bolaga moslashuvchan va interfaol o‘rganish imkonini beradi. Bu faqat kompyuter emas, balki "aqlli" o‘yinchoqlar va sensorli doskalarni ham o‘z ichiga oladi. [3] Metodik yondashuv: I.V. Robert (2014) ta’limni axborotlashtirishning nazariy asoslarida texnologiya shunchaki vosita emas, balki ta’lim sifatini nazorat qilish va pedagogik vazifalarni yengillashtirish usuli ekanligini ko‘rsatib o‘tgan. [4] Innovatsion samaradorlik: R.J. Ishmuhamedov va J.G‘. Yuldashevlar o‘z ishlarida zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga joriy etish dars samaradorligini an’anaviy usullardan bir necha barobar oshirishini isbotlashgan. [7]

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim yo‘nalishida axborot texnologiyalarining o‘rni beqiyosdir. Ular bolalarning intellektual, ijodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ta’lim jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etishga yordam beradi hamda ularni zamonaviy axborotlashgan jamiyatga tayyorlashning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois maktabgacha ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish va bolalarda erta yoshdan axborot madaniyatini shakllantirish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-sonli “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
2. Ishmuhamedov R. J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. – Toshkent: TDPU, 2011.
3. Gros, B. The design of smart learning environments. – Springer, 2016. (Xalqaro tajriba uchun).
4. Robert, I. V. Informatization of education: theory and methodology. – Moscow: BINOM, 2014.
5. Shayxova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda axborot texnologiyalarining o‘rni. // "Maktabgacha ta'lim" jurnali, 2021-yil.
6. Kalinina T. V. Upravlenie DOU. Novie informatsionnie texnologii v doshkolnom obrazovanii. – M.: Sfera, 2008.
7. Yuldashev J. G‘., Usmonov S. A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008.

NOAN’ANAVIY RASM CHIZISH USULLARI ORQALI BOLALAR DUNYOSINI RANGLARDA IFODALASH

V.Sh.Seytmuratova – Ajiniyoz nomidagi NDPI maktabgacha ta’lim kafedrasi assistent - o‘qituvchisi
Shixnazarova Malika – Ajiniyoz nomidagi NDPI maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda noan’anaviy rasm chizish usullarining ahamiyati yoritilgan. Bolalar dunyoqarashini kengaytirish, ularning hissiy holatlarini ranglar orqali ifodalash va tasviriy faoliyatga bo‘lgan qiziqishini oshirishning samarali yo‘llari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Noan’anaviy usullar, kreativlik, ranglar psixologiyasi, bolalar ijodi, barmoq bilan chizish, monotipiya, klaksografiya.

Bola dunyoga kelganidan boshlab, uni atrof-muhitdagi ranglar, shakllar va tovushlar o‘ziga jalb qiladi. Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar uchun rasm chizish — bu shunchaki qog‘ozga chiziq tortish emas, balki o‘zining mavjudligini anglatish, his-tuyg‘ularini bayon etish va borliq bilan muloqot qilish usulidir. Bugungi zamonaviy ta’lim tizimida "noan’anaviy rasm chizish" atamasi tez-tez qo‘llanilmoqda. Bu usul bolalardagi ijodiy erkinlikni cheklamaydi, aksincha, ularga "noto‘g‘ri chizib qo‘yish" qo‘rquvidan xalos bo‘lishga yordam beradi. Mazkur ishning maqsadi — noan’anaviy usullar orqali bolaning individual dunyosini qanday qilib ranglarda yorqinroq ifodalash mumkinligini ochib berishdir.

Noan’anaviy rasm chizish deganda odatdagi mo‘yqalam va qalamlardan tashqari, kundalik hayotda uchraydigan turli ashyolar (gubska, tish cho‘tkasi, barglar, ip, sham, qum va h.k.) yordamida tasvir yaratish tushuniladi.

Bola kutilmagan materialdan kutilmagan natija olishni o‘rganadi. Turli fakturadagi ashyolarni ushlash orqali bolaning barmoq uchidagi nerv tolalari faollashadi (bu nutq rivojlanishiga bevosita bog‘liq). Bola chiziqlarning aniqligi uchun qayg‘urmaydi, bu esa unga jarayondan zavq olish imkonini beradi.

Bolalar dunyosini ranglar bilan boyitishda quyidagi usullar eng ommabop hisoblanadi:

Suyuq bo‘yoq bilan ishlash (Klaksografiya): Qog‘ozga bir tomchi bo‘yoq tomiziladi va trubochka orqali puflanadi. Hosil bo‘lgan shakldan bola daraxt, ajdarho yoki koinot manzarasini ko‘radi. Bu bolaning fantaziyasini "uygotish" uchun eng yaxshi usuldir.

Gubska (shimgich) bilan ishlash: Bu usul yumshoq, havodor tasvirlarni yaratishga yordam beradi. Masalan, bulutlar, hayvonlarning paxmoq yungi yoki qishki manzarani tasvirlashda juda qo‘l keladi.

Gattaj (tirnash usuli): Qog‘oz avval rangli qalamlar bilan bo‘yaladi, ustidan sham surtilib, qora tush bilan qoplanadi. So‘ngra o‘tkirroq tayoqcha bilan rasm chiziladi. Bu usul bolalarda "sirlilik" va "sehrgarlik" hissini uyg‘otadi.

Tabiiy materiallar bilan ishlash: Daraxt barglariga bo‘yoq surtib qog‘ozga nusxa tushirish (imprint) — tabiat va san’at o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi.

Bolaning rasmida tanlagan ranglari uning psixologik portretidir. Noan’anaviy usullarda bola ranglarni aralashtirishda ko‘proq erkinlikka ega bo‘ladi: Sariq va to‘q sariq: Bolaning optimizmi, hayotdan mamnunligi va muloqotga ochiqligidan dalolat beradi. Ko‘k va yashil: Ichki xotirjamlik, tahlil qilishga moyillik. Qizil: Faollik, energiya, ba’zan esa ichki bezovtalik yoki qarshilik ko‘rsatish belgisi. To‘q jigarrang yoki qora ranglarning ustunligi: Bolada qo‘rquvlar yoki hissiy charchoq borligini ko‘rsatishi mumkin (lekin bu doim ham shunday emas, ba’zan bola shunchaki rangning kontrastligini yaxshi ko‘radi).

Mashg‘ulotlarni tashkil etishda o‘qituvchi yoki tarbiyachi quyidagilarga e’tibor berishi lozim:

Orqa fonda mayin musiqa qo‘yish bolaning emotsional holatini barqarorlashtiradi. Bolaga qaysi usulda chizishni o‘zi tanlashiga qo‘yib berish kerak. "Qanchalik chiroyli chiqibdi" emas, balki "Sen ranglarni shunchalik qiziqarli aralashtiribsan" deb munosabat bildirish to‘g‘riroq.

Noan’anaviy rasm chizish usullari — bu bolalar dunyosiga ochilgan sehrli derazadir. Bu usullar orqali bola o‘zining "ichki men"ini qo‘rqmasdan ifoda eta oladi. Ranglarning jilosi va kutilmagan uslublar uyg‘unligi bolaning nafaqat badiiy didini, balki uning umumiy intellektual va psixologik salomatligini ham mustahkamlaydi. San’at terapiyasi sifatida ham qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ushbu yondashuv har bir bolaning takrorlanmas shaxs ekanligini namoyon etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyeva S. Sh. "Maktabgacha ta’limda innovatsion texnologiyalar". Toshkent, 2020.
2. Umarov A. S. "Tasviriy san’at metodikasi va bolalar ijodiyoti". O‘qituvchi, 2018.
3. N. M. Sodiqova. "Maktabgacha pedagogika". Toshkent, 2013.
4. Vygotskiy L. S. "Voobrajenie i tvorchestvo v detskom vozraste". SPb, 2009.
5. Davlat o‘quv dasturi: "Ilk qadam", Maktabgacha ta’lim vazirligi, 2022.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RIVOJLANISHIDA O‘YIN FAOLIYATINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Amonullaeva Parvina-Ajiniyoz nomidagi NDPI 1 kurs magistranti

Annotatsiya. Mazkur tezisda maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida o‘yin faoliyatining tutgan o‘rni va ahamiyati ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan yoritilgan. O‘yin faoliyatining bolalarning psixik, jismoniy, ijtimoiy va nutqiy rivojlanishiga ta’siri tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, o‘yin faoliyati, bola rivojlanishi, psixik rivojlanish, ijtimoiylashuv, didaktik o‘yinlar, rolli o‘yinlar, pedagogik yondashuv.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘yin faoliyati yetakchi faoliyat turi hisoblanadi, chunki aynan o‘yin orqali ular atrof-muhitni o‘zlashtiradilar. Bola o‘yin jarayonida real hayotni modellashtiradi, ya’ni kattalar faoliyatini o‘ziga xos tarzda takrorlaydi. Bu esa

unda ijtimoiy tajribaning shakllanishiga olib keladi. O‘yin faoliyati nafaqat tashqi harakatlar yig‘indisi, balki murakkab psixik jarayonlar tizimidir. Unda idrok, tafakkur, xotira, tasavvur va nutq kabi psixik funksiyalar birgalikda faoliyat yuritadi. Shu sababli o‘yin bolaning umumiy rivojlanishiga kompleks ta’sir ko‘rsatadi.

O‘yin jarayonida bolaning bilish faoliyati faollashadi. U yangi vaziyatlarga duch keladi, muammolarni hal qilishga harakat qiladi va turli yechimlarni izlaydi. Bu esa tafakkur jarayonining rivojlanishiga xizmat qiladi. Tasavvur o‘yin jarayonida ayniqsa jadal rivojlanadi. Bola oddiy predmetlarni ramziy ma’noda qo‘llaydi, masalan, tayoqni “ot” yoki “qurol” sifatida tasavvur qiladi. Bu esa uning abstrakt fikrlashga o‘tishiga zamin yaratadi. Bundan tashqari, o‘yin diqqat va xotirani rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Bola o‘yin qoidalarini eslab qoladi, ularni bajarishga harakat qiladi va o‘z harakatlarini nazorat qiladi. Bu esa ixtiyoriy diqqatning shakllanishiga olib keladi.

Nutq - bu bolaning ijtimoiylashuvi va tafakkurining asosiy vositasidir. O‘yin faoliyati nutq rivoji uchun tabiiy sharoit yaratadi. O‘yin jarayonida bolalar o‘zaro muloqotga kirishadi, rollarni taqsimlaydi va o‘z fikrlarini ifodalaydi. Bu jarayonda ular yangi so‘zlarni o‘zlashtiradi, grammatik jihatdan to‘g‘ri gap tuzishni o‘rganadi va nutq madaniyati shakllanadi. Ayniqsa, rolli o‘yinlar nutq rivojida katta ahamiyatga ega. Bola muayyan rolni bajarish jarayonida o‘sha rolga mos nutqdan foydalanadi. Masalan, “shifokor” rolida u savol beradi, maslahat beradi va muloqot olib boradi. Bu esa nutqning funksional rivojlanishini ta’minlaydi.

O‘yin bolani jamiyat hayotiga tayyorlovchi muhim vositadir. O‘yin davomida bola ijtimoiy munosabatlarni o‘rganadi, boshqalar bilan muloqot qilishni o‘zlashtiradi. Jamoaviy o‘yinlar bolalarda hamkorlik, o‘zaro yordam, murosaga kelish kabi sifatlarni rivojlantiradi. Bola o‘yin qoidalariga rioya qilish orqali intizomni o‘rganadi. Shu bilan birga, u o‘z harakatlari uchun javobgarlikni his qila boshlaydi. O‘yin jarayonida bola turli rollarni bajaradi va bu orqali boshqa insonlarning his-tuyg‘ularini tushunishni o‘rganadi. Bu esa empatiya rivojiga olib keladi.

Maktabgacha yosh davri bolaning eng muhim rivojlanish bosqichlaridan biri bo‘lib, aynan shu davrda uning shaxs sifatida shakllanishi boshlanadi. Bu jarayonda o‘yin faoliyati yetakchi faoliyat turi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘yin bolalar uchun shunchaki vaqt o‘tkazish vositasi emas, balki ularning borliqni anglash, tajriba orttirish va o‘z imkoniyatlarini sinab ko‘rish vositasidir. Bola o‘yin jarayonida real hayotdagi voqea va hodisalarni o‘ziga xos tarzda aks ettiradi. Masalan, “oila”, “bog‘cha”, “shifokor” kabi rolli o‘yinlar orqali bola kattalar faoliyatini takrorlaydi va shu orqali ijtimoiy hayot qonuniyatlarini tushunib boradi. Bu jarayon bolaning ijtimoiy tajribasini boyitadi va unda jamiyatda yashash uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantiradi. O‘yin faoliyatining muhim jihatlaridan biri shundaki, u bolaning psixik rivojlanishini tabiiy ravishda rag‘batlantiradi. O‘yin davomida bola muayyan vaziyatni tasavvur qiladi, uni rivojlantiradi va yakuniga yetkazadi. Bu esa tafakkur jarayonlarini faollashtiradi. Ayniqsa, tasavvur va ijodiy fikrlash o‘yin jarayonida jadal rivojlanadi. Bola oddiy predmetlarni ham o‘z tasavvurida boshqa ma’noda qo‘llay boshlaydi, bu esa abstrakt fikrlashga o‘tish uchun muhim poydevor yaratadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida o‘yin faoliyatidan samarali foydalanish pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Zamonaviy

yondashuvlar asosida o‘yinlar maqsadli rejalashtiriladi va bolalarning yosh hamda individual xususiyatlariga moslashtiriladi. Pedagog o‘yinni shunchaki tashkil etuvchi emas, balki uni boshqaruvchi va yo‘naltiruvchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi. Shunday qilib, o‘yin faoliyati maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining barcha jabhalariga - psixik, nutqiy, ijtimoiy va jismoniy rivojlanishiga kompleks ta’sir ko‘rsatadi. Aynan shu sababli o‘yin bolalar hayotining ajralmas qismi bo‘lib, uni to‘g‘ri tashkil etish ta’lim-tarbiya samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, o‘yin faoliyati maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida muhim va ajralmas omillardan biri hisoblanadi. O‘yin jarayoni bolalarning nafaqat jismoniy, balki aqliy, nutqiy, ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Aynan o‘yin orqali bola atrof-muhitni anglaydi, yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtiradi hamda o‘zini jamiyat a’zosi sifatida shakllantira boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. - Toshkent, 2022.
2. Sh.Sodikova. Maktabgacha pedagogika. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
3. O‘yin orqali ta’lim. -Toshkent, 2022.

QURISH- YASASH, KONSTRUKTSIYA VA MATEMATIKA MARKAZI ORQALI BOLALARNING MANTIQIY FIKRLASHINI KENGAYTIRISH

Janabaeva Gozzal-Ajiniyoz nomidagi NDPI 2 kurs magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Qurish-yasash, konstruktsiya va matematika markazi” faoliyati orqali bolalarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Ushbu markazning integratsiyalashgan xususiyati, bolalar tafakkuriga ta’siri hamda samarali pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: mantiqiy fikrlash, qurish-yasash, konstruktsiya, matematika markazi, tafakkur, maktabgacha ta’lim, integratsiya, rivojlanish.

Maktabgacha yosh davri inson hayotidagi eng muhim va mas’uliyatli bosqichlardan biri bo‘lib, aynan shu davrda bolaning intellektual, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishining asoslari shakllanadi. Ushbu bosqichda bolalarda atrof-muhitni anglash, hodisa va jarayonlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni tushunish, shuningdek, mantiqiy fikrlash elementlari asta-sekin rivojlana boshlaydi. Shu sababli maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida qaraladi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur ko‘proq amaliy faoliyat orqali shakllanadi. Xususan, Jan Piaje nazariyasiga ko‘ra, bolalar aynan harakat va tajriba orqali bilimni egallaydi, Lev Semyonovich Vygotsky esa ijtimoiy muhit va faoliyatning tafakkur rivojidagi muhim o‘rnini ta’kidlaydi. Demak, bolalarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish uchun ularni faol, izlanishga undovchi muhit bilan ta’minlash zarur.

Zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimida bunday muhitni yaratishda samarali vositalardan biri - “Qurish-yasash, konstruktsiya va matematika markazi” hisoblanadi. Ushbu markaz bolalarning turli faoliyat turlarini birlashtirgan holda, ularning bilim olish jarayonini tabiiy va qiziqarli shaklda tashkil etishga xizmat qiladi. Mazkur markazda bolalar qurish, yasash, modellashtirish va hisoblash kabi faoliyatlar orqali predmetlarning shakli, o‘lchami, miqdori va o‘zaro munosabatlarini amaliy tarzda o‘zlashtiradilar. Bu jarayonda ular nafaqat bilim oladi, balki tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va xulosa chiqarish kabi mantiqiy operatsiyalarni ham egallaydi.

Shuningdek, ushbu markaz bolalarning bilish faoliyatini faollashtirib, ularni mustaqil fikrlashga, muammoli vaziyatlarga yechim topishga, ijodiy yondashishga va o‘z fikrini asoslab berishga o‘rgatadi. Natijada bolalarda nafaqat intellektual, balki shaxsiy sifatlar — tashabbuskorlik, mustaqillik va ijodkorlik ham shakllanadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, “Qurish-yasash, konstruktsiya va matematika markazi” maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning muhim pedagogik vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda fikrlash asosan ko‘rgazmali-amaliy va ko‘rgazmali-obrazli shaklda namoyon bo‘ladi. Ya’ni, ular real predmetlar bilan ishlash orqali bilimni o‘zlashtiradilar. Bu yoshdagi bolalarga quyidagilar xos: sabab-oqibat bog‘lanishlarini asta-sekin anglash, predmetlarni guruhlash va taqqoslash, oddiy xulosalar chiqarish, o‘yin orqali o‘rganish. Shuning uchun qurish-yasash va matematika markazlarida faoliyat bolalarning yosh xususiyatlariga mos holda tashkil etilishi zarur.

Qurish-yasash faoliyati bolalarning amaliy harakatlari orqali bilim olishiga xizmat qiladi. Bola turli detallarni birlashtirish jarayonida predmetlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni anglay boshlaydi. Bu jarayonda bolalar: shakl va hajmni tahlil qiladi, qismlar va butun o‘rtasidagi munosabatni tushunadi, tajriba orqali xulosa chiqaradi. Natijada bolada sabab-oqibat aloqalarini anglash va mantiqiy xulosalar chiqarish ko‘nikmalari shakllanadi.

Konstruktsiya qilish bolalarning tafakkurini faollashtiruvchi muhim vosita hisoblanadi. Ushbu faoliyat jarayonida bola oldindan reja tuzadi, harakatlarini ketma-ketlikda bajaradi va natijani oldindan tasavvur qiladi. Konstruktsiya orqali: fazoviy fikrlash rivojlanadi, muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati shakllanadi, mantiqiy izchillik hosil bo‘ladi. Bu esa bolalarda mustaqil fikrlashni rivojlantiradi.

“Qurish-yasash, konstruktsiya va matematika markazi”da matematik tasavvurlar tabiiy ravishda shakllantiriladi. Bola qurish jarayonida son, miqdor, o‘lcham va shakllar bilan bevosita ishlaydi. Bu jarayonda bolalar: predmetlarni taqqoslaydi, guruhlash va tasniflashni o‘rganadi, ketma-ketlikni aniqlaydi va oddiy hisoblash amallarini bajaradi. Natijada matematik tafakkur va mantiqiy fikrlash o‘zaro uyg‘un holda rivojlanadi.

Mazkur markazning asosiy xususiyati - bu integratsiyalashgan yondashuvdir. Qurish, konstruktsiya va matematika bir-biri bilan uzviy bog‘langan holda amalga oshiriladi. Masalan, bola ma’lum bir inshootni qurishda: kerakli shakllarni tanlaydi (matematik fikrlash), ularni joylashtiradi (konstruktsiya) va natijani baholaydi (mantiqiy tahlil). Bu jarayon bolani kompleks fikrlashga o‘rgatadi.

Bolalarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish uchun quyidagi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- Amaliy metod. Bolalar o‘z qo‘llari bilan qurish va hisoblash orqali bilimni mustahkamlaydilar. Masalan, bloklardan shakllar yasash, predmetlarni sanash va moslashtirish mashqlari.

- O‘yin metodi. Didaktik o‘yinlar orqali bolalar bilimni oson o‘zlashtiradilar: “Qaysi ortiqcha?”. “Top va joylashtir”, “Shaklni top” va b.

- Muammoli vaziyat yaratish. Bolalarga savollar berish orqali ularning fikrlashini rag‘batlantirish. Masalan, “Qanday qilib balandroq minora quramiz?”, “Qaysi shakl mustahkamroq?”

- Taqqoslash va tahlil qilish. Bolalar predmetlarni solishtirish orqali farqlarni aniqlashga o‘rganadilar.

Xulosa qilib aytganda, “Qurish-yasash, konstruktsiya va matematika markazi” maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Ushbu markaz orqali bolalarda nafaqat matematik bilimlar, balki tahlil qilish, umumlashtirish, muammolarni hal etish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. - Toshkent, 2022.

2. MTTda rivojlanish markazlari faoliyatini tashkil etishga doir tavsiyalar. Uslubiy tavsiyanoma. - Toshkent, 2022.

XALQ OG’ZAKI IJODI- MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR HOZIRJAVOBLIGINI SHAKLLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA

Meliboyeva Sadoqat-Ajiniyoz nomidagi NDPI 2 kurs magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalq og‘zaki ijodining maktabgacha yoshdagi bolalarda hozirjavoblikni shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Xususan, topishmoqlar, tez aytishlar, ertaklar va maqollar orqali bolalarda tez fikrlash, mustaqil javob berish hamda nutq faoliyatini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, hozirjavoblik, maktabgacha yoshdagi bolalar, topishmoq, tez aytish, ertak, nutq rivojlanishi, mantiqiy fikrlash, o‘yin faoliyati, kommunikativ ko‘nikmalar.

Abstract. This article highlights the importance of oral folk art in the formation of quick-wittedness in preschool children. In particular, through riddles, tongue twisters, fairy tales, and proverbs, issues of developing quick thinking, independent responses, and speech activity in children were analyzed.

Keywords: oral folk art, quick wit, preschool children, riddle, tongue twister, fairy tale, speech development, logical thinking, game activity, communication skills.

Maktabgacha yosh davri inson hayotining eng muhim rivojlanish bosqichlaridan biri bo‘lib, aynan shu davrda bola shaxsining asosiy sifatlari shakllanadi. Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlari ushbu davrni intellektual, nutqiy va ijtimoiy rivojlanishning poydevor bosqichi sifatida e’tirof etadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning faqat bilim olishiga emas, balki ularning mustaqil fikrlashi, tezkor qaror qabul qilishi va samarali muloqot qila olish qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan, hozirjavoblik sifati muhim pedagogik maqsadlardan biri sifatida qaraladi.

Hozirjavoblik - bu shaxsning turli vaziyatlarda tez fikrlashi, aniq va mazmunli javob bera olish qobiliyati bo‘lib, u bolaning kelajakdagi ta’lim faoliyati va ijtimoiy moslashuvida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu sifatni shakllantirishda esa xalq og‘zaki ijodi boy va samarali vosita hisoblanadi.

Hozirjavoblik tushunchasi psixologiyada tafakkur tezligi, nutq rivoji va diqqatning moslashuvchanligi bilan bog‘liq holda talqin etiladi. Bu sifat bolaning atrof-muhitni tez anglash, vaziyatga mos munosabat bildirish va o‘z fikrini ifodalash qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda hozirjavoblik quyidagi komponentlar orqali shakllanadi:

-Kognitiv komponent - tez fikrlash va tahlil qilish qobiliyati;

-Nutqiy komponent - fikrni aniq va ravon ifodalash;

-Emotsional komponent - o‘ziga ishonch va erkin muloqotga kirishish;

-Ijtimoiy komponent - suhbat jarayonida faol ishtirok etish.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalarda hozirjavoblikni rivojlantirish ularning umumiy intellektual salohiyatini oshiradi va maktabga tayyorgarlik darajasini mustahkamlaydi.

Xalq og‘zaki ijodi - bu xalq tomonidan yaratilgan, og‘zaki shaklda saqlanib kelayotgan badiiy va tarbiyaviy asarlar majmuasidir. U xalqning ko‘p asrlik tajribasi, dunyoqarashi va qadriyatlarini o‘zida mujassam etadi.

Xalq og‘zaki ijodining asosiy janrlari ertaklar, topishmoqlar, maqollar va matallar, tez aytishlar va latifalardan iborat. Ushbu janrlarning har biri bolalar rivojlanishiga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatadi va pedagogik jarayonda muhim vosita sifatida qo‘llaniladi.

Masalan, topishmoqlar bolalarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali vositalardan biridir. Ular yashirin ma’noni anglash, predmetning muhim belgilarini ajratish va tezkor xulosa chiqarishni talab qiladi. Topishmoqlar bilan ishlash jarayonida bola kuzatadi, taqqoslaydi, umumlashtiradi va tezkor qaror qabul qiladi. Bu esa hozirjavoblikning shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, guruhda o‘tkaziladigan topishmoq o‘yinlari bolalarda raqobat va faollikni oshiradi.

Tez aytishlar esa, bolalar nutq apparatini rivojlantirish bilan birga, diqqat va tezkorlikni oshiradi. Ularni takrorlash jarayonida bola so‘zlarni tez, aniq va ravon talaffuz qilishga o‘rganadi. Tez aytish mashqlari orqali bolalar nutq tezligi oshadi, artikulyatsiya yaxshilanadi, diqqat jamlanadi va tezkor fikrlash rivojlanadi. Shu sababli, tez aytishlar hozirjavoblikni rivojlantirishda muhim metodik vosita hisoblanadi.

Ertaklarga keladigan bo‘lsak, u bolalarning tasavvurini kengaytiradi va ularni faol muloqotga undaydi. Ayniqsa, ertak asosida savol-javob tashkil etish bolalarda tez fikr bildirish ko‘nikmasini shakllantiradi. Masalan, ertakdan so‘ng quyidagi savollar berilishi mumkin:

-Qahramon nima uchun shunday yo‘l tutdi?

-Sen uning o‘rnida bo‘lsang nima qilarding?

-Hikoyaning davomini qanday tasavvur qilasan?

Bunday savollar bolalarni mustaqil fikrlashga va tez javob berishga o‘rgatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, xalq og‘zaki ijodi maktabgacha yoshdagi bolalarda hozirjavoblikni shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi. U bolalarning tafakkuri, nutqi va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois, maktabgacha ta’lim jarayonida xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tizimli va maqsadli foydalanish zarur.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Pedagogika entsiklopediyasi. I jild / tuzuvchilar: jamoa. - T.: «O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. - 320 b.

2. Brimijoin K. Expertise in differentiation: a preservice and an inservice teacher make their way: Unpublished doctoral dissertation. - University of Virginia, Charlottesville, 2001.

MAKTABGACHA TA’LIMDA RAQAMLI TA’LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH MASALALARI

Abdikarimova Altinay Sabit qizi Ajiniyoz nomidagi NDPI 1 kurs magistranti

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, raqamli ta’lim resurslari, innovatsion texnologiyalar, bolalar rivojlanishi, pedagogik yondashuv, interaktiv ta’lim**.**

Ключевые слова: дошкольное образование, цифровые образовательные ресурсы, инновационные технологии, развитие детей, педагогический подход, интерактивное образование.

Keywords: preschool education, digital educational resources, innovative technologies, child development, pedagogical approach, interactive education.

Maktabgacha ta’lim tizimi uzluksiz ta’limning muhim boshlang‘ich bo‘g‘ini sifatida jamiyat taraqqiyotida alohida o‘rin tutadi. Aynan shu bosqichda bolalarning tafakkuri, nutqi, ijtimoiy ko‘nikmalari va shaxsiy sifatlari shakllanishi boshlanadi. Shu sababli mazkur davrda ta’lim jarayonini samarali tashkil etish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Hozirgi globallashuv va axborotlashuv sharoitida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, unda raqamli texnologiyalardan keng foydalanish zarurati ortib bormoqda.

Raqamli ta’lim resurslari maktabgacha ta’lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiluvchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ular yordamida ta’lim jarayonini vizuallashtirish, interaktivlikni ta’minlash va bolalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish imkoniyati kengayadi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni to‘g‘ri va samarali qo‘llash masalasi pedagogik tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Raqamli ta’lim resurslari tushunchasi keng ma’noga ega bo‘lib, u ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan barcha elektron shakldagi axborot vositalarini o‘z ichiga oladi. Mazkur resurslar pedagogik maqsadlarga xizmat qiluvchi, maxsus ishlab chiqilgan va bolalarning yosh xususiyatlariga moslashtirilgan bo‘lishi lozim. Ularning

asosiy vazifasi ta’lim jarayonini yanada samarali, qiziqarli va interaktiv tashkil etishdan iborat.

Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologik jihatdan obrazli fikrlashga moyil bo‘lganliklari sababli, ular uchun vizual va eshitish orqali taqdim etiladigan ma’lumotlar katta ahamiyatga ega. Raqamli resurslar aynan shu ehtiyojni qondiradi va bolalarning bilim olish jarayonini tabiiy va samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim jarayonining sifat ko‘rsatkichlarini oshiradi.

Raqamli texnologiyalarni maktabgacha ta’lim jarayoniga joriy etish orqali bolalarda axborotni qabul qilish, qayta ishlash va tahlil qilish ko‘nikmalari shakllanadi. Bunday yondashuv bolalarning intellektual rivojlanishini jadallashtiradi va ularni keyingi ta’lim bosqichlariga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, raqamli ta’lim resurslari orqali bolalarda ijodiy fikrlash, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatlari ham rivojlanadi.

Maktabgacha ta’limda raqamli resurslardan foydalanish ta’lim jarayonining individuallashtirilishini ta’minlaydi. Har bir bola o‘zining qobiliyati va rivojlanish darajasiga mos ravishda bilim olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa pedagogga har bir bola bilan alohida ishlash, uning ehtiyojlarini hisobga olish imkonini beradi. Natijada ta’lim jarayoni yanada samarali va maqsadga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etiladi.

Raqamli ta’lim resurslarining yana bir muhim jihati shundaki, ular bolalarda o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Interaktiv va vizual materiallar bolalarning diqqatini jalb qiladi va ularni faol ishtirok etishga undaydi. Bu esa ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar orqali ta’lim berish bolalarda mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini ham shakllantiradi.

Biroq raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish jarayonida bir qator muammolar ham mavjud. Avvalo, pedagoglarning raqamli kompetensiyasi yetarli darajada shakllanmaganligi ushbu jarayonning samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash uchun pedagoglar nafaqat texnik bilimlarga, balki metodik tayyorgarlikka ham ega bo‘lishlari zarur. Shuningdek, texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi ham muhim muammolardan biri hisoblanadi. Barcha maktabgacha ta’lim muassasalari zamonaviy texnik vositalar bilan ta’minlanmaganligi sababli, raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlari cheklangan bo‘lib qolmoqda. Bu esa ta’lim sifatining hududlar bo‘yicha notekis taqsimlanishiga olib keladi.

Bundan tashqari, bolalarning sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan omillarni ham inobatga olish zarur. Raqamli qurilmalardan uzoq vaqt davomida foydalanish bolalarning ko‘rish qobiliyatiga, psixologik holatiga va umumiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli raqamli texnologiyalardan foydalanishda me’yor va muvozanatni saqlash muhim hisoblanadi.

Raqamli ta’lim resurslaridan samarali foydalanish uchun bir qator pedagogik shart-sharoitlar yaratilishi lozim. Avvalo, pedagoglarning malakasini oshirish va ularni zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashga o‘rgatish zarur. Bu borada maxsus treninglar, seminarlar va malaka oshirish kurslarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan raqamli resurslar bolalarning yosh xususiyatlariga mos bo‘lishi, ularning psixologik va fiziologik rivojlanishiga zarar

yetkazmasligi lozim. Raqamli kontentni tanlashda uning didaktik ahamiyati, xavfsizligi va sifat ko‘rsatkichlariga alohida e’tibor qaratish zarur.

Maktabgacha ta’limda raqamli va an’anaviy ta’lim shakllarini uyg‘unlashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Faqatgina raqamli texnologiyalarga tayanish emas, balki ularni an’anaviy metodlar bilan integratsiya qilish orqali ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish mumkin. Bunday yondashuv bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar orasida raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish muhim o‘rin tutadi. Bu esa ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uning sifatini oshirish va xalqaro standartlarga moslashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish orqali ta’lim jarayonini individuallashtirish, differensiallashtirish va optimallashtirish imkoniyatlari kengayadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’limda raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish ta’lim sifatini oshirish, bolalarning intellektual va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. U ta’lim jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etishga, bolalarda bilim olishga bo‘lgan qiziqishni oshirishga va ularning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalardan foydalanishda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish, pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini oshirish va ta’lim muhitini takomillashtirish zarur. Faqatgina kompleks yondashuv orqali maktabgacha ta’lim tizimida raqamli resurslardan samarali foydalanishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ананьев И.И. Использование информационной системы для модульной организации образовательного процесса / И.И.Ананьев, П.И.Ананьев, А.В.Бобров //Измерение, контроль, информатизация. Барнаул, 2007. С. 161- 163.

2. Андреев А.А. Дидактические основы дистанционного обучения. URL: www.aqua.iefb.agtu.ru/dist/Biblio/Dissert/dissert_Andreev/ br/ogl-b.htm

3. Атаян А.М. Дидактические основы формирования информационной культуры личности в условиях информатизации общества: Дис. ... д-ра пед. наук. Владикавказ, 2001.

INKLYUZIV MAKTABGACHA TA'LIMNI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI

Mamitova Kamila Jolmirza qizi Ajiniyoz nomidagi NDPI 1 kurs magistri

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, maktabgacha ta’lim, maxsus ehtiyojli bolalar, integratsiya, adaptatsiya, pedagogik yondashuv, ta’lim muhiti, psixologik qo‘llab-quvvatlash**.**

Ключевые слова: инклюзивное образование, дошкольное образование, дети с особыми потребностями, интеграция, адаптация, педагогический подход, образовательная среда, психологическая поддержка.

Keywords: inclusive education, preschool education, children with special needs, integration, adaptation, pedagogical approach, educational environment, psychological support.

Hozirgi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida inklyuziv ta’lim alohida ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Inklyuziv yondashuv har bir bolaning shaxs sifatida rivojlanishini ta’minlash, uning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’lim jarayoniga jalb etishni nazarda tutadi. Maktabgacha yosh davri esa inson rivojlanishining eng muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, aynan shu davrda bolaning psixik, ijtimoiy va intellektual asoslari shakllanadi. Inklyuziv maktabgacha ta’limning joriy etilishi jamiyatda ijtimoiy tenglikni ta’minlash, bolalarning jamiyatga moslashuvini yengillashtirish hamda ularning kelajakdagi ta’lim jarayoniga tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur tizimni samarali tashkil etish ko‘plab tashkiliy, metodik va psixologik muammolar bilan bog‘liqdir.

Inklyuziv ta’lim konsepsiyasi insonparvarlik g‘oyalari asosida shakllangan bo‘lib, u har bir bolaning ta’lim olish huquqini ta’minlashga qaratilgan. Ushbu yondashuvda bola markaziy o‘rinda turadi va uning ehtiyojlari, qiziqishlari hamda rivojlanish darajasi asosiy mezon sifatida qaraladi. Inklyuziv ta’lim differensial va individual yondashuv tamoyillariga tayanadi, bunda ta’lim mazmuni va metodlari bolalarning individual xususiyatlariga moslashtiriladi.

Maktabgacha ta’lim tizimida inklyuziv ta’lim bolaning shaxs sifatida shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. U bolalarda tolerantlik, hamkorlik, o‘zaro hurmat kabi ijtimoiy fazilatlarning rivojlanishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, inklyuziv muhit bolalarning psixologik holatiga ijobiy ta’sir etib, ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

Inklyuziv ta’limni samarali tashkil etish pedagoglardan yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyani talab qiladi. Pedagog nafaqat umumiy ta’lim metodikasini, balki maxsus pedagogika va psixologiya asoslarini ham chuqur bilishi zarur. Shu bilan birga, u bolalarning individual xususiyatlarini aniqlay olish, ularning ehtiyojlariga mos pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.

Inklyuziv ta’lim jarayonida ta’lim mazmunini moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘quv materiallarini soddalashtirish, turli metod va usullardan foydalanish, bolalarning imkoniyatlariga mos faoliyat turlarini tashkil etishni nazarda tutadi. Pedagogik jarayonning samaradorligi ko‘p jihatdan ta’lim muhitining to‘g‘ri tashkil etilishiga ham bog‘liqdir.

Inklyuziv maktabgacha ta’limda psixologik qo‘llab-quvvatlash alohida ahamiyatga ega. Bolalarning emotsional holatini barqarorlashtirish, ularning ijtimoiy moslashuvini ta’minlash psixologik xizmatning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Psixolog bolaning rivojlanish darajasini aniqlash, uning individual xususiyatlarini tahlil qilish va tegishli tavsiyalar ishlab chiqishda muhim rol o‘ynaydi. Psixologik yondashuv inklyuziv muhitda ijobiy iqlim yaratishga xizmat qiladi. Bu esa bolalar o‘rtasida ijobiy munosabatlarni shakllantirish, nizolarni bartaraf etish va hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Inklyuziv maktabgacha ta’limni amaliyotga joriy etish jarayonida qator muammolar yuzaga keladi. Ushbu muammolar tizimli xususiyatga ega bo‘lib, ularni bir nechta yo‘nalishlarda ko‘rib chiqish mumkin.

-Birinchidan, pedagoglarning inklyuziv ta’lim bo‘yicha yetarli bilim va malakaga ega emasligi muhim muammo hisoblanadi. Ko‘plab pedagoglar maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash metodikasini yetarli darajada bilmaydi, bu esa ta’lim jarayonining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

-Ikkinchidan, moddiy-texnik ta’minotning yetishmasligi inklyuziv ta’limni tashkil etishda jiddiy to‘siq bo‘lib xizmat qiladi. Ta’lim muassasalarida moslashtirilgan jihozlar, maxsus o‘quv vositalari va qulay infratuzilmaning yetarli emasligi bolalar uchun zarur sharoitlarni yaratishga imkon bermaydi.

-Uchinchidan, individual yondashuvni tashkil etishdagi murakkabliklar ham dolzarb muammolardan biridir. Har bir bolaning rivojlanish darajasi turlicha bo‘lganligi sababli ta’lim jarayonini individual tarzda tashkil etish katta mehnat va vaqt talab qiladi.

-To‘rtinchidan, ota-onalar bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yishdagi muammolar ham mavjud. Ba’zi hollarda ota-onalar inklyuziv ta’limning mohiyatini to‘liq anglamaydi yoki ushbu tizimga nisbatan salbiy munosabatda bo‘ladi.

-Beshinchidan, jamiyatda mavjud stereotiplar va noto‘g‘ri qarashlar inklyuziv ta’limning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Bu esa maxsus ehtiyojli bolalarning ijtimoiylashuv jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Inklyuziv maktabgacha ta’limni rivojlantirish kompleks yondashuvni talab qiladi. Avvalo, pedagoglarning kasbiy malakasini oshirishga alohida e’tibor qaratish zarur. Bu borada malaka oshirish kurslari, seminarlar va treninglar tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash inklyuziv ta’limni samarali tashkil etishning muhim sharti hisoblanadi. Zamonaviy didaktik vositalar va texnologiyalarni joriy etish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Ota-onalar bilan hamkorlikni rivojlantirish ham muhim yo‘nalishlardan biridir. Ular bilan tushuntirish ishlari olib borish, inklyuziv ta’limning afzalliklarini targ‘ib qilish orqali ijobiy munosabatni shakllantirish mumkin.

Bundan tashqari, jamiyatda inklyuziv madaniyatni rivojlantirish, ya’ni barcha bolalarga nisbatan hurmat va bag‘rikenglik munosabatini shakllantirish zarur. Bu esa inklyuziv ta’limning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv maktabgacha ta’limni tashkil etish zamonaviy ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tizim har bir bolaning ta’lim olish huquqini ta’minlash, uning shaxs sifatida rivojlanishiga ko‘maklashish va jamiyatga moslashuvini yengillashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, inklyuziv ta’limni samarali tashkil etish bir qator muammolarni hal etishni talab qiladi. Mazkur muammolarni bartaraf etish orqali inklyuziv ta’lim tizimini yanada rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida” Qarori. PQ-4312 08.05.2019

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim- tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to’g’risidagi” Qarori. PQ -4860 13.10.2020

3. Д.З. Ахметова, З.Г. Нигматов, Т.А. Челнокова, Г.В. Юсупова и др. Педагогика и психология инклюзивного образования: учебное пособие. – Казань, 2013

4. Буторина, О. Г. Об опыте воспитания и обучения детей с ограниченными возможностями здоровья / О. Г. Буторина // Воспитание школьников, 2010

5. Инклюзивная практика в дошкольном образовании. Современный образовательный стандарт / Т. В. Волосовец, А. М. Казьмин, В. Н. Ярыгин. – М.: Мозаика-Синтез, 2011. – 144 с.

MEKTEPKE SHEKEMGI BILIMLENDIRIW SHÓLKEMINDE INTERAKTIV OYÍN TEXNOLOGIYALARÍ ARQALÍ BALALARDÍŃ INTELLEKTUAL POTENCIALÍN ASHÍW

Begimbaeva Shaxnoza Baxitbaevna - Qońırat rayonı 27-sanlı MSHBSH tárbiyashısı

Tayanısh túsinikler: interaktiv oyınlar, intellektual potencial, innovaciyalıq pedagogika, kognitiv rawajlanıw, mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemi, oyın texnologiyaları.

Kalit so‘zlar: interaktiv o‘yinlar, intellektual salohiyat, innovatsion pedagogika, kognitiv rivojlanish, maktabgacha ta’lim tashkiloti, o‘yin texnologiyalari.

Ключевые слова: интерактивные игры, интеллектуальный потенциал, инновационная педагогика, когнитивное развитие, организация дошкольного образования, игровые технологии.

Búgingi globallasıw hám málimleme texnologiyaları jedel rawajlanıp atırǵan dáwirde bilimlendiriw sisteması túp-tiykarınan jańalanbaqta. Dástúriy “bilim beriw” modeli áste-aqırın óz ornın “shaxstı rawajlandırıw” modeline bosatıp bermekte. Zamanagóy jámiyette insannan tek ǵana tayar bilimlerdi iyelew emes, al olardı talqılaw, qayta islew, hár qıylı jaǵdaylarda qollanıw hám mashqalalı jaǵdaylarda erkin qarar qabıl ete alıw sıyaqlı kónlikpeler talap etiledi. Sol sebepli de bilimlendiriw procesinde oqıwshı yamasa bala oraylıq orınǵa qoyılıp, onıń intellektuallıq hám jeke rawajlanıwına ayrıqsha itibar qaratılmaqta.

Mektepke shekemgi jas dáwiri insan ómirindegi eń áhmiyetli basqıshlardan biri esaplanadı. Ilimiy izertlewlerge qaraǵanda, mine usı dáwirde insan intellektiniń úlken bólegi qáliplesedi. Bul dáwirde balalardıń oylanıwı, sóylewi, qıyalı, emocionallıq hám sociallıq kónlikpeleri jedel rawajlanadı. Sonıń ushın mektepke shekemgi bilimlendiriw

sistemasında qollanılatuǵın pedagogikalıq jantasıwlar balanıń keleshektegi tabısına tikkeley tásir kórsetedi. Ásirese, interaktiv oyın texnologiyalarınan paydalanıw bul processte úlken áhmiyetke iye.

Interaktiv oyın texnologiyaları bilimlendiriw procesin jedellestiriwshi, balanı passiv tıńlawshıdan aktiv qatnasıwshıǵa aylandırıwshı innovaciyalıq qatnas bolıp tabıladı. Bul texnologiyalar arqalı tárbiyashı ózinińdástúriy "málimleme beriwshi" rólinen keship, kóbirek baǵdarlawshı hám shólkemlestiriwshi rólin atqaradı. Nátiyjede bala oyın procesiniń oraylıq figurası sıpatında kórinedi, ol erkin pikirleydi, qarar qabıl etedi hám óz iskerligin basqarıwdı úyrenedi.

Interaktiv oyınlardıń jáne bir áhmiyetli tárepi - bul kóp tárepleme baylanıstı támiyinleydi. Yaǵnıy, bilimlendiriw procesi tek ǵana “bala-tárbiyashı” qatnasıqları menen sheklenip qalmaydı. Bálkim “bala-bala,” “bala-ortalıq” sıyaqlı óz-ara baylanıslar da jedel rawajlanadı. Bul bolsa balalardıń sociallasıwına, jámáátte islew kónlikpeleriniń qáliplesiwine hám kommunikativ kompetenciyalarınıń rawajlanıwına xızmet etedi.

Interaktiv oyınlar balalarda logikalıq hám algoritmlik pikirlewdi rawajlandırıwda da áhmiyetli ról oynaydı. Máselen, hár qıylı logikalıq oyınlar, kvestler yamasa ápiwayı robototexnika elementlerine tiykarlanǵan shınıǵıwlar arqalı bala mashqalanı basqıshpa-basqısh sheshiwdi úyrenedi. Ol háreketler izbe-izligin rejelestiredi, sebep-nátiyjeli baylanıstı túsinedi hám nátiyjege erisiw jolında túrli variantlardı sınap kóredi. Bul proceste balanıń oy-pikiri aktivlesedi hám analitikalıq qábiletleri rawajlanadı.

Zamanagóy interaktiv oyınlar kóbinese multimedia quralları menen úylesken halda shólkemlestiriledi. Súwret, ses hám háreket elementleriniń birgelikte qollanılıwı balanıń bir neshe seziw organların bir waqıttıń ózinde iske qosadı. Nátiyjede úyreniw procesi jáne de nátiyjeli hám qızıqlı boladı. Bunday multisensorlıq qatnas balalardıń informaciyanı jaqsıraq ózlestiriwine, eslep qalıw dárejesiniń artıwına xızmet etedi.

Sonday-aq, interaktiv oyınlar balalardıń sociallıq-emocional rawajlanıwına da úlken tásir kórsetedi. Oyın dawamında balalar óz pikirlerin erkin bildiriwdi, basqalardı tıńlawdı, óz poziciyasın qorǵawdı úyrenedi. Jámáátlik oyınlar bolsa olarda birge islesiw, óz ara járdem hám tilekleslik sıyaqlı áhmiyetli sociallıq pazıyletlerdi qáliplestiredi. Bul bolsa keleshekte olardıń jámiyetke tabıslı beyimlesiwine járdem beredi.

Interaktiv oyın texnologiyalarınıń nátiyjeliligin arttırıw ushın bilim beriw procesinde túrli qurallardıń úylesimliligi úlken áhmiyetke iye. Sanlı qurallar - interaktiv doskalar, planshetler hám bilimlendiriw baǵdarlamaları - balalardıń qızıǵıwshılıǵın arttırsa, konstruktiv qurallar - konstruktorlar, didaktikalıq materiallar - olardıń ámeliy hám dóretiwshilik iskerligin rawajlandıradı. Sonday-aq, joybar jumısı tiykarında shólkemlestirilgen oyınlar balalarda erkin pikirlew hám dóretiwshilikti jáne de kúsheytedi.

Interaktiv oyın texnologiyalarınıń eń áhmiyetli abzallıqlarınan biri - bul qáte islew imkaniyatınıń bar ekenligi. Oyın ortalıǵı balada qorqıwdı azaytadı hám erkin tájiriybe ótkeriwge sharayat jaratadı. Bala qáteni sátsizlik sıpatında emes, al úyreniw procesiniń bir bólegi sıpatında qabıl etedi. Bul bolsa onda ózine bolǵan isenimin arttıradı hám ishki motivaciyanı qáliplestiredi.

Juwmaqlap aytqanda, mektepke shekemgi bilimlendiriw sistemasında interaktiv oyın texnologiyalarınan nátiyjeli paydalanıw búgingi kúnniń áhmiyetli talaplarınan biri bolıp esaplanadı. Bul texnologiyalar arqalı tek ǵana balalarǵa bilim berilip qoymastan, al olardıń intellektuallıq, sociallıq hám emocionallıq rawajlanıwı da támiyinlenedi. Nátiyjede bolsa ǵárezsiz pikirleytuǵın, kreativ, mashqalalardı sheshe alatuǵın hám zamanagóy jámiyet talaplarına beyimlesetuǵın shaxstı qáliplestiriw imkaniyatı jaratıladı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
2. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. – Toshkent: Maktabgacha ta’lim vazirligi, 2022.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga oid qarorlari va farmonlari. – Toshkent, 2017–2023.
4. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar: o‘quv qo‘llanma / mualliflar jamoasi. – Toshkent: Fan, 2020.
5. Maktabgacha ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash metodikasi. – Toshkent, 2021.
6. Bolalar psixologiyasi va pedagogikasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
7. Interaktiv o‘qitish metodlari: nazariya va amaliyot. – Toshkent, 2022.

TABIIY VA TASHLAGAN MATERIALLARDAN O‘YINCHOQLAR YASASH

X.Bahadirova - NDPI Maktabgacha ta’lim yo‘nalish talabasi


Tayanish túsinikler: Teatr, texnologiya, tábiyiy materiallar STEAM texnologiyaları, bilimlendiriw sapası, pánler kompleksi, oqiw procesi, bilim, kónlikpelerdi rawajlandırıw, jana bagdar.

Ключевые понятия: Театр, технология, Природные материалы STEAM-технологии, качество образования, комплекс предметов, учебный процесс, развитие знаний и навыков, новое направление.

Key word: Theater, technology, Natural materials STEAM technologies, education quality, subject complex, educational process, knowledge and skills development, new direction.

Tabiiy materiallar tarbiyachi rahbarligida ekskursiyalarda to‘planadi. Ekskursiya tashkil qilishdan oldin bolalarga bo‘lajak ish namunasi ko‘rsatiladi. Bolalar uni diqqat bilan ko‘rib, unda ishlatilgan barg plastinkalarining shaklini, daraxt navlarini aniqlaydilar. Shundan so‘ng tashkil etiladigan ekskursiya rejasi tuziladi. Ekskursiya marshrutida alohida e’tibor beriladigan obyektlar (eman, zarang, akatsiya daraxtlari, hasharotlar, ninachi) aniqlanadi. Bolalar diqqati va aqliy faoliyatini kuzatilayotgan obyektning zarur bo‘lgan asosiy muhim belgilari va xususiyatlarini ajratishga, to‘planayotgan materialni to‘g‘ri baholashga yo‘naltiradigan savollar tuziladi.

Daraxtzorga kelganda bolalarning kayfiyati ko‘tarilib, ular har narsaga qiziqish bilan qaraydi, barglar, ularning ranglari bolalarni hayratga soladi. Ular kuzning butun go‘zalligini, uning ranglarini, to‘kilgan barglarning hidini va ular o‘zining elastiklik xususiyatini yo‘qotganligini, qattiqlashib, mo‘rt bo‘lib qolganligini ko‘radilar. Bolarning atrofdagi tabiat bilan zavqlari kamayib borishiga qarab, ularning e’tibori









barglarning shakli, daraxt navlariga qaratiladi. Aynan shu vaqtda o‘simliklarda sodir bo‘layotgan ichki jarayonlar qisqa va tushunarli tarzda bayon etiladi: xususan, o‘simlik yangi sharoitlarga moslashib, qishga tayyorgarlik ko‘rmoqda. Barglarni to‘kish bu o‘ziga xos himoya turi, chunki barglar suvni ko‘p bug‘lantiradi, qishda esa tuproqdan namlik juda kam miqdorda keladi. Shundan keyin bolalarning diqqati atrofda uchib yurgan kapalaklarga, ninachilarga, ularning asosiy belgilariga qaratiladi. Uchuvchi hasharotlar, ularning tuzilish shakllari, mehnat darslari. jonli

Ijodiy xarakterdagi ishlar. Masalan: "Baliqlardan kompozitsiya tuzish." Tarbiyachi umumiy vazifa beradi, bolalar esa tarbiyachi namunasi asosida o‘z variantlarini izlaydilar. Tarbiyachi doskaga baliq rasmi tasvirlangan plakatni ilib qo‘yib, bolalar bilan birgalikda baliqning tanasi, boshi, qanotlari, dumining shakli tahlil qilinadi. Baliq turiga qarab uning tanasi, qanotlari va dumlari har xil bo‘lishi mumkinligi aniqlanadi, shuning uchun bu ishda har xil tabiiy materiallardan foydalanish mumkin bo‘ladi. Shundan so‘ng ishni bajarish tartibi aniqlanadi. Dastlab baliq bo‘laklari uchun material

tanlash, uning umumiy rasmini chizish kerak. Shundan keyin qaysi detalni qanday tartibda yelimlashni, detallarning o‘rinlarini aniqlash va shundan keyin ishga kirishish kerak. Bunday ishlar bajarilayotgan ishga ijodiy yondashuvni rivojlantirishga yordam beradi. Mashg‘ulotga yakun yasash va bajarilgan ishni baholashda tarbiyachi foydalanilgan materiallarning nomini so‘raydi.Bul tábiyiy materiallar menen islew shınıǵıwınıń shama menen dúzilisi bolıp tabıladı.

Quyida jo‘xori so‘tasi, eman daraxti mevasi, kashtan mevasi, qush patlari, archa daraxti mevasi, na’matak mevasidan tayyorlangan o‘yinchoq namunalari ishlangan:

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - O‘zbekiston, 1992. - 48 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida"gi Qonuni. - T.: 2019. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019 y., 03/19/595/4160-son.
3. Maktabgacha ta’lim vazirining 2018 yil 18 iyundagi "O‘zbekiston Respublikasining kichik va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablarini tasdiqlash to‘g‘risida"gi 1-mh-sonli buyrug‘i. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.07.2018y., 10/18/3032/1450-son.
4. "Ilk qadam" maktabgacha ta’lim muassasasining o‘quv dasturi. - Toshkent, 2018. - 43 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-apreldagi "Maktabgacha ta’lim tizimini yanada rag‘batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-3651-sonli qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.04.2018 y., 07/12/3651/1007-son, 01.10.2018 y., 07/18/3955/1978-son.
6. Hasanboyeva O.U. va boshq. Oilada kamol topganni avlod tarbiyalash. T.: "Fan va texnologiya." 2010 y.
7. Hasanboyeva O.U. Oila pedagogikasi.//O‘quv qo‘llanma. T.: "Aloqachi," 2007.
8. Mavlonova R. "Mehnat tarbiyasi" "O‘qituvchi."

MEKTEPKE TAYARLAWDA ZAMANAGÓY TEXNOLOGIYALARDAN PAYDALANIW

Ulıqpanova Aynura - NMPI Mektepke shekemgi tálim oqıtıwshısı.
Saǵınbaeva Shaxida- Mektepke shekemgi tálim baǵdarı 2-B

Tayanısh túsinikler: Zamanagóy tálim texnologiyaları, Mektepke tayarlaw processi, Interaktiv oqıw metodları, Sanlı (digital) texnologiyalar, Multimedia quralları, Kompyuterlik oqıw programmaları, Balalardıń kognitiv rawajlanıwı, Didaktikalıq oyın texnologiyaları.

Ключевые слова: Современные образовательные технологии, Процесс подготовки к школе, Интерактивные методы обучения , Цифровые технологии, Мультимедийные средства, Компьютерные обучающие программы, Когнитивное развитие детей, Дидактические игровые технологии.

Keywords: Modern educational technologies, School preparation process, Interactive learning methods, Digital technologies, Multimedia tools, Computer learning programs, Cognitive development of children, Didactic game technologies.

Mektepke tayarlaw balanıń keyingi bilim alıw basqıshına beyimlesiwiniń eń áhmiyetli dáwiri bolıp tabıladı. Bul basqıshta balanıń intellektual, psixologiyalıq hám social rawajlanıwına tiykar salınadı. Búgingi kúnde mektepke tayarlaw processinde zamanagóy pedagogikalıq hám informaciyalıq texnologiyalardan paydalanıw aktual máselelerdiń birine aylandı.

Mektepke tayarlaw shınıǵıwları kóbinese gúrriń, oyın hám interaktiv usıllar túrinde ótkeriledi. Zamanagóy texnologiyalardan paydalanıw bul processti taǵi nátiyjeli etedi. Mısalı: Sorawlardı tekst túrinde emes, bálkim súwret, video, animaciya yamasa ilustraciya túrinde kórsetiw balanıń qızıǵıwın arttıradı hám materialdı jaqsıraq qabıllawına járdem beredi. Aldın úyrenilgen materialdı eske túsiriw ushın prezentaciyalardan paydalanıw múmkin.

Mektepke tayarlawdıń tiykarǵı maqseti - balanı mektep talaplarına psixologiyalıq hám intellektual jaqtan tayarlaw. Sol sebepli zamanagóy informaciyalıq texnologiyalar (kompyuter, elektroniy taxta, multimediyaliq materiallar) arqalı oqıw processin qızıqlı hám túsinikli etiwi múmkin. Sanlı oqıw resursların qollanıw arqalı: logikalıq oylaw rawajlanadı; mayda motorika hám kóz - qol koordinaciyası jetiledi; tanıp - biliw is - háreketi aktivlesedi. Bir kompyuter hám multimedia proektor arqalı ótkerilgen shınıǵıwlardan tárbiyashı materialdı aniq túrde jetkizedi. Animaciyalar, elektron oyın elementleri hám interaktiv tapsırmalar balanıń shınıǵıwǵa qatnasıwın arttıradı. Bunday jantasıw differencial oqıtıwdı ámelge asırıwǵa da múmkinshilik beredi, yaǵnıy hár bir balanıñ individual qábiletin esapqa alıwǵa jol ashadı. Ásirese qábiletli oqıwshılar ushın bilimdi tayar hám qızıqlı etiwde júdá úlgili esaplanadi.

Mektepke tayarlawda zamanagóy texnologiyalar tek bilim beriw quralı emes, balanıń shaxs spatında rawajlanıwına xızmet etedi. Olar balanıń óz betinshe pikirlew, soraw beriw, juwap tabıw qábiletin qáliplestiredi.

Zamanagóy texnologiyalar arqalı balalarǵa tómendegi qolaylıqlar beriledi:

- Motivaciya hám qızıǵıw - interaktiv hám vizual materiallar balanı shınıǵıwǵa qızıqtıradı.

4. Aktiv qatnasıw - balalar passiv tıńlawshı emes, bálkim aktiv qatnasıwshı boladı.

- Individual jantasıw - differencial shınıǵıwlar arqalı hár bir bala óz qábiletine qarap bilim aladı.

Zamanagóy texnologiyalar benen tayarlanǵan shınıǵıw balanıń bilim alıw iskerligin jáne de tereńlestiredi, onı qızıqlı hám interaktiv túrge keltiredi. Ásirese mektepke shekemgi jastaǵi balalar ushın kóriw, esitiw hám ámeliy iskerlik arqalı úyretiw óte áhmiyetli. Shınıǵıw processinde texnologiyalardı durıs qollanıw balanıń dıqqatın saqlawǵa, ǵárezsiz oylawına hám dóretiwshilik qábiletiniń rawajlanıwına járdem beredi.

3. Elektron taniw arqalı vizual úyreniw

Elektron slaydlar, videolar hám animaciyalar arqalı berilgen material bala esinde uzaq saqlanadı. Bala tek tıńlap qoymay, kórip hám salıstırıp úyrenedi. Mısalı; "Úy

haywanları" temasında shınıǵıw ótkende interaktiv doskada sıyır, qoy, at, tawıq haqqında súwret hám qısqa video kórsetiledi. Haywanlardıń dawısı esittiriledi. Keyin pedagog sol haywanlar boyınsha soraw beredi hám balalar kórgenine tayanǵan halda juwap beredi. Bul usıl tanıp - biliw qábiletin rawajlandıradı.

2. Differencial shınıǵıwlar arqalı individual jantasıw

Hár bir balanıń qábilet hám tezligi hár túrli. Sonıń ushın shınıǵıwda differensial jantasıw qollanıladı. Mısalı; Sanaw shınıǵıwında tez orınlaytın bala 10 ǵa shekem sanaydı hám qosıw ámelin orınıaydi. Qıyınshılıq sezgen bala 5 ke shekem sanawdı shınıǵıw etip aladı hám aniq túsine baslaydı. Elektron flatformalarda hár bir bala óz tempinde tapsırma orınlay aladı. Bul balanıń ózine bolǵan isenimin arttıradı hám stressti azaytadı.

Juwmaqlap aytqanda, mektepke tayarlaw processinde zamanagóy texnologiyalardan paydalanıw balalardıń bilim alıwında úlken áhmiyetke iye. Búgingi kúnde texnologiya kún sayın rawajlanıp baratırǵanı sebepli, tálim sistemasında da onıń ornı barǵan sayın artıp barmaqta. Mektepke shekemgi jastan baslap balalardı zamanagóy texnologiyalar menen tanıstırıw, olardıń bilimge bolǵan qızıǵıwın arttıradı hám shınıǵıwdı jaqsıraq túsiniwine járdem beredi. Interaktiv doskalar, kompyuterler, planshetler, oqıw programmaları hám elektron resurslar arqalı ótkerilgen shınıǵıwlar balalar ushın qızıqlı hám túsinikli boladı. Bul bolsa balalardıń shınıǵıwǵa aktiv qatnasıwına, soraw beriwine hám óz pikirin erkin bildiriwine múmkinshilik jaratadı. Sonıń menen birge, zamanagóy texnologiyalar pedagoglarǵa shınıǵıwdı jańa metodlar menen shólkemlestırıwine járdem beredi.

Tárbiyashı shınıǵıw waqtında túrli kórsetpe materiallardan, video shınıǵıwlardan, animaciyalardan hám interaktiv tapsırmalardan paydalanıp, balalardıń dıqqatın uzaq waqıt saqlap qala aladı. Bul bolsa bilimdi jaqsı eslep qalıwına hám onıń bekkemleniwine járdem beredi. Bundan tısqarı, zamanagóy texnologiyalar hár bir balanıń individual qábiletlerin esapqa alıwǵa da múmkinshilik beredi. Hár bir bala óziniń qábiletine hám qızıǵıwına qarap tapsırmalar orınlap, bilim alıw processinde belsendi qatnasadı. Sol sebepli, mektepke tayarlaw sistemasında zamanagóy pedagogikalıq hám informaciyalıq texnologiyalardan durıs hám orınlı paydalanıw juda áhmiyetlı. Bul jantasıw shınıǵıwdı qızıqlı, interaktiv hám nátiyjeli etedi. Eń baslısı, bul usıl balalardıń hár tárepleme rawajlanıwına, bilimge bolǵan qızıǵıwınıń artıwına hám mektepke puxta tayarlanıwına úlken úles qosadı. Demek, zamanagóy texnologiyalar mektepke tayarlaw sistemasınıń ajıralmas bólegi bolıp tabıladı hám olardı tálim processinde keń qollanıw keleshekte jaqsı nátiyjelerge alıp keledi.

Paydalanılǵan adebiyatlar:

1. Azizxo‘jayeva N. "Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat." Tashkent 2006.

2. Qodirov F. R. "Maktabgacha pedagogika" Toshkent. 2014.

3. Dablatov K. "Maktabgacha talim pedagogikası " Tashkent 2018.

4. Ózbekistan Respublikası " Maktabgacha ta’lim toǵrisida" ǵi Qonunı - Tashkent 2019.

KICHIK MAKTAB YOSHDAGI BOLALARDA INGLIZ TILIDA TIL KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA MULTIMEDIANING AHAMIYATI

A.B.Nauruzbaeva - Maktabgacha ta’lim kafedrası asistent o’qituvchisi
Ajiniyazova Shaxinur - NDPI maktabgacha ta’lim fakulteti 2-kurs talabasi

Kalit so’zlar: sehrli tayoqcha, twister, rasmni ko'rsatish, hosilni yig'ish, keling, yig'amiz, Portfel o’yinlari

Ключевые слова: волшебная палочка, твистер, шоу-картинка, урожай, давайте собирать урожай, игры-портфолио.

Key words: magic wand, twister, show picture, harvest, let's harvest, portfolio games

Shu paytgacha metodika birinchi navbatda maktab o'quvchilariga qaratilgan bo'lsa, endi ota-onalar farzandlariga chet tilini imkon qadar erta o'rgatishga intilmoqda. Bundan tashqari, maktabgacha yosh psixologlar tomonidan ushbu faoliyat turi uchun eng qulay davr sifatida tan olingan.

Bolalarga ta'lim berish juda qiyin ish bo'lib, u maktab o'quvchilarini o'qitishdan butunlay boshqacha uslubiy yondashuvni talab qiladi. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatishning etakchi usuli hisoblanadi. Bundan tashqari, o'yin maktabgacha yoshdagi bolaning asosiy faoliyati bo'lib, deyarli har qanday til birligini kommunikativ jihatdan qimmatli qilish imkonini beradi. Bularning barchasi erta yoshda ushbu yoshdagi bolalarning kommunikativ ehtiyojlarni va ularni chet tilida ifodalash qobiliyatini optimal tarzda birlashtirishga imkon beradi.

Klassik dars quyidagi bosqichlarni o'z ichiga olishi kerak:

1. Salomlashish.
2. Fonetik mashq.
3. O‘tilgan leksik materialni o‘yin shaklida takrorlash.
4. Ochiq o'yinlar yordamida isinish.
5. O'tilganlarni faollashtirish va yangi leksik materialni kiritish.
6. She’r va qofiyalarni o‘rganish.
7. Inglizcha multfilmlarni tomosha qilish.

Shunday qilib, chet tilini o'rgatishning boshlang'ich bosqichida asosiy e'tibor bolalarning og'zaki ingliz tilini tushunishini rivojlantirish va talaffuz va asosiy nutq qobiliyatlari asoslarini yaratishga qaratilgan:

- to‘liq idrok inglizcha elementar so‘zlarni doimiy qo‘llash orqali rivojlanadi;
- qo‘shiq va qo‘shiqlardan iboralar va nutq klişelari o‘rganiladi;
-oddiy so‘zlarni tanib olish va qo‘llash o‘yin davomida sodir bo‘ladi.

Leksik ko'nikmalarni rivojlantirish.

“Tilning asosiy materiali lug‘at, so‘zdir. G‘ishtsiz uy qurib bo‘lmaganidek, kerakli miqdordagi so‘zlarni o‘zlashtirmasdan tilni ham o‘zlashtirib bo‘lmaydi”. So'zlar bizning xotiramizda assotsiativ tematik guruhlarda saqlanadi. Shuning uchun, bolalarda asosiy lug'atni, ya'ni ular iboralar tuzadigan "g'ishtlar" zaxirasini shakllantirishda biz tematik guruhlarga yangi leksik birliklarni kiritishimiz kerak.

Ushbu bosqichda o'rganish uchun taklif qilingan taxminiy leksik mavzu quyidagi mavzular shaklida taqdim etilishi mumkin: salomlashish, sanash, ranglar, o'yinchoqlar, hayvonlar, oila, bayramlar, oziq-ovqat, uy, tana a'zolari, kiyim-kechak, yil fasllari.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun leksik materialni tanlashda ma'lum mezonlar mavjud:

- bu bosqichda o'rganilgan barcha so'zlar ona tilida bolaga yaxshi ma'lum bo'lgan tushunchalarni anglatishi kerak;

- so'zlar tilda tez-tez qo'llanilishi va bir-biriga juda mos kelishi kerak.

Dastlab yangi leksik birliklar kiritiladi

Rasmlar, o'yinchoqlar, imo-ishoralar, mimika yoki narsalardan foydalangan holda so'zlarning ma'nolari aniq ko'rsatilsa, lug'at eng yaxshi esda qoladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda asosan majoziy xotira rivojlanganligi sababli, ko'rgazmali qurollar nafaqat so'zning ma'nosini ochish, balki uni eslab qolish uchun ham xizmat qiladi.

Avval rasmlar yoki o'yinchoqlarni ko'rsataman va so'zlarni aytaman. Bolalar talaffuzga taqlid qilib, xorda takrorlaydilar. Keyingi bosqichda men bolaga o'yinchoq yoki rasmni uzataman, uni yangi so'zni nomlashga undayman. Keyinchalik, ish zanjir bo'ylab ketadi: boladan bolaga. Bolalar ishning bunday shakliga har bir darsda duch kelishadi. Yangi lug'atdan tashqari, men talaffuzni kuzatib boraman, har bir bolaga tilini to'g'ri joylashtirishga yordam beraman. Mashq xor ishi bilan tugaydi: bolalar har bir yangi so'zni xorda takrorlaydilar.

O'yinchoqlar va rasmlar kabi vizual ma'lumot vositalaridan tashqari, men umumiy jismoniy javobdan foydalanaman - TPR. Bu shuni anglatadiki, bolalar imo-ishoralar, mimikalar yoki harakatlar haqida gapirayotganlarini ifodalaydi. Men harakat fe'llari bilan tanishishda, tana qismlarini o'rganishda (bolalar tananing turli qismlarini ko'rsatadi), "Hayvonlar" mavzusidagi lug'atni (bolalar turli hayvonlarni tasvirlaydi), "Maktab" mavzusidagi ba'zi so'zlarni (bolalar qanday tasvirlashni tasvirlaydi) shunga o'xshash usullarga murojaat qilaman. ular yozish, o'qish, hisoblash va chizish), maktabga tayyorgarlik ko'rish (turish, yuvish, mashqlar qilish, tishlarni tozalash, ovqatlanish, ichish, kiyish va h.k.), "Kiyim" mavzusidagi lug'at (bolalar imo-ishoralar bilan ko'rsatish). ular kiyinish yoki boshqa kiyim). Ushbu mashqlar sinfdagi mashqlar kabi juda yaxshi.

Keyingi bosqich - so'z boyligini faollashtirish. Keyinchalik, men ushbu so'zlarni xotirada mustahkamlash uchun ularni tegishli kontekstda ishlatib, bolalar bilan mashq qilaman.

Lug'atni o'rgatishda ikki xil bo'lgan kartalar bilan o'yinlarga katta e'tibor berish kerak: og'zaki tanib olishni rivojlantirish - tinglash ("Sehrli tayoqcha", "Twister", "Rasmni ko'rsatish", "Hosilni yig'ish", "Keling, yig'amiz" Portfel», «Odamni chizish») va og'zaki reproduktsiyani rivojlantirish - nutq. («Bu nima?», «Nima etishmayapti?», «Tahmin», «So'z izi») Bolalarni etarli darajada ta'minlash muhimdir. o'rganilgan leksik birliklarni ko'paytirishga o'tishdan oldin tinglash amaliyoti miqdori.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jalolov J.J. Chet til óqitytish metodologiyasi T.: O‘qituvchi, 1996

2. Saydaliev S.S “Chet til óqitish metodikasidan ocherklar” Namagan, NamDU 2004

BOLALARNI MAKTAB TA’LIMIGA TAYYORLASHNING ZAMONAVIY SHAKLLARI VA METODLARI

Dawletiyarova Venera Madyarovna Nukus davlat pedagogika instituti
Maktabgacha talim kefedrasi stajyor o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni tizimli ta’limga tayyorlashning pedagogik va psixologik asoslari tadqiq etiladi. Maqolada tayyorlov guruhlaridagi ish shakllari, o‘yin texnologiyalari va bolaning intellektual hamda ijtimoiy moslashuvini ta’minlovchi metodlar atroflicha yoritilgan

Kalit so‘zlar: maktabgacha talim, psixologik tayyorgarlik, fiziologik tayyorgarlik, o‘quv dasturi, o‘yin metodlari, multimedia

Аннотация: В данной статье рассматриваются педагогические и психологические основы подготовки детей дошкольного возраста к систематическому образованию. Подробно рассматриваются формы работы в подготовительных группах, игровые технологии и методы, обеспечивающие интеллектуальную и социальную адаптацию ребенка.

Ключевые слова: дошкольное образование, психологическая подготовка, физиологическая подготовка, учебная программа, игровые методы, мультимедиа.

Abstract: This article examines the pedagogical and psychological foundations of preparing preschool children for systematic education. The article covers in detail the forms of work in preparatory groups, game technologies, and methods that ensure the intellectual and social adaptation of the child.

Keywords: preschool education, psychological preparation, physiological preparation, curriculum, game methods, multimedia

Bolaning maktab ostonasiga qadam qo‘yishi uning hayotidagi eng muhim burilish nuqtalaridan biri hisoblanadi. Bu davrda bolaning faoliyat turi o‘yindan ta’limga o‘zgaradi. Bolani maktabga tayyorlash deganda faqat unga harf tanitish yoki sanashni o‘rgatish tushunilmasligi kerak. Bu jarayon kompleks yondashuvni, ya’ni bolaning jismoniy, ruhiy, ijtimoiy va intellektual tayyorgarligini o‘z ichiga oladi. Zamonaviy pedagogika oldida turgan asosiy vazifa — bolaning maktabga moslashuvini yengillashtirish va unda o‘qishga bo‘lgan barqaror motivatsiyani shakllantirishdir.

1. MAKTABGA TAYYORGARLIKNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Bolani maktabga tayyorlash jarayoni to‘rtta asosiy ustunga tayanadi:

Fiziologik tayyorgarlik: Bu bolaning umumiy salomatligi, mayda motorika (qo‘l mushaklari) rivojlanishi va asab tizimining chidamliligini anglatadi.

Psixologik tayyorgarlik: Diqqat, xotira, mantiqiy fikrlash va iroda kabi jarayonlarning shakllanganligi. Bola o‘z hissiyotlarini boshqara olishi va o‘qituvchining ko‘rsatmalariga bo‘ysunishi lozim.

Ijtimoiy-kommunikativ tayyorgarlik: Tengdoshlari bilan muloqotga kirisha olish, jamoada ishlash va ijtimoiy normalarga amal qilish.

Maxsus (akademik) tayyorgarlik: O‘qish, yozish va elementar matematik tasavvurlarning mavjudligi.

2. TAYYORLASHNING TASHKILIY SHAKLLARI

Bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimida bolalarni maktabga tayyorlashning bir necha samarali shakllari yo‘lga qo‘yilgan:

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari (MTT): Tayyorlov guruhlarida mashg‘ulotlar davlat o‘quv dasturi asosida kunlik tartibda olib boriladi.

"Aqlvoy" va majburiy bir yillik bepul tayyorlov kurslari: Maktabgacha ta’limga qamrab olinmagan bolalar uchun haftasiga 15 soatlik dastur asosida maktab qoshida tashkil etiladigan kurslar.

Qisqa muddatli guruhlar va yakshamba maktablari: Maxsus markazlar tomonidan tashkil etilib, ko‘proq mantiqiy fikrlash va til o‘rganishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Oilaviy ta’lim: Ota-onalar tomonidan uy sharoitida olib boriladigan tayyorgarlik. Bunda ota-onaga uslubiy yordam ko‘rsatish muhim ahamiyatga ega.

3. ZAMONAVIY TA’LIM METODLARI

Bolalarning yosh xususiyatidan kelib chiqib, tayyorgarlik jarayonida "O‘qitish emas, rivojlantirish" tamoyili ustuvor bo‘lishi kerak. Quyidagi metodlar hozirda eng samarali hisoblanadi:

A. O‘yinli metodlar (Edutainment)

O‘yin — 6-7 yoshli bola uchun asosiy faoliyatdir. Didaktik o‘yinlar orqali bola sezmagan holda murakkab matematik amallarni bajaradi yoki tovushlarni tahlil qiladi. Masalan, "Sehrli xaltacha", "Ortig‘ini top" kabi o‘yinlar diqqat va tasavvurni o‘stiradi.

B. TRIZ texnologiyasi (Ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi)

Bu metod bolada nostandart fikrlashni shakllantiradi. Bolaga "Agar yomg‘ir yog‘sa-yu, soyabon bo‘lmasa, nima qilish mumkin?" kabi muammoli savollar berish orqali uning ijodiy salohiyati uyg‘otiladi.

V. Mnemotexnika

Xotirani mustahkamlash uchun ishlatiladigan vizual sxemalar va jadvallar. Bolalar she’rlarni yoki hikoyalarni rasmli ramzlar orqali tezroq va mustahkamroq eslab qolishadi.

G. Loyiha metodi

Bolalarga kichik tadqiqotchilik ishlarini topshirish (masalan, "Loviya qanday o‘sadi?"). Bu ularda kuzatuvchanlik va mas’uliyatni tarbiyalaydi.

4. MULTIMEDIA VA RAQAMLI VOSITALARNING O‘RNI

Hozirgi axborot asrida interaktiv doskalar va ta’limiy mobil ilovalar maktabga tayyorlov jarayonini qiziqarli qilmoqda. Biroq, bunda me’yor (sanitariya me’yorlari) buzilmasligi shart.

Interaktiv ertaklar (audio-vizual qabul qilish).

Mantiqiy o‘yinlar (planshetlar orqali kognitiv mashqlar).

Elektron topshiriqlar (bolaning xatosini o‘zi tushunib yetishiga yordam beradi).

5. MAKTAIBGA TAYYORGARLIKDA OILA VA MTT HAMKORLIGI

Bola maktabga tayyor bo‘lishi uchun bog‘chadagi mashg‘ulotlar uyda ham davom etishi lozim. Pedagoglar ota-onalar bilan quyidagi yo‘nalishlarda ishlashi kerak:

Bolaning kun tartibini to‘g‘ri shakllantirish;

Bolaga kitob o‘qib berish va o‘qilgan matn yuzasidan suhbatlashish;

Bolaning mustaqilligini rag‘batlantirish (kiyinish, buyumlarini yig‘ishtirish).

Xulosa qilib aytganda, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash — bu faqatgina bilimlar zaxirasini to‘plash emas, balki bolada "o‘qishga bo‘lgan ehtiyoj"ni shakllantirishdir. Maqolada ko‘rib chiqilgan shakl va metodlar shuni ko‘rsatadiki, har bir bola o‘zining individual sur’ati bilan rivojlanadi. Pedagog va ota-onalarning vazifasi bolaga bu jarayonda bosim o‘tkazmasdan, uning tabiiy qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlashdir. Sifatli maktabgacha tayyorgarlik — kelajakdagi muvaffaqiyatli mutaxassis va komil insonning poydevoridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida"gi Qonuni.
2. "Ilk qadam" davlat o‘quv dasturi. Toshkent, 2022-y.
3. Vygotskiy L.S. "Bola psixologiyasi va pedagogikasi".
4. G‘oziyev E.G‘. "Ontogenez psixologiyasi". Toshkent, 2010-y.

TÁRBIYASHINIŃ DÓRETIWSHILIGI HÁM QARIM-QATNAS MÁDENIYATI

A.T.Saparov. NMPI «Mektepke shekemgi tárbiya hám defektologiya» kafedrası ulken oqıtıwshısı

Tárbiyashı pedagogikalıq jumıs alıp barıwda jetekshi shaxs bolıp esaplanadı. Oǵan jas áwladtı tárbiyalaw waziypası tapsırılǵan. Sonıń ushın hám tárbiyashı shaxsına, aqlıy qásiyetleri, ádep-ikramlıq sıpatları hámde mektepke shekemgi jastaǵı balalar menen qarım-qatnasta ayrıqsha talaplar qoyıladı. Tárbiyashı ómirge dáslepki qádemlerin qoyıp atırǵan, barkamal shaxs sıpatında qáliplesken jas áwladlardı tárbiyalaydı, olarda turmıs ushın zárur bolǵan birinshi kónlikpe hám tájriybelerdi qáliplestiredi, hádiyse-waqiyalardı turlishe qabıl qılıwdı uyretedi, olar menen qarım-qatnasta boladı.

Ózbekistan Respublikasınıń mektepke shekemgi jastaǵı balalardı rawajlandırıw barısındaǵı Mámleket talaplarına muwapıq 2018-jılda islep shıǵılǵan hám normativ-huquqiy hujjet esaplanǵan mektepke shekemgi tálim mákemesiniń «Dáslepki qádem» mámleketlik oqıw dásturinde mektepke shekemgi tálim mákemesiniń maqset hám waziypaları, oqıw-tárbiyalıq jumıslarınıń tiykarǵı ideyaları sawlelengen, sonday-aq balanıń tálimniń keyingi basqıshına ótiwdegi tiykarǵı kompitentsiyaları belgilengen.

«Dáslepki qádem» mámleketlik oqıw dásturinde balalardıń «dóretiwshilik» tarawındaǵı oqıw-tárbiyalıq iskerligi juwmaqlanǵannan soń 6-7 jaslı bala: iskusstva hám mádeniyatqa qızıǵıwshılıǵın kórsetiwi; milliy urp-ádetlerdi qádirlep, olardı kundelikli turmıstıń bir bólimi sıpatında qarap ósiwi; alınǵan bilim hám kónlikpelerdi turli turmıslıq sitiuatsiyalarda óz dóretiwshilik rejelerin duziw hám qollana biliwi; insannıń dunyanı ózgertiwdegi shólkemlestiriwshilik rolin tusiniw sıyaqlı kompitentsiyalardı iyelewi kórsetip berilgen. Bunday kompitentsiyalardı 6-7 jaslı balalardıń iyelewi kun sayın rawajlanıp atırǵan dáwir talabı esaplanadı. Balalarda bunday kompitentsiyalardı qáliplestiriw álbette tárbiyashılardan dáslep,

mámleketimizdiń mektepke shekemgi jastaǵı balalardı tárbiyalawǵa qoyǵan talaplardı siyasiy, ruwxıy tárepten tuwrı qabıl qılıw hám bar bilimi hám sheberligin balalardıń keleshegi ushın baǵıshlawǵa tayar bolıwı, balalarǵa bolǵan kushli mehr-muhabbat, hár bir balanıń keleshegi haqqında oylaw sıyaqlı qasiyetlerge iye bolıwı kerek.

Balalardıń tvorchestvalıq rawajlanıwında tárbiyashınıń dóretiwshiligi ayrıqsha rol oynaydı. Mektepke shekemgi jastaǵı balalardı tárbiyalawǵa baylanıslı mámleketlik talaplarında turli jas toparlar tárbiyalanıwshılarınıń dóretiwshiligin bahalawshı kreteriyalar keltirilgen. Atap aytqanda, bala oylaw qábiletin rawajlandırıwshı ortalıq jaratıw; balanıń muzıkalıq qábiletin rawajlandırıwshı balalar qosıqların esittiriw; balanı awqat tayarlawǵa; bólmeni bayramǵa tayarlaw barısına qamtıw; dukan hám salonlarda kompozitsiya jaratqan jumısshılar háreketin guzetiw sıyaqlı tapsırmalar kirgizilgen. Bul islerdi alıp barıw ushın tárbiyashıdan ulken kush hám talapshańlıq talap etiledi.

Mektepke shekemgi bilimlendiriw mákemesinde bala qarım-qatnas ádebin tiykarınan tárbiyashı mısalında ańlap jetedi. Tárbiyashınıń qarım-qatnas munasebetleri insaniylıq hám ixtiyariy printsiplerge tiykarlanadı. Tárbiyashınıń qarım-qatnası ádetde, eki turli bolıp, birnshisi-rásmiy, ekinshisi-rásmiy emes qarım-qatnas. Tárbiyashınıń rásmiy qarım-qatnasında Ózbekistan Respublikasınıń nızamları, metkepke shekemgi bilimlendiriw sistimasına tiyisli normativ hujjetlerge tiykarlanadı. Rásmiy emes qarım-qatnasqa pedagogik etikanıń nızamlıqlarına tiykarlanadı.

Mektepke shekemgi bilimlendiriw mákemesi tárbiyashısınıń qarım-qatnas ádebi psixologik nızamlar, ádep-ikramlıq normalar, qaǵiyda talapları, pedagoglar kollektivi pikiri tiykarında ámelge asırıladı. Máleketimizdiń ertengi kuni bolǵan kishkene balalardı tárbiyalaw hárbirimizdiń tiykarǵı waziypamız bolıwı kerek. Hár bir tárbiyashınıń is-háreketi, minez-qulqı, qarım-qatnası pedagoglar kollektiviniń maqset talaplarına say bolıwı kerek.

Joqarıda kórsetilgen waziypalardı islew mektepke shekemgi bilimlendiriw mákemesi tárbiyashısınan kónlikpe, tájriybe, qábilet, kreativ hám kommunikativ kompitentlikni talap etedi. Tárbiyashınıń kónlikpeleri onıń kásiplik jumıs barısında toplanǵan tájriybe hám bilimler tiykarında islenetuǵın jumıstıń quramalı usılı bolıp esaplanadı. Qábilet bolsa shaxstıń individual-psixologik ózgesheligi bolıp, tárbiyashılıq iskerligi tárepinen ámelge asırıw subektiv shárt-sháriyatın sawlelendiriwshi individual psixik sıpatlar toplamı bolıp, zárur bolǵan bilim, tájriybe hám kónlikpelerdi iyelew dinamiksındaǵı parqlardı anıqlaydı.

Kommunikativ kompetentlik – bilimlendiriw barısiniń barlıq qatnasıwshıları, sonday-aq talabalar menen doslıq munasebette bolıw, olardı tıńlay biliw, olarǵa unamlı tásir kórsete alıw menen belgilenedi. Kreativ kompetentlik bolsa – pedagogik iskerlikge kritikalıq, unamlı jantasıw, o'ziniń dóretiwshilik tájriybelerine iye ekenligin kórsete alıw qábileti qálipleskenligi menen belgilenedi. Tárbiyashı kreativ shaxs bolıp, dóretiwshiligin kórsetiwshi, máselelerdi sheshiwde standart emes usıllar menen qatnasıwǵa meyil, ózine tán háreketlerdi

shólkemlestire alıw, jańalıqlardı turmısqa en jaydırıwǵa, dóretiwshilik islerdi jaratıwǵa qábiletli hám tayar shaxs bolıp esaplanadı.

Paydalanǵan ádebiyatlar

1. Bobaev D.R. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini ustirish jarayonida ertaklar asosida atrof-muhit bilan tanishtirish. Ilmiy toplam. Nizomiy nomidagi TDPU-2000.
2. Umarova M. Bolalarda atrof-muhitga masuliyatli munasabatni shakllantirish. Metod.qull. Nizomiy nomidagi TDPU-2007.
3. Ochilov M. Ochilova N. O'qituvchi odabi. Toshkent-1997i.

MAKTABGACHA TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING TA'LIM SAMARADORLIGIGA TA'SIRI

Tursinbayeva Nargiza Gayratovna - Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi magistranti

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiyalar, maktabgacha ta'lim, interaktiv ta'lim, kognitiv rivojlanish, multimedia, ta'lim samaradorligi, integratsiya, kreativ fikrlash, virtual reallik, animatsiyali o'yinlar.

Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim bosqichida bolalarning ilk bilim va ko'nikmalari shakllanishida innovatsion yondashuvlar muhim rol o'ynaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida raqamli texnologiyalar bolalarning qiziqishini oshirish, interaktiv ta'lim muhitini yaratish va ta'lim samaradorligini kuchaytirish imkonini beradi. Interaktiv doskalar, multimedia platformalar, mobil ilovalar orqali bolalar nafaqat bilim oladilar, balki kreativ fikrlash, mustaqil izlanish va muloqot qobiliyatlarini ham rivojlantiradilar. Bundan tashqari, raqamli resurslar ta'lim jarayonini yangi, samarali va noan'anaviy shaklda tashkil etish imkonini yaratadi.

Aynan hozirgi davrda zamonaviy ta'lim tizimini yaratish uchun turli dasturlar ishlab chiqilmoqda. Bundan maqsad ta'lim sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirishdir. Oliy ta'lim, kollej, texnikum va maktablar singari Maktabgacha ta'lim tashkiloti ham zamonaviy ta'lim tizimiga o'tmoqda. Bolalarning barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishi uchun ularga yetarlicha sharoitlar yaratilmoqda va tajribali mutaxasislar tomonidan mashg'ulotlar o'tilmoqda. Ta'lim dasturi (quyida – Dastur) – MTT davlat o'quv dasturiga asosan muayyan yosh guruhida tashkil etiladigan ta'lim va tarbiya jarayonini amalga oshirishga xizmat qiluvchi muhim hujjat bo'lib, u davlat talablariga asosan kutilayotgan natijalarga erishishni ta'minlashi lozim[1].

Maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalarning joriy etilishi bolalarning ta'lim olish jarayonini osonlashtirish va ularning ijodiy hamda kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda quyidagi raqamli texnologiyalar maktabgacha ta'limda keng qo'llanilmoqda:

Interaktiv doskalar va multimedia vositalari – bolalarning qiziqishini oshirish va ularning diqqatini uzoqroq saqlab turish uchun muhim vositalardan biri;

Ta’limiy mobil ilovalar va kompyuter o‘yinlari – bolalarning individual rivojlanishini ta’minlash va ularning bilimini shaxsiylashtirilgan yondashuv asosida oshirish;

Virtual va qo‘shimcha reallik (VR/AR) texnologiyalari – ta’lim jarayonini real hayotga yaqinlashtirish va bolalarda yangi tajribalar hosil qilish;

Onlayn ta’lim platformalari – ota-onalar va tarbiyachilar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish hamda ta’lim jarayonini to‘liq kuzatib borish imkonini yaratadi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanishning ta’limda samaradorlikka erishishga ta’sirini ko‘rib chiqamiz. Raqamli texnologiyalarning maktabgacha ta’lim jarayonidagi muhim afzalliklaridan biri, bolalar uchun yoqimli va qiziqarli o‘quv muhitini yaratishdir. Interaktiv kontent va animatsiyali o‘yinlar orqali bolalarning diqqat-e’tibori oshadi, ma’lumotlarni yanada oson o‘zlashtiradilar. Raqamli texnologiyalar bolalar uchun ta’limiy faoliyatlarni qiziqarli va interaktiv shaklda tashkil etishga yordam beradi. Animatsiyalangan darslar va video materiallar orqali bolalarga murakkab tushunchalarni osonroq tushuntirish imkoni mavjud. Interaktiv ta’lim platformalari va mobil ilovalar bolalarda tafakkur qilish, xotira va diqqatni jamlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Masalan, multimedia kontentlar bolalarning tashxisiy va tahliliy qobiliyatlarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar orqali o‘quv materiallarini qayta ko‘rib chiqish va mashg‘ulotlarni takrorlash imkoni mavjud. Bu esa bolalarning bilimlarini mustahkamlash imkonini beradi. Zamonaviy raqamli vositalar bolalarni mustaqil bilim olishga yo‘naltirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ular multimediali darslar, elektron kitoblar va onlayn resurslar orqali mustaqil o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Multimediya resurslari, elektron qo‘llanmalar va mobil ilovalar bolalarga bilimni yanada interaktiv usulda o‘zlashtirish imkonini beradi. Bolalar multimedia orqali yangi mavzularni vizual va audio formatda qabul qiladi, bu esa xotirani mustahkamlashga yordam beradi. Onlayn platformalar va mobil ilovalar ota-onalarga bolalarining rivojlanishi haqida to‘liq ma’lumot olish imkoniyatini beradi. Bu esa bolalarni ta’lim jarayonida qo‘llab-quvvatlashni samarali tashkil etishga yordam beradi. Shuningdek, raqamli platformalardan foydalanish pedagoglar uchun ham samarali hisoblanadi. Ularga bolalarning individual qobiliyatlarini aniqlash va ularga mos o‘quv rejalarini ishlab chiqish imkonini beradi. Shu tariqa, har bir bolaga alohida yondashuv ta’minlanadi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar orqali ta’lim faoliyati avtomatlashtiriladi, buning natijasida pedagoglar uchun ta’lim materiallarini rang-barang yaratish, ishlab chiqish yengillashuviga erishiladi. Ammo yana bir jihat borki, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish jarayonida bir qator muammolar mavjudligini ko‘rsatadi. Eng asosiy muammolardan biri – barcha tashkilotlarning yetarlicha texnik vositalar bilan ta’minlanmaganidir. Shuningdek, pedagoglarda raqamli vositalardan samarali foydalanish borasidagi bilim va ko‘nikmalarini oshirishga ham katta e’tibor qaratish lozim.

Xulosa qilib aytganimizda, maktabgacha ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. U bolalarning qiziqishini kuchaytiradi, bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini tezlashtiradi va ijodiy fikrlashni

rivojlantiradi. Shu bilan birga, ushbu texnologiyalarni qo‘llashda me’yor, pedagogik maqsadga muvofiqlik va nazorat muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ilk qadam davlat o’quv dasturi. Toshkent, 2022.
2. Grosheva I.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Yevstafyeva L.G., Maxmudova D.T. Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F. To‘raqulov U.X. “Raqamli texnologiyalar negizida bo‘lajak o‘qituvchilarni raqamli texnologiyalar negizida kasbiy faoliyatning uzluksiz metodik ta’minoti tizimini yaratish”. “Informatika i injenerniye texnologii” jurnali. № 2 (2023).

MEKTEPKE SHEKEMGI BILIMLENDIRIW SHÓLKEMINDE ROBOTOTEXNIKA HÁM KONSTRUKCIYALAW ARQALÍ STEM KÓNLIKPELERIN RAWAJLANDÍRÍW

Xaljanova Gulzira Abdiraxmanovna - Qońırat rayonı 10-sanlı MSHBSH tárbiyashısı

Annotaciya: Usı teziste mektepke shekemgi jastaǵı balalardıń intellektual potencialın asırıwda STEM-texnologiyalarınıń ornı, ásirese, robototexnika hám konstrukciyalaw sabaqlarınıń metodikalıq tiykarları kórsetip berilgen. Balalarda injenerlik pikirlew hám algoritmlew kónlikpelerin qáliplestiriw boyınsha usınıslar berilgen.

Tayanısh túsinikler: STEM-oqiw, robototexnika, konstrukciyalaw, logikalıq pikirlew, mektepke shekemgi bilimlendiriw, innovaciya.

Kalit so‘zlar: STEM ta’limi, robototexnika, konstruksiyalash, mantiqiy fikrlash, maktabgacha ta’lim, innovatsiya.

Ключевые слова: STEM-образование, робототехника, конструирование, логическое мышление, дошкольное образование, инновации.

Búgingi jedel texnologiyalar dáwirinde mektepke shekemgi bilimlendiriw sistemasınıń aldına tek ǵana bilim beriw emes, al balalarda sın kózqarastan pikirlew hám mashqalalardı sheshiw kónlikpelerin qáliplestiriw wazıypası qoyılǵan. STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) qatnası bul baǵdarda eń nátiyjeli qural bolıp tabıladı. Robototexnika baǵdardı bir oyın jumısında birlestire alatuǵın siyrek ushırasatuǵın taraw.

Mektepke shekemgi jastaǵı balalarda konstrukciyalaw (qurıw-jasaw) iskerligi tómendegi basqıshlarda ámelge asırıladı:

Úlgi tiykarında qurıw: Balanın berilgen sızılma yamasa tayar modelge qarap detallardı tańlawı.

Shárt tiykarında qurıw: Máselen, “Sonday kópir qurıń, onıń astınan júk mashinası óte alsın.” Bul basqıshta balada injenerlik sheshimlerdi izlew baslanadı.

Tema boyınsha óz betinshe dóretiwshilik: Balanıń óz qıyalındaǵı obektti (kosmoslıq keme, keleshek qalası) detallardan qurıwı.

Robototexnika sabaqları balalarǵa tek zatlardı jıynawdı emes, al olardı basqarıwdı da úyretedi.

Elementar programmalastırıw: Kompyuter yamasa planshet paydalanbastan, arnawlı “aqıllı” oyınshıq-robotlar (máselen, *Bee-Bot* yamasa *Matatalab*) járdeminde “aldıǵa,” “ońǵa,” “shepke” buyrıqların beriw arqalı balalar algoritmlew tiykarların úyrenedi.

Sebep hám aqibet baylanısı: “Eger men robotqa nadurıs buyrıq bersem, ol mánzilge jetip barmaydı” degen juwmaqqa keliw arqalı qáteler ústinde islewdi úyrenedi.

Baǵdar	**Rawajlanatuǵın kónlikpe**
Ilim	Dene hám buyımlardıń qásiyetleri, teń salmaqlıq, salmaq hám tartılıs nızamların ámelde kóriw.
Texnologiya (Technology)	Zamanagóy úskeneler, sensorlar hám dvigateller menen islew mádeniyatı.
Injenerlik (Engineering)	Sızılmalar menen islew, turaqlı konstrukciyalar jaratıw, joybardı rejelestiriw.
Matematika (Mathematics)	Sanaw, ólshew, geometriyalıq figuralar hám simmetriyanı túsiniw.

Mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemi tárbiyashıları ushın STEM shınıǵıwların shólkemlestiriwde tómendegilerge itibar qaratıw usınıs etiledi:

Ortalıq jaratıw: Toparda “STEM-orayı” yamasa “Jas injener múyeshi”n shólkemlestiriw. Toparda STEM-orayı (Science, Technology, Engineering, Mathematics) yamasa “Jas injener múyeshi”n shólkemlestiriw balalarda sın kózqarastan pikirlew hám mashqalalardı sheshiw kónlikpelerin qáliplestiriwdiń eń nátiyjeli usılı bolıp tabıladı. Múyeshti bayıtıw ushın qımbat bahalı oyınshıqlar shárt emes. Tiykarǵısı - hár túrlilik:

Konstruktorlar: Lego, magnitli konstruktorlar, aǵash bloklar.

Tábiyiy materiallar: Taslar, qabıqlar, qum, shaqalar, konuslar.

Ekinshi dárejeli shiyki zatlar: Karton qutılar, plastikalıq stakanlar, katushkalar, qazǵıshlar, skotch hám jelim.

Ásbap-úskeneler: Magnitler, tárezi, santimetrli lenta, qum saat, shıraqlar (fonarik).

Joybar usılı: Shınıǵıwlardı kishi joybarlar kórinisinde ótkeriw (máselen, “Biziń baqshamız ushın aqıllı suwǵarıw sisteması”). Joybar usılı - bul balalarǵa tek ǵana tayar maǵlıwmat beriw emes, al olardı haqıyqıy mashqalanı sheshiwge qaratılǵan kishi izertlewshilerge aylandırıw bolıp tabıladı.

Mashqaladı anıqlaw (Mashqala: Suw jetispewshiligi)

Sáwbet: “Balalar, biz dem alıs kúnleri baqshada bolmaǵanımızda gúllerimiz shóllep qaladı. Olarǵa qalay járdem bere alamız?” Insan aralasıwısız ósimliklerdi suwǵaratuǵın qurılmanı oylap tabıw.

Marapatlaw: Balanıń hár bir jańa konstruktiv sheshimin qollap-quwatlaw hám “Ne ushın bunday isledińiz?” degen soraw arqalı onıń sóylewin rawajlandırıw. Marapatlaw - bul STEM-bilimlendiriwdiń "motorı.”

Balanıń dóretiwshilik procesin qollap-quwatlaw arqalı biz tek ǵana onıń ózine bolǵan isenimin arttıramız, al onda metakognitivlik (óz pikirlew procesin túsiniw) kónlikpelerin qáliplestiremiz.

“Ne ushın?” hám “Qanday?” sorawlarınıń kúshi.

Balanıń háreketlerine qızıǵıwshılıq bildiriw onı óz ideyasın logikalıq tiykarlawǵa májbúrleydi. Bul injenerlik sóylewdi rawajlandıradı.

Siz: “Bul minaranıń tómengi bólimin nege keńirek ettiń?”

Bala: “Sebebi ol tóńkerilip ketpewi kerek.” (Bul jerde bala teń salmaqlıq hám salmaq orayı haqqındaǵı fizikalıq túsinikti ámelde túsindirip atır).

Siz: “Eger biz bul detaldı alıp taslasaq, ne bolıwı múmkin dep oylaysız?” (Balanı boljawǵa iyteriw).

Juwmaqlap aytqanda, robototexnika hám konstrukciyalaw - mektepke shekemgi bilimlendiriwde innovaciyalıq ortalıq jaratıwdıń eń nátiyjeli jolı. Bul proceste bala passiv tıńlawshıdan aktiv izertlewshi hám dóretiwshige aylanadı. Bul bolsa óz gezeginde intellektuallıq rawajlanǵan, kreativ pikirleytuǵın bárkamal áwladtı tárbiyalawda ayrıqsha áhmiyetke iye.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent: 2019-yil 16-dekabr, O‘RQ-595-son.

2. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim tashkilotining Davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr). – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi, 2022-y.

3. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’limining Davlat standarti. – Toshkent: 2018-y.

Xalilova D.V. Maktabgacha yoshdagi bolalarning texnik ijodkorligini rivojlantirish: Metodik qo‘llanma. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2018. – 120 b.

BALANÍ MEKTEPKE TAYARLAWDA “ZAMANAGÓY ATA-ANA” MODELI

Bektemirova Almagul Koshkarbaevna – Qońırat rayonı 34-sanlı MSHBSH direktorı

Annotaciya: Bul teziste zamanagóy ata-ananıń balanı mektep bilimine tayarlawdaǵı roli talqılanadı. Dástúriy “tek oqıw-jazıwdı úyretiw” modelinen waz keship, balanıń emocionallıq intellekti, sociallıq kónlikpeleri hám psixologiyalıq shıdamlılıǵına itibar qaratatuǵın jańa model usınıs etiledi.

Tayansh túsinikler: Zamanagóy ata-ana modeli, mektepke tayarlıq, emocional intellekt, soft skills, psixologiyalıq adaptaciya, birge islesiw pedagogikası.

Búgingi globallasıw, sanlı texnologiyalar hám jedel sociallıq ózgerisler sharayatında ata-anashılıq túsinigi de túp-tiykarınan jańalanbaqta. Dástúriy "baqlawshı" ata-ana modeliniń ornın zamanagóy, sanalı hám reflektiv ata-ana modeli iyelemekte. Bul modelde tiykarǵı itibar balanıń tek ǵana akademiyalıq bilimlerine emes, al onıń jeke, sociallıq hám emocionallıq rawajlanıwına qaratıladı.

Zamanagóy ata-ana balanıń keleshektegi tabısı tek ǵana bilim dárejesi menen emes, bálki onıń turmıslıq kónlikpeleri, beyimlesiwi hám óz betinshe pikirlewi menen belgilenetuǵının tereń ańlaydı.

Dástúriy kózqarasta bala mektepke barǵansha oqıw, jazıw, sanaw sıyaqlı akademiyalıq kónlikpelerdi iyelewi áhmiyetli esaplanǵan. Biraq zamanagóy pedagogika bul kózqarastı qayta kórip shıqtı.

Házirgi kúnde tómendegi psixologiyalıq tárepler áhmiyetli dep qaraladı:

• balanıń óz mútájliklerin erkin kórsete alıwı;

• jana ortalıqqa beyimlese alıwı;

• stress hám sátsizlikti duris qabil etiwi;

• sociallıq jagdaylarda ózin tutiw qábileti;

Máselen, bala 100 ge shekem sanawdı bilmese de, eger ol muǵallim menen baylanıs qura alsa, óz pikirin ayta alsa hám toparda isley alsa, mektepke tayar esaplanadı. Zamanagóy ata-ana balanıń rawajlanıw procesinde "baqlawshı" emes, al "kórsetkish" sıpatında qatnasadı.

Fasilitator ata-ana: balaǵa tayar juwap bermeydi, mashqalanı qalay sheshiwdi kórsetedi, óz betinshe pikirlewge shaqıradı, qátelerden qorıqpawdı úyretedi. Máselen, úy tapsırmasın ata-ana orınlap beriwdiń ornına, sorawlar beriw arqalı balanı durıs sheshimge alıp keledi. Bul bolsa balada juwapkershilik hám erkinlikti qáliplestiredi.

Zamanagóy dúnyada gadjetler balalar ómiriniń ajıralmas bólegine aylanǵan. Olardı tolıq qadaǵan etiwdiń ornına, durıs hám maqsetli paydalanıwǵa úyretiw áhmiyetli.

Zamanagóy ata-ana:

• bala ushın paydalı qosımshalar hám platformalardı tańlap beredi.

• ekran waqtın qadaǵalaydı, biraq ulıwma sheklemeydi

• Internet qáwipsizligi qaǵıydaların úyretedi;

• cifrlı qurallardan bilim beriw resursi sipatında paydalanadı;

Nátiyjede bala informaciyanı tańlap alıw, analizlew hám onnan nátiyjeli paydalanıw kónlikpesin iyeleydi.

Emocional intellekt - bul óz sezimlerin ańlaw, basqarıw hám basqalardıń sezimlerin túsiniw qábileti. Izertlewler sonı kórsetedi, balanıń ómirdegi jetiskenliginiń úlken bólegi áyne IQ menen baylanıslı.

Zamanagóy ata-ana:

• balanıń sezimlerin biykarlamaydı;

• "jılama," "qorıqpa" sıyaqlı sózlerden qashadı;

• balanıń jaǵdayın túsiniwge háreket etedi;

• empatiya hám húrmet ortalıǵın jaratadı; Máselen, bala qapa bolsa, ata-ana "sen qapa bolıp atırsań, men seni túsinemen" dep onıń sezim-tuyǵısın qabıl etedi.

Bul bala ruwxıy jaqtan salamat bolıp ósiwine járdem beredi.

Modeldiń quramlıq bólimleri (Formula). Zamanagóy ata-ana modelin tómendegi formula arqalı ańlatıw múmkin:

Bul jerde:

• **S (Social skills) -** baylanıs hám socializaciya kónlikpeleri;

• **E (Emotional health) -** ruwxıy turaqlılıq hám emotsionallıq salamatlıq

• **I (Independence) -** gárezsizlik hám ózine-ózi xizmet etiw qábileti;

• **K (Knowledge) -** tiykarǵı bilim hám dúnyaǵa kózqaras

Bul komponentler óz ara únleslikte rawajlanǵanda bala hár tárepleme bárkamal shaxs sıpatında qáliplesedi.

Zamanagóy ata-ana modeliniń qosımsha tárepleri. Birge islesiwge tiykarlanǵan tárbiya - ata-ana mektep penen básekilespeydi, al birge islesedi. Muǵallim hám ata-ana arasındaǵı ashıq qarım-qatnas balanıń rawajlanıwın tezlestiredi.

Shaxsqa baǵdarlanǵan qatnas - hár bir bala siyrek ushırasadı. Zamanagóy ata-ana balanı basqalar menen salıstırmaydı, bálki onıń individual qábiletlerin rawajlandırıwǵa itibar beredi.

Juwapkershilikti basqıshpa-basqısh beriw - bala jasına say kishi wazıypalardı orınlap baradı. Bul onıń ózine bolǵan isenimin arttıradı.

Zamanagóy ata-ana modeli balanı "bilimler qoymaxanası" sıpatında emes, al "úyreniwge tayar, ǵárezsiz hám sociallıq belsendi shaxs" sıpatında tárbiyalawdı názerde tutadı. Bul modelde ata-ana: qadaǵalawshı emes, baǵdarlawshı, buyrıq beriwshi emes, sherik, sınlawshı emes, qollap-quwatlawshı roldi iyeleydi.

Nátiyjede bala tek ǵana mektepke emes, al turmısqa tayar bolıp úlkeyedi. Bunday qatnas jámiyette sanalı, juwapkershilikli hám emotsionallıq jaqtan jetik áwladtı qáliplestiriwge xızmet etedi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Goleman D. "Emotional Intelligence". – Bantam Books, 2005.
2. Abdullayeva Q. "Bolalarni maktabga tayyorlashning pedagogik asoslari". – T.: "O‘qituvchi", 2015.
3. Vygotskiy L.S. "Bola rivojlanishining psixologiyasi". – M., 2004.
4. Mirziyoyeva S.Sh. "Zamonaviy maktabgacha ta’lim va maktab tayyorgarligi metodikasi". – T., 2021.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RIVOJLANISHIDA KOMPYUTER O‘YINLARINING O‘RNI

Aytmuratova Gulxatisha - Ajiniyoz nomidagi NDPI “Maktabgacha ta’lim” yonalishi 1 - kurs talabasi

Kalit so‘zlar: intellektual ko‘nikmalar, qiziqish, pedagogik yondashuv, psixologik rivojlanish, kompyuter o‘yinlari, ijtimoiylashuv, kognitiv rivojlanish, o‘yin faoliyati, mediata’lim.

Tayanısh sózler: intellektuallıq kónlikpeler, qızıǵıwshılıq, pedagogikalıq qatnas, psixologiyalıq rawajlanıw, kompyuter oyınları, sociallasıw, kognitivlik rawajlanıw, oyın iskerligi, mediabilimlendiriw.

Hozirgi davrda axborot jamiyatiga o‘tish jarayoni bolalar rivojlanishining ijtimoiy sharoitlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Zamonaviy bolalarning ijtimoiylashuvi an’anaviy shakllardan farqli ravishda yangi yo‘nalishlarda kechmoqda. Bu o‘zgarishlar, avvalo, yuqori psixik funksiyalar - xotira, diqqat, tafakkur va idrokning o‘ziga xos tarzda shakllanishida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, kommunikativ tajribaning o‘zgarishi ham muhim omil hisoblanadi, chunki bolalar endilikda nafaqat bevosita muloqot orqali, balki raqamli muhit orqali ham axborot almashmoqda. Bu esa o‘yin faoliyatining yangi shakllarini, xususan kompyuter o‘yinlarini keng tarqalishiga olib kelmoqda.

O‘yin faoliyati inson rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. G.Spenser o‘zining “Psixologiya asoslari” asarida o‘yinni ortiqcha energiya nazariyasi asosida tushuntiradi. Uning fikricha, o‘yin inson organizmidagi ortiqcha energiyaning namoyon bo‘lishidir.

Biroq bu yondashuv o‘yin faoliyatining barcha jihatlarini to‘liq tushuntirib bera olmaydi. Chunki o‘yin faqat energiya sarfi emas, balki murakkab ijtimoiy va psixologik jarayon hisoblanadi.

L.Vigotskiy o‘yin faoliyatini bola rivojlanishining yetakchi omili sifatida baholaydi. Uning ta’kidlashicha, bola o‘yin jarayonida real vaziyat o‘rniga xayoliy vaziyatni yaratadi va shu asosda ijtimoiy rollarni o‘zlashtiradi.

D.Elkonin esa o‘yinni ijtimoiy tabiatga ega faoliyat sifatida izohlaydi. Unga ko‘ra, o‘yin orqali bola jamiyatdagi rollarni o‘zlashtiradi va shaxs sifatida shakllanadi.

Zamonaviy jamiyatda o‘yin faoliyatining yangi turi — kompyuter o‘yinlari keng tarqaldi. A.Vishnevskiy kompyuter o‘yinlarini an’anaviy o‘yinlarning davomchisi sifatida baholaydi. Ularning asosiy o‘xshashligi — o‘yin jarayonining o‘zi zavq bag‘ishlashi, natijadan ko‘ra jarayon muhimligi bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, kompyuter o‘yinlari quyidagi jihatlari bilan farqlanadi:

- virtual muhitning ustunligi;
- individual o‘ynash imkoniyati;
- yuqori darajadagi vizual va interaktivlik.

N. Polutina kompyuter o‘yinlarini shaxsning ichki tuzilmasiga ta’sir ko‘rsatuvchi faoliyat sifatida baholaydi. Ularning ta’siri natijasini oldindan to‘liq bashorat qilish qiyin.

Kompyuter o‘yinlarining bola rivojiga ta’siri.

Kompyuter o‘yinlari bolalarning kognitiv rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Jumladan, ularda rejalashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, mantiqiy fikrlashni shakllantiradi, qaror qabul qilish qobiliyatini oshiradi, natijani oldindan prognoz qilishga o‘rgatadi.

Bundan tashqari, kompyuter o‘yinlari orqali bolalarda umumlashtirish, tasniflash, tahlil qilish kabi muhim tafakkur operatsiyalari shakllanadi. Shuningdek, o‘yin jarayonida bolaning o‘z-o‘zini baholashi oshadi, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi kuchayadi.

Zamonaviy ta’lim tizimini axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Kompyuter texnologiyalari maktabgacha ta’lim tizimiga ham bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Kompyuter o‘yinlari - bilimlarni mustahkamlash, individual ishlash, interaktiv o‘qitish uchun samarali vosita hisoblanadi. Bundan tashqari, mediata’lim konsepsiyasiga ko‘ra, bola media muhitining faol subyekti sifatida shakllanadi va axborot bilan ongli ishlashni o‘rganadi.

Kompyuter texnologiyalaridan foydalanishda sog‘liqni saqlash muhim ahamiyatga ega. Shu sababli mashg‘ulotlardan so‘ng ko‘z uchun maxsus mashqlarni bajarish tavsiya etiladi:

- ko‘zlarni yumib-ochish;
- turli yo‘nalishlarda qarash;
- tez-tez pirpiratish;
- uzoqqa qarab dam berish.

Bu mashqlar bolalarning ko‘rish qobiliyatini saqlashga yordam beradi.

Axborot makoni bugungi kunda shaxs ijtimoiylashuvining muhim omiliga aylandi. Uy sharoitida raqamli qurilmalardan foydalanish bolalarning axborot savodxonligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois pedagoglar oldida quyidagi vazifalar turadi: bolani xavfsiz axborot muhitiga yo‘naltirish, raqamli madaniyatni shakllantirish, ijtimoiy muloqotni saqlab qolish.

Xulosa qilib aytganda, axborot jamiyati sharoitida kompyuter o‘yinlari maktabgacha yoshdagi bolalar rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ular bolalarning kognitiv va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, ammo bu jarayonni to‘g‘ri tashkil etish muhimdir. Shu sababli pedagoglar va ota-onalar tomonidan kompyuter o‘yinlaridan maqsadli va me’yoriy foydalanishni ta’minlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xasanboeva O. “Maktabgacha pedagogika” T.:2018.-147 b
2. Jumasheva G., va boshq. “Mektepke shekemgi tálimde STEAM texnologiyaları” // Metodikalıq qollanba “Avangard-Baspa”., N.: 2025 57 bet

MEKTEPKE SHEKEMGI TÁLIMDE AXBOROT TEXNOLOGIYALARINAN PAYDALANIWDIŃ ÁHMIYETI

I.Taspolatov - Ájiniyaz atındağı Nókis mámleketlik pedagogika institutı Sanlı texnologiyalar, informatika hám robototexnika kafedrası assistent oqıtıwshısı

Annotaciya: Bul izertlew jumısında mektepke shekemgi tálim sistemasında informacion-kommunikaciya texnologiyalarınan (AKT) paydalanıwdıń pedagogikalıq múmkinshilikleri analiz etilgen. AKTniń balalar kognitiv processlerin jedellestiriw, logikalıq pikirin rawajlandırıw hám tálim sapasın modernizaciyalawdağı ornı ilimiy tárepten tiykarlap berilgen. Sonıń menen birge, AKTniń tálim procesine integraciya islewdiń metodikalıq shárt-shárayatları kórsetilgen.

Gilt sózler: mektepke shekemgi tálim, AKT, multimedia, didaktik oyınlar, kognitiv rawajlanıw, pedagogikalıq texnologiya, , interaktivlik.

Kirisiw: Búgingi kúnde jáhán tálim mákanında cifrlı texnologiyalar tálim mazmunın bayıtıwdıń tiykarǵı drayverine aylandı. Mektepke shekemgi tálim jası insan shaxsınıń tiykarı qoyılatuǵın dáwir bolıp, bul basqıshta informaciya texnologiyalarınan aqılǵa say paydalanıw balalardıń intellektuallıq hám emocional rawajlanıwına xızmet etedi. Ózbekstan Respublikasında mektepke shekemgi tálim sistemasın 2030-jılǵa shekem rawajlandırıw koncepciyasında da oqıw-tárbiya procesine zamanagóy pedagogikalıq hám informaciya texnologiyaların qollanıw etiw ústin turatuǵın jónelis retinde belgilengen.

Tiykarg‘i bólim: Mektepke shekemgi tálimde AKTdan paydalanıw dástúriy tálim usılların biykar etpegen halda, olardı jańa didaktik múmkinshilikler menen bayıtadı. Izertlewler nátiyjesinde AKT integraciyasınıń tómendegi ústin turatuǵın tárepleri anıqlandı:

Biliw aktivligin asırıw hám kórinisli etiw: Mektepke shekemgi jastaǵı balalarda kórgezbeli-obrazlı oylaw ústinlik etedi. Multimedia quralları (video, animatsiya, 3 D modeller) maǵlıwmattı dinamikalıq jaǵdayda usınıs etip, balada " barlıqtı sezim qılıw" effektin jaratadı. Bul bolsa ózlestiriw procesin mexanik yadlawdan sanalı túsiniwge ótkeredi.

Interaktiv didaktik ortalıq: Zamanagóy interaktiv oyınlar baladan tekǵana baqlawdı, bálki processte tikkeley qatnasıwdı talap etedi.

Mısalı, " sanalı" doskalar yamasa planshetler ushın arnalǵan logikalıq tapsırmalar balada mashqalalı jaǵdaydı ǵárezsiz sheshiw kónlikpesin qáliplestiredi.

Sóylew jáne social kónlikpelerdi rawajlandırıw : AKT quralları, atap aytqanda, dawıslı ertekler, fonematik esitiw qábiletin rawajlandırıwshı programmalar sóylew kemshiliklerin saplastırıwda hám sózlik baylıǵın asırıwda joqarı nátiyjelililik kórsetip atır. virtual sayaxatlar bolsa balalardıń social dúnyaqarasın keńeytiredi.

Tárbiyashınıń metodikalıq sheberligi : Cifrlı texnologiyalar tárbiyashiniń oqıw materialların individual mútájliklerge qaray tabaqalanıwtırıw imkaniyatın beredi. Bul sabaqqa tayarlıq waqtın tejew menen birge, shınıǵıwlardıń ilimiyligi hám estetikalıq tartımlılıǵın, balalarg‘a maglivmatti tez jetkerip beriwdi támiyinleydi.

Analiz hám talqilaw: AKTniń unamlı tárepleri menen birge, odan paydalanıwda pedagogikalıq hám psixologiyalıq normalarǵa ámel qılıw zárúr. Birinshiden, texnologiya balanıń janlı sóylesiwdi sheklep qoymawi kerek. Ekinshiden, sanitar qaǵıydalarina kóre, 5-6 jaslı balalar ushın kompyuter yamasa ekran qarama-qarsı waqıt háptelik 2-3 márteden aspawı hám hár bir shınıǵıw 10-15 minuttan kóp dawam etpewi kerek. Sonıń menen birge, tárbiyashınıń AKT-kompetentligi máselesi aktual bolıp, ol tekǵana texnikanı isletiwdi, bálki sapalı cifrlı kontentti tańlaw alıw sheberligin de óz ishine aladı.

Juwmaq: Mektepke shekemgi tálim shólkemlerinde AKTdan sistemalı paydalanıw balalardıń mektep tálimine tayarlıq dárejesin sapa jaǵınan jańa basqıshqa kóteredi. Texnologiyalar balalardıń kreativligin asırıw, logikalıq izbe-izlikti qáliplestiriw hám zamanagóy informaciya ortalıǵına iykemlesiwine járdem beredi. Keleshekte milliy pedagogikalıq qádiriyatlarımızǵa sáykes keletuǵın interaktiv programmalıq támiynatlardı jaratıw hám olardı tálimge keń engiziw tarawdıń rawajlandiriwdiń zárúrli faktorı bolıp qaladı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar :

1. Ózbekstan Respublikasınıń " Mektepke shekemgi tálim hám tárbiya tuwrısında" Gey Nızamı.-Tashkent, 2019.
2. Ishmuhammedov R., Abdukadirov A., Perdeev A. " Tálimde innovciyalıq texnologiyalar".-T. :" Uqıp", 2010.
3. Robert J. Shelno. " 1 Óner hám Ilim-dan Oqıtıw".-ASCD, 2007.
4. Sh. M. Mirziyoyevniń bilimlendiriw tarawındaǵı lekciyaları
5. Xalıq aralıq tájiriybe (YUNESCO hám UNICEF usınısları).
6. "Dáslepki qádem" mektepke shekemgi tálim mákemesiniń mámleket oqıw programması.- T., 2018.

XALQ ERTAKLARI VOSITASIDA BOLALARDA IJOBIY XARAKTER HISLATLARINI VA NUTQ BOYLIGINI SHAKLLANTIRISH

M.A.Polatbayeva - Ajiniyoz nomidagi NDPI maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda xalq ertaklarining maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar ma’naviy-axloqiy tarbiyasidagi roli hamda lug‘at boyligini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan. Ertaklar orqali bolalarda mardlik, to‘g‘riso‘zlik va hamdardlik kabi fazilatlarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Xalq ertaklari, ijobiy xarakter, nutq o‘stirish, og‘zaki ijod, tarbiya, lug‘at boyligi, qahramonlik, didaktik vosita.

Bugungi kunda barkamol avlodni tarbiyalash masalasi ta’lim tizimining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi davrda yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini boyitish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, xalq og‘zaki ijodining muhim qismi bo‘lgan ertaklar bolalar tarbiyasida beqiyos o‘rin tutadi.

Xalq ertaklari — bu asrlar davomida xalqimizning hayotiy tajribasi, donishmandligi, orzu-umidlari hamda axloqiy mezonlarini o‘zida mujassam etgan bebaho ma’naviy merosdir. Ular orqali yaxshilik va yomonlik, halollik va insofsizlik, mehnatsevarlik va dangasalik kabi tushunchalar sodda, tushunarli va obrazli tarzda bolalar ongiga singdiriladi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ertaklar eng samarali tarbiyaviy vositalardan biri bo‘lib, ular orqali bola atrof-muhitni anglaydi, voqea-hodisalarni tahlil qilishni o‘rganadi hamda o‘z xulq-atvorini shakllantiradi.

Ertaklar bolaning nafaqat axloqiy tarbiyasiga, balki uning nutqiy rivoji, tasavvuri, fantaziyasi va ijodiy fikrlash qobiliyatining shakllanishiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Ertak qahramonlari orqali bola o‘zini turli vaziyatlarda tasavvur qiladi, muammolarni hal etish yo‘llarini izlaydi va ijobiy xulq namunalarini o‘zlashtiradi. Shu bois ertaklar bolalar uchun shunchaki ko‘ngilochar vosita emas, balki hayot maktabi vazifasini bajaradi.

Ijobiy xarakter hislatlarini shakllantirish. Ertaklar bolalarda ijobiy shaxsiy sifatlarni shakllantirishda eng samarali pedagogik vositalardan biri hisoblanadi. Ertaklardagi qahramonlar (masalan, Zumrad, Botir, To‘g‘riboy kabi obrazlar) bolalar uchun jonli namuna vazifasini bajaradi. Bola ertak tinglash jarayonida o‘zini qahramon o‘rniga qo‘yib ko‘radi, uning harakatlarini baholaydi va xulosa chiqaradi.

Shuningdek, ertaklar orqali bolalarda ijtimoiy xulq-atvor me’yorlari ham shakllanadi. Kattalarga hurmat, do‘stlarga sadoqat, yordamsevarlik, mehnatsevarlik kabi fazilatlar ertak mazmuni orqali tabiiy ravishda singdiriladi.

Ertaklar bolaning nutqiy rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Ularning tili xalqona, sodda, ammo obrazli va ta’sirchan iboralarga boy bo‘lib, bola nutqini turli yo‘nalishlarda rivojlantirish imkonini beradi.

Birinchidan, ertaklar bolaning lug‘at zaxirasini boyitadi. Ertaklarda uchraydigan turli iboralar, o‘xshatishlar, maqolga yaqin ifodalar hamda ayrim arxaik so‘zlar bolaning yangi so‘zlarni o‘zlashtirishiga yordam beradi. Bu esa uning nutqining boy va rang-barang bo‘lishiga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, ertaklar orqali bog‘lanishli nutq shakllanadi. Bola ertakni qayta hikoya qilish jarayonida voqealarni ketma-ketlikda bayon etishni, sabab-oqibat bog‘liqligini tushuntirishni va fikrini izchil ifodalashni o‘rganadi. Bu ko‘nikma keyingi ta’lim bosqichlarida ham muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, ertaklar nutqning intonatsion va ifodaviy jihatlarini rivojlantiradi. Bola turli qahramonlar roliga kirib gapirish jarayonida ovoz tembrini, ohangini o‘zgartirishni o‘rganadi. Natijada nutq yanada jonli, ta’sirchan va ifodali bo‘lib boradi.

Ertakdan samarali foydalanish uchun uni shunchaki o‘qib yoki aytib berish bilan cheklanib qolmaslik zarur. Tarbiyachi yoki ota-ona ertak asosida bolani faol fikrlashga undashi lozim. Masalan, quyidagi savollar orqali bolaning tafakkuri va nutqiy faolligini oshirish mumkin:

- “Agar sen qahramon o‘rnida bo‘lsang, nima qilarding?”
- “Qahramon nega aynan shunday yo‘l tutdi deb o‘ylaysan?”
- “Ertakning oxirini boshqacha tugatish mumkinmi?”

Bunday savollar bolaning mustaqil fikrlashini, tahlil qilish qobiliyatini va ijodiy yondashuvini rivojlantiradi. Shu bilan birga, u o‘z fikrini erkin bayon qilishga o‘rganadi.

Xulosa qilib aytganda, ertaklar bolalarning nafaqat axloqiy, balki nutqiy va intellektual rivojlanishida ham muhim vosita bo‘lib, ulardan to‘g‘ri va maqsadli foydalanish yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Xalq ertaklari bolalar dunyoqarashini kengaytirish bilan birga, ularning ma’naviy qiyofasini belgilovchi asosiy omildir. Ertaklar vositasida tarbiyalangan bolada milliy g‘urur, to‘g‘riso‘zlik va boy nutq madaniyati shakllanadi. Bu esa kelajakda komil inson bo‘lib yetishishning mustahkam poydevoridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bolalar adabiyoti (antologiya). - Toshkent: "O‘qituvchi", 2010.

2. X.Yo‘ldosheva. "Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish metodikasi". - T.: 2015.

3. O‘zbek xalq ertaklari (3 jildlik). - Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti.

MAKTABGACHA TA’LIMDA OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIKDA MASOFAVIY TA’LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

S. O'.Jumaboyeva – Ajiniyoz nomidagi NDPI maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 1 v - kurs talabasi

V.Sh.Seytmuratova - Ajiniyoz nomidagi NDPI maktabgacha ta’lim kafedrasi assistent - o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisda maktabgacha ta’lim jarayonida masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari va ota-onalar bilan hamkorlikni mustahkamlashdagi roli tahlil qilinadi. Zamonaviy raqamli resurslarning bola rivojlanishiga ta’siri va tarbiyachi-ota-ona muloqotini yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Masofaviy ta’lim, raqamli resurslar, MTT, ota-onalar bilan hamkorlik, AKT, media-savodxonlik, interaktiv metodlar.

Bugungi kunda ta’lim tizimini raqamlashtirish global tendensiyaga aylandi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning har tomonlama rivojlanishida faqatgina bog‘cha mashg‘ulotlari bilan cheklanib qolish yetarli emas. Ayniqsa, masofaviy ta’lim resurslari ota-onalar va ta’lim muassasasi o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlovchi muhim ko‘prik vazifasini o‘tamoqda. Mazkur mavzuning dolzarbligi ota-onalarning pedagogik jarayondagi ishtirokini masofaviy platformalar orqali faollashtirish zarurati bilan belgilanadi.

Maktabgacha ta’limda masofaviy resurslardan foydalanish bugungi kunda ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, ota-onalar bilan hamkorlikni mustahkamlash, bolalarning uzluksiz ta’lim olishini ta’minlash hamda tarbiyaviy jarayonni oilaviy muhit bilan uyg‘unlashtirishda raqamli texnologiyalar katta imkoniyat yaratadi. Masofaviy resurslar nafaqat qulaylik, balki ta’lim sifatini oshirishga ham xizmat qiladi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ota-onalarga farzandining ta’lim jarayonini istalgan joy va vaqtda kuzatib borish imkonini beradi. Maxsus mobil ilovalar, Telegram guruhlari, elektron kundaliklar va ta’lim platformalari orqali ular:

- kunlik mashg‘ulotlar rejasi bilan tanishadilar;
- pedagog tavsiyalarini o‘z vaqtida oladilar;
- bolaning yutuqlari va qiyinchiliklari haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar;
- uy sharoitida bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalarni kuzatadilar.

Bunday ochiqlik ota-onalarda ta’lim jarayoniga nisbatan ishonchni oshiradi va ularni faol ishtirokchiga aylantiradi. Natijada "bog‘cha–oila" hamkorligi yanada mustahkamlanadi.

Bola sog‘lig‘i, ob-havo yoki boshqa sabablarga ko‘ra maktabgacha ta’lim tashkilotiga bora olmagan holatlarda masofaviy resurslar uning ta’limdan ortda qolmasligiga yordam beradi. Oldindan tayyorlangan video-darslar, audio ertaklar, interaktiv topshiriqlar va virtual mashg‘ulotlar orqali bola uy sharoitida ham rivojlanishda davom etadi.

Bu jarayon quyidagi afzalliklarni beradi:

- o‘quv dasturidan uzilib qolmaslik;
- mustaqil faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- oilaviy ishtirokni kuchaytirish;
- bolaning qiziqishini saqlab qolish.

Hamkorlikning samarali shakllari

Masofaviy resurslardan foydalanishda pedagog, ota-ona va bola o‘rtasidagi muloqot alohida ahamiyat kasb etadi. Quyidagi shakllar eng samarali hisoblanadi:

Tarbiyachi, psixolog, logoped va boshqa mutaxassislar tomonidan ota-onalar uchun tayyorlangan qisqa videolar katta amaliy ahamiyatga ega. Ushbu videolarda:

- bolalar bilan to‘g‘ri muloqot qilish;
- nutqni rivojlantirish mashqlari;
- emotsional qo‘llab-quvvatlash usullari;
- uy sharoitida o‘yin tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Bu ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshiradi.

Elektron didaktik o‘yinlar bolaning yosh xususiyatlariga mos holda ishlab chiqiladi. Ranglarni ajratish, shakllarni tanish, mantiqiy bog‘lanishlarni topish, sanash va taqqoslashga oid mashqlar bolalarning intellektual rivojlanishiga xizmat qiladi.

Eng muhimi, bu o‘yinlarda ota-onaning ishtiroki bolada:

- o‘ziga bo‘lgan ishonchni;
- ijtimoiy muloqotni;
- hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Masofaviy resurslardan foydalanishda eng muhim jihatlardan biri — bolaning sog‘lig‘ini asrashdir. Mutaxassislar maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ekran qarshisida bo‘lish vaqtini qat’iy nazorat qilishni tavsiya etadilar.

Tavsiya etiladigan me’yorlar:

- 3–4 yosh: kuniga 15–20 daqiqa;
- 5–6 yosh: kuniga 20–30 daqiqa;
- 6–7 yosh: kuniga 30–40 daqiqa.

Mashg‘ulotlar oralig‘ida jismoniy faollik, ko‘z mashqlari va ochiq havodagi sayr tashkil etilishi zarur.

Masofaviy ta’lim resurslari maktabgacha ta’limda an’anaviy ta’limni inkor etmaydi, balki uni boyitadi. Ota-onalar bilan tizimli ravishda raqamli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bolaning maktab ta’limiga tayyorgarlik darajasini oshiradi va oiladagi pedagogik muhitni sog‘lomlashtiradi. Samaradorlikni oshirish uchun ota-onalarning ham media-savodxonligini muntazam oshirib borish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida"gi Qonuni.

2. Groshev A.S. "Axborot texnologiyalari va ta’lim samaradorligi". - T., 2022.

Umarova Sh.A. "Maktabgacha ta’limda innovatsion faoliyat". O‘quv qo‘llanma. - T., 2021.

MEKTEPKE SHEKEMGI BILIMLENDIRIW SHOLKEMLERINDE EKOLOGIYALIQ TARBIYA

Seytekova Z.B. NMPIb Mektepke shekemgi tálim kafedrası assistent oqıtıwshısı

Tayanish tusinikleri: Tabiyat ekologiya talim tarbiya qorshagan ortaliq tabiyat hadiyseleri

Таянч тушунчалар: Табиат, экология, таълим-тарбия, атроф-муҳит, табиат ҳодисалари.

Key Concepts: Nature, ecology, education, environment, natural phenomena.

Ozbekstan respublikasi prezidenti tarepinen shigarilgan bir qansha qararlarda tabiyatti qorgawina tiyisli jumislardi keneytiriw ham búgingi kúnde dúnyadaǵı ekologiyalıq mashqalalardı sheshiwde, ásirese, jaslardıń ekologiyalıq mádeniyatın arttırıw, hár bir insanda qorshaǵan ortalıqqa abaylı múnásibette bolıw, mámlekettiń biybaha tábiyatı, tábiyǵıy baylıqların keleshek áwladlar ushın qásterlep saqlaw sezimin qáliplestiriw, ekologiyalıq jaǵdaydı jaqsılaw hám qorshaǵan ortalıqqa unamsız tásirdiń aldın alıw eń áhmietli wazıypalardan biri esaplanadı.

